

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

RO‘YXATGA OLINDI:

№ _____

2019-yil _____

«TASDIQLAYMAN»

O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor:

prof. SOLIYEV A.

2019-yil _____

FILOLOGIYA FAKULTETI

**O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTINI O‘QITISH METODIKASI
KAFEDRASI**

O‘ZBEK TILI

FANIDAN O‘QUV-USLUBIY MAJMUA

1-kurs rus guruhlari (kechki) talabalari uchun

Ta’lim yo‘nalishi: 5130100 – Matematika
5140500 – Kimyo

Samarqand – 2019

“O‘zbek tili” fanidan O‘UM annotatsiyasi

“O‘zbek tili” fanidan tuzilgan mazkur o‘quv-uslubiy majmua Samarqand davlat universitetining 5130100 – Matematika, 5140500 – Kimyo yo‘nalishlarining birinchi kurs rus guruhlar talabalari uchun mo‘ljallangan. “O‘zbek tili” fani O‘zR OO‘MTV tomonidan 2019/2020-o‘quv yili uchun mo‘ljallangan o‘quv rejasiga binoan birinchi semestr 34 soat, ikki semestr 34 soatdan – jami 68 soat amaliy mashg‘ulotlar va 76 soatlik mustaqil mashg‘ulotlar mavzularini o‘z ichiga oladi. Bu fan talabalarning o‘rta umumta’lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida o‘zbek tilidan o‘zlashtirgan bilimlarini qanday usullar yordamida va qay yo‘sinda boyitish, kengaytirish, ularning malaka va ko‘nikmalarini mustahkamlash, o‘z bilim va tushunchalarini amalda qo‘llay bilishlariga ko‘maklashishni nazarda tutadi.

“O‘zbek tili” fanidan tayyorlangan mazkur o‘quv-uslubiy majmua fanning namunaviy dasturi, fan bo‘yicha ishchi-o‘quv dasturi, yillik kalendar reja, mashg‘ulotning xronologik xaritasi, texnologik xarita, texnologiya modeli, darslik, uslubiy tavsiyalar, amaliy mashg‘ulotlar ishlanmalarini qamrab oladi.

TUZUVCHILAR:

Mirzayev I.K. – SamDU Amaliy tilshunoslik, o‘zbek tili va adabiyoti o‘qitish metodikasi kafedrasini mudiri, f.f.d., professor.

Boltayev M. – SamDU filologiya fakulteti Amaliy tilshunoslik, o‘zbek tili va adabiyoti o‘qitish metodikasi kafedrasini dotsenti.

Muhiddinova B.M. – SamDU Amaliy tilshunoslik, o‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi kafedrasini dotsenti, f.f.n..

Qodirova B.I. - SamDU Amaliy tilshunoslik, o‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi kafedrasini assistenti.

Kafedra mudiri:

prof.Mirzayev I.K.

Fakultet dekani:

prof. Eltazarov J.

Fanning o‘quv-uslubiy majmuasi tartibi va mustaqil ish turlari tarkibi

1. O‘quv reja.
2. Ishchi o‘quv reja.
3. Namunaviy o‘quv dasturi.
4. Ishchi-o‘quv dasturi.
5. Kalendar ish rejasi.
6. Ta’lim texnologiyasi.
7. Mashg‘ulotlarning pedagogik texnologiyasi.
8. Mashg‘ulotlarning texnologik xaritasi.
9. Nazorat materiallari. Topshiriqlar mazmuni.
10. JN, YN uchun testlar.
11. Yozma ish va og‘zaki nazorat savollari, variantlar.
12. O‘quv materiallari. Mashqlar to‘plami.
13. Amaliy mashg‘ulotlarning ishlanmalari, ularni o‘tkazish va qo‘llash bo‘yicha uslubiy tavsiyalar.
14. Tarqatma materiallar. Adabiyotlar ro‘yxati. Baholash mezonlari
15. Mustaqil ish mavzulari va ularni bajarish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar.
16. Glossariy.
17. Ilovalar.

Adabiyotlar

1. Boltayev M. Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi va imlosi. – T.: O‘qituvchi, 2003.
2. Boltayev M. “O‘zbek tili”dan rus filologiyasi yo‘nalishi taalabalari uchun uslubiy tavsiyalar. – Camarqand: SamDU nashriyoti. 2006.
3. Boltayev M. Davlat tilida ish yuritish, hujjatchilik va atamashunoslik. – Camarqand: SamDU nashriyoti. 2007.
4. Eltazarov Jo‘liboy, Donaboyeva Zarnigor. O‘zbekcha so‘zlashgich dialog matnlari. Uzbek Phrase Book-texts of the dialogues. Tokio. 2013. 1.
5. Eltazarov Jo‘liboy, Donaboyeva Zarnigor. O‘zbekcha o‘qish kitobi. Reader of the Uzbek Language. Tokio. 2013. 2.
6. Eltazarov Juliboy. Uzbekçe ogreniyoruz. Istanbul. 2010.
www.iqkultursanat.com
7. Boltayev M. Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi va imlosi. Elektron darslik. www.samdu.uz/files/veb/index.htm
8. Mirzayev I., Boltayev M. O‘zbek tili. Darslik. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.
9. Mirzayev I., Boltayev M. O‘zbek tili. Elektron darslik.
www.samdu.uz/files/veb/index.htmwww.thinsan.com
10. www.dersimiz.com www.altinmiras.com www.zoyonet.uz

FANNING O'QUV-USLUBIY MAJMUASI HAQIDA

Amaliy mashg'ulotlar ishlanmasi (mavzu, reja, darsning maqsadi, tayanch iboralar, dars o'tish usuli, yangi pedagogik texnologiyalar: an'anaviy, aqliy hujum, klaster va h.; dars o'tish vositalari, kompyuter texnologiyalari tatbiqi: slaydlar, animatsiyalar, elektron darslik, elektron ma'ruza, elektron qo'llanma, elektron laboratoriya ishi, giperssilklar va h.; darsning qisqacha mazmuni, sinov savollari, adabiyotlar).

Mustaqil ta'lim ishlanmasi (nostandart topshiriq, ko'rgazmali material, ma'ruzalar matni, amaliy mashg'ulotlar topshiriqlari, konspektlar, kurs ishlari, referatlar...).

Fanning axborot manbayi va uning ta'minoti (darsliklar, o'quv qo'llanmalari, uslubiy qo'llanmalar, ma'ruzalar matni, ma'lumotlar to'plami va banki, ilmiy-ommabop nashrlar, INTERNET tarmog'iga tegishli ma'lumotlar, avval bajarilgan ishlar, monografiyalar, buni ta'minlovchi vositalar: kafedra fondi, kutubxonalar, muzeylar, tarmoq muassasalari, ishlab chiqarish korxonalari, kompyuter texnikasi va texnologiyasi...).

Nazorat ishlari ishlanmasi mustaqil bilim, joriy nazorat, yakuniy nazorat, bularga: savollar, testlar, yozma ish variantlari va h.).

MUSTAQIL ISH TURLARI

1. Takrorlash va mashq qilish. Dars mashg'ulotlari davomida va auditoriya soatlarida olingan bilimlarni takrorlash, tahlil qilish, qayta ishlab chiqarish, chuqurlashtirish, mustahkamlash, eslab qolish, amaliy mashg'ulotlar topshiriqlarini bajarish uchun ko'nikma hosil qilish, malakalarini shakllantirish va h.

2. Yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtirish. O'quv dasturiga binoan auditoriya darslari uchun mo'ljallanmagan yangi mavzularni o'zlashtirish, fan mavzulari bo'yicha axborot manbalarini izlab topish, ular ustida ishlash, konspektlashtirish yoki referat tarzida rasmiylashtirish va o'zlashtirish, fikrlarni izchil bayon qilish bo'yicha ko'nikma va malakani shakllantirish, mustaqil ta'lim olish metodlarini o'rganish va h.

3. Ijodiy xarakterdagi – izlanish talab qilinadigan ishlarni bajarish, muammoli vaziyatlarni aniqlash, tahlil qilish, mustaqil ravishda qaror qabul qilish ko'nikmalarini egallash, masalani hal qilishga ijodiy yondashishni o'rganish, test va topshiriqlar tuzish, ko'rgazmali vositalar tayyorlash, ilmiy xarakterdagi ishlanmalarni talab qiladigan masalalarni hal qilish usullari bilan tanishish va h.

MUSTAQIL TA'LIM

Mustaqil ishga rahbar tayinlanadi.

Mustaqil ish jadvali tuziladi.

Mustaqil ish bo'yicha konsultatsiya soatlarini qayd etish jurnali tutiladi.

Mustaqil ishda bajarilgan topshiriqlarning yozma bayoni (ma'ruzalar, referatlar, konspektlar, aamaliy mashg'ulotlar daftari, nazorat ishlari, ijodiy ish namunasi, taqrizlar, maqolalar).

Mustaqil ishni bajarish uchun shart-sharoit yaratiladi (kutubxona, INTERNET, kompyuter, ishlab chiqarish korxonasi bilan shartnoma).

Mustaqil ish himoya qilinadi va kafedrada saqlanadi.

Mustaqil ish bahosi jurnalga qayd etiladi.

Mustaqil ishning bajarila borish jarayoni va yakuni kafedra yig'ilishida muhokama qilinadi.

Yuqori bahoga loyiqlari ma'naviy va moddiy rag'batlantirish uchun tavsiya etiladi.

Mustaqil ishlar joriy nazoratlarga ajratilgan ballar doirasida baholanadi.

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
Samarqand davlat universiteti**

“TASDIQLAYMAN”

O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor:
prof.SOLEYEV A.

2019-yil _____

FILOLOGIYA FAKULTETI

Amaliy tilshunoslik, o‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi kafedrası

**O‘ZBEK TILI
FANINING
ISHCHI-O‘QUV DASTURI**

Bilim sohalari: 100000 – Gumanitar

Ta’lim sohalari: 130000 – Matematika fanlar
140000 – Tabiiy fanlar

Ta’lim yo‘nalishi: 5130100 – Matematika
5140500 – Kimyo

1-kurs rus guruhları (kechki) talabalari uchun
Umumiy yuklamasi: 144 soat
Amaliy mashg‘ulot: 68 soat
Mustaqil ish: 76 soat

Samarqand – 2019

“O‘zbek tili” fanining ishchi o‘quv dasturi ishchi o‘quv reja va o‘quv dasturiga muvofiq ishlab chiqildi.

TUZUVCHILAR:

Mirzayev I.K. – SamDU Amaliy tilshunoslik, o‘zbek tili va adabiyoti o‘qitish metodikasi kafedrasini mudiri, f.f.d., professor.

Boltayev M. – SamDU filologiya fakulteti Amaliy tilshunoslik, o‘zbek tili va adabiyoti o‘qitish metodikasi kafedrasini dotsenti.

Muhiddinova B.M. – SamDU Amaliy tilshunoslik, o‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi kafedrasini dotsenti, f.f.n..

Qodirova B.I. - SamDU Amaliy tilshunoslik, o‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi kafedrasini assistenti.

TAQRIZCHILAR:

Turniyozov N.Q. – SamDCHTI Tilshunoslik va adabiyotshunoslik kafedrasini professori, f.f.d.

Pardayev A. – SamDU O‘zbek tilshunosligi kafedrasini mudiri, f.f.d.

“O‘zbek tili” fanining ishchi o‘quv dasturi Amaliy tilshunoslik, o‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi kafedrasini a‘zolarining 2019-yil ____-____dagi yig‘ilishida muhokama etilgan va fakultet ilmiy va uslubiy kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan (____-bayonnoma).

Kafedra mudiri:

prof.Mirzayev I.K.

“O‘zbek tili” fanining ishchi-o‘quv dasturi filologiya fakulteti kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2019-yil ____-____-bayonnoma).

Fakultet kengashi raisi:

prof. Eltazarov J.

Fakultet o‘quv-uslubiy kengashi raisi

prof. Abdiyev M.

Kelishildi:

O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i:

dots.Aliqulov B.

Kirish

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida", "Davlat tili haqida"gi qonunlari hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da respublikadagi oliy ta'lim muassasalarida o'zbek tilini davlat tili sifatida o'qitishni yanada takomillashtirish ko'zda tutilgan. Ushbu konsepsiya ta'lim rus va tojik tillarida olib boriladigan oliy ta'lim muassasalarida davlat tilini o'rgatish uchun me'yoriy hujjat sanaladi.

Ta'lim rus va boshqa mahalliy tillarda olib boriladigan oliy ta'lim muassasalarida o'zbek tilini o'qitish ijtimoiy fanlar ichida muhim o'rin tutadi. Boshqa millat vakillarining davlat tili hisoblangan o'zbek tilini puxta egallashlari, milliy, madaniy qadriyatlarni o'rganish va ularga hurmat bilan munosabatda bo'lishlarini takozo etiladi. O'zbekistonda yashab, o'qish va ishlash jarayonida mahalliy millat vakillari bilan teng munosabatda bo'lib, barcha sohalarda erkin fikr almashish hamda mutaxassisliklari doirasida davlat tilida ish yuritish uchun o'zbek tilini yetarli darajada egallashlari ko'zda tutiladi.

Ta'lim rus va boshqa mahalliy tillarda olib boriladigan oliy ta'lim muassasalarining birinchi bosqichida o'zbek tili o'quv fani bo'yicha shu bosqich uchun belgilangan nutqiy ko'nikmaga, leksik-grammatik bilimlarga ega bo'lishlari, mustaqil ravishda o'zbek tilida fikr yuritish uchun til materiali va vositalaridan bakalavriat bosqichi hajmida va ungacha bo'lgan davrda o'rganilgan materiallar hajmida to'g'ri va mustaqil foydalana bilishlariga erishishlari lozim. Bo'lajak mutaxassisning kasbiy layoqati va mahorati hozirgi davrda o'z kasbi doirasida qo'llanadigan soha terminlarini, davlat tilida ish yuritish malakasini, nutq madaniyati asoslari hamda notiqlik me'yorlarini ham bilishni taqozo etmoqda. Shunga ko'ra, oliy ta'lim muassasasi ixtiyoridagi tanlov fanlari va ichki imkoniyatlarga asoslangan holda "O'zbek tili" fanidan quyidagi maxsus kurslarni joriy etish tavsiya etiladi: 1. Davlat tilida ish yuritish. 2. Mutaxassislik tili. 3. Nutq madaniyati va notiqlik asoslari.

"O'zbek tili" fanining asosiy mazmunida quyidagi talablar ko'zda tutiladi:

1. O'zbek tilida erkin muloqotga kirishish va ish yuritish malakasini egallash (nutqiy kommunikativ malaka).

2. Til materiali va vositalari, xususan, ixtisoslik leksikasini nutqda qo'llay bilish uchun yetarli bilimlarni o'zlashtirish (grammatik bilim va malaka).

3. Milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish orqali yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalash (milliy ma'naviy madaniyatni egallash malakasi). Ushbu mazmun asosan nutqiy kommunikativ malakani egallash orqali o'zbek tilini o'rgatishning umumta'limiy maqsadini, milliy ma'naviy madaniyatni egallash malakasi esa tarbiyaviy maqsadni ko'zda tutadi.

Nutqiy kommunikativ malaka. "O'zbek tili" fanini o'qitish konsepsiyasi shu til bo'yicha egallanadigan nutqiy faoliyatning asosiy to'rt turi: gapirish, nutqni tinglab tushunish, o'qish va yozish amallari bo'yicha taqozo etiladigan malaka va ko'nikmalar me'yorini belgilab beradi.

Bunda o'qishda, mehnat jarayonida va oilada, jamoat joylarida yuzaga keladigan turli nutqiy vaziyatlarda mustaqil ravishda fikr almasha olish va fikr bayon eta bilish, eshitilgan materialni idrok etish, shuningdek, yozma manbalarni o'qish orqali axborot olish, voqea-hodisalarga o'z munosabatini bildirish, ixtisoslik leksikasini o'zlashtirish, o'z kasbi doirasida davlat tilida ish yurita olish tarzida nutqiy aloqaga kirish malakasini egallab borish dinamikasi nazarda tutiladi.

Grammatik bilim va malaka. "O'zbek tili" fanining Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturida nutqiy faoliyatning har bir turi yuzasidan til materiali, til vositalari va grammatik bilimlar, hosil qilinadigan zaruriy ko'nikma va malakalar belgilanadi. Bunda o'rganilayotgan so'z va so'z shakllarini to'g'ri talaffuz qilish hamda yozish, ixtisoslikka oid terminologiya va leksikani grammatik jihatdan to'g'ri shakllantira bilish, so'zlarni o'rinli tanlash va sintaktik -uslubiy jihatdan baholay olish, jumla tuzishda va nutq ohangini belgilashda adabiy til imkoniyatlaridan to'g'ri hamda o'rinli foydalana olish, o'zbek tilining ilmiy va rasmiy-idoraviy nutq uslubini puxta egallash talab etiladi.

Milliy-ma'naviy madaniyatni egallash malakasi. Milliy ma'naviyatni egallash o'zbek xalqining boy tarixi, milliy qadriyatlarini, urf-odatlarini va ularni o'zida aks ettirgan qimmatli adabiy-badiiy meros bilan yaqindan tanishish, uni o'qib o'rganish, milliy an'analar, bayramlar, urf-odatlar asosida shakllangan milliy madaniyat, shuningdek, umuminsoniy qadriyatlarni singdirishga insonparvarlik nuqtai nazaridan yondashishni taqozo etadi. O'zbek adabiyotining ixcham va go'zal namunalarini, xalqning tarixiy, madaniy hayotiga xos muhim lavhalar, jahon milliy madaniyatiga hissa qo'shgan o'zbek xalqi vakillarining ijodiy merosini o'rganish ham ko'zda tutiladi.

Ta'lim rus va boshqa mahalliy tillarda olib boriladigan oliy ta'lim muassasalarida o'zbek tili ta'limi mazmuni yuqoridagi uch tarkibiy qismni o'z ichiga oladi va bakalavriat yo'nalishining birinchi bosqichida o'zining ifodasini topadi.

O'zbek tilining uzluksiz ta'lim tizimida bakalavriat ta'limi o'rta maxsus ta'limtarbiyadan keyingi bosqich sanaladi. Shunga ko'ra, uzluksiz ta'limning oliy ta'lim bosqichlarida til ta'limining lisoniy, lingvopsixologik, sotsiopsixologik va paralingvistik xususiyatlari va, muhimi, umumdidaktik va o'ziga xos metodik xususiyatlardan kelib chiqqan holda hosil qilinadigan nutqiy-kommunikativ, leksik-grammatik va yuksak ma'naviyatli barkamol shaxsni tarbiyalashga oid vazifalar belgilanadi.

Oliy ta'limning Davlat ta'lim standartiga ko'ra "O'zbek tili" fani Samarqand davlat universitetining barcha fakultetlari rus va tojik guruhlarining birinchi kurs talabalariga o'qitiladi. Ushbu fan shartli ravishda o'zbek tilining fonetika, leksikologiya, morfologiya, sintaksis, uslubshunoslik bo'limlarining nazariy va amaliy materiallariga tayanib o'rgatiladi.

Yangi davr til o'rgatish borasidagi an'anaviy usullarni inkor etmagan holda, yangicha usullardan foydalanib, til o'rgatishning samaradorligini oshirish zarurligini talab etmoqda. Bu esa mamlakatimizda keng ko'lamda hayotga tatbiq

etilayotgan “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” sifat bosqichining ham asosiy talablaridan hisolanadi.

Mazkur ishchi-o‘quv dasturini tuzishda jahonda tan olingan va ta’lim jarayonida ijobiy natijalar berayotgan kommunikativ usul yutuqlaridan, xorijiy – ingliz, fransuz, nemis, rus va boshqa tillar bo‘yicha keng qo‘llanishda bo‘lgan o‘quv uslubiy ishlar, o‘quv qo‘llanmalar va darslik mualliflarining ilg‘or tajribalaridan ijodiy foydalanildi.

“O‘zbek tili”dan tuzilgan ushbu ishchi-o‘quv dasturining mazmuni talabalarda ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirishga qaratilgan. Mashg‘ulotlar davomida mutaxassislikka doir matnlar tarjima qilinadi, so‘z va iboralar takrorlanadi, yangi so‘zlar yodlanishi ko‘zda tutiladi. O‘rganilgan yangi so‘zlar matnni tarjima qilish, matn bo‘yicha tayyorlangan savollarga javob qaytarish hamda o‘tilgan grammatik materialni o‘zlashtirish uchun asos bo‘ladi. Matn to‘liq o‘rganib bo‘lingach, tegishli grammatik mavzuga doir mashqlar bajariladi. Mashqlar tarjima qilish, nuqtalar o‘rniga tegishli harflar, so‘zlar, olmoshlar, egalik, kelishik, shaxs-son qo‘shimchalarini qo‘yish, fe‘lning ma’lum zamonlari, tasdiq, inkor, so‘roq shakllari qo‘shimchalarini qo‘yish, so‘zlarni tartib bilan qo‘yib gap tuzish kabi topshiriqlarni qamrab oladi. Har bir mashg‘ulotda og‘zaki nutqni o‘stiruvchi mashqlar bajariladi. Muloqotlar rus tilida ham, o‘zbek tilida ham berilib, ularni tarjima qilish, yodlash hamda erkin suhbat davomida qo‘llay bilish talab etiladi. Mashg‘ulot tegishli topshiriqlar bilan yakunlanadi.

Dars davomida talabalarga o‘zbek tilining grammatik qonun-qoidalari emas, balki matnlar, mashqlar, muloqotlar yordamida til materialini o‘rgatish orqali ulardan fikrlash ko‘nikmalari hosil qilinib, talabalar darsning oddiy qatnashchisidan uning faol ishtirokchisiga aylantiriladi.

Mazkur ishchi-o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan 2017-yil 18-avgustdagi 4-sonli bayonnoma bilan ma’qullanib, 2017-yil 24-avgustdagi 603-sonli raqami bilan ro‘yxatga olingan “O‘zbek tili” fanidan tajriba-sinov namunaviy dasturga moslashtirilgan. Bakalavriat yo‘nalishi bo‘yicha tuzilgan ushbu namunaviy dasturda keltirilgan “O‘zbek tilini o‘qitishning maqsad va vazifalar”, “Fan mazmuniga qo‘yiladigan malakaviy talablar”, “O‘zbek tilining boshqa fanlar bilan aloqasi”, “O‘zbek tilini o‘qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar”, “O‘zbek tili” fanidan oliy ta’lim muassasalari uchun uzviylashtirilgan o‘quv dasturi”, “Fanni o‘qitish bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar” “Mustaqil ta’limni tashkil etishning shakli va mazmuni”, “Dasturning informatsion-metodik ta’minoti” bo‘limlari mazkur ishchi-o‘quv dasturi uchun asos vazifasini o‘tadi.

Mazkur dastur asosida “O‘zbek tili”dan ikki qismdan iborat o‘quv qo‘llanmasi nashr etilgan va elektron darslik tayyorlanib, “ZiyoNet”ga kiritilgan. Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi bilan tuzilgan uchyozqlama shartnoma asosida professor I.K.Mirzayev bilan hamkorlikda “O‘zbek tili”dan darslik yozilib, u 2004-yil Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyotida ko‘p nusxada chop etildi va bu darslik 2006-yil o‘tkazilgan “Yilning eng yaxshi darsligi muallifi” respublika tanlovida faxrli o‘rinni egallab, ikkinchi darajali diplom bilan taqdirlandi. Shunga ko‘ra respublikamizdagi oliy o‘quv yurtlarining rus va boshqa tillarda

o'qitilayotgan talabalari o'zbek tili mashg'ulotlarida mazkur o'quv-ish dasturiga asoslanib yaratilgan darslik hamda uning elektron versiyasidan keng foydalanib kelishmoqda.

Oliy o'quv yurtlarining rus va tojik guruhlari talabalariga "O'zbek tili"dan amaliy mashg'ulotlar 2019-2020-o'quv yilidan boshlab 68 soat, mustaqil ishlash uchun esa 76 soat ajratildi. Namunaviy dasturda tavsiya etilgan mavzular bilan bir qatorda, o'zbek xalqi tarixi, ilm-fani, madaniyati, adabiyoti rivojiga ulkan hissa qo'shgan allomalar hayoti va ijodi bo'yicha matnlarni tarjima qilish, ular asosida mustaqil ravishda erkin matnlar tuzishga doir mavzular ishchi-o'quv dasturidan o'rin egalladi.

O'zbek tilini o'qitishning maqsad va vazifalari. Mazkur fan gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar majmuasiga taalluqlu bo'lib, birinchi kurs talabalari uni I va II semestrlar davomida o'rganadilar. "O'zbek tili" fanining asosiy vazifasi talabalarning oliy o'quv yurtiga kirguncha o'zbek tilidan o'rgangan bilimlarini yanada boyitish, o'z fikr-mulohazalarini o'zbek tilida o'gzaki va yozma ravishda erkin bayon eta olish, ish qog'ozlari yuritishga o'rgatishdan iborat.

Respublikamizda ta'limni takomillashtirish borasida olib borilayotgan ishlar "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablari asosida mazmun jihatidan yangi o'quv dasturlari va darsliklar yaratishga qaratilmoqda. Davlat tili maqomiga ega bo'lgan o'zbek tilini o'qitishni ham bugungi davr talablariga javob beradigan darajaga yetkazish ana shunday muhim vazifadir. Mustaqil davlatimizda o'zbek tilining ijtimoiy mavqeyi tobora ortib borayotganligi, lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosi va imlo qoidalarining joriy etilganligi, ish yuritishda to'liq davlat tiliga o'tilayotganligi barcha mutaxassislarning millatidan qat'iy nazar, o'zbek tilini puxta egallashlarini taqozo etmoqda. Shuningdek, uzluksiz ta'limning barcha bosqichlarda, jumladan, oliy o'quv yurtlarining o'qish boshqa tilda olib borilayotgan guruhlarda ham o'zbek tilini o'rganish yo'lga qo'yildi. Shunga ko'ra, universitet va institutlarda o'zbek tilini davlat tili sifatida o'rganishga qaratilgan konsepsiya yaratildi. "O'zbek tili" fanini o'qitishning asosiy maqsadi talabalarning o'zbek tilidan egallagan bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash va yanada kengaytirish, tanlagan ixtisosliklari doirasida davlat tilini puxta bilishlariga yordamlashishi, nutqlarini kasbiy atamalar bilan boyitish, o'zbek tilidan yuqori darajada nutqiy savodxonlikni ta'minlashga erishishdir.

Ushbu maqsadda o'qituvchi va talaba oldiga qator vazifalar qo'yilgan:

- nutqiy kompetensiyani rivojlantirish;
- og'zaki va yozma nutqda sohaviy terminlarni samarali qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish;
- ixtisoslikka oid matn tuzish, uni tahlil va tahrir qilish malakalarini hosil qilish;
- sohaviy hujjatlarni tuzish, shu jumladan elektron hujjatlarni to'ldirish va rasmiylashtirish ko'nikmalarini shakllantirish.
- talabalarga muayyan nutqiy mavzular doirasida zaruriy grammatik bilimlarni berish, ixtisoslik doirasida og'zaki va yozma nutqni o'stirish, turlicha tipdagi matnlarni erkin tuza olish malakalarini o'stirish vazifasini amalga oshirish.

Talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar:

- o'zbek adabiy tili me'yorlari, nutq uslublari to'g'risida tasavvurga ega bo'lish;

- kasbiy terminologiyani, og'zaki va yozma nutq xususiyatlarini bilish va ulardan foydalana olish;

- matn yuzish, uni tahlil va tahrir qilish, sohaviy hujjatlarni tayyorlash va rasmiylashtirish, kasbiy muloqot yuritish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;

- o'zbek tilining so'z boyligi, imlo va orfoepik qoidalaridan xabardor bo'lish;

- o'zbek tilining publitsistik, rasmiy-idoraviy va ilmiy uslubini;

- o'zbek tilida sintaktik jihatdan to'g'ri gap tuza olishni;

- bog'lanishli matn tuzish, uni ijodiy o'zgartirish, qisqartirish va kengaytirishni;

- tanlagan sohasidagi axborot materiallarini o'zbek tiliga va aksincha o'z ona tiliga erkin tarjima qilishni;

- og'zaki va yozma nutqda o'zbek tilining grammatik qoidalarini qo'llay olishi, o'z ixtisosligi bo'yicha o'zbek tilida maqola, risolalar tayyorlashda lug'atlardan foydalana olish;

- so'zlarni o'rinli qo'llay olish, o'qish va keyingi mehnat faoliyati jarayonida o'zbek tilida muloqotga kirisha olish, yetarli yozma va og'zaki savodxonlikka ega bo'lish;

- o'zbekcha nutqning barcha uslublari bitilgan matnlarni o'rganishda egallagan bilim va ko'nikmalarini qo'llash, o'zbek tilida ish yuritish ko'nikmalarini o'z faoliyatiga tatbiq eta olish va ixtisosligi sohasidagi kitob, maqolaga taqriz yoza bilish, boshqalar fikriga munosabat bildirish, turli nutqiy vaziyatlarda o'z fikrini o'zbek tilida asosli bayon qilish ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim;

- o'zbek tilining so'z boyligi, soha terminlaridan gap tuzish va uni nutq uslublari to'g'ri qo'llashda foydalana bilishi;

- kasbiy terminlarni tushunishi, ularni mutaxassisligi mavzusidagi muloqotda mustaqil qo'llay olishi;

- milliy va umuminsoniy qadriyatlar, mutaxassisligiga oid mavzularda bog'lanishli matn tuza olishi va bunday matnlarni tarjima qilishi;

- o'zbek xalqining tarixi, an'analari, urf-odatlar, mustaqil davlatimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti to'g'risidagi turli nutqiy vaziyatlarda erkin muloqotga kirisha olishi;

- ixtisoslikka oid ilmiy terminlarni to'g'ri o'qish, ma'nosini izohlay bilish, ular ishtirokidagi gaplarni sintaktik jihatdan to'g'ri tuzishni bilishi va amalda qo'llay olishi.

- o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda o'zbek tilining grammatik qoidalari, me'yorlariga amal qilgan holda mustaqil ifodalashi;

- o'z ixtisosligi bo'yicha lug'atlardan foydalangan holda maqola, turli rasmiy ish hujjatlarini tayyorlay bilishi;

- davlat tilida yetarli yozma savodxonlikka ega bo'lish, ish yuritish ko'nikmalarini mehnat faoliyatiga erkin tadbiq eta bilishi;

- o'zbek tilidagi turli matnlarni, xususan, ixtisoslikka oid matnlarni tushunib o'qishi va tarjima qilishi;

- o'zbek tilining lug'aviy boyligi va ixtisoslik terminlaridan o'rinli foydalanish, ular yordamida o'z fikr-mulohazalarini asosli bayon etish tajribasiga ega bo'lishi zarur.

O'zbek tili fanining boshqa fanlar bilan aloqasi. Talabalar o'zbek tilini, u orqali o'zbek xalqining boy tarixini, madaniyatini, an'analarini, dunyo ilm-faniga ulkan hissa qo'shgan shoirlari, adiblari, olimlari, tarixiy siymolari qoldirgan ilmiy, badiiy merosdan bahramand bo'ladilar. O'quv rejasining ijtimoiy-gumanitar fanlar blokiga kirgan barcha fanlar, xususan, falsafa, siyosatshunoslik, ma'naviyat asoslari kabi fanlar bevosita o'zbek tili fani bilan bog'liq hisoblanadi. O'zbek tili fani ta'lim o'zbek tilida olib boriladigan ixtisoslik fanlari bilan, shuningdek, rus tili, chet tili fanlari bilan qiyoslab o'rganilgani uchun bu fanlar bilan uzviy aloqadordir.

O'zbek tilini o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar. Ta'limning oliy bosqichida o'zbek tilini o'qitishning mazmuni yanada takomillashtiriladi. Bunda ilgaridek maktabda olingan bilimlarni mustahkamlash yo'ldan borilmaydi, aksincha talabalarning litsey va kollejlarda egallagan bilimlari asosida, oladigan ixtisosliklari doirasida bog'lanishli nutqni o'stirish ko'zda tutiladi. O'zbek tili ta'limi mazmunini talabalarning nutqiy savodxonligi grammatikani o'qitish orqali emas, balki turmush va mehnat faoliyatidagi nutq mavzulari doirasini yanada kengaytirgan hamda ixtisoslikka moslashtirgan tarzda o'zbekcha nutqni tinglash, so'zlash, o'qish va yozish amallarini uyg'unlashtirib o'rgatish bilan ajralib turadi. Bunda ilmiy - badiiy adabiyotlarni o'qib tushunish, ixtisoslik sohasida matn yaratish va hujjat tuzish, matnni shakl va mazmun jihatdan yangilash, boshqa nutq uslubiga ko'chira olish kabi murakkab talablar qo'yiladi. Bu o'z navbatida talabalarning o'zbek tili imkoniyatlaridan qanchalik to'g'ri va keng foydalana bilishlariga, xususan, leksik va uslubiy imkoniyatlardan o'rinli foydalanishni qanchalik puxta o'zlashtirganliklariga bog'liq bo'ladi. Bularning barchasi ta'limning yuqori bosqichida o'zbek tilidan tavsiya etilayotgan bilimlarning hayotiyliigi, kengligi va qiziqarliligi, tanlagan kasbi, mutaxassisligiga muvofiqligi, o'qitish metodlari va usullarining zamonaviyligi, audiovizual vositalarning samarali qo'llanilishi bilan ta'minlanadi.

O'quv jarayoni bilan bog'liq ta'lim sifatini belgilovchi holatlar quyidagilar: yuqori ilmiy-pedagogik darajada dars berish, muammoli ma'ruzalar o'qish, darslarni savol-javob tarzida qiziqarli tashkil qilish, ilg'or pedagogik texnologiyalardan va multimedia vositalaridan foydalanish, tinglovchilarni undaydigan, o'ylantiradigan muammolarni ular oldiga qo'yish, talabchanlik, tinglovchilar bilan individual ishlash, erkin muloqot yuritishga, ilmiy izlanishga jalb qilish.

"O'zbek tili" kursini loyihalashtirishda quyidagi asosiy konseptual yondoshuvlardan foydalaniladi:

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim. Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini

emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshishni nazarda tutadi.

Tizimli yondoshuv. Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jarayonning mantiqiyligi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondoshuv. Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

Dialogik yondoshuv. Bu yondoshuv o'quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish. Demokratik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta'lim. Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni ob'ektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash. Yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llash.

O'qitishning usullari va texnikasi. Ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallash), muammoli ta'lim, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar.

O'qitishni tashkil etish shakllari. Dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rganishga asoslangan frontal, jamoaviy va guruh.

O'qitish vositalari. O'qitishning an'anaviy shakllari (darslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda, kompyuter va axborot texnologiyalari.

Kommunikatsiya usullari. Tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlar.

Teskari aloqa usullari va vositalari. Kuzatish, blits-so'rov, joriy va yakunlovchi nazorat natijalari tahlili asosida o'qitish diagnostikasi.

Boshqarish usullari va vositalari. O'quv mashg'uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko'rinishidagi o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish, qo'yilgan maqsadga erishishda o'qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg'ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

Monitoring va baholash. O'quv mashg'ulotida ham, butun kurs davomida ham o'qitishning natijalari rejali tarzda kuzatib boriladi. Kurs oxirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari YB, YDA sinovlari tarzida o'tkaziladi va baholanadi.

**“O‘ZBEK TILI” fanidan amaliy mashg‘ulotlar va mustaqil
ta’limga ajratilgan soatlar taqsimoti**

T/r	Fanning bo‘limi va mavzusi	Soatlar			Mustaqil ta’lim
		Jami	Ma’ruza	Amaliy mashg‘ulot	
1.	“O‘zbekiston – yagona Vatan” matni. 1. Mavzuga oid matn ustida ishlash. Vatan haqidagi maqol va she’rlardan namunalar yod olish. 2. Respublika baynalmilal madaniyat markazi haqida taqdimot tayyorlash. 3. Orfoepiya qoidalari. Tovushlar talaffuzi: Unli tovushlar.	6	-	2	4
2.	“O‘zbek tili – Davlat tili” matni. 1. Mavzuga oid matn ustida ishlash. 2. “O‘zbek tilini o‘rganyapman” mavzusida dialog tuzish. Til haqidagi she’rlar va mutafakkirlarning til haqidagi hikmatlaridan namunalar keltirish. 3. Tovushlar talaffuzi: Undosh tovushlar.	6	-	2	4
3.	“Davlat ramzlari” (madhiya, bayroq, gerb) matni. 1. Mavzuga oid matnni o‘qish. Matnga munosabat bildirish. 2. “Davlat ramzlarini bilasizmi?” mavzusida polilog tuzish. 3. O‘zbek tilining imlo qoidalari.	4	-	2	2
4.	“Milliy qadriyatlar – millat iftixori” matni. 1. Mavzuga oid matn ustida ishlash. Milliy urf-odatlar haqida so‘zlab berish. 2. “Turli millatlar urf-odatlari” mavzusida polilog tuzish. 3. O‘zbek tilining imlo qoidalari.	4	-	2	2

5.	“Kelajak – bilimli yoshlar qo‘lida” matni. 1. Mavzuga oid matn ustida ishlash. Mavzu bo‘yicha bahsda ishtirok etish. 2. “Iqtidorli yoshlar” mavzusida bog‘lanishli matn tuzish. “Mening tengdoshlarim” mavzusida dialog tuzish. Qiziqarli hodisa va voqealar to‘g‘risida hikoya qilish. 3. O‘zbek tilida omonim va paronim so‘zlar.	4	-	2	2
6.	Nazorat ishi. Diktant.	2	-	2	-
7.	“Salomlashish – insoniy fazilat” matni. 1. Mavzuga oid matnni o‘qish. Matndagi termin va iboralarining ma’nosini izohlash. 2. “Qayerda qanday salomlashiladi?” mavzusida matn tuzish. 3. O‘zbek tilida sinonim va antonim so‘zlar.	4	-	2	2
8.	“Ulug‘ ajdodlarimiz“ mavzusida (Alp Er Tunga, Spitamen, Shiroq, To‘maris, Beruniy, Ibn Sino, Farobiy va boshqalar haqida) matn tuzish. 1. Mavzuga oid matn ustida ishlash. 2. Mashhur allomalardan biri haqida taqdimot tayyorlash, uning asarlari ro‘yxatini tuzish. 3. Tilning leksik qatlamlari.	6	-	2	4
9.	“Muzeylar – o‘tmish va kelajak orasidagi ko‘prik” matni. 1. Mavzuga oid matnni o‘qish. Matnga munosabat bildirish. 2. O‘zbekiston muzeylaridan biri haqida taqdimot tayyorlash. Jahonning mashhur muzeylari haqida qiziqarli ma’lumotlar tayyorlash. 3. Frazeologik birliklarning turlari	4	-	2	2

	va uslubiy xususiyatlari.				
10.	“Toshkent – mamlakatimiz poytaxti” matni. 1. Mavzuga oid matnni o‘qish. Matndagi termin va iboralarning ma’nosini izohlash. 2. “Toshkent metrosi bo‘ylab harakatlanish” yoki “Toshkent hayvonot bog‘iga sayohat” mavzusida matn tuzish. 3. Erkin va turg‘un birikmlar.	4	-	2	2
11.	“Samarqand – sharq gavhari” matni. 1. Mavzuga oid matnni o‘qish. 2. Tarixiy obidalar haqida esse yozish. Tarixiy obidalar bilan bog‘liq terminlar lug‘atini tuzish. 3. Atamalar va ularning vujudga kelishi.	6	-	2	4
12.	“Buxoro – qadimiy shahar” matni. 1. Mavzuga oid matnni o‘qish. Matndagi termin va iboralarning ma’nosini izohlash. 2. “Buxoroga sayohat” mavzusida matn tuzish. 3. Sohaviy terminlar va ularning qo‘llanilishi.	2	-	2	2
13.	“San’at va madaniyat” matni. 1. Mavzuga oid matnni o‘qish. Matndagi termin va iboralarning ma’nosini izohlash. 2. “San’at mening hayotimda” mavzusida esse yozish. O‘zbek kinosining mavzulari va muammolari haqida matn tuzish. 3. Umumxalq leksikasiga kirgan san’atshunoslik terminlari.	4	-	2	2
14.	“Bo‘lajak kasbim” matni. 1. Matnni o‘qish. matndagi termin va iboralarning ma’nosini izohlash. Matnga munosabat bildirish. 2. Kasb tanlash haqida esse	4	-	2	2

	yozish. Kasb-hunarga oid maqollardan namunalar yozish. 3. Mutaxassislikka oid terminlar lugʻati tuzish.				
15.	“Kitob mutolaasi” matni. 1. Mavzuga oid matn ustida ishlash. Matnni ijodiy soʻzlab berish. 2. Oʻqigan kitoblari roʻyxatini tuzish, ularga tavsif berish. 3. Ijtimoiy-siyosiy leksika.	6	-	2	4
16.	“Hayot mening tasavvurimda” matni. 1. Hayotga munosabat va qiziqishlar haqida gapirib berish. 2. Inson barkamollika erishishi uchun nimalar qilishi kerakligi haqida fikr bildirish. Hayotdagi idealni tasvirlab berish. 3. Oʻzbek tilida soʻz yasalihi va tuzilishi.	4	-	2	2
17.	Nazorat ishi. Diktant.	2	-	2	-
18.	“Zamonaviy dunyoda taʼlim tizimi” matni. 1. Matnni oʻqish. matndagi termin va iboralarning maʼnosini izohlash. Matnga munosabat bildirish. 2. Turli mamlakatlarning taʼlim tizimlari haqida maʼlumot tayyorlash. Chet ellik talabalar hayoti aks ettirilgan badiiy asar yoki film haqidagi taassurotlarni yozish. 3. Feʼl soʻz turkumi.	4	-	2	2
19.	“Salomatlik – tuman boylik” matni. 1. Mavzuga oid matn ustida ishlash. Matnga munosabat bildirish. Mavzu boʻyicha bahsda ishtirok etish. 2. “Salomatligimiz – oʻz qoʻlimizda” mavzusida esse	6	-	2	4

	yozish. Tibbiyot yutuqlari haqida taqdimot tayyorlash. Salomatlik haqidagi maqollardan namunalar yozish. 3. Fe'llarning o'tgan zamonda tuslanishi.				
20.	“Uyquning inson hayotidagi o'rni” matni. 1. Matnni o'qish. matndagi termin va iboralarining ma'nosini izohlash. Matnga munosabat bildirish. 2. Uyqu bilan bog'liq bo'lgan qiziqarli ma'lumotlar tayyorlash. “Osuda uyquga erishish” mavzusida polilog tuzish. 3. Fe'llarning hozirgi va kelasi zamonda tuslanishi.	6	-	2	4
21.	“Sport – sog'lik garovi” matni. 1. Matnni o'qish. matndagi termin va iboralarining ma'nosini izohlash. Matnga munosabat bildirish. 2. Sport turlari va ularning kelib chiqishi haqida ma'lumot tayyorlash. O'zbekistondagi boks maktabi faoliyati to'g'risida matn tuzish. 3. Ot so'z turkumi.	4	-	2	2
22.	“Hadisshunos vatandoshlarimiz” matni. 1. Matnni o'qish. matndagi termin va iboralarining ma'nosini izohlash. Matnga munosabat bildirish. 2. Hadis va muhaddislar haqida ma'lumot tayyorlash. Hadislarni sharhlash. 3. O'zbek tilida so'zlarning turlanishi.	4	-	2	2
23.	Nazorat ishi. O'tilgan mavzular asosida test ishlash.	2		2	-
24.	“Navro'z – qadimiy bayram” matni.	4	-	2	2

	1. Mavzuga oid matnni o‘qish. Matndagi termin va iboralarning ma’nosini izohlash. 2. Navro‘z bayramida tayyorlanadigan milliy taomlar ro‘yxatini tuzish va ulardan birining tayyorlanish jarayonini yozish. 3. Olmosh va uning uslubiy xususiyatlari.				
25.	“Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi” matni. 1. Mavzuga oid matnni o‘qish. Matnga munosabat bildirish. 2. Universitet ARM haqida matn tuzish. Elektron kutubxona bilan ishlash bo‘yicha tavsiyalar yozish. Badiiy asarlarga bag‘ishlangan internet saytlarining ro‘yxatini tuzish. 3. Yordamchi so‘z turkumlari va ularning xususiyatlari.	4	-	2	2
26.	“Adabiyot – tarbiya vositasi” (Alisher Navoiy ijodi asosida) matni. 1. Mavzuga oid matn ustida ishlash. Matn mazmunini so‘zlab berish. 2. Badiiy asarning tarbiyaviy kuchi haqida fikr bildirish, misollar keltirish. Mashhur adabiy qahramonlar haqida taqdimot tayyorlash. Adabiyot haqidagi maqollar va hikmatli so‘zlardan namunalar yozish. 3. Nutq uslublari. Badiiy uslub va uning xususiyatlari.	4	-	2	2
27.	“Men sevgan asar” matni. 1. Sevimli asari haqida so‘zlab berish. Zamonaviy o‘zbek adabiyoti haqidagi ma’lumotlarni gapirib berish. Mashhur o‘zbek shoirlari ijodidan namunalar yod	6	-	2	4

	olish. 2. “Adabiyotning kishi ruhiy dunyosiga ta’siri” mavzusida esse yozish. 3. Badiiy tasviriy vositalar.				
28.	“Ommaviy axborot vositalari” matni. 1. Mavzuga oid matnni o‘qish, matndagi termin va iboralarining ma’nosini izohlash. 2. Ommaviy axborot vositalarining faoliyati haqida fikr bildirish. “XXI asrda axborotning o‘rni” mavzusida esse yozish. 3. Publitsistik uslub va uning xususiyatlari.	4	-	2	2
29.	Nazorat ishi. Diktant.	2	-	2	-
30.	“Internet hayotimizda” matni. 1. Mavzuga oid matnni o‘qish, matndagi termin va iboralarining ma’nosini izohlash. 2. Internet madaniyati haqida matn tuzish. Ta’lim jarayonida eng ko‘p foydalaniladigan internet saytlari ro‘yxatini tuzish va tavsiya qilish. 3. Og‘zaki-so‘zlashuv uslubi va uning xususiyatlari.	4	-	2	2
31.	“Nutq odobi” matni. 1. Mavzuga oid matnni o‘qish. Kundalik faoliyatda nutq madaniyatining ahamiyati haqida gapirib berish. 2. “Mutaxassislik nutqi madaniyati” mavzusida matn tuzish. Ish jarayonidagi muomala madaniyati haqidaq ssenariy tuzish va uni insseniroyka qilish. 3. Me’yor tushunchasi. Nutq me’yori	4	-	2	2
32.	“Huquqiy madaniyat” matni. 1. Mavzuga oid matnni o‘qish, matndagi termin va iboralarining ma’nosini izohlash. 2. “Qonunlarni o‘rganish va ularga	6	-	2	4

	rioya qilish” mavzusida matn tuzish. Umumxalq leksikasiga kirgan huquqiy terminlar lugʻatini tuzish. 3. Rasmiy uslub va uning xususiyatlari				
33.	“XXI asrda innovatsiyalar” matni. 1. Mavzuga oid matnni oʻqish, matndagi termin va iboralarning maʼnosini izohlash. Turli sohalarga oid innovatsiyalar haqida gapirib berish. 2. “Zamondoshlarimizning kashfiyotlari” mavzusida taqdimot tayyorlash. 3. Ilmiy uslub va uning xususiyatlari.	4	-	2	2
34.	Nazorat ishi.	2	-	2	-
	Jami	144		68	76

Asosiy qism. Fanning uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi.
“Oʻzbek tili” fanidan oliy taʼlim muassasalari uchun uzviylashtirilgan
oʻquv dasturi

I. Nutq oʻstirish boʻyicha egallanadigan koʻnikma va malakalar.

A. Ogʻzaki nutq.

1. Quyidagi tavsiya etilayotgan nutqiy mavzularga oid matnlarni tez va ravon oʻqish va mazmunini toʻla tinglab tushunish:

1. Oʻzbekiston – yagona Vatan. Orfoepiya Oʻzbek tilida tovushlar talaffuzi.
2. Oʻzbek tili davlat tili. Oʻzbek tilini oʻrganayapman.
3. Davlat ramzlari
4. Milliy qadriyatlar millat iftixori. Turli millatlar urf – odatlari.
5. Kelajak bilimli yoshlar qoʻlida. Iqtidorli yoshlar. Mening tengdoshlarim
6. “Salomlashish – insoniy fazilat” matni.
7. Ulugʻ ajdodlarimiz
8. Muzeylar – oʻtmish va kelajak orasidagi koʻprik
9. Toshkent – mamlakatimiz poytaxti
10. Samarqand – sharq gavhari
11. Buxoro – qadimiy shahar
12. Sanaʼt va madaniyat
13. Boʻlajak kasbim
14. Kitob mutolaasi
15. Hayot mening tasavvurimda

16. Zamonaviy dunyoda ta'limtizimi
17. Salomatlik –tuman boylik
18. Uyquning inson hayotidagi o'rni
19. Sport – sog'lik garovi
20. Hadisshunos vatandoshlarimiz
21. Navro'z – qadimiy bayram
22. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi
23. Adabiyot – tarbiya vositasi
24. Men sevgan asar
25. Ommaviy axborot vositalari
26. Internet hayotimizda
27. Nutq odobi
28. Huquqiy madaniyat
29. XXI asrda innovatsiyar

2. O'rganilayotgan nutqiy mavzuga oid she'r, badiiy va dramatik asarlardan parchalarni ifodali o'qish.

3. O'rganilgan yangi so'z, so'z birikmalari, mutaxassislik atamaları va iboralarni to'g'ri talaffuz qilish, sodda hamda qo'shma gaplarning urg'usini to'g'ri qo'yish.

4. O'zlashtirilgan yangi grammatik qo'shimcha va so'z shakllarini to'g'ri o'qish.

5. O'rganilgan mavzular bo'yicha o'qituvchi tomonidan berilgan savol va topshiriqlarga to'liq javob berish;

6. Gazeta va jurnallardagi ilmiy – ommabop, shuningdek, tanlagan sohasiga oid matnlarni tezda o'qib tushunish va mazmunini so'zlab berish;

7. Yuqorida tavsiya etilgan nutqiy mavzularda o'zaro (talaba - o'qituvchi, o'qituvchi - talaba) suhbatlashish:

8. O'rganilgan matn mazmunini ochuvchi savollar tuzish, ularga tez va ijodiy javob qaytarish;

9. O'rganilgan mavzular to'g'risidagi muammoli savollarga javob berish;

10. Kuzatilgan yoki audiovizual vosita orqali namoyish etilgan voqea - hodisalar haqida so'zlab berish;

11. O'rganilgan bog'lanishli matnning mazmunini to'liq va ijodiy o'zgartirgan holda so'zlay olish;

12. O'zlashtirilgan grammatik bilimlarni qo'llagan holda tanish va notanish nutqiy mavzular doirasida o'zaro fikr almashish.

13. Mutaxassislik mavzusida erkin bahs- munozara qilish.

14. Sohaga oid maqola, ilmiy - o'quv adabiyotlari mazmunini tushunish va so'zlab berish.

15. Ilmiy va rasmiy-idoraviy nutq uslubini puxta egallash, mutaxassislik doirasida bu uslublarda erkin muloqotga kirisha olish.

B. Yozma nutq:

1. O'rganilgan mavzular doirasida sodda va qo'shma gaplar tuzish.

2. Mavzuga oid bog'li matn tuzish.

3. O'zlashtirilgan mavzulardagi adabiy-badiiy, ilmiy-ommabop matnlarni ko'chirib yozish.

4. O'zlashtirilgan grammatik materiallar asosida notanish mavzuga oid gaplarni o'zbek tiliga va o'zbek tilidan o'z ona tiliga tarjima qilish.

5. O'rganilgan matn mazmuni asosida yangi grammatik bilimlarni qo'llab savollar tuzish va ularga javob yozish;

6. Tavsiya etilgan mavzular doirasida bayon yoki insho yozish.

7. Ilmiy va rasmiy-idoraviy nutq uslubida matn yozish, mutaxassislik doirasida bu uslublardagi matnni ijodiy o'zgartirish.

8. Tarjimai hol, tavsifnoma, tavsiyanoma, ariza, tushuntirish xati matnlarini tayyorlash.

9. Hisobot, bildirishnoma, ma'lumotnoma, ishonch xati, tilxat, e'lon matnlarini tayyorash.

10. Mutaxassislikka oid maqola va o'quv adabiyotlariga annotatsiya, rezyume, taqriz yozish.

11. Referat, malakaviy bitiruv ishni rasmiylashtirish.

II. Grammatika:

1. Orfoepiya qoidalari. Tovushlar talaffuzi. Unli tovushlar
2. Tovushlar talaffuzi. Undosh tovushlar
3. O'zbek tilining imlo qoidalari
4. O'zbek tilida omonim va paronimlar
5. O'zbek tilida sinonim va antonimlar
6. Tilning leksik qatlamlari
7. Frazeologik birliklarning turlari va uslubiy xususiyatlari
8. Erkin va turg'un birikmalar
9. Atamalar va ularning vujudga kelishi
10. Sohaviy terminlar va ularning qo'llanilishi
11. Umumxalq leksikasiga kirgan san'atshunoslik terminlari
12. Kasb-hunar so'zlarining adabiy til ma'yorlari
13. Ijtimoiy-siyosiy leksika
14. O'zbek tilida so'z yasalishi va tuzilishi
15. Fe'l so'z turkumi
16. Fe'llarning o'tgan zamonda tuslanishi
17. Fe'llarning hozirgi va kelasi zamonda tuslanishi
18. Ot so'z turkumi
19. O'zbek tilida so'zlarning turlanishi
20. Olmosh va uning uslubiy xususiyatlari
21. Yordamchi so'z turkumi va ularning xususiyatlari
22. Nutq uslublari. Badiiy nutq uslubi, uning xususiyatlari
23. Badiiy tasviriyy vositalar
24. publitsistik uslub va uning xususiyatlari
25. Og'zaki-yozma uslub va uning xususiyatlari
26. Rasmiy uslub va uning xususiyatlari
27. Ilmiy uslub va uning xususiyatlari

III. Nutqiy mavzular bo'yicha bajariladigan ishlar taqsimoti (Dars mashg'ulotlarining mazmuni)

1. "O'zbekiston – yagona Vatan" matni

Og'zaki nutq: Mavzuga oid matnni tez va ravon o'qish, mazmunini to'liq tinglab tushunish. Matndagi termin va iboralarining ma'nosini izohlash. Vatan haqidagi she'rlardan namunalar yod olish.

Yozma nutq: Matndan tayanch so'z va iboralarni ajratib yozish. Matndagi asosiy fikrni yozma ravishda ifodalash. Respublika baynalmilal madaniyat markazi haqida qisqacha ma'lumot yozish. "O'zbekiston yagona vatan" mavzusida bayon yozish.

Grammatika: Orfoepiya qoidalari. O'zbek tilida tovushlar talaffuzi.

Qo'llanadigan zamonaviy pedagogik texnologiyalarning "Klaster", "Bumerang", "Yelpig'ich" hamda "Muammoli ta'lim" texnologiyasining "Munozarali dars" metodi, shuningdek, o'zbek xalqining tarixiy, madaniy-ma'rifiy qadriyatlariga doir slaydlardan foydalanish, savol-javob, test yechish, didaktik va rolli o'yin usullarini qo'llash nazarda tutiladi.

Adabiyotlar: A1; A2; A4; A5; Q17; Q18 Q19; Q20;

2. "O'zbek tili – Davlat tili" matni

Og'zaki nutq: Mavzuga oid matnni tez va ravon o'qish, mazmunini to'liq tinglab tushunish. Matndagi asosiy fikrni ajratib so'zlab berish. O'qiyotgan fanlarining ahamiyati haqida o'zaro fikr almashish.

Yozma nutq: "Men o'zbek tilini o'rganyapman" mavzusida dialog tuzish. Mutafakkirlarning til haqidagi fikrlaridan namunalar keltirish.

Grammatika: O'zbek tilining imlo qoidalari.

Qo'llanadigan zamonaviy pedagogik texnologiyalarning "Klaster", "Bumerang", "Yelpig'ich" hamda "Muammoli ta'lim" texnologiyasining "Munozarali dars" metodi, shuningdek, o'zbek xalqining tarixiy, madaniy – ma'rifiy qadriyatlariga doir slaydlardan foydalanish, savol-javob, test yechish, didaktik va rolli o'yin usullarini qo'llash nazarda tutiladi.

Adabiyotlar: A1; A2; A4; A5; Q17; Q18 Q19; Q20;

3. "Davlat ramzlari" matni

Og'zaki nutq: Mavzuga oid matnni o'qib tushunish. Matndagi termin va iboralarining ma'nosini izohlash. Matnga munosabat bildirib so'zlash.

Yozma nutq: Davlat ramzlari haqidagi tushunchalarni yozish. Davlat ramzlari haqida polilog tuzish.

Grammatika: O'tgan zamon fe'li.

Qo'llanadigan zamonaviy pedagogik texnologiyalarning "Klaster", "Bumerang", "Yelpig'ich" hamda "Muammoli ta'lim" texnologiyasining "Munozarali dars" metodi, shuningdek, o'zbek xalqining tarixiy, madaniy – ma'rifiy qadriyatlariga doir slaydlardan foydalanish, savol-javob, test yechish, didaktik va rolli o'yin usullarini qo'llash nazarda tutiladi.

Adabiyotlar: A1; A2; A4; A5; Q17; Q18 Q19; Q20;

4. Milliy qadriyatlar-millat iftixori.

Og‘zaki nutq: Mavzuga oid matnni o‘qib tushunish. Matndagi tyermin va iboralarining ma’nosini izohlash. Matnga munosabat bildirib so‘zlash. Milliy urf-odatlarini ta’riflab berish.

Yozma nutq: Biror milliy bayram, marosimdan olingan taassurotlarni yozish. “Turli millatlarning urf-odatlari” mavzusida polilog tuzish.

Grammatika: O‘zbek tilining imlo qoidalari

Qo‘llanadigan zamonaviy pedagogik texnologiyalarning "Klaster", "Bumerang", "Yelpig‘ich" hamda "Muammoli ta’lim" texnologiyasining "Munozarali dars" metodi, shuningdek, o‘zbek xalqining tarixiy, madaniy – ma’rifiy qadriyatlariga doir slaydlardan foydalanish, savol-javob, test yechish, didaktik va rolli o‘yin usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Adabiyotlar: A1;A2; A4; A5; Q17; Q18 Q19; Q20;

5. Kelajak bilimli yoshlar qo‘lida.

Og‘zaki nutq: Mavzuga oid matn ustida ishlash. Matnni ijodiy so‘zlash. Mavzu bo‘yicha bahs-munozarada ishtirok etish.

Yozma nutq: “Iqtidorli yoshlar” mavzusida bog‘lanishli matn tuzish. “Mening tengdoshlarim” mavzusida dialog tuzish. Yoshlar hayotidan qiziqarli hodisa va voqealar to‘g‘risida hikoyalar tuzish.

Grammatika: O‘zbek tilida omonim va paronim so‘zlar.

Odam atrof-tabiatni o‘rgandi va o‘rganishni davom ettirmoqda. U tabiat ustidan hukmronlik qilmoqda. Unga o‘zgarishlar kiritmoqda.

Odamlar tabiatdan foydalanibgina qolmay, uni muhofaza ham qiladilar. Biz – hammamiz tabiatga qarammiz. Tabiatsiz yashash mumkin emas. Tabiat bizga salomatligimizni saqlash, uni mustahkamlash, hayotiy ehtiyojlarimizni qoplash uchun yordam beradi. (88 ta so‘z)

Yulduzlar

Bulutsiz tunlarda osmon gumbazida miltillab turgan son-sanoqsiz yulduzlar ko‘rinadi. Yulduzlar Yerdan nihoyatda olisda olovday yonib turgan ulkan jismlardir. Yulduzlar ichidagi harorat bir necha million, sirtida esa yuz ming darajagacha bo‘ladi.

Yulduzlarning qanchalik olisda ekanligini tasavvur qilib ko‘raylik. Quyosh va yulduzlardan tarqalayotgan yorug‘lik bir sekundda 300 000 km masofani bosib o‘tadi. Bunday tezlikdagi yorug‘lik Quyoshdan bizga sakkiz daqiqada yetib keladi. Osmondagi eng yaqin yulduzdan esa yorug‘lik Yerga to‘rt yilda yetib keladi. Tepamizdagi eng yorug‘ “Vega” nomli yulduzning nuri bizga yetib kelguncha 26 yil o‘tadi.

Katta-kichikligiga qarab yulduzlar bir-biridan farq qiladi. Ularning orasida Quyoshdan million marta katta bo‘lganlari ham, million marta kichik bo‘lganlari

ham bor. Yulduzlar nihoyatda olisda bo'lgani uchun bizga mitti bo'lib ko'rinadi. (112 ta so'z)

Toshkent viloyatining tabiati

Toshkent viloyati shimol va g'arb tomondan Qozog'iston Respublikasi bilan, sharq tomondan Qirg'iziston Respublikasi va Namangan viloyati bilan, janub tomondan Tojikiston Respublikasi va Sirdaryo viloyati bilan chegaradosh. Uning markaziy shahri Toshkent mamlakatimiz poytaxti.

Toshkent viloyatining sharqi va janubini Qorjantog', Ugom, Talas, Piskom, Chotqol tog' tizmalari egallagan. Qurama tizmasi Toshkent viloyatini Farg'ona vodiysidan ajratib turadi. Tyanshan tog'larining bir qismi bo'lgan ushbu tizmalar Chirchiq va Ohangaron vodiylari, shuningdek, Dalvarzin cho'lini o'z ichiga oladi. Toshkent viloyatining iqlimi murakkabdir. Viloyat hududiga shimoldan sovuq havo oqimlari, g'arbdan iliq va nam havo oqimlari, janubdan esa issiq havo oqimlari kirib kelishi mumkin. Shuning uchun viloyatning iqlimi shamolning qaysi tomondan esishiga bog'liqdir. (104 so'z)

Temir

Hayotimizni metallarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Xalq xo'jaligida metallarning ahamiyati juda katta. Qishloq xo'jalik mashinalari, stanoklar, teplovoz, avtomobil, samolyot, fazoviy kema va boshqa narsalarni tayyorlashda, asosan, metallar ishlatiladi. Hattoki uyimizdagi ko'pgina buyumlar – qozon, kapgir, qoshiq, nina, qaychi, mix, gaz plitasi, dazmol va boshqa narsalar ham metallardan yasalgan.

Metallar har xil bo'ladi. Ulardan eng muhimlari – temir, mis, aluminiy, qalay, rux, kumush, oltin. Odamlar metallarning hammasini tog' jinslari – rudalardan oladilar. Rudalar esa yer ostida joylashgan bo'ladi.

Eng ko'p tarqalgan metallardan biri temir – temir rudasini eritib olinadi. Temir rudalari ham har xil bo'ladi. Magnitli temirtosh shular jumlasidandir. Unda temir boshqa rudalardan ko'ra ko'proq bo'ladi. (101 ta so'z)

Konstitutsiya – asosiy qonunimiz

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n ikkinchi chaqiriq XI sessiyasida qabul qilingan. Mustaqil O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilinganligini nishonlash maqsadida 8-Dekabr umumxalq bayrami deb e'lon qilindi hamda shu kun dam olish kuni hisoblanadi. Bu sana O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining qarori bilan tasdiqlandi. O'zbekiston Konstitutsiyasi Asosiy qonunimizdir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi muqaddima, olti bo'lim, yigirma olti bob hamda 128 moddadan iborat. Ularning barchasida adolat ustuvordir. Shuning uchun ham Konstitutsiyamiz "Adolat qomusi" deb ataladi.

Haqiqatan ham Konstitutsiyamizning har bir bandida insoniylik, inson manfaatlaridan kelib chiqqan adolatli qonunlar ifodalangandir. Unda fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari odillik bilan belgilab berilgan.(101 so‘z)

Temuriylar tarixi Davlat muzeyi

Temuriylar tarixi Davlat muzeyi 1996-yil 18-oktabrda ochildi. U Toshkentdagi Amir Temur xiyobonining shimoli-g‘arbiy tomonida barpo etilgan.

Muzeyning tashqi ko‘rinishiga alohida e‘tibor berilgan. Salobatli moviy gumbazi, ustunlari unga ko‘rk berib turibdi. Bino uch qavatdan iborat. Birinchi qavatda xazinaxonalar, kutubxona, majlislar zali, chiptaxona, garderoab, ma‘muriyat, texnik vositalar uchun xonalar joylashgan.

Ikkinchi qavatdagi ekspozitsiyalarda qadim zamonlarga borib taqaluvchi tariximiz haqida hikoya qilinadi. Devorga ishlangan tasvirda Amir Temur va uning vorislari hayotidan lavhalar berilgan. Muzey majlisxonasida uchrashuvlar, ekran orqali turli mavzularni yorituvchi ko‘rsatuvlar namoyish etiladi.

Uchinchi qavatda Amir Temur va temuriylar tarixi bilan bog‘liq ekspozitsiyalar namoyishga qo‘yilgan. Ular me‘moriy obidalar, kulolchilik, misgarlik, zargarlik buyumlari, qo‘lyozmalardan iborat. Bu yerda uchta televidiyo ekran joylashtirilgan bo‘lib, ularda temuriylar davridan ma‘lumot beruvchi filmlar namoyish etiladi. (118 ta so‘z)

Oila

Uylanish er bilan xotinning umr yo‘ldoshi bo‘lib yashashlari uchun ahd-paymon etishlari demakdir. Bu – oilaning ibtidosi.

Uylanish – er bilan xotinning o‘z roziliklari bilan turmushlarini birga kechirish, go‘zal holda yashamoq uchun biri ikkinchisiga yordamchi bo‘lishga va‘da berishi demakdir. Insonning komil bo‘lib yetishmog‘i uchun unga bir umrlik yo‘ldosh kerak bo‘ladi.

Turmushda uchraydigan qayg‘u-hasratlarni er va xotin barobar tortishadi, ularni bartaraf qilish uchun barobar kurashadi, sevinch, shodlik paytlarida barobar quvonadilar. Ro‘zg‘or ishlarida ikki qo‘l o‘rniga to‘rt qo‘l bo‘lgani uchun uy intizomi yaxshilanadi, pul, mol-mulk kerakli yerda sarf qilinib, oilaning saodati ortadi. Nikohdan keyin o‘zini ota, oila boshlig‘i deb his eta boshlagan erkakning har bir topgani barakali bo‘ladi. (100 ta so‘z)

Suhbat odobi

Biror bir yig‘ilishda notiq suhbatdoshlaringiz, sizningcha, ba‘zi bir xatolarga yo‘l qo‘ygan bo‘lsa, uning so‘zini bo‘lib, luqma tashlamang. Sabr eting, u so‘zini tamom qilsin, keyin ruxsat olib so‘zga chiqing. Uning xatosini qo‘pol ravishda ko‘rsatib tanqid qilmang, odob-axloq doirasidan chetga chiqmang. G‘oyatda nazokat va muloyimlik bilan so‘zlab, suhbatdoshingizning xatolarini tuzating.

Yig‘ilishda o‘zingiz va oilangizga tegishli masaladan so‘z ochmang. Mabodo biror suhbatdoshingizning tashqi qiyofasida yoki ust-boshida qandaydir

kamchilikni ko'rsangiz, uni yoningizda o'tirgan suhbatdoshingizga ko'rsatib kulishdan saqlaning.

So'zlaganda so'zlariningiz hammaga tushunarli, ochiq, ravshan bo'lsin. Tushunilishi qiyin bo'lgan iboralarni qo'llamang. Boshingizni sarak-sarak qilib, allanimalarni pichirlab aytib o'tirish tarbiyasizlik ekanini unutmang. (93 ta so'z)

Mukammal tarbiyali inson

Chin, mukammal tarbiyali inson boshqalarga hech bir ozor yetkazmaydi. Takabburlik qilmaydi, hech kimga haqorat ko'zi bilan qaramaydi. Yolg'on so'zlamaydi, rostgo'y bo'ladi. O'zidan kattalarga hurmatli, kichiklarga shafqatli va marhamatli, kular yuzli, shirin so'zli va xushmuomala bo'ladi. Va'dasiga vafo qiladi. Omonatga xiyonat qilmaydi. Ig'vo, g'iybat, munofiqlikdan o'zini saqlaydi. Ota-onasining xuzmatini bajo keltiradi. Ularning o'zidan rozi bo'lishlarga sa'y-harakat qiladi. Qarindosh-urug'laridan aloqasini uzmaydi, ularga mehr-u muhabbatli bo'ladi, qo'shnilarini ranjitmaydi, ular bilan yaxshi murosada bo'ladi. Yomon yo'llardan, yaramas ishlardan, nojo'ya harakatlardan o'zini saqlaydi. Mana shularga o'xshagan go'zal xislatlar mukammal tarbiyali insonda bo'ladi.(84 ta so'z)

Inson va jamiyat

Ulug' mutafakkirlar, donishmandlarning hikmatli so'zlarini mulohaza qilsak, biz faqat o'z shaxsiy foydamizni ko'zlash uchungina dunyoga kelmas ekanmiz. Vatan, qarindosh-urug', do'stlar va umuman har qanday odamga ezgulik qilish, foyda yetkazish uchun dunyoga kelar ekanmiz. Baliq suvda yashagani kabi, inson ham kishilik jamiyati ichida yashaydi. Unsonlar orasida ilm, ma'rifat yuksalgan sari har bir odam boshqa bir odamga muhtoj bo'lganligini sezadi. Masalan, salomatligimizni saqlash uchun shifokorlarning yordami va maslahatiga muhtojmiz. Hatto bir parcha nonimizning qanday vositalar bilan rizq bo'lib, og'zimizga kirganini o'ylab ko'rsak, odamlarning hammasi bir-birlariga bog'liq ekanliklarini tushunamiz. Odam har qancha boy, obro'li, e'tiborli bo'lsa ham, bari bir, boshqalarga muhtoj bo'lmasdan iloji yo'q. (95 ta so'z)

Ilmli bo'lish

Ilm o'rganish eng mo'tabar ishdir. Ilm odamning qadrini oshiradi, ilmli kishilar dunyoda eng izzatli, hurmatli bo'ladilar. Ilm dunyoda odamlar uchun eng sevimli, eng qadrli ne'matdir. Shunday ekan, siz dunyoda rohatda yashashni istasangiz, hamma sizni sevsin desangiz, bor kuchingiz bilan o'qishga, ilm olishga g'ayrat qiling. O'qing, darsga ixlos qoyib o'qing, foydali kitoblardan foyda va lazzat olish uchun o'qing.

Kishining eng aziz, eng shirin va eng qimmatli davri yoshlik davridir. Shunday qimmatli yoshligingizni, aziz umringizni foydasiz ishlarga sarf qilmang.

Bir donishmand:

- Ko‘rkam xulq ikki narsa bilan, ya’ni ilm, odob o‘rganish va yomon ishlardan saqlanish bilan topiladi – degan ekan. (96 ta so‘z)

“O‘ZBEK TILI” FANIDAN UCHUN YAKUNIY BAHOLASH UCHUN TEST SAVOLLARI

1. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi qonuni qabul qilingan sana...
 - a) 1992-yil 31 avgust
 - b) 1990-yil 1-sentabr
 - c) 1989-yil 21-oktabr
 - d) 1995-yil 21-dekabr
2. O‘zbek-lotin alifbosida nechta harf bor?
 - a) 35
 - b) 31
 - c) 29 ta harf va 3 ta harflar birikmasi
 - d) 26 ta harf va 3 ta harflar birikmasi
3. O‘zbek tilida unli tovushlar va harflar nechta?
 - a) 9 ta
 - b) 7 ta
 - c) 6 ta
 - d) 5 ta
4. O‘zbek tilida undosh tovushlar va harflar nechta?
 - a) 20 ta tovush 25 harf
 - b) 24 ta tovush 26 harf
 - c) 24 ta tovush 20 harf 4 ta harflar birikmasi
 - d) 24 ta tovush 20 harf 3 ta harflar birikmasi
5. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gai qonuni qachon yangi tahrirda qabul qilingan?
 - a) 1992-yil 31 avgustda
 - b) 1993-yil 2-sentabrda
 - c) 1989-yil 21-oktabrda
 - d) 1995-yil 21-dekabrda
6. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Davlat tili haqida”gai qonuni necha moddadan iborat?
 - a) 19 ta
 - b) 27 ta
 - c) 30 ta
 - d) 24 ta
7. So‘zlarning qaysi biri xatosiz yozilgan?
 - a) Samarkand
 - b) Samarqan
 - c) Samarqand

d) Samarkant

8. “Jamol” soʻzining sinonimini aniqlang.

a) sahifa

b) ming

c) chehra

d) Bu soʻzning sinonimi yoʻq.

9. Soʻzlarning qaysi biri toʻgʻri yozilgan?

a) Shurva

b) Shoʻrpa

c) Shoʻrbo

d) Shoʻrva

10. “Oziq” soʻzining juftini aniqlang.

a) Nonushta

b) Ozuqa

c) Ovqat

d) Tushlik

11. 1. erta 2. bu yil. 3. keldi. 4. bahor. Soʻzlarni oʻz oʻrniga qoʻyib, gap tuzish mumkin boʻlgan qatorni aniqlang.

a) 1.2.4.3.

b) 2.1.3.4.

c) 2.4.1.3.

d) 4.1.3.2.

12. 1. tort. 2. toʻrt. 3. tur. 4. toʻr. Soʻzlar oʻz oʻrniga toʻgʻri qoʻyiladigan qatorni toping.

1. Sen zudlik bilan joyingdan... 2. Bizga baliq tutadigan ... kerak.

1. Sen uning qoʻlidan ... 4. Uning koʻzi ... boʻldi.

a) 2,1,4,3.

b) 1,2,3,4.

c) 3,4,1,2.

d) 4,1,3,2.

13. Oʻzbek tilida kelishiklar soni nechta?

a) 4 ta

b) 5 ta

c) 6 ta

d) Oʻzbek tilida kelishik kategoriyasi yoʻq.

14. Qaysi gapda kelishik qoʻshimchasi xato yozilgan?

a) Samarqand dunyoning eng qadimiy shaharlaridan biri.

b) Har yili Samarqandga yuz minglab sayyohlar kelishadi.

c) Samarqandda tarixiy obidalar juda koʻp.

d) Samarqandni nonlari tegirmonda tortilgan undan yopiladi.

15. Egalik qoʻshimchlari toʻgʻri qoʻllanmagan qatorni toping.

a) Kitobingizning sahifalari yertilgan edi.

b) Qoʻlingdagi kitobni menga bering.

c) Itning turqidan qoʻrqqulik edi.

d) Bu soʻzimizning isbotini endi koʻrasiz.

16. Kelishiklarning qoʻshimchalarini toʻgʻri qoʻying.

- a) Chiqish kelishigi –ning.
- b) Tushum kelishigi –da.
- c) Qaratqich kelishigi –dan.
- d) Oʻrin-payt kelishigi –ga.

17. Kelishiklarning soʻroqlari toʻgʻri berilgan qatorni toping.

- a) Chiqish kelishigi Kimning? Nimaning?
- b) Tushum kelishigi Kimdan? Nimadan?
- c) Qaratqich kelishigi Kimga? Nimaga?
- d) Oʻrin-payt kelishigi Kimni? Nimani?

18. Egalik qoʻshimchalarining shaxsda toʻgʻri berilgan qatorni aniqlang.

- a) –m, -m 3-shxs birlik.
- b) –i, -si 1-shxs birlik.
- c) –ng, -ing 2-shxs birlik.
- d) –i, -si, -lari 3-shxs birlik.

19. Yer kurrasini boshini tangʻidik. Ushbu misrada qaysi kelishik qoʻshimchasi qoʻllangan?

- a) Qaratqich, chiqish.
- b) Qaratqich, qaratqich.
- c) Qaratqich, jonalish.
- d) Qaratqich, tushum.

20. Egalik qoʻshimchalarining kishilik olmoshlari bilan toʻgʻri qoʻllanadigan qatorni aniqlang.

- a) –ng, -ing Sizning
- b) –i, -si Mening
- c) Toʻgʻri javob yoʻq.
- d) –miz, -imiz, -ngiz, -ingiz Senning, uning olmoshlari bilan.

21. Kesimi shaxs va sonda toʻgʻri tushilgan gapni toping.

- a) Men ertalab Toshkentdan keldim.
- b) Sen ikkita kitob sotib oldim.
- c) Biz har galgidek oʻz vaqtida keldik.
- d) Siz nega yolgʻon gapirdi?

22. Notoʻgʻri qoʻllangan shaxs-son qoʻshimchalarini aniqlang va ular tuzatilgan qatorni toping: 1-ti, 2-lar, 3-miz, 4-m. 1. Ular oʻz vaqtida yetib keldikmi? 2. Men kitoblarni kutubxonaga bugun topshirdingiz. 3. Biz koʻchani kesib oʻtyapman. 4. U oʻzini yaxshi his qilyapsiz.

- a) 1, 4, 2, 3.
- b) 3, 1, 2, 4.
- c) 4, 2, 1, 3.
- d) 2, 4, 3, 1.

23. Qaysi gapda zamon va shaxs-son qo‘shimchasi noto‘g‘ri qo‘llangan?
- a) Biz ertaga bog‘da sayr qildik.
 - b) Biz o‘rtoqlarimiz bilan muzeyga boramiz.
 - c) Biz kecha ikkita fandan sinov topshirdik.
 - d) Biz shaharning bu chetida turamiz.
24. Fe‘ldan yasalgan atoqli otlarni aniqlang.
- a) Asal, Lola, Rayhon, Anor.
 - b) Turdi, Tursun, O‘lmas, Ochil.
 - c) Shirin, Jasur, Mahkam, Ortiq.
 - d) Qo‘chqor, Arslon, Olmaxon, Bo‘ri.
25. Sifatdan yasalgan atoqli otlarni aniqlang.
- a) Temir, Po‘lat, Tesha, Qilich.
 - b) Nodir, Barno, Go‘zal, Botir.
 - c) Lochin, Qo‘zi, Chori, Dagar.
 - d) Bo‘ron, O‘rmon, Bodom, Shakar.
26. To‘g‘ri yozilgan so‘zlar qatorini aniqlang.
- a) Ishonsh, ixtisod, yutal.
 - b) Kabop, koftok, bog‘sha.
 - c) Vijdon, ko‘ylak, bulbul.
 - d) Maxkam, otlik, sandik.
27. Iboralar to‘g‘ri tarjima qilinmagan qatorni toping.
- a) Panja orasidan qaramoq – смотреть сквозь пальцы.
 - b) Nur ustiga a’lo nur – тем лучше
 - c) Indamagan sari boshga chiqdi – совсем потерял совесть.
 - d) Kun sayin emas, soat sayin – не по дням, а по неделям.
28. Ushbu gap to‘g‘ri tarjima qilingan qatorni toping:
В хозяйстве сколько тысяч голов скота?
- a) Xo‘jalikda tuyoqalar soni qancha?
 - b) Xo‘jalikda mollar boshi qancha?
 - c) Xo‘jalikda qoramollar soni qancha?
 - d) Xo‘jalikda qoramollar soni necha mingta?
29. Ми пришли из университета. Ushbu gap to‘g‘ri tarjima qilingan qatorni aniqlang.
- a) Biz universitetga keldik.
 - b) Biz unversitetda keldik.
 - c) Biz unversitetdan keldik.
 - d) Biz unversitetni keldik.
30. Javoblarning qaysi birida sinonimik qator noto‘g‘ri berilgan?
- a) Do‘st, o‘rtoq, birodar.
 - b) Mo‘min qobil, yuvvosh.
 - c) Ulug‘, buyuk, ulkan.
 - d) Qari, keksa, o‘rta yosh.
31. Javoblarning qaysi birida antonimlar noto‘g‘ri berilgan?

- a) katta – kichik
- b) yig‘la – yig‘lama
- c) rost – yolg‘on
- d) oq – qora

32. Javoblarning qaysi birida omonimlar tarjimasini noto‘g‘ri berilgan?

- a) ot – имя
- b) ot – лошадь
- c) ot – кидай, стреляй
- d) ot – имя прилагательное

1-kurs talabalari uchun “O‘zbek tili” fanidan amaliy mashg‘ulot. 2 soat

Reja:

O‘zbek tilining O‘zbekiston Respublikasining davlat tili ekanligi. Davlat tili va yangi alifboni joriy qilish to‘g‘risidagi qonunlar. Bu qonunlarning ahamiyati. O‘zbek tili, uning tarixi, unda yaratilgan badiiy, ilmiy, tarixiy meros. Fonetika va uning obyekti. Tovush va harf. O‘zbek xalqi foydalangan yozuvlar. Imlo va talaffuz. Unli va undosh tovushlar, ularning imlosi, tutuq belgisi, talaffuz va imlodagi o‘xshash va farqli jihatlar. “Mustaqil O‘zbekiston”, “Davlat tili haqida”, “Yangi alifboning joriy etilishi” mavzularida mustaqil matnlar tuzish. Matbuot yangiliklari.

Qo‘llaniladigan taq‘lim texnologiyalari: *dialogok yondashuv, muammoli ta‘lim, Venn diagrammasi, baliq skeleti chizmasi.*

O‘quv mashg‘ulotining ta‘lim texnologiyasi modeli

MAVZU: O‘ZBEKISTON - YAGONA VATAN. O‘ZBEK TILINING UNLI FONEMALARI.

Vaqt: 2 soat	Talabalar soni: 21 nafar
<i>O‘quv mashg‘ulotining shakli va turi:</i>	Amaliy mashg‘ulot.
<i>Dars rejasi (o‘quv mashg‘ulotining tuzilishi):</i>	1. Fon va fonema haqida tushuncha. 2. Unli fonemalar tasnifi. 3. Fonema va ularning variantlari. 4. Unli fonemalarning lab ishtirokiga ko‘ra, tilning tik va yonlama holatiga ko‘ra turlari.
<i>O‘quv mashg‘uloti maqsadi:</i>	Talabalarda fon va fonema haqida tushunchalarni shakllantirish, avvaldan unli tovushlar haqidagi bilim va ko‘nikmalarni chuqurlashtirish, fonema variantlari va ularni farqlashni o‘rgatish orqali to‘g‘ri talaffuz qilish, so‘zlarni o‘z o‘rnida qo‘llay olish va shu orqali ona tiliga bo‘lgan qiziqishlarini orttirish, ona tili va uning so‘z boyliklari bilan faxrlanish tuyg‘ularini tarbiyalash, o‘stirish.

<i>Pedagogik vazifalar:</i> - tilning eng kichik birligi – fonemalarni tanishtirish, fon va fonemani farqlashni o‘rgatish; - unli fonemalar tasnifini berish; - fonemalarning variantlari va ularni farqlash yo‘llarini tushuntirish; - fonemalarning ma’no farqlashdagi asosiy va qo‘shimcha belgilarini tushuntirish.	<i>O‘quv faoliyati natijalari:</i> - talabalar fon va fonemani farqlab, o‘z mulohazalarini misollar bilan ko‘rsatadilar, izohlaydilar; - fonemalarni tasniflaydilar; - fon va fonema tushunchalari orqali fonema va uning variantlarini aytib beradilar; - o‘zbek tili unli fonemalarini lab ishtiroki va tilning tik, yonlama holatiga ko‘ra turlarini tartibli ravishda ochib beradilar.
<i>Ta’lim usullari:</i>	Ma’ruza, aqliy hujum.
<i>Ta’lim shakli:</i>	Frontal, jamoaviy, guruhlarda ishlash.
<i>Ta’lim vositalari:</i>	Ma’ruza matni, doska, bo‘r, tarqatma materiallar.
<i>Ta’lim berish sharoiti:</i>	Dekanat tomonidan dars jadvalida belgilangan, guruh bo‘lib ishlashga mo‘ljallangan stollar, stullar mavjud auditoriya.
<i>Monitoring va baholash:</i>	Og‘zaki so‘rov: tezkor so‘rov. Yozma so‘rov: test.

O‘quv mashg‘ulotining texnologik xaritasi.

MAVZU: O‘ZBEKISTON - YAGONA VATAN. O‘ZBEK TILINING UNLI FONEMALARI.

Ish bosqichlari va vaqti.	Faoliyat mazmuni	
	Ta’lim beruvchi	Ta’lim oluvchilar
1-bosqich. O‘quv mashg‘ulotiga kirish (10 daqiqa)	1.1. Mavzuning nomi, maqsad va kutilayotgan natijalarni yetkazadi. Mashg‘ulot yangi innovatsion texnologiyalar asosidagi amaliy dars tarzida bo‘lishini ma’lum qiladi.	Tinglaydilar, yozib oladilar.
2-bosqich. Asosiy (60 daqiqa)	2.1. Talabalar bilimini suhbat shaklida faollashtiradi (1-ilova). Bilimlarni faollashtirish jarayonida o‘quv muammosini yechish bo‘yicha izlanuvchilik faoliyatida faol ishtirok etishlari uchun talabalarning egallagan bilimlari yetarliligini aniqlaydi. 2.2. Faollashtirilgan bilimlar asosida	Savollarga javob beradilar. Mavzu bo‘yicha o‘z fikrlarini

	talabalarni mashg'ulotda o'rganiladigan mavzuga olib kiradi. 2.3. Talabalarni uch guruhga bo'lib, ularni shartli nomlaydi, guruhlarda ish boshlanganligini ma'lum qiladi, bo'lingan guruhlarining bittadan vakiliga tanlangan matndan belgilangan qismidagi unlilar toptiriladi ulat tasniflanadi, ifodali o'qitiladi va tarjima qildiriladi(2-ilova). 2.4. Tanlangan matndan o'zbekcha tuzilgan lug'at har bir guruhga teng taqsimlanib, so'zlarning rus tilidagi muqobillari toptiriladi (3-ilova). 2.5. Tanlangan so'zlarning tushrib qoldirilgan unlilarini qo'yish va ma'no farqini izohlash topshiriladi(4-ilova). 2.6. Tanlangan so'zlarning unlilari aniqlattiriladi, ularning sinonimlarini aniqlash va izohlash topshiriladi(5-ilova). 2.7. Tanlangan she'riy parchaning unlilari aniqlattiriladi, keyin o'qish va mazmunini aytib berish topshiriladi(6-ilova). 2.8. Mavzuga doir test tarqatilib, ishlatiladi(7-ilova). 2.9. Guruhlarning chiqishlarini boshqaradi, ularning javoblarini doskada baholab boradi, kamchiliklarini to'ldiradi.	bildiradilar. Talabalar matnni ifodali o'qiydi, yangi so'zlarni yozib oladilar, ulardagi unlilarni tahlil qilishadi va ularning o'quv tilidagi muqobilini topishaadi, berilgan so'zlarning ma'nosini, sinonimlarini aniqlab izohlaydi, she'rni o'qib mazmunini aytib berishadi.
3-bosqich. Yakuniy (10 daqiqa)	3.1. Mavzu bo'yicha darsni yakunlaydi. Amalga oshirilgan ishlarning so'zlarni to'g'ri talaffuz etish, tanlash, gap tuzishdagi ahamiyatiga e'tiborni qaratadi. 3.2. Mustaqil bajarib kelish uchun topshiriqlar beradi. 3.2.1. Keyingi darsda o'tiladigan "O'zbek tilining undosh fonemalari" mavzusi bo'yicha tayyorgarlik ko'rib kelish; 3.2.2. Matbuot sahifalaridan yangiliklar tayyorlab kelish topshiriladi.	Tinglaydilar. Topshiriqlarni yozib oladilar.

A L I F B E

A a(o) B b Cc(че) Çç(дж) D d
 E e Əə(a) F f G g Ğğ(ғе)
 H h I i Jj(й) K k L l Mm
 Nn Ŋŋ(нг) O o(ў) Pp
 Q q R r S s Şş(ш) T t
 U u V v X x Z z Z z(ж)

1-ilova. 1940-yilgacha qoʻllangan lotin yozuvi asosidagi oʻzbek alifbosi.

A L I F B O

A a Бб Вв Гг Дд
 Ee Ёё Жж Зз Ии
 Йй Кк Лл Мм Нн
 Oo Пп Рр Сс Тт
 Уу Фф Хх Цц Чч
 Шш Ъъ Ьь Ээ Юю
 Яя Ўў Ққ Ғғ Ҳҳ

2-ilova. 1940-yil may oyida qabul qilingan kirill yozuvi asosidagi oʻzbek alifbosi.

A L I F B O

Lotincha harflar		Kirillcha harflar	Lotincha harflar		Kirillcha harflar
Bosma	Talaffuzi		Bosma	Talaffuzi	
A a	a	А а	R r	re	Р р
B b	be	Б б	S s	es	С с
C c	se	Ц ц	T t	te	Т т
D d	de	Д д	U u	u	У у
E e	e	Э э	V v	ve	В в
F f	ef	Ф ф	X x	xa	Х х
G g	ge	Г г	Y y	ye	Й й
H h	he	Ҳ ҳ	Z z	ze	З з
I i	i	И и	Ç ç	çe	Ч ч
J j	je(Jōra)	Ж ж(Жўра)			
K k	ka	К к	Ğ ğ	ğa	Ғ ғ
L l	el	Л л	Ĵ ĵ	je (ajdod)	Ж ж (аждод)
M m	em	М м	Ñ ñ	ñe	Нг нг

N n	en	Н н	Ōō	ō ōrdak	Ўў (ўрдак)
O o	o (ota)	O o (ota)	Şş	şe	Ш ш
P p	pe	П п	(') tutuq belgisi – apostrof		
Q q	qa	Қ қ			

3-ilova. 1993-yil 2-sentabrda qabul qilingan lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi.

A L I F B O

A a B b D d E e F f
G g H h I i J j K k
L l M m N n O o P p
Q q R r S s T t U u
V v X x Y y Z z O‘o‘
G‘g‘ SHsh CHch Ngng

4-ilova. 1995-yil 6-mayda o‘zgartishlar bilan qabul qilingan lotin yozuviga asoslangan yangi o‘zbek alifbosi.

Mavzu: O‘zbek tilining unli fonemalari va ularning yozuvdagi ifodasi.

Fonetika (yunoncha «tovush») tilshunoslikning nutq tovushlarini didaktik nuqtayi nazardan o‘rganadigan sohasidir.

Harflarning ma’lum tartibda joylashtirilgan yig‘indisiga alfavit (yoki alifbo) deyiladi. Kirill yozuviga asoslangan amaldagi alifboda 33 harf va 2 ta tovush bildirmaydigan belgi mavjud bo‘lib, ular quyidagi tartibda joylashgan: Aa, Бб, Вв, Гг, Дд, Ее, Ёё, Жж, Зз, Ии, Йй, Кк, Лл, Мм, Нн, Оо, Пп, Рр, Сс, Тт, Уу, Фф, Хх, Цц, Чч, Шш, Ъъ, Ыы, Ээ, Юю, Яя, Ўў, Ққ, Ғғ, Ҳҳ.

Bu alifboda rus tiliga xos Щщ, Ъы harflari o‘z ifodasini topmagan. Shunday harf bilan yoziladigan so‘zlar imlo qoidalarimizga ko‘ra *ш ч* harflar birikmasi va *и* harfi bilan yozilaveradi: *боруш* - *borshch*, *уи* - *shchi*, *мещан* - *meshchan*, *Тында* - *Tinda*, *Сычёвка* - *Sichyovka* **kabi**.

Lotin yozuviga asoslanuvchi yangi o‘zbek alifbosida 26 harf va 3 ta harflar birikmasi mavjud. Ularning joylashish tartibi quyidagicha:

Aa, Bb, Dd, Ee, Ff, Gg, Hh, Ii, Jj, Kk, Ll, Mm, Nn, Oo, Pp, Qq, Rr, Ss, Tt, Uu, Vv, Xx, Yy, Zz, O‘o‘, G‘g‘, Sh sh, Ch ch, Ng ng.

Har bir madaniyatli, ma’lumotli, mutaxassis-xodim davlat tilida to‘g‘ri va xatosiz, ta’sirchan va ma’noli, barchaga manzur uslubda yoza olishi va yoza bilishi lozim. Buning uchun esa o‘zbek tilining qonun-qoidalari hamda talaffuz

me'yorlarini yetarli darajada bilishi, ularga o'zining og'zaki va yozma nutqida amal qila olishi kerak¹.

UNLI TOVUSHLAR

Hozirgi o'zbek adabiy tilida oltita unli tovush mavjud deb e'tirof etilgan bo'lib, ular kirill alifbosida o'nta harf bilan yozib kelinmoqda. Ular quyidagilar: **a, o, y, ŷ, и, э, е, ё, я**. Yangi alifboda esa unli tovushlar uchun oltita harf qabul qilingan: **a, o, u, o', i, e**.

1. **Aa** harfi orqali til oldi, lablashmagan, keng unli tovush ifodalanadi. Kirill va lotin yozuviga asoslangan har ikki alifboda bosma shakli ham, yozma shakli ham bir xil. Bu tovush **q, g', x** chuqur til orqa undoshlari bilan yonma-yon kelgan hollarda til orqa unlilik talaffuz qilinishi mumkin: **qarg'a, g'alaba, qalin, xalq, xamir, g'azab** kabi. Qolgan hollarda til oldida talaffuz etiladi: **mana, ona, aka, ota** kabi.

Topshiriq. Quyidagi so'zlarni to'g'ri talaffuz qiling .

Adib, adir, adolat, albatta, alla, amal, ammo, anor, aqlli, arava, ariza, arxar, asbob, atama, axir, axloq, baxt, baqa, buqa, taqa, chaqa, hammom, aholi, mahalla.

2. **Oo** harfi til orqa, lablashgan, keng unli tovushni yozish uchun xizmat qiladi. Uning ko'rinishi ham har ikki alifboda bir xil. Masalan: **olim, opa, olma, bola, xola, chol, navo, davo, ibo** kabi. Faqat o'zlashma baynalmilal so'zlarda [o'], [a], [i] tovushlariga yaqin talaffuz etiladi: **opera, rol, traktor, direktor, okean** kabi.

Topshiriq. Quyida berilgan so'zlarni to'g'ri talaffuz qiling.

Obod, odat, odim, oila, oktabr, olim, omonat, oqim, operator, orol, oson, ozod, ochiq, og'ir, ochko, ocherk, podshoh, poema, qassob, qor, qozon, sochiq, toza, bozor.

3. **Uu** harfi lablashgan, til orqa, tor unli tovushning yozuvdagi ifodasidir. Kirill alifbosida **У у** ko'rinishiga ega edi. Rus tilidagi [y] tovushiga nisbatan qisqaroq talaffuz etiladi: **kuz, uz, buz, uzun** kabi.

Topshiriq. Quyidagi so'zlarni to'g'ri talaffuz qiling.

Ukki, ulug', umid, umuman, urush, uslub, ustoz, uyqu, uzoq, uzum, ushoq, uch, uchqun, mushuk, muchal, quduq, quvur, qum, quruq, buzoq, burun, buyrak, tugun.

4. **O'o'** harfi lablashgan, til orqa, o'rta keng unli tovushni ifodalaydi. Kirill yozuviga asoslangan alifboda **ŷ** ko'rinishiga ega edi. Rus tilida bunday tovush yo'q. Shunga ko'ra bu tovushni [o] va [y] unli tovushlari o'rtalig'idagi tovush deb hisoblash mumkin. Asosan so'zning boshida ko'proq uchraydi, o'zlashma so'zlar oxirida ham uchrab turadi: **o'n, o'lka, o'rtoq, qo'rq, to'rt, bo'g'in, cho'qqi, qo'pol, navro'z, obro'** kabi.

Topshiriq. Quyidagi so'zlarni to'g'ri talaffuz qiling.

¹ Eltazarov Jo'liboy, Donaboyeva Zarnigor. O'zbekcha o'qish kitobi. Reader of the Uzbek Language. Tokio. 2013. 2. Eltazarov Juliboy. Özbekçe öğreniyoruz. Istanbul. 2010. www.iqkultursanat.com

O'jar, o'lan, o'pka, o'rdak, o'roq, o'tkir, o'zak, o'g'il, o'choq, g'o'ra, g'o'za, sho'r, sho'rva, cho'mich, cho'qqi, to'rt, to'siq, to'qay, to'g'ri, ro'yxat, ro'zg'or, so'ri, so'z, no'xat, mo'yna.

5. **Ii** harfi orqali o'zbek tilidagi til oldi, lablashmagan, tor unli tovush ifodalanadi. Kirill alifbosida **И и** shakliga ega edi. Bu tovush ham chuqur til orqa [q], [g'], [x] undosh tovushlari bilan yonma-yon kelganda rus tilidagi [ы] unli tovushiga yaqin talaffuz etiladi: *tiqin, biqin, chaqin, og'iz, bo'g'iz, qiziq, taxir, oxir* kabi. Qolgan hollarda qisqa unli tovush tarzida talaffuz etiladi: *bil, til, biz, siz, bilak, bilan, tilak, tish, ish* kabi.

Topshiriq. Quyidagi so'zlarni to'g'ri talaffuz qiling.

Idish, idora, ijod, ilon, imlo, imzo, igna, inson, iroda, imkon, ixtiro, ixcham, ixtiyor, iqtisod, iqlim, himoya, ahil, ruhiy, hikoya, og'ir, bag'ir, qo'ng'ir.

6. **E e** harfi til oldi, lablashmagan, o'rta keng unli tovushni yozuvda berish uchun xizmat qiladi. Kirill alifbosida **Э э** shakliga ega edi. Asosan so'zning boshida uchraydi: *el, eshik, ekin, ertak, erkak, elak* kabi. Yangi alifboga o'tilgandan so'ng har ikkala holatda ham bir harf qo'llanadigan bo'ladi. Shuningdek, o'zlashma so'zlar o'rtasi va oxirida ham uchraydi: *poeziya, poema, duet, duel, karate* kabi.

Topshiriq. Quyidagi so'zlarni to'g'ri talaffuz qiling.

Egri, ellik, endi, eski, echki, etik, e'tibor, e'tiqod, e'lon, etak, eshak, esdalik, erkin, epchil, enaga, egov, eshak, e'tiroz, eman.

Kirill yozuvi asosidagi alifboda yana **е, ё, ю, я** harflari ham mavjudki, ular [y] lashgan tovushlarni yozuvda ifodalashga xizmat qiladi. E harfi [y] undosh tovushi bilan [e] unli tovushining birikuvidan, ё harfi [y] undosh tovushi bilan [o] unli tovushining birikuvidan, ю harfi [y] undosh tovushi bilan [u] unli tovushining birikuvidan, я harfi esa [y] undosh tovushi bilan [a] unli tovushining birikuvidan hosil bo'lgan tovush birikmalarini yozuvda ifodalaydi. Masalan: *emmu – yetti, елка - yelka, ер - yer, емоқ - yemoq, ёлгон - yolg'on, ёғ - yog', ёмғир - yomg'ir, ёстиқ - yostiқ, юлдуз - yulduz, юмшоқ - yumshoq, юммоқ - yummoq, ютмоқ - yutmoq, яшил - yashil, яқин - yaqin, янтоқ - yantoq, ярим - yarim* kabi. Yangi alifboga o'tilishi bilan so'zlarni bunday turli-tuman yozishlarga barham beriladi.

1995-yil 6-mayda o'zgartishlar bilan qabul qilingan lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosi tarkibi va tartibi:

A a B b D d E e F f G g H h I i J j K k L l M m N n O o P p Q q R r S s T t U u V v X x Y y Z z O' o' G'g' SH sh CH ch Ng ng

1-mashq. Quyidagi so'zlarni tarjima qiling.

O'ngga, chapga, o'ngdan, chapdan, oldda, orqada, olddan, orqadan, olg'a, orqaga, yuqorida, pastda, yuqoriga, pastga, ichkarida, tashqarida, keyin, so'ng, har yerda, hamma joyda, bu yerda, shu yerda, bunda, bu yerdan, u yerdan, juda, g'oyat, nihoyatda, ko'p, oz, kam, bir oz, ozgina, andak, sal-pal, ozroq, deyarli, yetarli, yetarli emas.

2-mashq. Nuqtalar o‘rniga **o** yoki **a** harflaridan mosini qo‘yib, so‘zlarni ko‘chiring.

avv...l	b...shoq	b...dan	b...g‘cha	v...raq
gavh...r	b...la	bog‘b...n	b...tqoq	j...mg‘arma
bolg‘...	alb...tta	d...no	b...rvaqt	varr...k
...shqozon	d...vlat	janj...l	d...ira	jodug...r
...mal	j...nivor	b...xt	v...tan	j...nli
d...ngasa	jann...t	k...sa	...rang	b...hona
v...hima	d...raxt	j...rima	l...la	mot...m
...rcha	b...hor	v...‘da	d...g‘al	m...hir
j...sur	nod...n	vaf...	nord...n	...maki
t...g‘ora	...lti	...dam	t...maki	darv...za
...bod	j...hl	...voz	od...t	osm...n

3-mashq. Nuqtalar o‘rniga **u** yoki **o** harflaridan mosini qo‘yib, so‘zlarni ko‘chiring va tarjima qiling.

...zak	k...z	...pka	...simlik
...o‘zbek	k...z	q...sh	...tkir
d...st	...zoq	s...z	q...sh
...loq	...ch	.zuk	s...z
...rmon	b...taloq	...ch	...zum
...ng	...lug‘	t...rt	t...rmush
...yin	...n	...mid	t...rt
q...ruq	...yinchoq	...n	...nvon
...g‘il	q...m	...y	...roq
t...n	t...g‘ri	...g‘ri	...y
...rtoq	t...n	m...shuk	q...shiq
...yqu	k...l	...nli	q...l
...zun	...lka	k...l	...rg‘u

4-mashq. Lug‘at yordamida quyidagi so‘zlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri yozilganligini aniqlang.

bugun	buyoq	gulxan	bo‘y	kumush
buyin	mo‘mkin	nuqson	bulut	buri
gumbur	bug‘in	kunduz	bug‘ton	musobaqa
no‘qta	bultur	guzal	guruch	gusht
kuchuk	duzax	mushkul	dustlik	pul
juja	burgut	jumrak	dubulg‘a	kuza
muallim	kuylak	mushak	kuklam	pufak
nuxat	burun	muylov	juft	kurshapalak
muddat	pulat	muqaddas	ruyxat	suyak

5-mashq. Nuqtalar o‘rniga **i** yoki **u** harflaridan mosini qo‘yib ko‘chiring.

tuz...m	yo‘z...sh	bul...t	ko‘r...k	..t
kum...sh	to‘q...v	bo‘y...n	o‘r...k	ur...g‘
mud...r	yo‘z...v	to‘lq...n	ko‘ng...l	o‘r...n
mumk...n	to‘q...moq	uchq...n	huq...q	qosh...q

o‘r...n bo‘l...m bur...n ho‘k...z but...n

6-mashq. Nuqtalar o‘rniga **ye, yo, yu, ya** harf birikmalaridan mosini qo‘yib ko‘chiring va tarjima qiling.

...gona	...l	...vinmoq	...v
...lim	...yov	...gurdak	...vvoyi
...dlamoq	...lka	...kun	...lang‘och
...lduz	...z	...ng	...gurmoq
...lla	...z	...zuv	...ngil
...maloq	...r	...r	...zuvchi
...lmog‘iz	...lvormoq	...ngi	...mshoq
...pqa	b...t	...lg‘iz	b...hayo
...proq	...rak	v...rgul	...lg‘on
...rmoq	...sanmoq	d...vor	...xlamoq
...shamoq	...toqxona	bu...m	qu...n
k...lin	bu...k	...shin	s...vinch
ba...n	niho...t	su...k	xa...l
tu...q	t...r	hiko...	sh...r
a...l	su.....q	bo‘.....q	madani...t
imkoni...t	sa...hat	s...zgir	faoli...t
...kshanba	...qumli	...rqiroq	...mon

7-mashq. Alisher Navoiyning “Kelmadi” radifli g‘azalini ifodali o‘qing va tushunganlaringizni hikoya qiling.

Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulro‘ kelmadi,
Ko‘zlarimga kecha tong otkuncha uyqu kelmadi.

Lahza-lahza chiqdim-u, chektim uo‘lida intizor,
Keldi jon og‘zimg‘a-vu, ul shuxi badxo‘ kelmadi.

Orazidek oydin erkonda gar etti ehtiyot,
Ro‘zgorimdek ham o‘lg‘onda qorong‘u kelmadi.

Ul parivash hajridinkim, yig‘ladim devonavor,
Kimsa bormikim, anga ko‘rganda kulgu kelmadi.

Ko‘zlaringdin necha suv kelgay, deb o‘lturmang meni –
Kim bori qon erdi kelgan, bu kecha suv kelmadi.

Tolibi sodiq topilmas, yo‘qsa kim qo‘ydi qadam,
Yo‘lg‘akim, avval qadam ma’shuqi o‘tru kelmadi.

O‘zbekiston – yagona Vatan

Vatan – inson uchun bebaho boylik. Vatanning borligi odamga beqiyos kuch-qudrat, g‘ayrat shijoat baxsh etadi. Shuning uchun ham inson borki, barchasi o‘z vatanini sevib ardoqlaydi, uni hech qanday boylikka alishmaydi, unga nisbatan xavf tug‘iladigan bo‘lsa, yurtini himoya qilish uchun kurashga otlanadi. Birinchi Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, “Vatan tuyg‘usi, vatan tushunchasi biz uchun sajdagohdek pok ulug‘ bo‘lmog‘i kerak!”

Vatan tuyg‘usi shunchalar muqaddaski, bu so‘zni eshitganingda qalblarimiz g‘urur va iftixorga to‘ladi. O‘zib kelayotgan yosh avlod qalbi va ongida Vatanga muhabbat, burchga sadoqat kabi tuyg‘ularini shakllantirish, ertamiz egalarining yurtimiz kelajagi yo‘lidagi intilishi, izlanishlari, jamoat ishlaridagi faol ishtirokini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish borasida keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Zero, vatan tuyg‘usi insonlarga umri davomida hamroh bo‘ladi, yillar sayin sayqallanib boradi. Uning o‘zi qanchalik bebaho bo‘lsa, u bilan bog‘liq tuyg‘ular ham shunchalik bebahodir.

O‘zbekistonda yoshlarni buyuk voris etib tarbiyalash, ularni hech kimdan kam bo‘lmay, sog‘lom va barkamol qilib voyaga yetkazish yo‘lida cheksiz g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, yosh iqtidor egalarini qo‘llab-quvvatlash hamda ijtimoiy faolligini oshirish eng dolzarb vazifalardandir. Ayni chog‘da yurtimizda yoshlarning bilim olishlari, sport bilan shug‘ullanishlari, har tomonlama yetuk shaxs – komil inson bo‘lib yetishishi uchun yaratilayotgan imkoniyatlar natijasida bugungi yoshlarimiz turli sohalarda o‘zining erishayotgan yutuqlari bilan ko‘pchilikni quvontirmoqda, yurtimiz dovrig‘ini ko‘klarga ko‘tarmoqda.

O‘quv mashg‘ulotining ta’lim texnologiyasi modeli
MAVZU: O‘ZBEK TILI – DAVLAT TILI. O‘ZBEK TILINING UNDOSH
FONEMALARI.

Vaqt: 2 soat	Talabalar soni: 21 nafar
<i>O‘quv mashg‘ulotining shakli va turi:</i>	Amaliy mashg‘ulot.
<i>Dars rejasi (o‘quv mashg‘ulotining tuzilishi):</i>	1. Undosh fonemalar haqida tushuncha. 2. Undosh fonemalar tasnifi. 3. Undosh fonemalarning paydo bo‘lish o‘rni va usuliga ko‘ra turlari. 4. Undosh fonemalarning ovoz va shovqin ishtirokiga ko‘ra turlari. 5. Alifbo. O‘zbek xalqi foydalanib kelgan yozuvlar
<i>O‘quv mashg‘uloti maqsadi:</i>	Talabalarda o‘zbek tili undosh fonemalari, ularning paydo bo‘lish o‘rni, usuli hamda ovoz va shovqin ishtirokiga ko‘ra turlari haqidagi tushunchalarni shakllantirish va boyitish, undosh fonemalarning unli fonemalarga ta’siri bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni chuqurlashtirish orqali so‘z ma’nosini farqlashga o‘rgatish, shu asosda to‘g‘ri talaffuz qilish, so‘zlarni o‘z o‘rnida qo‘llay olish va shu orqali ona tiliga bo‘lgan qiziqishlarini orttirish, ona tili va uning so‘z boyliklari bilan faxrlanish tuyg‘ularini o‘stirish, tarbiyalash.
<i>Pedagogik vazifalar:</i> - o‘zbek tilining undosh fonemalari bilan tanishtirish; - undosh fonemalar tasnifini berish; - undosh fonemalarning o‘ziga xos xususiyatlarini tushuntirish; - undosh fonemalarning kuchli va kuchsiz pozetsiyalarda kelish xususiyatlarini ochib berish. - alifbo va o‘zbek xalqi foydalangan yozuvlar tarixidan ma’lumot berish.	<i>O‘quv faoliyati natijalari:</i> - o‘zbek tilining unli va undosh fonemalarining farqlarini ko‘rsatib beradilar, izohlaydilar; - undosh fonemalarni tasniflaydilar; - undosh fonemalarning o‘ziga xususiyatlarini aytib beradilar; - undosh fonemalarning paydo bo‘lish o‘rni, usuli hamda ovoz va shovqin ishtirokiga ko‘ra turlarini tartibli ravishda ochib beradilar; - alifbo va o‘zbek xalqi foydalangan yozuvlar tarixini o‘gzaki bayon etadilar.
<i>Ta’lim usullari:</i>	Ma’ruza, aqliy hujum.
<i>Ta’lim shakli:</i>	Frontal, jamoaviy, guruhlarda ishlash.

<i>Ta'lim vositalari:</i>	Ma'ruza matni, doska, bo'r, tarqatma materiallar.
<i>Ta'lim berish sharoiti:</i>	Dekanat tomonidan dars jadvalida belgilangan auditoriya, guruh bo'lib ishlashga mo'ljallangan stollar, stullar.
<i>Monitoring va baholash:</i>	Og'zaki so'rov: tezkor so'rov. Yozma so'rov: test.

O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi.

MAVZU: O'ZBEK TILI – DAVLAT TILI. O'ZBEK TILINING UNDOSH FONEMALARI.

Ish bosqichlari va vaqti.	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish(10 daq)	1.1. Mavzuning nomi, maqsad va kutilayotgan natijalarni yetkazadi. Mashg'ulot yangi innovatsion texnologiyalar asosidagi amaliy dars tarzida bo'lishini ma'lum qiladi.	Tinglaydilar, yozib oladilar.
2-bosqich. Asosiy (60 daqiqa)	2.1. Talabalar bilimini suhbat shaklida faollashtiradi(1-ilova). Bilimlarni faollashtirish jarayonida o'quv muammosini yechish bo'yicha izlanuvchilik faoliyatida faol ishtirok etishlari uchun talabalarning egallagan bilimlari yetarliligini aniqlaydi. 2.2. Faollashtirilgan bilimlar asosida talabalarni mashg'ulotda o'rganiladigan mavzuga olib kiradi. 2.3. Talabalarni uch guruhga bo'lib, ularni shartli nomlaydi, guruhlarda ish boshlanganligini ma'lum qiladi, bo'lingan guruhlarning bittadan vakiliga tanlangan matndan belgilangan qismidagi undoshlar toptiriladi ulat tasniflanadi, ifodali o'qitiladi va tarjima qildiriladi(2-ilova). 2.4. Tanlangan matndan o'zbekcha tuzilgan lug'at har bir guruhga teng taqsimlanib, so'zlarning rus tilidagi muqobillari toptiriladi (3-ilova). 2.5. Tanlangan so'zlarning tushrib qoldirilgan undoshlarni qo'yish va ma'no farqini izohlash topshiriladi(4-ilova). 2.6 Tanlangan so'zlarning undoshlari	Savollarga javob beradilar. Mavzu bo'yicha o'z fikrlarini bildiradilar. Talabalar matnni ifodali o'qiydi, yangi so'zlarni yozib oladilar, ulardagi unlilarni tahlil qilishadi va ularning o'quv tilidagi muqobilini topishaadi, berilgan so'zlarning

	aniqlattiriladi, ularning sinonimlarini aniqlash va izohlash topshiriladi(5-ilova). 2.7. Tanlangan she'riy parchaning undoshlari aniqlattiriladi, keyin o'qish va mazmunini aytib berish topshiriladi(6-ilova). 2.8. Mavzuga doir test tarqatilib, ishlatiladi(7-ilova). 2.9. Guruhlarning chiqishlarini boshqaradi, ularning javoblarini doskada baholab boradi, kamchiliklarini to'ldiradi.	ma'nosini, sinonimlarini aniqlab izohlaydi, she'rni o'qib mazmunini aytib berishadi.
3-bosqich. Yakuniy (10 daqiqa)	3.1. Mavzu bo'yicha darsni yakunlaydi. Amalga oshirilgan ishlarning so'zlarni to'g'ri talaffuz etish, tanlash va gap tuzishdagi ahamiyatiga e'tiborni qaratadi. 3.2. Mustaqil bajarib kelish uchun topshiriqlar beradi. 3.2.1. Keyingi darsda o'tiladigan "Mustaqil O'zbekiston" mavzusida matn tuzib kelish; 3.2.2. Matbuot sahifalaridan yangiliklar tayyorlash.	Tinglaydilar. Topshiriqlarni yozib oladilar.

Mavzu: O'zbek tilining undosh fonemalari va ularning yozuvdagi ifodasi. Undosh tovushlar

Undosh tovushlar faqat shovqindan yoki ovoz va shovqinning qo'shiluvidan hosil bo'ladi. O'zbek tilidagi undosh tovushlar kirill alifbosida 23 ta harf bilan ifodalanadi. Ular quyidagilar: **б, в, г, д, ж, з, й, к, л, м, н, п, р, с, т, ф, х, ц, ч, ш, к, ғ, ӡ**. Yangi alifboda undosh tovushlar 20 harf va 3 harflar birikmasi bilan ifodalanadi. Ular: **b, d, f, g, h, j, k, l, m, n, p, q, r, s, t, v, x, y, z, g', sh, ch, ng**.

1. **Бб** harfi lab-lab, portlovchi, jarangli undosh tovushni ifodalaydi. Yangi alifboda **Bb** shakliga ega. So'z oxirida jarangsizlangan holda talaffuz etiladi. Qiyoslang: *bola, bobo, obida, maktab, kitob, oftob* kabi.

2. **Вв** lab-lab, sirg'aluvchi, jarangli, o'zlashgan so'zlarda esa lab-tish, portlovchi undosh tovushni ifodalash uchun xizmat qiladi. Yangi alifboda **Vv** ko'rinishiga ega. Misollar: *qovun, sovun, suv, quvon, ov, vint, vagon, vino, vaxta, valent* kabi.

3. **Гг** harfi til orqa, portlovchi, jarangli undosh tovushni ifodalaydi. Yangi alifbodagi ko'rinishi: **Gg**. So'z oxirida, asosan, o'zlashma birliklarda uchraydi. Misollar: *gala, gap, go'sht, bugun, tugun, lagan, enaga, geolog, biolog, xirurg, filolog, monolog* kabi.

4. **Дд** harfi til oldi, portlovchi, jarangli undosh tovushni ifodalaydi. Yangi alifboda **Dd** ko'rinishiga ega. So'z oxirida jarangsizlashadi. Qiyoslang: *dala, doston, badan, odat, saodat, obod, ozod, avlod, daromad, shogird* kabi.

5. **Жж** harfi o'zbek tilida ikki undosh tovushni yozuvda ifodalash uchun xizmat qilib kelyapti. Ulardan biri - fors-tojik, rus tillaridan o'zlashgan so'zlarda uchrovchi til oldi, sirg'aluvchi, jarangli undosh tovush bo'lsa, ikkinchisi - til oldi, qorishiq, portlovchi, jarangli undosh tovushdir. Yangi alifbodagi ko'rinishi - **Jj**. Misollar: *anjuman, ijara, injil, jannat, jajji, ajdar, sajda, tarjima, majmuntol, abajur, jirafa* kabi.

6. **Зз** harfi til oldi, sirg'aluvchi, jarangli undosh tovushni ifodalaydi. Yangi alifboda **Zz** shakliga ega. Misollar: *zarur, aziz, so'z, buzoq, qiziq, oziq, zamon, zo'r, bazo'r, uzuk, bezak* kabi.

7. **Йй** harfi til o'rta, sirg'aluvchi, jarangli undosh tovushni ifodalaydi. Yangi alifboda **Yy** shaklida. Misollar: *yigit, yil, yo'l, uy, to'y, choy, chiroy, o'yin, bo'yin, qiyin, tanglay, manglay* kabi.

8. **Кк** harfi yaqin til orqa, portlovchi, jarangsiz undosh tovushni ifodalash uchun xizmat qiladi. Yangi alifbodagi shakli ham amaldagi alifbodagi shakliga o'xshash: **Rr** Faqat kichik bosma va yozma shaklida ozgina farqi bor: **Kk**. Misollar: *eshik, kurash, kurka, ko'kat, ko'ylak, ko'z, ko'mir, ko'p* kabi.

9. **Лл** harfi til oldi, sirg'aluvchi, jarangli undosh tovushni ifodalaydi. Yangi alifboda **Ll** ko'rinishiga ega. Rus tilidagi shu tovushga nisbatan yumshoq talaffuz etiladi. Misollar: *lab, tol, bol, lola, xola, lo'li, quloq, lotin, oltin, kul, hazil* kabi.

10. **Мм** harfi lab-lab, burun, sonor, portlovchi, jarangli undosh tovushni yozuvda ifodalaydi. Yangi alifboda kichik bosma va yozma shakli bir oz farqli: **Mm**. Misollar: *malika, mumkin, bo'lim, madaniyat, mamnun, sanam* kabi.

11. **Нн** til oldi, portlovchi, burun, jarangli undosh tovushni ifodalaydi. Yangi alifbodagi ko'rinishi – **Nn**. Misollar: *non, obuna, dona, nodir, nazar, necha, namuna, nishon, imkon, tana* kabi.

12. **Пп** lab-lab, portlovchi, jarangsiz undosh tovushni ifodalaydi. Yangi alifboda **Pp** shakliga ega. Misollar: *ko'pik, poliz, opa, pul, parranda, sepkil, ko'p, to'p, qop, sergap, hasip, poytaxt* kabi. **P**

13. **Рр** harfi til oldi, titroq, jarangli undosh tovushni yozuvda ifodalaydi. Yangi alifboda **Rr** ko'rinishiga ega. Misollar: *randa, arra, ari, bo'ri, ruxsat, taxir, temir, ko'r, tarona, orzu* kabi.

14. **Сс** harfi til oldi, sirg'aluvchi, jarangsiz undosh tovushni ifodalash uchun xizmat qiladi. Yangi alifboda **Ss** shakliga ega. Misollar: *sim, mis, sumalak, asosan, havaskor, nafas, olmos, simob, sakkiz* kabi.

15. **Тт** harfi til oldi, portlovchi, jarangsiz undosh tovushni ifodalaydi. Yangi alifboda kichik bosma va yozma shaklida farqi bor: **Tt**. Misollar: *tandir, tomir, tegirmon, ota, katta, tut, ruxsat, rohat* kabi.

16. **Фф** harfi orqali lab-tish, sirg'aluvchi, jarangsiz undosh tovush yozuvda ifodalanib kelinmoqda. Yangi alifbodagi ko'rinishi - **Ff**. Asosan o'zlashma so'zlarda uchraydi. Shuning uchun ham [p] undosh tovushiga yaqin talaffuz etiladi. Misollar: *afandi, fasl, folbin, ofarin, harf, safar, nafar, fil, fikr, naf, saf* kabi.

17. **Xx** harfi chuqur til orqa, sirg'aluvchi, jarangsiz undosh tovushni ifodalaydi. Yangi alifboda ham shunday shaklga ega. Misollar: *xabar, xatar, xotin, taxa, paxta, tarix, mix, sho'x* kabi.

18. **Qu** harfi til oldi, qorishiq, jarangsiz undosh tovushni ifodalaydi. Faqat o'zlashma so'zlardagina uchraganligi tufayli yangi alifboga kiritilmagan. Imlo qoidalari doirasida shunday tovushli so'zlar **s** harfi, **ts** harflar birikmasi bilan yoziladi. Misollar: *sex, konsert, sirk, sement, sirkul, marganes* kabi.

19. **Ch** harfi til oldi, qorishiq, portlovchi, jarangsiz undosh tovushni yozuvda ifodalaydi. Yangi alifboda quyidagi harflar birikmasi bilan berilgan: **Ch ch**. Misollar: *chuchvara, chaqaloq, chumoli, soch, guruch, ishonch, achchiq, chuchuk, chilangar, cho'chqa* kabi.

20. **Sh** harfi til oldi, sirg'aluvchi, jarangsiz undosh tovushni yozuvda ifodalaydi. Yangi alifboda **Shsh** harflar birikmasi bilan beriladi. Misollar: *shamol, shimol, insho, kishi, pashsha, osh, tosh, kumush, tush* kabi.

21. **Kk** harfi o'zbek tilining o'ziga xos chuqur til orqa, portlovchi, jarangsiz undosh tovushini ifodalash uchun xizmat qiladi. Shakl jihatidan **k** harfiga yaqin bo'lganligi uchun ba'zi talabalar talaffuz va yozuvda ularni adashtiradilar. Yangi alifbodagi shakli - **Qq**. Misollar: *qishloq, qoshiq, qarmoq, so'qmoq, ariq, qo'riq, cho'qqi, botqoq, chaqqon, chaqin* kabi.

22. **Ff** harfi orqali til orqa, sirg'aluvchi, jarangli undosh tovush yozuvda ifodalanadi. Yangi alifboda quyidagi ko'rinishga ega: **G'g'**. Misollar: *g'alaba, g'arb, tog'ora, tog'a, bog', qarg'a, to'g'nag'ich, to'g'ri* kabi.

23. **Xx** harfi bo'g'iz, sirg'aluvchi, jarangsiz undosh tovushini ifodalaydi. Yangi alifboda **Hh** ko'rinishiga ega. Shaklan **x** harfiga o'xshash va talaffuzda ham yaqin bo'lganligi uchun bu tovush hamda harflarni chalkashtirish hollari ko'p uchraydi. Yangi alifboga o'tilgandan so'ng ular o'rtasidagi o'xshashlik yo'qolib, xatoliklarga yo'l qo'yish ham barham topadi. Misollar: *halqa, hamma, hosil, ohu, baho, zahar, muhandis, olloh, shoh, guvoh, guruh, siyoh, ahamiyat, suhbat* kabi.

24. O'zbek tilida **ng** harflar birikmasi bilan yozib kelinayotgan til orqa, portlovchi, jarangli undosh tovush mavjud bo'lib, unga alifboda alohida harf ajratilmagan. Yangi alifboda **ng** harflar birikmasi o'z ifodasini topgan: **Ng ng**. Bu tovush so'z boshida uchramaydi. Rus tilida yo'q. Asosan, so'z oxirida, ayrim hollarda so'z o'rtasida ham keladi. Misollar: *tong, ming, bodring, shudring, ko'ngil, singil, yeng, o'ng, durang, keng, rang, chang, kulangi, lungi, garang, ong* kabi.

1-mashq. Quyidagi so'zlarni tarjima qiling, ular ishtirokida birikmalar yasang.

Til, so'z, gap, lug'at, gapirmoq, tinglamoq, yozmoq, o'qimoq, tushunmoq, tushuntirmoq, takrorlamoq, so'ramoq, javob bermoq, so'zlamoq, suhbatlashmoq, aytib bermoq, bajarmoq, yodlamoq, turlamoq, tushlamoq, so'zlashmoq.

2-mashq. Nuqtalar o'rniga **q** yoki **k** harflaridan mosini qo'yib ko'chiring.

Yangi yil bayrami turli mamla...atlarda, turli xal... va elatlarda turli paytlarda turlicha ...utib olinadi. Jumladan, Yaponiyada yangi yil bayramiga tayyorgarli... bir necha ...un avvalroq boshlanib ...etadi. Barcha hovli-joy, uy

eshi...lari oldiga bambu... va yosh ...ayin daraxtining shox-shabballari osib ...o‘yiladi. Yangi yil ...uni tun yarmida ul...an ...o‘ng‘iro...qlar 108 marta zang urib yangi yilning ...irib ...elayotganligidan xabar beradi.

3-mashq. Nuqtalar o‘rniga **d** yoki **t** harflaridan mosini qo‘yib ko‘chiring.

daroma...	xushoma...	ta...qiqot	marvari...
...utor	daf...ar	tanqi...	do...
taraddu...	ta’ki...	di...li	tas...iq
...utun	diyona...	dar...	darax...
davla...	ta...bir	tobu...	ozo...
tin...uv	maqsa...	tan...ir	...elpak

4-mashq. Quyidagi so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qiling:

viydon	jazo	ajdar	jo‘ja
javobgar	gijda	jannat	jarima
mujda	jajji	jayron	janr
javohir	jadval	abajur	abjir
jallod	ajdod	jamiyat	jamo
jahongir	jasur	jasorat	juma
janjal	majlis	natija	jang

5-mashq. Nuqtalar o‘rniga **p** yoki **f** harflaridan mosini qo‘yib so‘zlarni ko‘chiring va talaffuz kiling:

na...is	...alokat	...aypoq	...e’l
...atir	...an	...akana	...il
...axta	...azanda	...armon	...ul
...ichoq	...oyda	...asl	...iribgar
...aydo	...arzand	...aranji	...archa
...ikr	...arishta	...arvarda	...arhez
...ursat	...ast	ka...alak	ka...t
na...aqa	qa...as	...o‘stin	...uqaro
na...as	o...at	tu...roq	cho‘...on

6-mashq. Nuqtalar o‘rniga **h** yoki **x** harflaridan mosini qo‘yib ko‘chiring va hosil bo‘lgan so‘zlarni ovoz chiqarib o‘qing:

a....moq	a...loq	ba....o	za....ar	mu....im
nu...at	a...oli	ba....or	sa...ar	ni...ol
ma...alla	ba...mal	tu....mat	...alol	va...shiy
...azina	ba...t	guno...	ta....ir	ollo...
...osil	a....vol	ja...on	...ozir	...alq
...at	...asis	podsho...	...ursand	...arf
do‘za....	mi....	tari....	nar....	sho‘....
qada...	jarro...	guru....	sul...	siyo....

7-mashq. Qo‘sh undoshli so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishni o‘rganing.

mitti	yetti	bitta	attang	katta
alla	chinni	gijja	jinni	achchiq
balli	ukki	dakki	ziddiyat	ashaddiy
amma	ammo	arra	kalla	malla

diqqat	izzat	millat	barra	hakka
issiq	battar	qirra	do'ppi	yo'llanma

8-mashq. Quyidagi [ng] diftongini to'g'ri talaffuz qilishni o'rganing, ular mavjud bo'lgan so'zlarni o'qing, tarjima qiling va 10 ta gap tuzing.

Rang, keng, bodring, dong, ming, teng, tong, tang, mung, jang, ohang, lang, zang, ong, chang, arang, tarang, garang, bang, o'ng, durang, yeng, yeng, attang, farang, gung, go'ng, gurung, nahang, so'ng, piching, ko'ndalang, tajang, ko'ngil, singil, dongdor, tanga, jangnoma, tangri, mingdevona, kulangi, yalang, nayrang, bashang, lapashang, shudring, yiring, yung, do'ng, jiring.

9-mashq. Quyidagi so'zlarni tarjima qiling, ularning yozilishi va talaffuziga e'tibor bering. Bunday so'zlar tilshunoslikda qanday nomalanadi?

ayon – a'yon	alam - a'lam	bad - ba'd
davo - da'vo	zafaron - za'faron	matal - ma'tal
nasha - nash'a	sanat - san'at	surat - sur'at
tana - ta'na	eti bor-e'tibor	tarif - ta'rif
taqib - ta'qib	tasir-tusur - ta'sir	sher - she'r
sava - sa'va	qala - qal'a	qada - qa'da
shuba - shu'ba	davosiz – da'vosiz	talat - tal'at
devon – divan	ong – o'ng	asl - asil
zar – zor	qayd – qayt	to'rt - turt

10-mashq. Shaklan bir-biriga yaqin bo'lgan quyidagi paronim so'zlarni o'qing, to'g'ri talaffuz qiling, o'z tilingizga o'giring. Rus tilidan paronimlarga misollar keltiring.

qoloq - quloq	qo'riq – ko'rik	o'zim - uzum
qattiq - qatiq	xabar - xatar	xato - hatto
qo'ra - g'o'ra	pakana - chakana	chevar - sevar
kuchuk - chuchuk	shavkat - shafqat	shamol - shimol
shoir - shior	shohid - shahid	kiyik - kuyik
muhr - mehr	sehr - sigir	qayiq - qiyiq
mayna - mo'yna	asir - asr	qasr - kasr

11-mashq. Quyidagi so'zlarda *x* yoki *h* harfining noto'g'ri qo'llangan holatlarini aniqlang va tuzatib ko'chiring.

Xo'randa, hakka, haqiqat, xadik, hamisha, xalokat, hasharot, ho'tik, xalokat, hammom, xamon, ho'rak, xotira, ho'jalik, xamirturush, hurofot, xandalak, maxorat, xarom, halim, homtok, honaqoh, homtama, hoin, xarorat, xudud, tahdid, xo'plamoq, hoxlamoq, hokim, hokisor, xilma-hil, xat-habar, ohista, hatar, hamsa, ximoya, halta, hushhavo, haloskor, xasad, xijrat, tuxum, ximmat, hontaxta, xisobot, hodimgar, honanda, xukmdor, muhabbat, xuquq, xujra, xurmoq.

12-mashq. Ahmad Yassaviyning "O'taro" radifli g'azalini ifodali o'qing va mazmunini hikoya qiling.

Beshak biling, bu dunyo barcha xalqdin o'taro,
Inonmag'il molingga, bir kun qo'ldan ketaro.

Ota-ona, qarindosh qayon ketti, fikr qil,
To'rt oyog'lig' cho'bin ot bir kun senga yetaro.

Dunyo uchun g'am yema, Haqdin o'zgani dema,
Kishi molini yema, sirot uzra tutaro.

Ahli ayol, qarindosh – hech kim bo'lmaydur yo'ldosh,
Mardona bo'l, g'arib bosh, umring yeldek o'taro.

Qul Xoja Ahmad, toat qil, umring bilmam necha yil,
Asling bilsang ob-u gil, yana gilga ketaro!

O'ZBEK TILI – DAVLAT TILI

O'zbek tili XI asrdan boshlab mustaqil til sifatida shakllana boshladi va XIV asrga kelib mustaqil o'zbek adabiy tili darajasiga ko'tarildi. Faqat ushbu davrda turkiy til yoki turk tili kabi nomlar bilan atalib kelingan. Hozir turkiy tillarda so'zlashuvchi turk, ozarbayjon, qozoq, qirg'iz, turkman, tatar, uyg'ur, qoraqalpoq, chuvash, yoqut, nug'ay, gagauz va boshqa xalqlar, shu jumladan, o'zbeklarning ajdodlari XI asrgacha qadimgi turkiy tilda gaplashgan. Qadimgi turk tilida yaratilgan O'rxun- Enasoy yodgorliklari, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Ahmad Yugnakiyning "Hibatul haqoyiq" kabi asarlari bizgacha yetib kelgan.

O'zbek tili asrlar davomida jamiyat hayoti bilan chambarchas bog'liq holda rivojlanib keldi. Bu tilda juda ko'p badiiy, ilmiy, tarixiy asarlar yaratildi.

O'zbek adabiy tilining rivojlanishida buyuki shoir, mutafakkir olim Alisher Navoiyning xizmatlari juda katta. Alisher Navoiy o'zining badiiy va ilmiy asarlari bilan o'zbek tilining dunyodagi boy tillardan biri ekanligini nazariy isbotlab, amaliy jihatdan asoslab berdi. Alisher Navoiygacha Ahmad Yassaviy, Xorazmiy, Qutb, Sayfi Saroiy, Durbek, Haydar Xorazmiy, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy kabi mashhur so'z ustalari o'zbek tilida ijod etishgan bo'lsa, undan so'ng bu tilda ijod etuvchilarning soni yanada ortib bordi. O'zbek adabiy tilining rivojida Zahiriddin Muhammad Bobur, Nodira, Furqat, Muqimiy, Zavqiy, Ogahiy, Komil Xorazmiy, Avaz O'tar, Usmon Nosir, Cho'lpon, Qodiriy, Oybek, G'.G'ulom, A.Qahhor va boshqa ko'plab shoir, yozuvchilarning xizmati kattadir.

1989-yil 21-oktabrda O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonuni qabul qilindi. O'zbek tiliga O'zbekiston Respublikasining davlat tili huquqi berildi. Har yili o'zbek tiliga davlat tili huquqi berilgan 21-oktabr sanasi o'zbek tili kuni sifatida keng nishonlanib kelinadi. O'zbekistonning 1991-yil 1-sentabrdan mustaqil davlat deb e'lon qilinishi bilan mazkur Qonunning davrdan ortda qolayotgan ayrim moddalarini qayta tahrir qilishga to'g'ri keldi. 1995- yil 21-dekabrda "Davlat tili haqidagi" Qonun yangi tahrirda qabul qilindi. Mazkur Qonun 24 moddadan iborat. Uning 1-moddasida O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tili ekanligi ta'kidlangan.

1993-yil 2-sentabrda "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida" Qonun qabul qilindi. Mazkur qonunlarga binoan O'zbekiston Respublikasidagi barsha o'rta umumta'lim maktablari, litseylar, kollejlari, oliy o'quv yurtlarida 2010-yil 1-sentabrdan davlat tilida yangi alifboda o'qish-o'qitish ishlari va ish qog'ozlari yuritishga to'liq o'tildi.

Mazkur Qonunlarga binoan respublikamizdagi maktablar, litseylar, kollejlari, oliy o'quv yurtlarining boshqa tillarda ta'lim-tarbiya olub boriladigan guruhlari o'quvchilari va talabalariga ham o'zbek tili chuqur o'rgatilmoqda. Korxonalarda ham ish yuritish davlat tilida lotin yozuviga asoslangan yangi alifboda olib borishga bosqichma-bosqich o'tilmoqda.

TOPSHIRIQLAR

1. Matnni tarjima qiling.
2. Matndagi unlilarni talaffuzi va imlosiga ko'ra tahlil qiling.
3. Matn yuzasidan savollar tuzing.
4. Matn mazmunini o'zbek tilida va ona tilingizda gapirib bering.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI DAVLAT TILI HAQIDA (yangi tahrirda)

1-modda. O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir.

2-modda. O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi respublika hududida yashovchi millat va elatlarning o'z ona tilini qo'llashdan iborat konstitutsiyaviy huquqlariga monelik qilmaydi.

3-modda. O'zbek tilining O'zbekiston Respublikasi hududida davlat tili sifatida amal qilishining huquqiy asoslari ushbu Qonun va boshqa qonunlar bilan belgilab beriladi.

Tilning Qoraqalpog'iston Respublikasida amal qilishiga bog'liq masalalar, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasining qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Ushbu Qonun tillarning turmushda, shaxslararo muomalada hamda diniy va ibodat bilan bog'liq udumlarni ado etishda qo'llanishini tartibga solmaydi.

Fuqarolar millatlararo muomala tilini o'z xohishlariga ko'ra tanlash huquqiga egadirlar.

4-modda. O'zbekiston Respublikasida davlat tilini o'rganish uchun barcha fuqarolarga shart-sharoit hamda uning hududida yashovchi millatlar va elatlarning tillariga izzat-hurmat bilan munosabatda bo'lish ta'minlanadi, bu tillarni rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratiladi.

Fuqarolarga davlat tilini o'qitish bepul amalga oshiriladi.

5-modda. O'zbekiston Respublikasida davlat tilida faoliyat ko'rsatadigan, milliy guruhlar zich yashaydigan joylarda esa — ularning tillarida faoliyat ko'rsatadigan maktabgacha tarbiya, bolalar muassasalarini tashkil etish ta'minlanadi.

6-modda. O'zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslarga ta'lim olish tilini

erkin tanlash huquqi beriladi.

O'zbekiston Respublikasi davlat tilida, shuningdek boshqa tillarda ham umumiy, hunar-texnika, o'rta maxsus va oliy ma'lumot olishni ta'minlaydi.

7-modda. Davlat tili rasmiy amal qiladigan doiralarda o'zbek adabiy tilining ilmiy qoidalari va normalariga rioya etiladi.

Davlat o'zbek tilining boyitilishi va takomillashtirilishini ta'minlaydi, shu jumladan unga hamma e'tirof qilgan ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy-siyosiy atamalarni joriy etish hisobiga ta'minlaydi.

Yangi ilmiy asoslangan atamalar jamoatchilik muhokamasidan keyin va Oliy Majlis tegishli qo'mitasining roziligi bilan o'zbek tiliga joriy etiladi.

8-modda. O'zbekiston Respublikasining qonunlari, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining boshqa hujjatlari davlat tilida qabul qilinadi va e'lon etiladi. Bu hujjatlarning tarjimalari boshqa tillarda ham e'lon qilinadi.

Mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining hujjatlari davlat tilida qabul qilinadi va e'lon etiladi. Muayyan millat vakillari zich yashaydigan joylarda mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining hujjatlari respublika davlat tilida hamda mazkur millat tilida qabul qilinadi va e'lon etiladi.

9-modda. Davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida ish davlat tilida yuritiladi va zaruriyatga qarab boshqa tillarga tarjima qilinishi ta'minlanadi.

O'zbekistonda o'tkaziladigan xalqaro anjumanlarda davlat tili, shuningdek qatnashchilarning o'zlari tanlagan tillar anjumaning ish tili hisoblanadi.

10-modda. Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalarida ish yuritish, hisob-kitob, statistika va moliya hujjatlari davlat tilida yuritiladi, ishlovchilarning ko'pchiligi o'zbek tilini bilmaydigan jamoalarda davlat tili bilan bir qatorda boshqa tillarda ham amalga oshirilishi mumkin.

11-modda. Sudlov ishlarini yuritish davlat tilida yoki o'sha joydagi ko'pchilik aholi tilida olib boriladi. Ishda ishtirok etayotgan, sud ishlari yuritilayotgan tilni bilmaydigan shaxslarga tarjimon orqali ishga oid materiallar bilan tanishish, sud jarayonida ishtirok etish huquqi hamda ona tilida so'zlash huquqi ta'minlanadi.

Korxonalar, tashkilotlar va muassasalar o'rtasidagi xo'jalik nizolarini ko'rib chiqish va hal qilishda davlat tili qo'llaniladi. Xo'jalik nizolari taraflarning roziligi bilan boshqa tilda ham ko'rib chiqilishi mumkin.

12-modda. O'zbekiston Respublikasida notarial harakatlar davlat tilida amalga oshiriladi. Fuqarolarning talabiga ko'ra rasmiylashtirilgan hujjat matni davlat notariusi yoki notarial harakatni bajarayotgan shaxs tomonidan rus tilida yoki imkoniyat bo'lgan taqdirda - boshqa maqbul tilda beriladi.

13-modda. Fuqarolik holatini qayd etuvchi hujjatlar, shaxsning kim ekanligini va uning huquqlarini tasdiqlovchi hujjatlar davlat tilida rasmiylashtiriladi, zaruriyatga qarab boshqa tilda tarjimasi takrorlanishi mumkin.

14-modda. O'zbekiston Respublikasi hududida yashovchi shaxslarga davlat tashkilotlari va muassasalariga, jamoat birlashmalariga arizalar, takliflar, shikoyatlar bilan davlat tilida va boshqa tillarda murojaat qilish huquqi ta'minlanadi.

15-modda. O'zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslar, o'z millatidan

qat'i nazar, o'z ismini, ota ismi va familiyasini milliy-tarixiy an'analarga muvofiq yozish huquqiga egadirlar.

16-modda. Televideniye va radio eshittirishlari davlat tilida, shuningdek boshqa tillarda olib boriladi.

17-modda. Noshirlik faoliyati davlat tilida, ehtiyojlarni hisobga olgan holda esa, boshqa tillarda ham amalga oshiriladi.

18-modda. Pochta-telegraf jo'natmalari davlat tilida yoki fuqarolarning xohishiga ko'ra - boshqa tilda ham amalga oshiriladi.

19-modda. Muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalari muhrlari, tamg'alari, ish qog'ozlarining matnlari davlat tilida bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan xalqaro tashkilotlar va muassasalar, qo'shma korxonalarining, shuningdek milliy madaniyat jamiyatlari va markazlarining muhrlari, tamg'alari, ish qog'ozlari matnlarining tarjimasi davlat tilida takrorlanadi.

20-modda. Lavhalar, e'lonlar, narxnomalar va boshqa ko'rgazmali hamda og'zaki axborot matnlari davlat tilida rasmiylashtiriladi va e'lon qilinadi hamda boshqa tillarda tarjimasi berilishi mumkin.

21-modda. Korxonalarda ishlab chiqariladigan mahsulot davlat tillidagi va boshqa tillardagi yorliqlar, yo'riqnomalar, etiketkalar bilan ta'minlanadi.

22-modda. Respublikaning ma'muriy-hududiy birliklari, maydonlari, ko'chalari va geografik obyektlarining nomlari davlat tilida aks ettiriladi.

23-modda. O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi matnlari, agar shartnomaning o'zida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, davlat tilida va ahdlashuvchi tomonning (tomonlarning) tilida yoziladi.

24-modda. O'zbekiston Respublikasida davlat tiliga yoki boshqa tillarga mensimay yoki xusumat bilan qarash taqiqlanadi. Fuqarolarning o'zaro muomala, tarbiya va ta'lim olish tilini erkin tanlash huquqini amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

Toshkent shahri, 1995-yil 21-dekabr.

O'quv mashg'ulotining ta'lim texnologiyasi modeli
MAVZU: DAVLAT RAMZLARI (MADHIYA, BAYROQ, GERB). 2 SOAT

Vaqt: 2 soat	Talabalar soni: 21 nafar
<i>O'quv mashg'ulotining shakli va turi:</i>	Amaliy mashg'ulot.
<i>Dars rejasi (o'quv mashg'ulotining tuzilishi):</i>	1. Mavzuga oid matnni o'qib tushunish. 2. Matndagi termin va iboralarni ma'nosini izohlash. 3. Matnga munosabat bildirib so'zlash. 4. Talaba haqidagi tushunchalarni yozish. Davlat ramzlari haqida polilog tuzish. 5. O'tgan zamon fe'li.
<i>O'quv mashg'uloti maqsadi:</i>	Talabalarda o'tgan zamon fe'li haqida tushunchalarni shakllantirish, avvaldan o'tgan zamon fe'li haqidagi bilim va ko'nikmalarni chuqurlashtirish, o'tgan zamon fe'lini matnda o'z o'rnida qo'llay olish va shu orqali ona tiliga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, ona tili va uning so'z boyliklari bilan faxrlanish tuyg'ularini tarbiyalash, o'stirish.
<i>Pedagogik vazifalar:</i> - Fe'llarning zamon shakllari: o'tgan zamon, hozirgi zamon, kelasi zamon shakllari bilan tanishtirish, Fe'l zamonlarini hosil qiluvchi qo'shimchalarni farqlashni o'rgatish; - matndan o'tgan zamon fe'llarini ajratishni tushuntirish;	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i> - talabalar fe'llarning zamon shakllarini: o'tgan zamon, hozirgi zamon, kelasi zamon shakllarini farqlab, o'z mulohazalarini misollar bilan ko'rsatadilar, izohlaydilar; - fe'l zamonlarini tasniflaydilar; - Fe'l zamonlarini hosil qiluvchi qo'shimchalarni farqlaydilar, aytib beradilar; - matndan o'tgan zamon fe'llarini ajratadilar, mustaqil misollar keltiradilar
<i>Ta'lim usullari:</i>	Ma'ruza, aqliy hujum.
<i>Ta'lim shakli:</i>	Frontal, jamoaviy, guruhlarda ishlash.
<i>Ta'lim vositalari:</i>	Ma'ruza matni, doska, bo'r, tarqatma materiallar.
<i>Ta'lim berish sharoiti:</i>	Dekanat tomonidan dars jadvalida belgilangan, guruh bo'lib ishlashga mo'ljallangan stollar, stullar mavjud auditoriya.
<i>Monitoring va baholash:</i>	Og'zaki so'rov: tezkor so'rov. Yozma so'rov: test.

O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi.
MAVZU: DAVLAT RAMZLARI (MADHIYA, BAYROQ, GERB). 2 SOAT

Ish bosqichlari va vaqti.	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (10 daqiqa)	1.1. Mavzuning nomi, maqsad va kutilayotgan natijalarni yetkazadi. Mashg'ulot yangi innovatsion texnologiyalar asosidagi amaliy dars tarzida bo'lishini ma'lum qiladi.	Tinglaydilar, yozib oladilar.
2-bosqich. Asosiy (60 daqiqa)	2.1. Talabalar bilimini suhbat shaklida faollashtiradi (1-ilova). Bilimlarni faollashtirish jarayonida o'quv muammosini yechish bo'yicha izlanuvchilik faoliyatida faol ishtirok etishlari uchun talabalarning egallagan bilimlari yetarliligini aniqlaydi. 2.2. Faollashtirilgan bilimlar asosida talabalarni mashg'ulotda o'rganiladigan mavzuga olib kiradi. 2.3. Talabalarda o'tgan zamon fe'li haqida tushunchlarni shakllantirish, avvaldan o'tgan zamon fe'li haqidagi bilim va ko'nikmalarni chuqurlashtirish, o'tgan zamon fe'lini matnda o'z o'rnida qo'llay olish (2-ilova). 2.4. Tanlangan matndan o'zbekcha tuzilgan lug'at har bir guruhga teng taqsimlanib, so'zlarning rus tilidagi muqobillari toptiriladi (3-ilova). 2.5. Tanlangan so'zlarning tushrib qoldirilgan unlilarini qo'yish va ma'no farqini izohlash topshiriladi(4-ilova). 2.6. Tanlangan so'zlarning unlilari aniqlattiriladi, ularning sinonimlarini aniqlash va izohlash topshiriladi(5-ilova). 2.7. Tanlangan she'riy parchaning unlilari aniqlattiriladi, keyin o'qish va mazmunini aytib berish topshiriladi(6-ilova). 2.8. Mavzuga doir test tarqatilib, ishlatiladi(7-ilova). 2.9. Guruhlarning chiqishlarini boshqaradi, ularning javoblarini doskada baholab boradi, kamchiliklarini to'ldiradi.	Savollarga javob beradilar. Mavzu bo'yicha o'z fikrlarini bildiradilar. Talabalar matnni ifodali o'qiydi, yangi so'zlarni yozib oladilar, ulardagi unlilarni tahlil qilishadi va ularning o'quv tilidagi muqobilini topishaadi, berilgan so'zlarning ma'nosini, sinonimlarini aniqlab izohlaydi, she'ni o'qib mazmunini aytib berishadi.

3-bosqich. Yakuniy (10 daqiqa)	3.1. Mavzu bo'yicha darsni yakunlaydi. Amalga oshirilgan ishlarning so'zlarni to'g'ri talaffuz etish, tanlash, gap tuzishdagi ahamiyatiga e'tiborni qaratadi. 3.2. Mustaqil bajarib kelish uchun topshiriqlar beradi. 3.2.1. Keyingi darsda o'tiladigan "Ulug' ajdodlarimiz" mavzusi bo'yicha tayyorgarlik ko'rib kelish; 3.2.2. Matbuot sahifalaridan yangiliklar tayyorlab kelish topshiriladi.	Tinglaydilar. Topshiriqlarni yozib oladilar.
---	---	---

MAVZU: DAVLAT RAMZLARI (MADHIYA, BAYROQ, GERB). 2 SOAT

Reja:

1. Matbuot yangiliklari.
2. Uyga berilgan vazifalarni so'rab, yozma bajarilganlarini tekshirish.
3. Matnni ifodali o'qitishsh.
4. Matnning notanish so'zlarini aniqlatishsh va ular asosida lug'at tuzdirish.
5. Mavzuga oid matnni o'qib tushunish. Matndagi termin va iboralarni ma'nosini izohlash. Matnga munosabat bildirib so'zlash.
6. Talaba haqidagi tushunchalarni yozish. Davlat ramzlari haqida polilog tuzish.
7. O'zbek tilining imlo qoidalari
8. Uyga vazifa: keyingi darsda o'tiladigan matnning tegishli qismini o'qish, matn bo'yicha lug'at tuzish, matbuot sahifalaridan yangiliklar tayyorlab kelish topshiriladi.

O'ZBEKISTON RESIPUBLIKASI DAVLAT MADHIYASI

Abdulla Oripov so'zi, Mutal Burhonov musiqasi.

Serquyosh, hur o'lkam, elga baxt, najot,
Sen o'zing do'stlarga yo'ldosh, mehribon!
Yashnagay to abad ilm-u fan, ijod.
Shuhrating porlasin toki bor jahon!

NAQORAT:

Oltin bu vodiylar – jon O'zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,
Olamlni mahliyo aylagan diyor!

Bag'ri keng o'zbekning o'chmas iymoni,
Erkin, yosh avlodlar senga zo'r qanot!
Istiqlol mash'ali, tinchlik posboni.
Haqsevar, ona-yurt, mangu bo'l obod!

NAQORAT:

Oltin bu vodiylar – jon O‘zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT BAYROG‘I

O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘i va uning ramzi bugungi O‘zbekiston sarhadida qadimda mavjud bo‘lgan davlatlar bilan tarixan bog‘liqligini anglatadi hamda respublikaning milliy-madaniy an‘analarini o‘zida mujassamlashtiradi.

1. Bayroqda aks etgan moviy rang tiriklik mazmuni aks etgan mangu osmon va obihayot ramzidir. Geraldika tilida bu – yaxshilikni, donishmandlikni, halollikni, shon-shuhrat va sadoqatni bildiradi. Binobarin, Amir Temur davlati bayrog‘ining rangi ham moviy rangda edi.

2. Bayroqdagi oq rang – muqaddas tinchlik ramzi bo‘lib, u kun charog‘onligi va koinot yoritqichlari bilan uyg‘unlashib ketadi. Oq rang poklik, beg‘uborlik, soflik, orzu va xayollar tozaligi, ichki go‘zallikka intilishning timsollari.

3. Yashil rang – tabiatning yangilanishi ramzi. U ko‘pgina xalqlarda navqironlik, umid va shodumonlik timsoli hisoblanadi.

4. Qizil chiziqlar vujudimizda jo‘shib oqayotgan hayotiy qudrat irmoqlaridir.

5. Navqiron yarim oy tasviri bizning tarixiy an‘analarimiz bilan bog‘liqdir. Ayni paytda qo‘lga kiritilgan mustaqilligimiz ramzidir.

6. Yulduzlar barcha xalqlar uchun ruhoniyl, ilohiy timsol sanalgan. O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘idagi 12 yulduz tasviri ham tarixiy an‘analarimiz, qadimgi quyosh yilnomamizga bevosita aloqadordir. Bizning o‘n ikki yulduzga bo‘lgan e‘tiborimiz O‘zbekiston sarhadidagi qadimgi davlatlar ilmiy tafakkurida “Nujum ilmi” taraqqiy etganligi bilan ham izohlanadi. Davlat bayrog‘imizdagi o‘n ikki yulduz tasvirini o‘zbek xalqi madaniyati qadimiyligi, uning komillikka, o‘z tuprog‘ida saodatga intilishi ramzi sifatida tushunish lozim.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT GERBI

O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi xalqimizning ko‘p asrlik milliy davlatchilik tajribasi asosida yaratildi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi gullagan vodiy uzra charaqlab turgan quyosh tasviridan hamda o‘ng tomonida bug‘doy boshlari, so‘l tomonida ochilgan paxta chanoqlari surati tushirilgan chambardan iboratdir.

Gerbning yuqori qismida Respublika jipsligining ramzi sifatida sakkiz qirrali yulduz tasvirlangan: sakkiz qirra ichida joylashgan yarim oy va yulduz musulmonlarning qutlug‘ ramzidir.

Gerb markazida himmat, olijanoblik va fidoyilik timsoli bo‘lgan afsonaviy humo qushi qanotlarini yozib turibdi. Ushbu ramz va timsollar xalqimizning

tinchlik, osoyishtalik, yaxshilik, baxt-saodat, eson-omonlik yo‘lidagi orzu-umidlarini ifodalaydi.

Gerbning pastki qismidagi respublika Davlat bayrog‘ini ifodalovchi uch rangdagi chambar bandida “O‘zbekiston” so‘zi bitilgan.

“Gerb” so‘zining tarixi haqida qisqacha ma’lumot:

“Gerb” so‘zi nemischa “Erbo” so‘zidan olingan bo‘lib, shohlar va hukmdorlarga davlat, sarhad, hudud va boshqa nasldan-naslga meros qoluvchi mulk belgisini anglatadi.

Bundan 2500 yil muqaddam Erondan Oltoyga qadar cho‘zilgan ulkan sarhadda hukm surgan qadimgi turk xoni O‘g‘uzxon davrida ham turkcha “Tamg‘a” so‘zi aynan shu ma’noni bildirar edi.

XII asrning mashhur tarixchisi Rashiddin Hamadoniy “Tanlangan tarixlar” nomli kitobida shahodat berishicha, O‘g‘uzxon o‘z mol-mulkini o‘g‘illariga ulus sifatida kichik davlatlarga bo‘lib, in’om etgan. Ushbu davlatlar hukmdorlari ham o‘zlarining xonlik tamg‘alariga ega edilar. Ko‘rinib turibdiki, “Tamg‘a” so‘zining ma’nosi nemischa “Erbo” so‘zining ma’nosiga to‘la mos keladi.

O‘zbek tilining imlo qoidalari

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo‘lga kiritgandan so‘ng o‘zbek tilining tovushlar tizimi, ohangdorligi va imlosini to‘la ifodalay oladigan yozuvga – alifboga o‘tish imkoniyati tug‘ildi. 1993-yil 2-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida” Qonun qabul qildi. Bu alifbo 31 harf va 1 tutuq belgisi (apostrof)dan iborat etib belgilandi. Yangi alifbodagi ba’zi harflar jahon aloqa-aralashuv tizimiga kirishimizda ma’lum qiyinchiliklar tug‘dirishi mumkinligi hisobga olinib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 1995-yil 6-mayda “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi Qonunga o‘zgartirishlar kiritdi. Yangi o‘zbek alifbosi 26 harf va 3 harflar birikmasidan iborat etib belgilan edi.

Yangi alifbo asosida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 24-avgustdagi 339-sonli qarori bilan “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari” tasdiqlandi. Unda harflar bilan tovushlar mutanosibligi, asos va qo‘shimchalar imlosi, qo‘shib yozish, chiziqcha bilan yozish, ajratib yozish, bosh harflar imlosi, ko‘chirish qoidalari o‘z ifodasini topgan.

BOSH HARFLAR IMLOSI

1. Kishining ismi, ota ismi, familiyasi, taxallusi, ramziy atoqli oti bosh harf bilan boshlanadi: *Dilbar, O‘rinova Muhabbat Majidovna, Azamat Shuhrat o‘g‘li, Hamza Hakimzoda, Muhammadsharif So‘fizoda, Mannon Otaboy, Navoiy, Furqat; Yelpig‘ichxon, Salomjon Alikov* kabi.

2. Joy nomlari bosh harf bilan boshlanadi: *Andijon, Yangiyo'l (shaharlar), Naymancha, Buloqboshi (qishloqlar), Bodomzor, Chig'atoy (mahallalar), Zavraq (dara), Yorqoq (yaylov), Qoratog', Pomir (tog'lar), Oqtepa, Uchtepa (tepalar), Zarafshon, Sirdaryo (daryolar), Yoyilma (kanal); Turkiya, Hindiston (mamlakatlar)* kabi. Bunday atoqli ot tarkibidagi sifatlovchi ham bosh harf bilan yoziladi: *Shimoliy Kavkaz, Markaziy Qizilqum* kabi.

3. Yulduz va sayyoralar, boshqa xil osmon jismlarining atoqli oti bosh harf bilan boshlanadi: *Hulkar, Qavs, Mirrix* (yulduz va sayyoralar nomi), *Tinchlik dengizi* (Oydagi relyef nomi) kabi. Yer, quyosh, oy turdosh otlari sayyora nomi bo'lib kelgandagina bosh harf bilan yoziladi: *Yer Quyosh atrofida, Oy Yer atrofida aylanadi*.

4. Madaniy-maishiy va savdo korxonalariga, adabiyot va san'at asarlariga, sanoat va oziq-ovqat mahsulotlariga, shuningdek, transport vositalari, sport inshootlariga qo'yilgan nomlar bosh harf bilan boshlanadi: *"Tong" (mehmonxona), "Saodat" (firma), "Navro'z" (xayriya jamg'armasi), „Kamalak" (matbaa birlashmasi), "G'uncha" (bog'cha), "Botanika" (sanatoriy), "Paxtakor" (stadion), "Qutlug' qon" (roman), "Dilorom" (opera), "Tanovar" (kuy), "Ozodlik" (haykal), "Jasorat" (yodgorlik), "Sino" (sovutgich)* kabi.

5. Muhim tarixiy sana va bayramlarning nomlari tarkibidagi birinchi so'z bosh harf bilan boshlanadi: *Mustaqillik kuni, Xotira kuni, Ramazon hayiti, Navro'z bayrami* kabi.

6. Davlatlarning, davlat oliy tashkilotlari va mansablarining, xalqaro tashkilotlarning nomidagi har bir so'z bosh harf bilan boshlanadi: *O'zbekiston Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Misr Arab Respublikasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Raisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudining Raisi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon Tinchlik Kengashi* kabi.

Boshqa tarkibli nomlarda oliy mansabni bildiruvchi birinchi so'zgina bosh harf bilan boshlanadi: *Bosh vazirning o'rinbosari; Mudofaa vaziri, Yozuvchilar uyushmasi, O'zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi* kabi.

Vazirliklar va idoralar, korxonalar va tashkilotlar nomi tarkibidagi birinchi so'z bosh harf bilan boshlanadi: *Sog'liqni saqlash vazirligi, Fan va texnika davlat qo'mitasi, Fanlar akademiyasi, Tilshunoslik instituti* kabi.

7. Davlatning oliy darajali mukofoti nomi tarkibidagi har bir so'z bosh harf bilan boshlanadi: *"O'zbekiston Qahramoni" (unvon), "Oltin Yulduz" (medal)*. Boshqa mukofotlar, faxriy unvonlar, nishonlar nomidagi birinchi so'zgina bosh

harf bilan boshlanadi: "Sogʻlom avlod uchun" (orden), "Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan fan arbobi" (faxriy unvon), "Matbaa aʼlochisi" (nishon) kabi.

8. Gapning birinchi soʻzi bosh harf bilan boshlanadi: *Yer tagidan Muqaddasga bir qarab oldim.* (O. Yoqubov)

“Oʻzbek tili” fanidan amaliy oʻquv mashgʻulotining taʼlim texnologiyasi modeli

MAVZU: “MILLIY QADRIYAT – MILLAT IFTIXORI”

Vaqt: 2 soat	Talabalar soni: 15 nafar
<i>Oʻquv mashgʻulotining shakli va turi:</i>	Amaliy mashgʻulot.
<i>Dars rejasi (oʻquv mashgʻulotining tuzilishi):</i>	1. Matbuot yangiliklari. 2. Uyga berilgan vazifalarni soʻrash, yozma bajarilganlarini tekshirish. 3. Talabalarni uchta kichik guruhga boʻlish. 4. Matnni guruh vakillariga ifodali oʻqitish, tarjima qildirish. 5. Matn asosida lugʻat tuzdirish. 6. Tarqatma materiallar ustida ishlash
<i>Oʻquv mashgʻuloti maqsadi:</i>	Talabalarining oʻzbek tilidan bilim va koʻnikmalarini aniqlash, mustahkamlash, kengaytirish, “Mustaqil Oʻzbekiston” matni asosida oʻzbek tilini oʻzlashtirishlariga koʻmaklashish, talabalarining yozma va ogʻzaki nutqi ravonligiga erishish, ular nutqini oʻzbekcha ijtimoiy-siyosiy atamalar bilan boyitish, tarbiyalash.
<i>Pedagogik vazifalar:</i> - oʻzlashtirilgan bilim va koʻnikmalarini mustahkamlash; - ularning lugʻat boyligi va oʻzbek tili qonun-qoidalari haqidagi tasavvurlarini yanada kengaytirish ; - ularning oʻzbek tilini oʻrganishlariga koʻmaklashish; - talabalarining yozma va ogʻzaki nutqi	<i>Oʻquv faoliyati natijalari:</i> - talabalar oldingi mashgʻulotlarda olgan bilim va koʻnikmalarini namoyon etadilar; - matn asosida oʻzlarining lugʻat boyligini orttiradilar, oʻzbek tili qonun-qoidalari haqidagi tasavvurlarini kengaytiradilar, tarjima qilishni oʻrganadilar; - oʻzbek tilidan oʻrganganlarini matn asosida chuqurlashtiradilar; - dars davomida oʻzlarining yozma va ogʻzaki nutqlarini yanada ravonlashtiradilar.

rivojiga koʻmaklashish.	
Taʼlim usullari:	Savol-javob, hikoya qilish, suhbat-munozara, sharhlash, aqliy hujum.
Taʼlim shakli:	Frontal, jamoaviy, guruhlarda ishlash.
Taʼlim vositalari:	Oʻquv dasturi, amaliy mashgʻulotlar matni, darslik, oʻquv qoʻllanmalari, uslubiy qoʻllanmalar, lugʻatlar, doska, boʻr, tarqatma materiallar.
Taʼlim berish sharoiti:	Dekanat tomonidan dars jadvalida belgilangan, guruh boʻlib ishlashga moʻljallangan stollar, stullar mavjud auditoriya.
Monitoring va baholash:	Ogʻzaki soʻrov: tezkor soʻrov. Yozma soʻrov: savollarga yozma javob, yozma bajarilgan topshiriqlarini tekshirish.

“Oʻzbek tili” fanidan amaliy mashgʻulotning texnologik xaritasi.
MAVZU: “MILLIY QADRIYAT – MILLAT IFTIXORI” (“NAVROʻZ”).

Ish bosqichlari va vaqti.	Faoliyat mazmuni	
	Taʼlim beruvchi	Taʼlim oluvchilar
1-bosqich. Oʻquv mashgʻulotiga kirish (10 daqiqa)	1.1. Mavzuning nomi, maqsad va kutilayotgan natijalarni yetkazadi. Mashgʻulot yangi innovatsion texnologiyalar asosidagi amaliy dars tarzida boʻlishini maʼlum qiladi.	Tinglaydilar, yozib oladilar.
2-bosqich. Asosiy (60 daqiqa)	2.1. Talabalar bilimni suhbat shaklida faollashtiradi(1-ilova). Bilimlarni faollashtirish jarayonida oʻquv muammosini yechish boʻyicha izlanuvchilik faoliyatida faol ishtirok etishlari uchun talabalarning egallagan bilimlari yetarliligini aniqlaydi. 2.2. Faollashtirilgan bilimlar asosida talabalarni mashgʻulotda oʻrganiladigan mavzuga olib kiradi. 2.3. Talabalarni uch guruhga boʻlib, ularni shartli nomlaydi, guruhlarda ish boshlanganligini maʼlum qiladi, boʻlingan guruhlarining bittadan vakiliga “Mustaqil Oʻzbekiston” matnidan belgilangan qismini ifodali oʻqitadi va tarjima qildiriladi(2-ilova). 2.4. Oʻzbekcha tuzilgan lugʻat har bir	Savollarga javob beradilar. Mavzu boʻyicha oʻz fikrlarini bildiradilar. Talabalar matnni ifodali oʻqiydi, yangi soʻzlar lugʻatini

	guruhga teng taqsimlanib, soʻzlarning rus tilidagi muqobillari toptiriladi (3-ilova). 2.5. Matndan olingan soʻzlarning maʼnosini izohlash topshiriladi(4-ilova). 2.6. Matndan olingan soʻzlarning sinonimlarini aniqlash va izohlash topshiriladi(5-ilova). 2.7. Oʻzbekiston haqidagi sheʼrni oʻqish va mazmunini aytib berish topshiriladi(6-ilova). 2.8. Guruhlarning chiqishlarini boshqaradi, ularning javoblarini doskada baholab boradi, kamchiliklarini toʻldiradi.	tuzadi va ularning oʻquv tilidagi muqobilini topadi, sheʼrni oʻqib mazmunini aytib beradi.
3-bosqich. Yakuniy (10 daqiqa)	3.1. Mavzu boʻyicha darsni yakunlaydi. Amalga oshirilgan ishlarning kelgusida talabalarning pedagogik faoliyatlaridagi ahamiyatiga eʼtiborni qaratadi. 3.2. Mustaqil bajarib kelish uchun topshiriqlar beradi. 3.2.1. Keyingi darsda oʻtiladigan “Davlat ramzlari” mavzusidagi matn tarqatilib, uning belgilangan qismini oʻqib, oʻrganib kelish; 3.2.2. Matbuot sahifalaridan yangilik namunalari tayyorlab kelish; 3.2.3. “Davlat tili haqida”gi qonun va uning ijrosi” mavzusida kichik hajmli hikoya tuzib kelish topshiriladi.	Tinglaydilar. Topshiriqlarni yozib oladilar.

MAVZU: “MILLIY QADRIYAT – MILLAT IFTIXORI” (“NAVROʻZ”).

Reja:

1. Matbuot yangiliklari.
2. Uyga berilgan vazifalarni soʻrab, yozma bajarilganlarini tekshirish.
3. Matnni ifodali oʻqitishsh.
4. Matnning notanish soʻzlarini aniqlatishsh va ular asosida lugʻat tuzdirish.
5. Matnni tarjima qildirish.
6. Matn mazmunini ogʻzaki hikoya qildirish.
7. Matndagi talaffuzi qiyin soʻzlarning tovushlari ustida ishlatish.
8. Matn leksikasi ustida ishlatish.
9. Oʻzbek tilining imlo qoidalari
10. Uyga vazifa: keyingi darsda oʻtiladigan matnning tegishli qismini oʻqish, matn boʻyicha lugʻat tuzish, matbuot sahifalaridan yangiliklar tayyorlab kelish topshiriladi.

Mashg'ulot maqsadi:

Talabalarning o'zbek tilidan egallagan bilim va ko'nikmalarini aniqlash, mustahkamlash, yanada kengaytirish, "Mustaqil O'zbekiston" matni asosida o'zbek tilini o'zlashtirishlariga ko'maklashish, talabalarning yozma va og'zaki nutqi ravonligiga erishish, ular nutqini ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy atamalar bilan boyitish.

Mashg'ulot vazifasi:

a) ta'limiy: talabalarga tanlangan matn asosida o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlarini o'rgatish, o'zbek tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish;

b) tarbiyaviy: matn asosida talabalarning ma'naviy dunyosini boyitish, o'zbek xalqi tarixi, adaboyoti, madaniyati, an'analari, o'zbek adiblari ijodini o'rganishga rag'bat uyg'otish;

d) rivojlantiruvchi: matnda qo'llangan yangi so'zlarni o'rganish asosida talabalar nutqining boyib borishga erishish.

O'qitish texnologiyasi:

a) o'qitish usullari: hikoya qilish, savol-javob, suhbat-munozara, sharhlash;

b) o'qitish vositasi: o'quv dasturi, doska, darslik, uslubiy qo'llanmalar, lug'at,

c) qoidalariga binoan qanday yoziladi? tarqatma materiallar;

d) bilimni nazorat qilish va baholash: yozma bajarilgan topshiriqlarni tekshirish, og'zaki nazorat, lahzalik so'rovlar.

Pedagogik vazifa:

Talabalarning oldingi mashg'ulotlarda o'zbek tilidan o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash, ularning lug'at boyligi va o'zbek tili qonun-qoidalariga haqidagi tasavvurlarini yanada kengaytirish, "Mustaqil O'zbekiston" matni asosida ularning o'zbek tilini chiqur o'zlashtirishlariga ko'maklashish, talabalarning yozma va og'zaki nutqi ravonligiga erishish.

O'quv faoliyatining natijalari:

a) tanlangan mavzudagi matn va uning mazmuni bo'yicha talabalarda tushuncha hosil qilish;

b) matn asosida o'rgangan yangi so'zlar, ma'lumotlar va tushunchalarni amalda qo'llashga o'rgatish.

Mashg'ulotning xronologik xaritasi:

I qism(10 daqiqa).

Tashkiliy qism. Matbuot yangiliklari. Uyga berilgan vazifalarni so'rab, yozma bajarilganlarini tekshirish. O'quv mashg'ulotiga kirish).

1. Talabalarning tayyorlab kelgan matbuot xabarlari tekshiriladi, xarakterlilari e'lon qildiriladi.

2. Talabalar uchta kichik guruhga bo'linib, shartli ravishda nomlanadi va har bir guruhdan bittadan talabadan o'tgan dars mazmuni qisqacha so'raladi.

3. Guruh a'zolaridan uchtdan talabaga o'zbek tilining unli va undosh tovushlari bo'yicha quyidagi savollar tarqatiladi:

3.1. Ma'lumki, o'zbek xalqi o'z tarixida arab, kirill va lotin yozuvi asosidagi alifbolardan foydalanib kelgan. Kirill yozuvi asosidagi alifboda unli tovushlarni ifodalovchi nechta harf bo'lgan?

3.2. Kirill yozuvi asosidagi alifboda undosh tovushlarni ifodalovchi nechta harf bo'lgan?

3.3. Kirillcha **и** harfi bilan yoziladigan o'zlashma so'zlar lotin alifbosi asosidagi imlo qoidalariga binoan qanday yoziladi?

3.4. Lotin yozuvi asosidagi alifboda undosh tovushlarni ifodalovchi nechta harf va harflar birikmasi bor?

3.5. Kirillcha **ё** harfi bilan yoziladigan o'zlashma so'zlar lotin alifbosi asosidagi imlo qoidalariga binoan qanday yoziladi?

3.6. Kirillcha **я** harfi bilan yoziladigan o'zlashma so'zlar lotin alifbosi asosidagi imlo qoidalariga binoan qanday yoziladi?

3.7. Kirillcha **ю** harfi bilan yoziladigan o'zlashma so'zlar lotin alifbosi asosidagi imlo qoidalariga binoan qanday yoziladi?

3.8. Kirillcha **е** harfi bilan yoziladigan o'zlashma so'zlar lotin alifbosi asosidagi imlo qoidalariga binoan qanday yoziladi?

3.9. Kirillcha **ъ, ы** belgilari bilan yoziladigan o'zlashma so'zlar lotin alifbosi asosidagi imlo

Talabalarning javoblari umumlashtirilib, mavzu xulosalanadi. Yangi mavzu e'lon qilinadi.

II qism. Asosiy qism(60 daqiqa).

III qism. Xulosalash. Uyga vazifa berish(10 daqiqa).

II qism. Asosiy qism(60 daqiqa).

Shartli nomlangan guruhlarining har biridan bittadan talabaga **“Milliy qadriyat – millat iftixori”** matnining belgilangan qismlari ifodali o'qitiriladi va tarjima qildiriladi.

Birinchi guruh

Qadriyat tushunchasi hayotning o'zi kabi keng qamrovli bo'lib, u har bir xalq ming yillar davomida hayotning turli sohalari bo'yicha sayqallab to'plagan tajribalaridir. Axloqiy qadriyatlar, harbiy qadriyatlar, davlatchilik qadriyatlari - bularning hammasi bir butun holda xalqning dunyoviy qiyofasini o'ziga xos tarzda belgilaydi. Darhaqiqat, O'zbekistonning kuch - qudrati manbai - xalqimizning umuminsoniy qadriyatlariga sodiqligi, ulug' ajdodlarimizning avlodlarga o'tayotgan ma'naviy merosining kuchliligida, fuqarolarimizning el - yurtga, ona-zaminga bitmas-tuganmas mehrida, milliy g'ururidadir. Hozirgi paytda taraqqiyotimiz taqdirini ma'naviy jihatdan yetuk odamlar hal qiladi. Aqliy zakovat, ruhiy, ma'naviy kamolot, insof-u diyonat, muruvvat, mehr-oqibat - bular ma'rifatli, ma'naviyatli insonning asosiy fazilatlaridir.

Ikkinchi guruh

Milliy qadriyatlar ustida fikr yuritganda yana bir muhim masalani alohida ta'kidlashga to'g'ri keladi. Ma'lumki, qadimiy urf-odatimizga ko'ra, o'zbek oilalarida, ayniqsa, ko'p bolali xonadonlarda yoshlar bolaligidanoq mehnat quchog'ida tarbiyalanadi, mehnatda chiniqadi. Dalada, uy-joyda ota-onaga yordam berib, mehnat qilib, hali hech bir bola mayib bo'lgan emas. Aksincha, mehnat qilgan bola chiniqqan, oq-qorani tanigan, ota-onasining qadriga yetgan. Mehnat qilib murakkab hayot yo'lida uchrashi mumkin bo'lgan har qanday to'siq va qiyinchiliklarni sabr-toqat bilan yengib o'tishga o'rgangan. Or – nomus, hamiyat, mardlik, vijdon amriga itoat etish, adolatpeshalik, haqgo'ylik sifatleri necha asrlardan beri davom etib kelmoqda. Hayo, andisha, lafz, omonatga xiyonat qilmaslik, rostgo'ylik dini islomimizda ham, xalq tushunchasida ham mustahkam o'rin tutib kelgan. «Hayo iymondandir», deyiladi muborak Hadisi sharifda. Ulug' allomalarimiz o'z asarlarida bu xislatlarni komil inson fazilatlari sifatida ulug'lab kelganlar. «Haromdan yiroq yurgin, tongla qiyomat kuni otashda kuymaysan», deya uqtiradi Abduxoliq G'ijduvoni. She'riyat sultoni Alisher Navoiy esa o'zining «Mahbub ul-qulub» asarida: «Odamiyning yaxshirog'i uldirkim, parso va pok bo'lgay va haq so'zni ayturda bevahmu pok bo'lgay. O'zi poku ko'zi pokni inson desa bo'lur, tili arig' (nozik) va ko'ngli arig'ni musulmon desa bo'lur», deydi. O'zbek xalqining ma'naviy qiyofasi uning milliy xususiyatlari bilan go'zal va boshqa xalqlardan ham u o'zining ana shu xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Uchinchi guruh

“Navro'z” – milliy qadriyatimizning asosini tashkil etuvchi bayramdir. “Navro'z” so'zi yangi kun degan ma'noni bildiradi. Bu ayyomda bir-biridan shirin milliy taomlar tayyorlanadi.

Topshiriqlar:

1. Tuzilgan lug'at har bir guruhga teng taqsimlanadi, so'zlarning rus tiliga to'g'ri tarjimai aniqlanadi.

Lug'at

Birinchi guruh	Ikkinchi guruh	Uchinchi guruh
markaziy -	qism –	bilamiz –
maydon -	iborat -	poytaxt -
qadriyat -	dunyo -	mustaqil –
madaniyat-	madhiya -	pul birligi -
qurolli kuchlar -	qabul qilindi -	bayram qilinmoq -
nishonlanmoq -	elchixona -	mustahkam aloqa -
xalqaro -	obro'yi ortmoq -	yangi ochilayotgan -
ta'lim olmoq -	malaka oshirmoq -	chet ellar -
tajriba almashmoq -	millat -	elat vakillari -
yashamoq -	qadimiy va boy -	tarixga ega -
tarixiy obidalar -	tashrif buyurmoq -	sayyohlar -
ijodiy meros -	qomusiy allomalar -	yetishib chiqqan -

qo'rg'on va qishliq -	Vatan tuprig' -	bebaho konlar –
tabiati go'zal -	mehmondo'st -	muntazam –
asosiy ekin -	poliz mahsulotlari -	pillachilik –
sanoati rivojlangan -	ro'zg'or buyumlari -	kelajagi buyuk –

2. Quyidagi so'zlarning ma'nolarini izohlang.

- 2.1. **Birinchi guruh. Quvvat, mamlakat, o'tmish, buloq.**
- 2.2. **Ikkinchi guruh. Yaylov, g'alla, korxona, gazlama.**
- 2.3. **Uchinchi guruh. Ilm maskani, sabzavot, poda, makkajo'xori.**

3. Quyidagi so'zlarning sinonimlarini aniqlang.

- 3.1. Birinchi guruh. **Quvvat, do'st, mamlakat, buloq.**
- 3.2. Ikkinchi guruh. **Odam, yo'l, korxona, ishq.**
- 3.3. Uchinchi guruh. **Kuy, go'zal, yuz, nom.**

III qism. Xulosalash. Uyga vazifa berish(10 daqiqa).

Uyga vazifa:

1. Keyingi darsda o'tiladigan "Markaziy Osiyoda evolutsion g'oyalar" mavzusidagi matn tarqatiadi, uning belgilangan qismini o'qib, o'rganib kelish;
2. Vaqtli matbuot sahifalaridan yangiliklar tayyorlab kelish;
3. "Davlat tili haqida"gi qonun va uning ijrosi" mavzusida kichik hajmli hikoya tuzib kelish topshiriladi.

O'quv mashg'ulotining ta'lim texnologiyasi modeli

MAVZU: KELAJAK – BILIMLI YOSHLAR QO'LIDA (2 SOAT)

Vaqt: 2 soat	Talabalar soni: 13 nafar
<i>O'quv mashg'ulotining shakli va turi:</i>	Amaliy mashg'ulot.
<i>Dars rejasi (o'quv mashg'ulotining tuzilishi):</i>	1. Matbuot yangiliklari. 2. Uyga vazifalarni so'rash, yozma bajarilganlarini tekshirish. 3. Talabalarni uchta kichik guruhga bo'lish. 4. Matnni guruh vakillariga ifodali o'qitish. 5. Matn asosida lug'at tuzdirish. 6. Tarqatma materiallar ustida ishlash
<i>O'quv mashg'uloti maqsadi:</i>	Talabalarning o'zbek tilidan egallagan bilim va ko'nikmalarini aniqlash, mustahkamlash, kengaytirish, ixtisoslik matni asosida o'zbek tilini chuqur o'zlashtirishlariga ko'maklashish, talabalarning yozma va og'zaki nutqi ravonligiga erishish, ularni davlat tilida savodxonlik bilan ish yurita olishga o'rgatish, ular nutqini kasbiy atamalar bilan boyitish, tarbiyalash.
<i>Pedagogik vazifalar:</i> - talabalarning oldingi mashg'ulotlarda o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash; - ularning lug'at boyligi va o'zbek tili qonun-qoidalari haqidagi tasavvurlarini yanda kengaytirish ; - matn asosida ularning o'zbek tilini chuqur o'zlashtirishlariga ko'maklashish; - talabalarning yozma va og'zaki nutqi rivojiga ko'maklashish.	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i> - talabalar oldingi mashg'ulotlarda olgan bilim va ko'nikmalarini namoyon etadilar; - matn asosida o'zlarining lug'at boyligini orttiradilar, o'zbek tili qonun-qoidalari haqidagi tasavvurlarini kengaytiradilar. - matn asosida o'zbek tilidan o'rganganlarini chuqurlashtiradilar; - dars davomida o'zlarining yozma va og'zaki nutqlarini yanada ravonlashtiradilar.
<i>Ta'lim usullari:</i>	Savol-javob, hikoya qilish, suhbat-munozara, sharhlash, aqliy hujum.
<i>Ta'lim shakli:</i>	Frontal, jamoaviy, guruhlarda ishlash.
<i>Ta'lim vositalari:</i>	O'quv dasturi, amaliy mashg'ulotlar matni, darslik, o'quv

	qo'llanmalari, uslubiy qo'llanmalar, lug'atlar, doska, bo'r, tarqatma materiallar.
Ta'lim berish sharoiti:	Dekanat tomonidan dars jadvalida belgilangan, guruh bo'lib ishlashga mo'ljallangan stollar, stullar mavjud auditoriya.
Monitoring va baholash:	Og'zaki so'rov: tezkor so'rov. Yozma so'rov: savollarga yozma javob, yozma bajarilgan topshiriqlarini tekshirish.

Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi.
MAVZU: KELAJAK – BILIMLI YOSHLAR QO'LIDA (2 SOAT)

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (10 daq.)	1.1. Mavzuning nomi, maqsad va kutilayotgan natijalarni yetkazadi. Mashg'ulot yangi innovatsion texnologiyalar asosidagi amaliy dars tarzida borishini ma'lum qiladi.	Tinglaydilar, yozib oladilar.
2-bosqich. Asosiy (60 daqiqa).	2.1. Talabalar bilimini suhbat shaklida faollashtiradi(1-ilova). Bilimlarni faollashtirish jarayonida o'quv muammosini yechish bo'yicha izlanuvchilik faoliyatida faol ishtirok etishlari uchun talabalarning egallagan bilimlari yetarliligini aniqlaydi. 2.2. Faollashtirilgan bilimlar asosida talabalarni mashg'ulotda o'rganiladigan mavzuga olib kiradi. 2.3. Talabalarni uch guruhga bo'lib, ularni "Kitob", "Ilm", "Fan" deb nomlaydi, guruhlarda ish boshlanganligini ma'lum qiladi, bo'lingan guruhlarning bittadan vakiliga "Shiroq" matnidan belgilangan qismini ifodali o'qitadi(2-ilova). 2.4. O'zbekcha tuzilgan lug'at har bir guruhga teng taqsimlanib, so'zlarning rus tilidagi muqobillari toptiriladi (3-ilova). 2.5. Matndan olingan so'zlarning ma'nosini	Savollarga javob beradilar. Mavzu bo'yicha o'z fikrlarini bildiradilar. Talabalar matnni ifodali o'qiydi, yangi so'zlar lug'atini tuzadi va ularning o'quv tilidagi muqobilini topadi, berilgan so'zlarning ma'nosini

	izohlash topshiriladi(4-ilova). 2.6. Matndan olingan soʻzlarning sinonimlarini aniqlash va izohlash topshiriladi(5-ilova). 2.7. Gaplarni rus tilidan oʻzbek tiliga tarjima qilish topshiriladi (6-ilova).	izohlaydi, soʻzlarning sinonimlarini aniqlab izohlaydi, sheʼrni oʻqib mazmunini aytib beradi.
3-bosqich. Yakuniy (10 daqiqa).	3.1. Mavzu boʻyicha yakun qiladi. Amalga oshirilgan ishlarning kelgusida talabalarning pedagogik faoliyatlarida ahamiyati katta ekanligiga eʼtiborni qaratadi. 3.2. Mustaqil bajarib kelish uchun topshiriqlar beradi. 3.2.1. Keyingi darsda oʻtiladigan “Kelajak – bilimli yoshlar qoʻlida” mavzusi boʻyicha materiallar toʻplash; 3.2.2. Matbuot sahifalaridan yangilik namunalari tayyorlab kelish;	Tinglaydilar. Topshiriqlarni yozib oladilar.

Shakldosh va paronim soʻzlar

Tilda mavjud boʻlgan barcha soʻzlar va iboralar yigʻindisi leksika deyiladi. Ular shu tilning lugʻat boyligini tashkil etadi. Leksikologiyada soʻzlar va ularni atash (lugʻaviy) maʼnosi oʻrganiladi. Tilimizdagi soʻzlar mustaqil maʼno va grammatik maʼnolarga ega boʻladi. Soʻzdan nima anglatilishi, bu uning atash (lugʻaviy) maʼnosi deb yuritiladi. Soʻzning maʼlum bir grammatik shaklda boʻlishi, grammatik vazifani bajarishi soʻzning grammatik maʼnosi hisoblanadi.

Shakldosh soʻzlar - (Omonimlar yunoncha *homos* – “bir xil”, *onoma* yoki *onyma* – “nom” degan maʼnolarni bildiradi) talaffuzi va yozilishi bir xil, ammo maʼnosi har xil boʻlgan soʻzlardir: *yuz* (ot) – *yuz* (son), *tut* (daraxt)–*tut* (harakat).

Shakldosh soʻzlar bir soʻz turkumiga (*yosh* – koʻz yoshi, *yosh* – umr oʻlchovi), ikki xil soʻz turkumiga (*och* – sifat, *och* - feʼl), uch xil soʻz turkumiga (*oshiq* – ot, *oshiq* – feʼl, *oshiq* – sifat; *hur* – ot, *hur* – sifat, *hur* - feʼl) ham oid boʻlishi mumkin. Bir turkum doirasidagi shakldoshlik asosan ot va feʼllarda mavjud. Bunday shakldosh soʻzlar qoʻshimchalar qabul qilganda ham shakldoshligini saqlab qolaveradi.

Paronimlar (talaffuzdosh soʻzlar) – ruscha *para*, yaʼni “juft” va yunoncha *onoma* yoki *onyma*, yaʼni “nom” degani boʻlib, [aytilishi bir-biriga yaqin](#), ammo yozilishi va maʼnosi har xil boʻlgan soʻzlardir. Paronimlar koʻpincha bir tovush bilan bir-biridan farq qiladi: *asr* - *asir*, *tanbur* - *tambur*, *amr* - *amir*. Paronimlar baʼzan ogʻzaki nutqda, badiiy asarlarda uchraydi. Ular bir soʻz turkumiga ham, turli soʻz turkumlariga ham oid boʻlishi mumkin: *zirak* (ot) – *ziyrak* (sifat); *asr* (ot) – *asir* (ot).

Oʻquv mashgʻulotining taʼlim texnologiyasi modeli

MAVZU: SALOMLASHISH – INSONIY FAZILAT. (2 SOAT)

Vaqt: 2 soat	Talabalar soni: 13 nafar
Oʻquv mashgʻulotining shakli va turi:	Amaliy mashgʻulot.
Dars rejasi (oʻquv mashgʻulotining tuzilishi):	1. Matbuot yangiliklari. 2. Uyga vazifalarni soʻrash, yozma bajarilganlarini tekshirish. 3. Talabalarni uchta kichik guruhga boʻlish. 4. Matnni guruh vakillariga ifodali oʻqitish. 5. Matn asosida lugʻat tuzdirish. 6. Tarqatma materiallar ustida ishlash
Oʻquv mashgʻuloti maqsadi:	Talabalarning oʻzbek tilidan egallagan bilim va koʻnikmalarini aniqlash, mustahkamlash, kengaytirish, ixtisoslik matni asosida oʻzbek tilini chuqur oʻzlashtirishlariga koʻmaklashish, talabalarning yozma va ogʻzaki nutqi ravonligiga erishish, ularni davlat tilida savodxonlik bilan ish yurita olishga oʻrgatish, ular nutqini kasbiy atamalar bilan boyitish, tarbiyalash.
Pedagogik vazifalar: - talabalarning oldingi mashgʻulotlarda oʻzlashtirgan bilim va koʻnikmalarini mustahkamlash; - ularning lugʻat boyligi va oʻzbek tili qonun-qoidalari haqidagi tasavvurlarini yanda kengaytirish ; - matn asosida ularning oʻzbek tilini chuqur	Oʻquv faoliyati natijalari: - talabalar oldingi mashgʻulotlarda olgan bilim va koʻnikmalarini namoyon etadilar; - matn asosida oʻzlarining lugʻat boyligini orttiradilar, oʻzbek tili qonun-qoidalari haqidagi tasavvurlarini kengaytiradilar. - matn asosida oʻzbek tilidan oʻrganganlarini chuqurlashtiradilar; - dars davomida oʻzlarining yozma va ogʻzaki nutqlarini yanada ravonlashtiradilar.

o'zlashtirishlariga ko'maklashish; - talabalarning yozma va og'zaki nutqi rivojiga ko'maklashish.	
Ta'lim usullari:	Savol-javob, hikoya qilish, suhbat-munozara, sharhlash, aqliy hujum.
Ta'lim shakli:	Frontal, jamoaviy, guruhlarda ishlash.
Ta'lim vositalari:	O'quv dasturi, amaliy mashg'ulotlar matni, darslik, o'quv qo'llanmalari, uslubiy qo'llanmalar, lug'atlar, doska, bo'r, tarqatma materiallar.
Ta'lim berish sharoiti:	Dekanat tomonidan dars jadvalida belgilangan, guruh bo'lib ishlashga mo'ljallangan stollar, stullar mavjud auditoriya.
Monitoring va baholash:	Og'zaki so'rov: tezkor so'rov. Yozma so'rov: savollarga yozma javob, yozma bajarilgan topshiriqlarini tekshirish.

Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi.
MAVZU: SALOMLASHISH – INSONIY FAZILAT. (2 SOAT)

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (10 daq.)	1.1. Mavzuning nomi, maqsad va kutilayotgan natijalarni yetkazadi. Mashg'ulot yangi innovatsion texnologiyalar asosidagi amaliy dars tarzida borishini ma'lum qiladi.	Tinglaydilar, yozib oladilar.
2-bosqich. Asosiy (60 daqiqa).	2.1. Talabalar bilimini suhbat shaklida faollashtiradi(1-ilova). Bilimlarni faollashtirish jarayonida o'quv muammosini yechish bo'yicha izlanuvchilik faoliyatida faol ishtirok etishlari uchun talabalarning egallagan bilimlari yetarliligini aniqlaydi. 2.2. Faollashtirilgan bilimlar asosida talabalarni mashg'ulotda o'rganiladigan mavzuga olib kiradi. 2.3. Talabalarni uch guruhga bo'lib, ularni	Savollarga javob beradilar. Mavzu bo'yicha o'z fikrlarini bildiradilar.

	“Kitob”, “Ilm”, “Fan” deb nomlaydi, guruhlarda ish boshlanganligini ma’lum qiladi, bo‘lingan guruhlarining bittadan vakiliga “Shiroq” matnidagi belgilangan qismini ifodali o‘qitadi(2-ilova). 2.4. O‘zbekcha tuzilgan lug‘at har bir guruhga teng taqsimlanib, so‘zlarning rus tilidagi muqobillari toptiriladi (3-ilova). 2.5. Matndan olingan so‘zlarning ma’nosini izohlash topshiriladi(4-ilova). 2.6. Matndan olingan so‘zlarning sinonimlarini aniqlash va izohlash topshiriladi(5-ilova). 2.7. Gaplarni rus tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilish topshiriladi (6-ilova).	Talabalar matnni ifodali o‘qiydi, yangi so‘zlar lug‘atini tuzadi va ularning o‘quv tilidagi muqobilini topadi, berilgan so‘zlarning ma’nosini izohlaydi, so‘zlarning sinonimlarini aniqlab izohlaydi, she’rni o‘qib mazmunini aytib beradi.
3-bosqich. Yakuniy (10 daqiqa).	3.1. Mavzu bo‘yicha yakun qiladi. Amalga oshirilgan ishlarning kelgusida talabalarning pedagogik faoliyatlarida ahamiyati katta ekanligiga e’tiborni qaratadi. 3.2. Mustaqil bajarib kelish uchun topshiriqlar beradi. 3.2.1. Keyingi darsda o‘tiladigan “Salomlashish insoniy fazilat” mavzusi bo‘yicha materiallar to‘plash; 3.2.2. Matbuot sahifalaridan yangilik namunalari tayyorlab kelish;	Tinglaydilar. Topshiriqlarni yozib oladilar.

SALOMLASHISH - INSONIY FAZILAT

Salom Allohning ismlaridan biridir. O‘rtalaringizda salomni yoyingiz.

Hadisdan

Millat ma’naviyatiga daxldor neki bor, unga befarq qarab bo‘lmaydi. Salomlashish borasida ham xuddi shu fikrni aytish mumkin. Salom insoniylikning boshidir. Dunyodagi barcha xalqlar o‘zaro munosabat, muomala va muloqotni salomdan boshlashadi. Har bir xalqning salomlashish bilan bog‘liq bo‘lgan o‘z urf-odatlarini bor. Salomlashish odobi turli xalqlarda turlicha bo‘lmasin, mazmunan bir-biriga yaqin: muddao bir-biriga yaxshi tilak bildirishdir.

O'zbekning, umuman, musulmon kishining salomlashish odobi o'ziga xos go'zal tilakni ifodalaydi: "Assalomu alaykum" – "Sizga tinchlik tilayman" yoki "Siz tinch-omon bo'ling". Shu so'zlar bilan boshlangan har bir nutq yana ham ma'nodorroq bo'lib ketsa kerak. Shundanmi, qo'l siqishib yoki tabassum bilan bir-birimizga tinchlik, sihat-salomatlik tilash ajoyib odatga aylangan. Ana shunday go'zal an'anani boshqasi bilan "almashtirish" mumkinmi?

Tanish yoki notanish bo'lsin, biz odamlarni doimo salomlashib qarshi olamiz. Bu o'ziga xos ehtirom va o'zaro muloqotni boshlash uchun yaxshi vosita hisoblanadi. Biroq salomlashish shunchaki madaniyat belgisi emas. Olimlar uning tarixiy zarurat ekanligini ham ta'kidlaydilar. Ma'lumki, insoniyat o'z tarixining dastlabki davrlarida qabila-qabila bo'lib yashagan. Bu xavfsizlik, jon saqlash nuqtayi nazaridan juda foydali edi. Biroq yashash uchun kurash qabilalararo muttasil janglarga sabab bo'lardi. Nimaiki kerak bo'lsa, u jang bilan egallanishi, qo'lda esa muntazam qurol bo'lishi kerak edi. Lekin o'zaro mahsulot ayrboshlash, tajriba almashish maqsadi yangi munosabatlar o'rnatilishini talab etardi. Shu bois odamlar bir-birlariga yaxshi niyatda kelganini bildirish uchun qo'lida quroli yo'qligini ko'rsatib, quloqlarini katta yozish usulini o'ylab topdilar. Bu esa keyinchalik ko'rishish, salomlashish deya atala boshladi. Ma'lum ma'noda salomlashishni diplomatiyaning birinchi ko'rinishi deyish ham mumkin. Qadimgi davrlarda, saroylarda, hatto hozir ham yuqori doiralarda salomlashish san'at darajasiga ko'tarilgan. Buni Xitoy, Hindiston, Yevropa xalqlari madaniyatidan ham bilsa bo'ladi. Murakkab, takroriy, biroz vaqt talab etiladigan salom berish tartibi chuqur hurmat va sadoqatni bildirgan.

Davrlar o'tishi bilan har bir xalq o'z dunyoqarashi, atrof-muhitga nisbatan munosabati va madaniy me'yorlaridan kelib chiqib, salomlashishning turli shakllarini qabul qilganlar. Jahondagi ko'pgina xalqlarda salom so'z orqali bajariladi. Lekin bu o'rinda qo'l, bosh kabi tana a'zolarining harakati ham qo'shimcha vazifa bajarishi mumkin. Har qanday odamga murojaat yoki muomala qilishdan oldin salom berish va alik olish insoniy fazilatdir.

«Assalomu alaykum» — bu o'zbek xalqi qabul qilgan salomlashish turi. «Assalomu alaykum» arabcha so'z bo'lib, sizga tinchlik, salomatlik tilayman, degan ma'noni anglatadi. Bu so'z musulmonlar o'zaro uchrashganda ishlatadigan salomlashuv iborasi sifatida qabul qilingan. Salomni qabul qiluvchi «Va alaykum assalom» («Sizga ham tinchlik, salomatlik tilayman»), deb javob qaytaradi. Salomlashishda ma'lum qoidalar mavjud. Unga ko'ra, kichik yoshdagilar yoshi ulug'larga, ulov mingan odam piyodaga, piyoda ketayotgan kishi o'tirganga, ozchilik ko'pchilikka salom beradi. Assalomu alaykum ko'pchilik huzuriga kirib o'tirishda ham aytiladi. Salom berganda uning samimiy va muloyim chiqishini,

eshitarli bo'lishini ta'minlash lozim. Uni oshkora aytish kishilar o'rtasida muhabbat paydo etib, o'rtadagi gina va kuduratlarni ketkazadi. Assalomu alaykum deyish sunnat, javob qaytarish esa vojib hisoblanadi, deya keltiriladi axloq-odob tavsifidagi kitoblarda. Amir, xonlarning qabulxonasi salomxona deb nomlanib, uning xizmatchisi salom og'asi deb yuritilgan. Kelinni kuyov xonadoniga kelgan birinchi kun ertalab xonadon kattalariga, yaqin qarindoshlariga ta'zimga olib chiqish marosimi yoki umuman kelinchak ta'zimi ham salom nomini olgan. O'zbekistondagi salomlashish harakatlari, ishlatiladigan so'zlar hududlararo biroz bo'lsa-da, farqlanadi. Lekin o'zaro aloqalarning mustahkamligi, aholining etnik jihatdan u qadar farqlanmasligi sababli keskin tafovutlar uchramaydi. Qo'l siqish, quchoqlashish, yelka olish, bir-birining tirsagini ushlab so'rashish (ayollar orasida) deyarli hamma joyda uchraydi. Shuningdek, erkaklar bilan erkaklar, ayollar bilan ayollar, erkaklar bilan ayollarning so'rashishida ham (qo'l harakatlari nuqtayi nazaridan) farqlar mavjud. Qolaversa, ikki qayta ko'rishish ham an'anaga aylanib qolgan. Ya'ni, davralarda avval umumiy, keyin esa alohida-alohida so'rashishga o'tiladi. Har bir mehmon mezbondan, keyin o'zaro bir-biridan hol-ahvol so'rab chiqadi. Buni salomning ikkinchi qismi deb atash ham mumkin.

Savol va topshiriqlar:

1. Matnni ifodali o'qing.
2. Notanish so'zlarni ajrating va o'quv tilingizga tarjima qiling.
3. "Qayerda qanday salomlashiladi?" mavzusida dialog tuzing.
4. Salomlashishda tana harakatlari qay darajada ishtirok etadi?
5. Salomlashishning ma'lum qoidalarini sanab bering.
6. Matn tarkibidagi shakldoshlik va paronimlik xususiyatiga ega bo'lgan so'zlarni ajrating.

Ma'nodosh va zid ma'noli so'zlar

Ma'nodosh so'zlar - (**Sinonimlar** yunoncha "*synonymos*" yoki "*synonymon*", ya'ni "bir nomli" degan ma'noni bildiradi) shakli har xil bo'lsa ham, ma'nolari bir-biriga yaqin bo'lgan so'zlardir. Ma'nodoshlar bir xil predmetlarni (*ovqat, osh, taom*), predmetning bir xil belgisini (*ishchan, harakatchan, tirishqoq*), [bir xildagi harakatni](#) (*asramoq, saqlamoq*) bildiradi. Bunday so'zlar ikki yoki undan ortiq so'zdan iborat bo'lgan sinonimik qatorni tashkil etadi. Bu qatordagi ma'nosi betaraf bo'lgan, ko'p qo'llanadigan so'z **asosiy so'z (dominanta, bosh so'z)** deb ataladi: **chiroyli**, *go'zal, ko'hlik*.

Zid ma'noli so'zlar – (antonimlar yunoncha *anti* – "zid", "qarama-qarshi", *onoma* yoki *onyma* "nom") qarama-qarshi tushunchalarni ifodalaydigan so'zlardir. Antonimik juftlikdagi so'zlar faqat bir xil so'z

turkumlariga oid bo'ladi: *yer-osmon* (ot), *uzun-qisqa* (sifat), *ko'p – oz* (ravish), *keldi – ketdi* (fe'l).

Leksikologiya yunoncha leksikos(lug'at,so'z) va logos (ta'lim ,fikir) so'zlaridan olingan. Omonimlar. Omonimlar talaffuz va yozilishiga ko'ra bir xil, ammo anglatgan ma'nosi turli xil bo'ladi.Omonim so'zi grekcha bo'lib bir xil demakdir. Masalan: sir- davlat siri, oynaning siri, kostrulning siri: ot-ism, hayvon,atama,fe'l kabi. Sinonimlar. Sinonimlar yozilishi va talaffuzi jihatidan turlicha , anglatadigan ma'nolari esa o'zaro yaqin bo'lgan so'zlardir. M. osmon,havo,ko'k,falak,gardun . Antonimlar. Bir-biriga zid, qarama-qarshi ma'nolarni ifodalovchi so'zlar antonimdir. Masalan; . Yosh- qari bir-birini inkor etish bilan yangi bir ma'noni anglatadi.. Paronimlar. Yozilishi va ma'nosi farqli bo'lib, talaffuzidagina o'xshash bo'lib qoladigan so'zlarga paronimlar deyiladi.M: asr-asir, amr-amir, azm-azim, abzal-afzal, dars-darz, mard-mart, tuna-to'na, oils- alis, sila-siyla , tus-to's, zirak-ziyrak, fakt- pakt, oxir-oxur... .	Лексикология - изучает словарный состав языка. Слова бывают одно-значными и многозначными. Слова, имеющие одно лексическое значение, называются <u>однозначными</u> Например: стол, книга, фонетика. Слова, имеющие несколько лексических значений, называются <u>многозначными</u>: Например: голова, глаза, нос. <u>Синонимы</u> - это слова, различные по написанию и звучанию, но одинаковые по значению. Например: юз, афт (лицо). Слова, одинаковые по звучанию и написанию, но разные по значению называются <u>омонимами</u>. Например: olma - яблоко, olma - не бери <u>Антонимы</u> - это слова с противоположными значениями. Например: большой-маленький, хороший-плохой,. широкий-узкий.
--	--

O'quv mashg'ulotining ta'lim texnologiyasi modeli

MAVZU: ULUG' AJDODLARIMIZ (ALP ER TUNGA, SPITAMEN, SHIROQ, TO'MARIS, BERUNIY, IBN SINO, FAROBIY VA BOSHQALAR HAQIDA). (2 SOAT)

Vaqt: 2 soat	Talabalar soni: 13 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli va turi:	Amaliy mashg'ulot.

<i>Dars rejasi (o'quv mashg'ulotining tuzilishi):</i>	1. Matbuot yangiliklari. 2. Uyga vazifalarni so'rash, yozma bajarilganlarini tekshirish. 3. Talabalarni uchta kichik guruhga bo'lish. 4. Matnni guruh vakillariga ifodali o'qitish. 5. Matn asosida lug'at tuzdirish. 6. Tarqatma materiallar ustida ishlash
<i>O'quv mashg'uloti maqsadi:</i>	Talabalarining o'zbek tilidan egallagan bilim va ko'nikmalarini aniqlash, mustahkamlash, kengaytirish, ixtisoslik matni asosida o'zbek tilini chuqur o'zlashtirishlariga ko'maklashish, talabalarining yozma va og'zaki nutqi ravonligiga erishish, ularni davlat tilida savodxonlik bilan ish yurita olishga o'rgatish, ular nutqini kasbiy atamalar bilan boyitish, tarbiyalash.
<i>Pedagogik vazifalar:</i> - talabalarining oldingi mashg'ulotlarda o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash; - ularning lug'at boyligi va o'zbek tili qonun-qoidalari haqidagi tasavvurlarini yanda kengaytirish ; - matn asosida ularning o'zbek tilini chuqur o'zlashtirishlariga ko'maklashish; - talabalarining yozma va og'zaki nutqi rivojiga ko'maklashish.	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i> - talabalar oldingi mashg'ulotlarda olgan bilim va ko'nikmalarini namoyon etadilar; - matn asosida o'zlarining lug'at boyligini orttiradilar, o'zbek tili qonun-qoidalari haqidagi tasavvurlarini kengaytiradilar. - matn asosida o'zbek tilidan o'rganganlarini chuqurlashtiradilar; - dars davomida o'zlarining yozma va og'zaki nutqlarini yanada ravonlashtiradilar.
<i>Ta'lim usullari:</i>	Savol-javob, hikoya qilish, suhbat-munozara, sharhlash, aqliy hujum.
<i>Ta'lim shakli:</i>	Frontal, jamoaviy, guruhlarda ishlash.
<i>Ta'lim vositalari:</i>	O'quv dasturi, amaliy mashg'ulotlar matni, darslik, o'quv qo'llanmalari, uslubiy qo'llanmalar, lug'atlar, doska, bo'r, tarqatma materiallar.
<i>Ta'lim berish sharoiti:</i>	Dekanat tomonidan dars jadvalida belgilangan, guruh bo'lib ishlashga mo'ljallangan stollar, stullar mavjud auditoriya.

Monitoring baholash:	va	Og‘zaki so‘rov: tezkor so‘rov. Yozma so‘rov: savollarga yozma javob, yozma bajarilgan topshiriqlarini tekshirish.
-----------------------------	-----------	--

Amaliy mashg‘ulotning texnologik xaritasi.

MAVZU: ULUG’ AJDODLARIMIZ (ALP ER TUNGA, SPITAMEN, SHIROQ, TO‘MARIS, BERUNIY, IBN SINO, FAROBIY VA BOSHQALAR HAQIDA). (2 SOAT)

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta’lim beruvchi	Ta’lim oluvchilar
1-bosqich. O‘quv mashg‘ulotiga kirish (10 daq.)	1.1. Mavzuning nomi, maqsad va kutilayotgan natijalarni yetkazadi. Mashg‘ulot yangi innovatsion texnologiyalar asosidagi amaliy dars tarzida borishini ma’lum qiladi.	Tinglaydilar, yozib oladilar.
2-bosqich. Asosiy (60 daqiqa).	2.1. Talabalar bilimini suhbat shaklida faollashtiradi(1-ilova). Bilimlarni faollashtirish jarayonida o‘quv muammosini yechish bo‘yicha izlanuvchilik faoliyatida faol ishtirok etishlari uchun talabalarning egallagan bilimlari yetarliligini aniqlaydi. 2.2. Faollashtirilgan bilimlar asosida talabalarni mashg‘ulotda o‘rganiladigan mavzuga olib kiradi. 2.3. Talabalarni uch guruhga bo‘lib, ularni “Kitob”, “Ilm”, “Fan” deb nomlaydi, guruhlarda ish boshlanganligini ma’lum qiladi, bo‘lingan guruhlarning bittadan vakiliga “Shiroq” matnidan belgilangan qismini ifodali o‘qitadi(2-ilova). 2.4. O‘zbekcha tuzilgan lug‘at har bir guruhga teng taqsimlanib, so‘zlarning rus tilidagi muqobillari toptiriladi (3-ilova). 2.5. Matndan olingan so‘zlarning ma’nosini izohlash topshiriladi(4-ilova). 2.6. Matndan olingan so‘zlarning sinonimlarini aniqlash va izohlash	Savollarga javob beradilar. Mavzu bo‘yicha o‘z fikrlarini bildiradilar. Talabalar matnni ifodali o‘qiydi, yangi so‘zlar lug‘atini tuzadi va ularning o‘quv tilidagi muqobilini topadi, berilgan so‘zlarning ma’nosini izohlaydi, so‘zlarning sinonimlarini

	topshiriladi(5-ilova). 2.7. Gaplarni rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qilish topshiriladi (6-ilova).	aniqlab izohlaydi, she'rni o'qib mazmunini aytib beradi.
3-bosqich. Yakuniy (10 daqiqa).	3.1. Mavzu bo'yicha yakun qiladi. Amalga oshirilgan ishlarning kelgusida talabalarning pedagogik faoliyatlarida ahamiyati katta ekanligiga e'tiborni qaratadi. 3.2. Mustaqil bajarib kelish uchun topshiriqlar beradi. 3.2.1. Keyingi darsda o'tiladigan "Ulug' ajdodlarimiz" mavzusi bo'yicha materiallar to'plash; 3.2.2. Matbuot sahifalaridan yangilik namunalari tayyorlab kelish;	Tinglaydilar. Topshiriqlarni yozib oladilar.

MAVZU: ULUG' AJDODLARIMIZ(ALP ER TUNGA, SPITAMEN, SHIROQ, TO'MARIS, BERUNIY, IBN SINO, FAROBIY VA BOSHQALAR HAQIDA). (2 SOAT)

Reja:

Matbuot yangiliklari. Ulug' ajdodlarimiz matnini. Terminlar va ularning vujudga kelishi, ularning o'zbek tilini o'rganishdagi ahamiyati. Matnlarni o'qish, notanish so'zlarni aniqlash, lug'at tuzish, tarjima qilish, matn mazmunini hikoya qilish. Mavzuga oid matn ustida ishlash. Matnni qismlarga bo'lib, har bir qismni nomlash.

Yozma nutq: Mashhur allomalardan biri haqida taqdimot tayyorlash. Buyuk allomalarimizning asarlari ro'yxatini tuzish.

Grammatika: Tilning leksik qatlamlari.

Qo'llanadigan zamonaviy pedagogik texnologiyalarning "Klaster", "Bumerang", "Yelpig'ich" hamda "Muammoli ta'lim" texnologiyasining "Munozarali dars" metodi, shuningdek, o'zbek xalqining tarixiy, madaniy – ma'rifiy qadriyatlariga doir slaydlardan foydalanish, savol-javob, test yechish, didaktik va rolli o'yin usullarini qo'llash nazarda tutiladi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogok yondashuv, muammoli ta'lim, Venn diagrammasi, baliq skeleti chizmasi.*

ABU NASR F O R O B I Y

Abu Nasr al-Forobiy 873-yili Shosh (Toshkent) shahriga yaqin qishloqda harbiy turkiy oilada tug'ildi. U boshlang'ich ta'limni Shosh va Buxoro shaharlarida

olib, boshqa shaharlarda mashhur olimlardan tahsil olishni davom ettirdi. U Bag‘dodda falsafiy ilmlarni, ayniqsa yunon olimlarining falsafiy merosini, ko‘plab boshqa fanlarni chuqur egalladi. Forobiy ko‘p yillar Damashqda yashab, ilm bilan shug‘ullanadi va 950-yili shu yerda vafot etadi.

Forobiy matematika, tibbiyot, astronomiya, kimyo, mantiq, musiqashunoslik, falsafa va boshqa fanlarga doir 160 dan ortiq ilmiy meros qoldirgan. Ammo ularning atigi qirqqa yaqini bizgacha yetib kelgan.

Forobiy asarlarida ijtimoiy masalalar - jamiyatning shakllanishi, rivojlanishi, davlatni boshqarish usullari, san‘at, musiqa, etika, siyosat, psixologiya, tabiatshunoslik hamda falsafaga doir nodir ilmiy qarashlar keng yoritilgan. Forobiy tarixda Aristoteldan so‘ng “ikkinchi muallim” deb tan olingan olimdir. Uning asarlari XII asrdan boshlab qadimgi yahudiy va lotin tiliga, keyinroq ingliz, fransuz, nemis, fors, turk, rus, urdu, o‘zbek, qozoq va boshqa tillarga tarjima qilingan.

Forobiy arab mamlakatlarida mashhur arab mutafakkiri sifatida e‘zozlansa, Turkiyada mashhur turkiy olim sifatida yuksak qadrlanib kelingan. Forobiy til o‘rganishdan, kitob mutolaa qilishdan hech charchamagan. Ma‘lumotlarga qaraganda, u 70 dan ortiq tilda erkin so‘zlashgan. Bir asarni tushunib yetmagunicha yuz marta o‘qishdan ham zerikmagan.

Forobiy Aristotelning barcha falsafiy, tibbiy, ilmiy-nazariy asarlariga, Ptolomeyning osmon jismlari harakati, Aleksandr Afrodiziyning ruh va psixologiyaga oid, Evkledning geometriyaga, Galenning tibbiyotga, Platon va Gippokratning asarlariga ilmiy talqinlar yaratgan. XII-XIII asrlarning yirik tarixchisi Boyhaqiy: “Abu Nasr o‘z ta‘limoti evaziga “ikkinchi muallim” deb nom olgan. Islomda unga teng keladigan odam dunyoga kelgan emas”, deb yozgan edi.

1970-71-yillarda Forobiyning ona yurti - O‘rta Osiyoda uning 1100 yillik qutlug‘ sanasi keng nishonlandi. Uning hayoti va ilmiy faoliyatiga bag‘ishlangan xalqaro anjumanlar o‘tkazilib, ko‘plab ilmiy ishlar, kitoblar nashr etildi. Hozirgi paytda uning ilmiy merosi oliy o‘quv yurtlari va ilmiy tekshirish institutlarida chuqur o‘rganilmoqda.

ABU RAYHON BERUNIY

Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad Beruniy 973-yili Xorazmda tug‘ildi. Beruniy yashagan davr Xorazmning va butun O‘rta Osiyoning arablar hukmdorligidan ozod bo‘lgan paytiga to‘g‘ri keladi. U dastlabki chuqur va keng qamrovli ma‘lumotni Xorazmning yirik madaniyat hamda savdo markazi Urganch shahrida oladi. Beruniy arab, sug‘diy, fors va qadimgi yahudiy tillarini yaxshi bilgan. U buxorolik buyuk olim Abu Ali ibn Sino bilan yaqin do‘st bo‘lib, ilmiy aloqada bo‘lgan. Beruniy 18 yoshidan boshlab Xorazm rasadxonasida ilmiy kuzatishlar olib borgan. 19 yoshida esa “Ajdodlarimiz xotirasi” nomli birinchi asarini yozgan. Shohlarning o‘zaro urushlari iste‘dodli olimning bir joyda yashab, ilmiy ishlar bilan shug‘ullanishiga to‘sqinlik qilgan. U o‘z yurtidan uzoqlarda - Bag‘dodda, Hindiston va boshqa mamlakatlarda yashab, dunyo ilm ahlini hayratda qoldirgan ilmiy asarlarini yaratgan.

Beruniy barcha ko'rgan narsalari va kuzatgan hodisalari, olib borgan ilmiy ishlari asosida 150 dan ortiq asarlar yozib qoldirgan. Ularda matematika, astronomiya, fizika, geografiya, kartografiya, umumiy geologiya, mineralogiya, botanika, farmakologiya, tibbiyot, iqlimshunoslik, etnografiya, tarix, falsafa, filologiya kabi ko'plab fanlarga oid qimmatli ilmiy xulosalar yoritilgan.

Beruniy birinchi bo'lib Yerning Quyosh atrofida aylanishini aytgan. Yer aylanashining uzunligini aniqlab bergan. Uning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" nomli asarida ko'pgina xalqlarning islom dinigacha bo'lgan tarixi, madaniyati, kalendarlari haqida ajoyib ma'lumotlar berilgan. Ayniqsa, uning "Hindiston" asari Hindistonning ilk o'rta asrlar tarixiga doir muhim manba hisoblanadi.

Abu Rayhon Beruniy 1048-yili 75 yoshda vafot etdi. Beruniy o'zining o'lmas asarlari bilan jahonning eng buyuk olimlari safidan o'rin oldi. U sharqda birinchi bo'lib Yerning shar shaklida ekanligini aniqladi, uni 5 metr keladigan globus yasadi, dunyo xaritasini chizdi. Oy va Quyoshning tutulishi sabablarini izohladi, dunyoning qayerida qanday boyliklar borligini aytib berdi. Uning asarlari dunyoning ko'pgina tillariga tarjima qilingan hamda ko'plab nusxalarda nashr etilgandir. Buyuk olimning tug'ilganiga ming yil to'lishi butun jahon fani va madaniyati tarixidagi katta voqea sifatida keng nishonlandi. Bobokalonimizning nomi abadiylashtirilgan. Respublikamisdagi bir qator o'quv yurtlari, maydonlar, xiyobonlar, ko'chalar uning nomi bilan atalgan.

ABU ALI IBN SINO

Abu Ali ibn Sino 980-yili Buxoro shahri yaqinidagi Afshona (hozirgi Peshku tumani) qishlog'ida tug'ildi. Uning bolalik va o'smirlik yillari Buxoro shahrida o'tdi. U yoshligidanoq o'z davrining buyuk olimlari asarlarini o'qib-o'rgangan. 16 yoshida ilm-fanning ko'pgina sohalarini egallab iste'dodli tabib sifatida taniladi. Og'ir dardga chalingan Buxoro shohi Mansurni davolab, buning evaziga shohning boy kutubxonasidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Yosh tabib bu yerda o'z bilimini yanada boyitadi.

Ibn Sino Buxoroda uzoq yashamadi. Zamonning notinchligi tufayli u Urganch, Nishopur, Hamadon, Ray, Isfahon kabi shaharlarda yashashga majbur bo'lgan. Ibn Sino zamonasining buyuk qomusiy olimi Abu Rayhon Beruniy bilan tanishadi va ular orasida do'stlik hamda ilmiy aloqa bog'lanadi.

Abu Ali ibn Sino buyuk tabib, matematik, faylasuf va shoir sifatida dunyoga mashhur olimdir. U umri davomida 280 dan ortiq qimmatbaho asarlar yozib qoldirgan. Uning asarlari tibbiyot, yulduzlar ilmi, matematika, kimyo, geografiya, musiqa, falsafa, mantiq, psixologiya va ijtimoiy-siyosiy masalalarga bag'ishlangandir. Ibn Sinoni mashhur qilgan asari "Tib qonunlari"dir.

Ibn Sinoning 5 qismdan iborat "Tib qonunlari" kitobi ko'p asrlar davomida Yevropa va qator Sharq mamlakatlarida tibbiyotdan asosiy darslik bo'lib keldi. Bu asar juda ko'p tillarga tarjima qilinib, ming-minglab nusxalarda nashr etilgan. Faqatgina lotin tilida 30 marta nashr etilganligi ma'lum.

Butun kuch-g'ayratini ilmga bag'ishlagan, xalq xizmati yo'lida o'z sog'ligini o'ylamagan buyuk mutafakkir olim 1037-yil 18-iyun kuni olamdan o'tdi.

1980-yil butun insoniyat qomusiy olim Abu Ali ibn Sinoning 1000 yillik qutlug' sanasini keng nishonladi. Uning asarlari qayta-qayta nashr etilib, xalqqa yetkazilmoqda. Uning muborak nomi jahonning barcha mamlakatlarida hurmat va ehtirom bilan tilga olinadi. Uning hayoti va ijodi tasvirlangan ko'plab badiiy asarlar, filmlar yaratilgan.

IBN SINO SHE'RLARIDAN NAMUNALAR

Otalik xizmati nimadir bilsang:

Bor-yo'g'in farzandga bermak beminnat.

Lek otadan o'pka qilmasun farzand,

Zamona keltirsa boshiga kulfat.

Qaro yer qa'ridan to avji Zuhul -

Koinot mushkulin barin qildim hal,

Ko'p mushkul tugunni angladim, yechdim,

Yechilmay qolgani birgina ajal.

Olamning sayriga qo'ydimki qadam,

Qarshimda namoyon bo'ldi har ne bor.

Hayratimda qo'lim tutgan soqoldan

Boshqa biror narsa bo'lmadi oshkor.

May mastga dushman-u hushyorga yordir.

Ozi taryok, ko'pi bir zahri mordir,

Ko'p bo'lsa zarari oz emas uning,

Oz bo'lsa undan ko'p manfaat bordir.

TOPSHIRIQLAR

1. Matnni tarjima qiling.
2. Matnda qo'llangan so'zlarni o'zak, negiz, qo'shimchalarga ajrating, ularning turlarini aniqlang.
3. Matn mazmunini rus tilida so'zlab bering.
4. She'r mazmunini rus tiliga tarjima qiling va og'zaki hikoya qiling.

Tilning leksik qatlamlari

Eskirgan so'zlar – kundalik hayotda ishlatilmaydigan bo'lib qolgan so'zlardir. Jamiyat to'xtovsiz rivojlanib boradi. Yillar o'tishi bilan mehnat qurollari, kiyim-kechak, uy jihozlarining yangi nusxalari paydo bo'ladi, eskilarining ba'zilari ishlatilmaydigan bo'lib qoladi, natijada ularni ifodalovchi so'zlar ham bora-bora juda kam qo'llanadi yoki iste'moldan chiqib ketadi. Eskirgan so'zlar ikkita guruhga ajratiladi:

1. Tarixiy so'zlar (yoki istorizmlar).
2. Arxaik so'zlar (yoki arxaizmlar).

Tarixiy soʻzlar – hozirda mavjud boʻlmagan narsa-hodisalarning isteʼmoldan butunlay chiqib ketgan nomlaridir. Bunda soʻz oʻzi ifodalagan tushuncha bilan birgalikda eskiradi: *mingboshi, ellikboshi, kanizak, omoch, dodxoh, xalfa, moʻndi...*

Arxaik soʻzlar - hozirda mavjud boʻlgan narsa-hodisalarning eskirib qolgan atamalaridir. Bunda soʻz eskiradi, lekin tushuncha eskirmaydi, u boshqa soʻz bilan ifodalanadigan boʻlib qoladi. Bunday soʻzlar isteʼmoldan chiqish arafasida turgan, hozirgi tilda sinonimi boʻlgan soʻzlardir. Masalan: bitik (kitob), ulus, budun (xalq), oʻmiz (koʻkrak) kabi.

Amaliy mashgʻulotning texnologik modeli.

MAVZU: MUZEYLAR – OʻTMISH VA KELAJAK ORASIDAGI KOʻPRIK (2 SOAT)

Vaqt: 2 soat	Talabalar soni: 25 nafar
<i>Oʻquv mashgʻulotining shakli va turi:</i>	Amaliy mashgʻulot.
<i>Dars rejasi (oʻquv mashgʻulotining tuzilishi):</i>	1. Matbuot yangiliklari. 2. Uyga vazifalarni soʻrash, yozma bajarilganlarini tekshirish. 3. Talabalarni uchta kichik guruhga boʻlish. 4. Matnni guruh vakillariga ifodali oʻqitish. 5. Matn asosida lugʻat tuzdirish. 6. Tarqatma materiallar ustida ishlash.
<i>Oʻquv mashgʻuloti maqsadi:</i>	Talabalarning oʻzbek tilidan egallagan bilim va koʻnikmalarini aniqlash, mustahkamlash, kengaytirish, ixtisoslik matni asosida oʻzbek tilini chuqur oʻzlashtirishlariga koʻmaklashish, talabalarning yozma va ogʻzaki nutqi ravonligiga erishish, ularni davlat tilida savodxonlik bilan ish yurita olishga oʻrgatish, ular nutqini kasbiy atamalar bilan boyitish, tarbiyalash.
<i>Pedagogik vazifalar:</i> - talabalar oldingi mashgʻulotlarda oʻzlashtirgan bilim va koʻnikmalarini mustahkamlash; - ularning lugʻat boyligi va oʻzbek tili qonun- qoidalari haqidagi tasavvurlarini yanda kengaytirish ;	<i>Oʻquv faoliyati natijalari:</i> - talabalar oldingi mashgʻulotlarda olgan bilim va koʻnikmalarini namoyon etadilar; - matn asosida oʻzlarining lugʻat boyligini orttiradilar, oʻzbek tili qonun-qoidalari haqidagi tasavvurlarini kengaytiradilar. - matn asosida oʻzbek tilidan oʻrganganlarini chuqurlashtiradilar; - dars davomida oʻzlarining yozma va ogʻzaki nutqlarini yanada ravonlashtiradilar.

- matn asosida ularning o'zbek tilini chuqur o'zlashtirishlariga ko'maklashish; - talabalarning yozma va og'zaki nutqi rivojiga ko'maklashish.	
<i>Ta'lim usullari:</i>	Savol-javob, hikoya qilish, suhbat-munozara, sharhlash, aqliy hujum.
<i>Ta'lim shakli:</i>	Frontal, jamoaviy, guruhlarda ishlash.
<i>Ta'lim vositalari:</i>	O'quv dasturi, amaliy mashg'ulotlar matni, darslik, o'quv qo'llanmalari, uslubiy qo'llanmalar, lug'atlar, doska, bo'r, tarqatma materiallar.
<i>Ta'lim berish sharoiti:</i>	Dekanat tomonidan dars jadvalida belgilangan, guruh bo'lib ishlashga mo'ljallangan stollar, stullar mavjud auditoriya.
<i>Monitoring va baholash:</i>	Og'zaki so'rov: tezkor so'rov. Yozma so'rov: savollarga yozma javob, yozma bajarilgan topshiriqlarini tekshirish.

Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi.

MAVZU: MUZEYLAR – O'TMISH VA KELAJAK ORASIDAGI KO'PRIK (2 SOAT)

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (10 daq.)	1.1. Mavzuning nomi, maqsad va kutilayotgan natijalarni yetkazadi. Mashg'ulot yangi innovatsion texnologiyalar asosidagi amaliy dars tarzida borishini ma'lum qiladi.	Tinglaydilar, yozib oladilar.
2-bosqich. Asosiy (60 daqiqa).	2.1. Talabalar bilimini suhbat shaklida faollashtiradi(1-ilova). Bilimlarni faollashtirish jarayonida o'quv muammosini yechish bo'yicha izlanuvchilik faoliyatida faol ishtirok etishlari uchun talabalarning egallagan bilimlari yetarliligini aniqlaydi. 2.2. Faollashtirilgan bilimlar asosida	Savollarga javob beradilar. Mavzu bo'yicha o'z fikrlarini bildiradilar.

	talabalarni mashg'ulotda o'rganiladigan mavzuga olib kiradi. 2.3. Talabalarni uch guruhga bo'lib, ularni "Adolat", "Matonat", "Baxt" deb nomlaydi, guruhlarda ish boshlanganligini ma'lum qiladi, bo'lingan guruhlarining bittadan vakiliga "Mening ish kunim" matnidan belgilangan qismini ifodali o'qitadi(2-ilova). 2.4. O'zbekcha tuzilgan lug'at har bir guruhga teng taqsimlanib, so'zlarning rus tilidagi muqobillari toptiriladi (3-ilova). 2.5. Matndan olingan so'zlarning ma'nosini izohlash topshiriladi(4-ilova). 2.6. Matndan olingan so'zlarning sinonimlarini aniqlash va izohlash topshiriladi(5-ilova).	Talabalar matnni ifodali o'qiydi, yangi so'zlar lug'atini tuzadi va ularning o'quv tilidagi muqobilini topadi, berilgan so'zlarning ma'nosini izohlaydi, so'zlarning sinonimlarini aniqlab izohlaydi, she'rni o'qib mazmunini aytib beradi.
3-bosqich. Yakuniy (10 daqiqa).	3.1. Mavzu bo'yicha yakun qiladi. Amalga oshirilgan ishlarning kelgusida talabalarning pedagogik faoliyatlarida ahamiyati katta ekanligiga e'tiborni qaratadi. 3.2. Mustaqil bajarib kelish uchun topshiriqlar beradi. 3.2.1. Keyingi darsda o'tiladigan "Muzeylar – o'tmish va kelajak orasidagi ko'prik" mavzusi bo'yicha bayon yozib kelish; 3.2.2. Matbuot sahifalaridan yangilik namunalari tayyorlab kelish;	Tinglaydilar. Topshiriqlarni yozib oladilar.

MUZEYLAR – O'TMISH VA KELAJAK ORASIDAGI KO'PRIK

Muzeylar tarixiy yodgorliklarni asrovchi, saqlovchi, o'rganuvchi va xalqqa namoyish qiluvchi muassasadir. Muzeylar kishilarning o'zlari uchun qadrli va yodgorlik bo'lib qoladigan buyumlarni to'plab, ularni kelgusi avlodlarga qoldirish ehtiyoji natijasida paydo bo'ldi. Muzeylarning turlari juda ko'p. Tarixga, adabiyot va san'atga, texnikaga, tibbiyotga, hayvonot olamiga, harbiy qurol-yarog' kabilarga oid muzeylar mavjuddir. Muzeylar dastlab ibodatxonalarda tashkil

etilgan. Yevropada ko‘plab muzeylarning tashkil etilishi XIV–XVII asrlarga to‘g‘ri keladi. Muzeylardan joy olgan eksponatlar katta tarbiyaviy ahamiyatga ham ega.

AQSH, Italiya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Rossiya Federatsiyasi jahonning mashhur muzeylari joylashgan mamlakatlar hisoblanadi. Rossiyaning Sankt-Peterburg shahridagi Ermitaj, Parijdagi Luvr, Londondagi Britaniya muzeyi, Italiyadagi Uffitsi kabi dunyoga dong‘i ketgan muzeylarning kolleksiyalari tarkibida tarixiy buyumlarning nodir nusxalari saqlanadi. Masalan, 1546-yilda qurilgan va dastlab qirol saroyi vazifasini o‘tagan, hozirda esa dunyoning eng katta muzeyi hisoblanmish Parijdagi «Luvr» muzeyida qadimgi Misr, Yunoniston va qadimgi Rimda yaratilgan noyob san‘at durdonalarining asl nusxalari saqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasida ham ko‘plab muzeylar mavjud. Bu muzeylardagi eksponatlar jahonning mashhur muzeylari eksponatlaridan qolishmaydi. Hozirgi kunda respublikamizda O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, O‘zbekiston san‘at muzeyi, O‘zbekiston xalqlari madaniyati va san‘ati tarixi muzeyi, O‘zbekiston sog‘liqni saqlash muzeyi kabi muzeylar faoliyat ko‘rsatmoqda. Birgina O‘zbekiston tarixi davlat muzeyining o‘zida 250 mingdan ortiq tarixiy yodgorliklar mavjud. Ular xalqimizga va chet elliklarga O‘zbekistonning o‘tmish tarixini ko‘z-ko‘z qilib turadi. Temuriylar tarixi davlat muzeyi 1996-yilda bunyod etilgan. Balandligi 31 metr bo‘lgan muzey binosi uch qavatlidir. Muzey ko‘rgazma zalining markazida devorga ajoyib tasviriy san‘at asari ishlangan. Unga «Buyuk Sohibqiron – buyuk bunyodkor» deb nom berilgan. Asar «Tug‘ilish», «Yuksalish» va «Faxrlanish» nomlari bilan ataluvchi 3 qismdan iborat. «Tug‘ilish» qismida Sohibqironning (buyuk bobomiz Amir Temurning) tug‘ilishi bilan bog‘liq urf-odatlar tasvirlangan. «Yuksalish» qismida buyuk bobomiz hayotida doimo amal qilgan «Rosti-rusti», ya’ni «Tog‘rilik najotdir» degan shiori oltin harflar bilan yozib qo‘yilgan. Shuningdek, bu qismda Sohibqironning vazirlar, harbiy sarkardalar va olimlar bilan o‘tkazayotgan kengashi aks ettirilgan. «Faxrlanish» qismida esa Amir Temur va temuriylar davri merosining avloddan avlodga o‘tib kelayotganligi g‘oyasi tasvirlangan. Jahon davlatlaridagi muzeylar xalqaro tashkilotga birlashgan. U xalqaro YUNESKO tarkibidagi «Muzeylar xalqaro kengashi» deb ataladi.

Eksponat – muzeylarda ko‘rgazmaga qo‘yilgan buyumlar, rasmlar, hujjatlar, kitoblar. Kolleksiya – muzeylarda saqlanayotgan buyumlarning tartibga solingan to‘plami.

Savol va topshiriqlar:

1. Muzeylar qanday vazifalarni o‘tashi haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Dastlabki muzeylar qayerda tashkil etilgan?

3. Jahondagi mashhur muzeylar haqida gapirib bering.
4. O'zbekiston muzeylari haqida nimalarni bilasiz.
5. O'zingiz yashayotgan hududdagi muzeylar haqida matn tuzing.

Frazeologik birliklarning turlari va uslubiy xususiyatlari

Iboralar - ma'nosi odatda bitta so'zga teng keladigan va ko'chma ma'noda qo'llaniladigan gap yoki so'z birikmalaridir. Masalan, *qovog'idan qor yog'adi – xafa, qo'y og'zidan cho'p olmagan – yuvosh, hamirdan qil sug'urganday – oson*. Iboralar, asosan, so'zlashuv va badiiy uslubda keng ishlatiladi, rasmiy va ilmiy uslublarda qo'llanilmaydi.

Frazeologiya *fraza* va *logos* so'zlaridan olingan bo'lib, fraza –«*ibora*», logos –«*bilim*» ma'nosini bildiradi. Ko'rinadiki, frazeologiya iboralar haqidagi bilimdir.

O'quv mashg'ulotining ta'lim texnologiyasi modeli **MAVZU: TOSHKENT – MAMLAKATIMIZ POYTAXTI (2 SOAT)**

Vaqt: 2 soat	Talabalar soni: 13 nafar
<i>O'quv mashg'ulotining shakli va turi:</i>	Amaliy mashg'ulot.
<i>Dars rejasi (o'quv mashg'ulotining tuzilishi):</i>	1. Matbuot yangiliklari. 2. Uyga vazifalarni so'rash, yozma bajarilganlarini tekshirish. 3. Talabalarni uchta kichik guruhga bo'lish. 4. Matnni guruh vakillariga ifodali o'qitish. 5. Matn asosida lug'at tuzdirish. 6. O'zbek tilida sinonimlar.
<i>O'quv mashg'uloti maqsadi:</i>	Talabalarning o'zbek tilidan egallagan bilim va ko'nikmalarini aniqlash, mustahkamlash, kengaytirish, ixtisoslik matni asosida o'zbek tilini chuqur o'zlashtirishlariga ko'maklashish, talabalarning yozma va og'zaki nutqi ravonligiga erishish, ularni davlat tilida savodxonlik bilan ish yurita olishga o'rgatish, ular nutqini kasbiy atamalar bilan boyitish, tarbiyalash.

<i>Pedagogik vazifalar:</i> - talabalarning oldingi mashg'ulotlarda o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash; - ularning lug'at boyligi va o'zbek tili qonun-qoidalari haqidagi tasavvurlarini yanda kengaytirish ; - matn asosida ularning o'zbek tilini chuqur o'zlashtirishlariga ko'maklashish; - talabalarning yozma va og'zaki nutqi rivojiga ko'maklashish.	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i> - talabalar oldingi mashg'ulotlarda olgan bilim va ko'nikmalarini namoyon etadilar; - matn asosida o'zlarining lug'at boyligini orttiradilar, o'zbek tili qonun-qoidalari haqidagi tasavvurlarini kengaytiradilar. - matn asosida o'zbek tilidan o'rganganlarini chuqurlashtiradilar; - dars davomida o'zlarining yozma va og'zaki nutqlarini yanada ravonlashtiradilar.
<i>Ta'lim usullari:</i>	Savol-javob, hikoya qilish, suhbat-munozara, sharhlash, aqliy hujum.
<i>Ta'lim shakli:</i>	Frontal, jamoaviy, guruhlarda ishlash.
<i>Ta'lim vositalari:</i>	O'quv dasturi, amaliy mashg'ulotlar matni, darslik, o'quv qo'llanmalari, uslubiy qo'llanmalar, lug'atlar, doska, bo'r, tarqatma materiallar.
<i>Ta'lim berish sharoiti:</i>	Dekanat tomonidan dars jadvalida belgilangan, guruh bo'lib ishlashga mo'ljallangan stollar, stullar mavjud auditoriya.
<i>Monitoring va baholash:</i>	Og'zaki so'rov: tezkor so'rov. Yozma so'rov: savollarga yozma javob, yozma bajarilgan topshiriqlarini tekshirish.

Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi.
MAVZU: TOSHKENT – MAMLAKATIMIZ POYTAXTI (2 SOAT)

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (10	1.1. Mavzuning nomi, maqsad va kutilayotgan natijalarni yetkazadi. Mashg'ulot yangi innovatsion texnologiyalar asosidagi amaliy dars tarzida	Tinglaydilar, yozib oladilar.

daq.)	borishini ma'lum qiladi.	
2-bosqich. Asosiy (60 daqiqa).	2.1. Talabalar bilimini suhbat shaklida faollashtiradi(1-ilova). Bilimlarni faollashtirish jarayonida o'quv muammosini yechish bo'yicha izlanuvchilik faoliyatida faol ishtirok etishlari uchun talabalarning egallagan bilimlari yetarliligini aniqlaydi. 2.2. Faollashtirilgan bilimlar asosida talabalarni mashg'ulotda o'rganiladigan mavzuga olib kiradi. 2.3. Talabalarni uch guruhga bo'lib, ularni "Kitob", "Ilm", "Fan" deb nomlaydi, guruhlarda ish boshlanganligini ma'lum qiladi, bo'lingan guruhlarining bittadan vakiliga "Shiroq" matnidagi belgilangan qismini ifodali o'qitadi(2-ilova). 2.4. O'zbekcha tuzilgan lug'at har bir guruhga teng taqsimlanib, so'zlarning rus tilidagi muqobillari toptiriladi (3-ilova). 2.5. Matndan olingan so'zlarning ma'nosini izohlash topshiriladi(4-ilova). 2.6. Matndan olingan so'zlarning sinonimlarini aniqlash va izohlash topshiriladi(5-ilova). 2.7. Gaplarni rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qilish topshiriladi (6-ilova).	Savollarga javob beradilar. Mavzu bo'yicha o'z fikrlarini bildiradilar. Talabalar matnni ifodali o'qiydi, yangi so'zlar lug'atini tuzadi va ularning o'quv tilidagi muqobilini topadi, berilgan so'zlarning ma'nosini izohlaydi, so'zlarning sinonimlarini aniqlab izohlaydi, she'rni o'qib mazmunini aytib beradi.
3-bosqich. Yakuniy (10 daqiqa).	3.1. Mavzu bo'yicha yakun qiladi. Amalga oshirilgan ishlarning kelgusida talabalarning pedagogik faoliyatlarida ahamiyati katta ekanligiga e'tiborni qaratadi. 3.2. Mustaqil bajarib kelish uchun topshiriqlar beradi. 3.2.1. Keyingi darsda o'tiladigan "Toshkent – mamlakatimiz poytaxti" mavzusi bo'yicha materiallar to'plash; 3.2.2. Matbuot sahifalaridan yangilik namunalari tayyorlab kelish;	Tinglaydilar. Topshiriqlarni yozib oladilar.

TOSHKENT – MAMLAKATIMIZ POYTAXTI

Toshkent shahri qadimda “Choch”, “Shosh” nomlari bilan atalgan. XI asrdan Toshkent deb yuritila boshlagan. Toshkent geografik jihatdan qulay yerda joylashgan, iqlim sharoiti ham mo‘tadil bo‘lganligi uchun dehqonchilik va chorvachilik rivojlangan. Qadimgi Toshkentning atrofi baland va qalin devorli qo‘rg‘on bilan o‘ralgan edi. Shaharning bo‘yi ham, eni ham 6-7 kilometr uzunlikka teng bo‘lgan. Yozma manbalar va arxeologik tadqiqotlar shaharning yoshi 2000 yildan ortiq ekanligini tasdiqlaydi.

Shahar devoridan tashqarida eng sersuv yerlar o‘zlashtirilib, obod etilgan. Aholi meva, sabzavot va g‘allaga zoriqmagan.

Toshkent o‘zaro urushlar, qo‘zg‘olonlar, ko‘chmanchi qabilalar hujumlari natijasida bir necha marta vayron qilindi va qayta tiklandi. XIII asrgacha Toshkent qal’a, ichki va tashqi shahardan iborat bo‘lib, atrofi bir necha qator mudofaa devori bilan o‘rab olindi. Shaharda kulolchilik, o‘q-yoy, gazlama, charm mahsulotlari ishlab chiqarish rivojlangan. XV-XVI asrlarda Toshkentda yirik tarixiy ansambllar qad ko‘taradi. XVIII-XIX asrlarga kelib, shahar yana-da kengaydi va hududi 15 ming gektarga yetdi. Shahar to‘rt daha va yuzlab mahallalarga bo‘lingan. Shaharga 12 darvoza orqali kirilgan.

Toshkent 1930-yildan O‘zbekistonning poytaxti deb e‘lon qilindi. Shu yillar ichida Toshkentning qiyofasi tubdan o‘zgardi. Tor, qing‘ir-qiyshiq ko‘chalar o‘rniga keng va elektrlashtirilgan yorug‘ xiyobonlar barpo etildi, ko‘p qavatli binolar qurildi. Ayniqsa, 1966-yilgi zilziladan so‘ng Toshkent tanib bo‘lmas darajada o‘zgardi. Shahar maydoni kengaydi, uning chegarasidan 67 kilometrli aylanma yo‘l o‘tkazildi. 1977-yili O‘rta Osiyoda yagona bo‘lgan Toshkent metrosi ishga tushdi. 1985-yili bo‘yi 375 metrli ulkan teleminora qurildi. 18 qavatli Ma‘muriy bino, Matbuot uyi, “Paxtakor”, “Bunyodkor” stadionlari, “O‘zbekiston”, “Chorsu” kabi mehmonxonalar, Navoiy, Muqimiy, Hamza teatrlari, Xalqlar do‘stligi saroyi, Rassomlar uyi, Oliy Majlis, Senat, Milliy bank binolari, A.Temur va adabiyot muzeylari Toshkentni yana-da ulug‘vor ko‘rsatadi.

Yirik ilmiy va ma‘rifat markazi hisoblangan poytaxtimizda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi, o‘nlab ilmiy tekshirish institutlari, 40 ga yaqin oliy o‘quv yurtlari, 20 ga yaqin muzey, 700 ga yaqin kutubxona, o‘ndan ortiq teatr, o‘nlab madaniyat saroylari, yuzlab kinoteatrlar mavjud.

Toshkent mamlakatimizning ulkan sanoat markazi bo‘lib, bu yerda 300 dan ortiq yirik zavod va fabrikalar muntazam ishlab turibdi. Toshkentda mashinasozlik, yengil va oziq-ovqat sanoati tez rivojlanmoqda. Poytaxtimizdagi to‘qimachilik, trikotaj kombinatlari, traktor, samolyotsozlik zavodlari, boshqa davlatlar bilan

hamkorlikda ochilayotgan qo'shma korxonalar ishlab chiqarayotgan mahsulotlar jahon bozorida o'z xaridorini topmoqda.

Toshkent sharqda rivojlangan shaharlardan biri bo'lib, bu yerda har yili ijtimoiy taraqqiyot, tinchlik, ekologiya, fan va texnika, madaniyat, san'at va boshqa sohalarga bag'ishlangan o'nlab xalqaro anjumanlar, sport musobaqalari o'tkaziladi. Toshkent ko'p millatli ulkan shahar bo'lib, hozir unda 2,9 milliondan ortiq aholi yashaydi. Uning chiroyi kundan kunga ortib boryapti.

Savol va topshiriqlar:

1. Matn bo'yicha lug'at tuzing.
2. Matnning birinchi xatboshisini tarjima qiling.
3. Matnda qo'llangan sinonimlarni aniqlang.
4. Matnning mazmunini o'zbek tilida gapirib bering.
5. Matndan ijodiy foydalangan holda "Poytaxtga sayohat" mavzusida mustaqil matn tuzing.

Erkin va turg'un birikmalar

Nutqiy jarayonda fikrimizni bayon qilish uchun so'zlar yordamidagina emas, balki bir necha so'zlarning barqaror bog'lanishidan hosil bo'lgan birikmalardan ham foydalanamiz. Masalan, Toshkentdagi istiqloq davrida qurilgan inshootlarni ko'rib, og'zim ochilib qoldi. Bu gapda og'zim ochilib qoldi birikmasi so'zlovchi tomonidan nutqqa tayyor holda olib kirilgan.

Og'iz ochilib qolmoq birikmasi nutq jarayoniga qadar ham tayyor holda barqaror birikma sifatida mavjud va mazmunan bir leksema hayron bo'lmoq leksemasi ifodalagan ma'noga teng keladi. Yoki yer haydasang kuz hayda, kuz haydamasang yuz hayda, deydi xalqimiz, jumlasida deydi xalqimiz birikmasi tarkibidagi so'zlar o'zaro erkin bog'langan bo'lsa, undan oldingi so'zlar so'zlovchining nutqiga qadar xalqimiz tomonidan yaratilgan, tilimizda tayyor holda so'zlarning xuddi shunday tarkibini doimiy saqlagan holda mavjuddir. Ikki va undan ortiq so'zlarning o'zaro barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutq jarayoniga

tayyor holda olib kiriluvchi, til egalari xotirasida imkoniyat sifatida mavjud bo'lgan til birliklari barqaror birikmalar deyiladi. Barqaror birikmalarning eng xarakterli belgilari quyidagilar:

1. Nutq jarayoniga qadar tilda mavjudlik: nutqqa tayyor holda olib kirishlik.
2. Ma'no butunligi.
3. Tuzilishi va tarkibining barqarorligi. Barqaror birikmalardan o'rinli foydalanish nutq go'zalligini ta'minlaydi, shuning uchun ular nutqimiz ko'rki hisoblanadi.

Barqaror birikmalarni o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi paremiologiya (lot. parema — barqaror, logos — ta'limot), barqaror birikmalar lug'atini tuzish

muammolarini o'rganuvchi bo'lim esa paremiografiya (lot. parema — barqaror, grofho — yozmoq) sanaladi.

Barqaror birikmalar nutqqa tayyor holda olib kirilishi, tarkibiy qismlarining barqarorligi belgisiga ko'ra umumiylikni tashkil etsa ham, ma'no butunligi nuqtayi nazaridan turlichadir. Shunga ko'ra barqaror birikmalar quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1. Frazelogizmlar.
2. Maqol va matallar.
3. Aforizmlar.

Barqaror birikmalarning bir guruhi tarkibidagi so'zlar ma'no jihatdan uyg'unlashib, mazmuniy yaxlitlikni vujudga keltiradi va ko'pincha mazmunan bir leksemaga teng keladi va ko'chma ma'noda ishlatiladi. Masalan, qulog'i ding bo'lmoq — hushyor bo'lmoq, qovog'i osilmoq — xafa bo'lmoq, og'zining tanobi qochdi — quvonmoq kabi.

Ma'no yaxlitligiga ega bo'lgan va nutqiy jarayonga qadar ikki va undan ortiq so'zlarning barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutqqa tayyor holda olib kiriluvchi ko'chma ma'nodagi barqaror birikmalarga frazeologizmlar deyiladi.

Frazeologizmlar gap tarkibida uning bir bo'lagi vazifasida keladi. Frazelogizmni tashkil etgan so'zlar frazeologizmning faqat ichki uzvlari sanaladi. Gapning boshqa bo'laklari bilan yaxlit, bir butun holda munosabatga kirishadi. Masalan, Rais daladagi hosilni ko'rib boshi osmonga yetdi. Bu gapda boshi osmonga yetdi qismi butun holda kesim vazifasida keladi.

Savol va topshiriqlar

1. Barqaror birikma deganda nimani tushunasiz?
2. Barqaror birikmaning qanday turlari mavjud?
3. Frazelogizm nima?
4. Maqol va matal deganda nimani tushunasiz?
5. Qanday birikmalar hikmatli so'zlar (aforizmlar) sanaladi?

O'quv mashg'ulotining ta'lim texnologiyasi modeli **MAVZU: SAMARQAND – SHARQ GAVHARI (2 SOAT)**

Vaqt: 2 soat	Talabalar soni: 13 nafar
<i>O'quv mashg'ulotining shakli va turi:</i>	Amaliy mashg'ulot.
<i>Dars rejasi (o'quv mashg'ulotining tuzilishi):</i>	1. Matbuot yangiliklari. 2. Uyga vazifalarni so'rash, yozma bajarilganlarini tekshirish. 3. Talabalarni uchta kichik guruhga bo'lish. 4. Matnni guruh vakillariga ifodali o'qitish.

	5. Matn asosida lugʻat tuzdirish. 6. Bosh va qaratqich kelishigi.
<i>Oʻquv mashgʻuloti maqsadi:</i>	Talabalarining oʻzbek tilidan egallagan bilim va koʻnikmalarini aniqlash, mustahkamlash, kengaytirish, ixtisoslik matni asosida oʻzbek tilini chuqur oʻzlashtirishlariga koʻmaklashish, talabalarining yozma va ogʻzaki nutqi ravonligiga erishish, ularni davlat tilida savodxonlik bilan ish yurita olishga oʻrgatish, ular nutqini kasbiy atamalar bilan boyitish, tarbiyalash.
<i>Pedagogik vazifalar:</i> - talabalarining oldingi mashgʻulotlarda oʻzlashtirgan bilim va koʻnikmalarini mustahkamlash; - ularning lugʻat boyligi va oʻzbek tili qonun- qoidalari haqidagi tasavvurlarini yanda kengaytirish ; - matn asosida ularning oʻzbek tilini chuqur oʻzlashtirishlariga koʻmaklashish; - talabalarining yozma va ogʻzaki nutqi rivojiga koʻmaklashish.	<i>Oʻquv faoliyati natijalari:</i> - talabalar oldingi mashgʻulotlarda olgan bilim va koʻnikmalarini namoyon etadilar; - matn asosida oʻzlarining lugʻat boyligini orttiradilar, oʻzbek tili qonun-qoidalari haqidagi tasavvurlarini kengaytiradilar. - matn asosida oʻzbek tilidan oʻrganganlarini chuqurlashtiradilar; - dars davomida oʻzlarining yozma va ogʻzaki nutqlarini yanada ravonlashtiradilar.
<i>Taʼlim usullari:</i>	Savol-javob, hikoya qilish, suhbat-munozara, sharhlash, aqliy hujum.
<i>Taʼlim shakli:</i>	Frontal, jamoaviy, guruhlarda ishlash.
<i>Taʼlim vositalari:</i>	Oʻquv dasturi, amaliy mashgʻulotlar matni, darslik, oʻquv qoʻllanmalari, uslubiy qoʻllanmalar, lugʻatlar, doska, boʻr, tarqatma materiallar.
<i>Taʼlim berish sharoiti:</i>	Dekanat tomonidan dars jadvalida belgilangan, guruh boʻlib ishlashga moʻljallangan stollar, stullar mavjud auditoriya.

Monitoring baholash:	va	Og‘zaki so‘rov: tezkor so‘rov. Yozma so‘rov: savollarga yozma javob, yozma bajarilgan topshiriqlarini tekshirish.
-----------------------------	-----------	--

Amaliy mashg‘ulotning texnologik xaritasi.
MAVZU: SAMARQAND – SHARQ GAVHARI (2 SOAT)

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta’lim beruvchi	Ta’lim oluvchilar
1-bosqich. O‘quv mashg‘ulotiga kirish (10 daq.)	1.1. Mavzuning nomi, maqsad va kutilayotgan natijalarni yetkazadi. Mashg‘ulot yangi innovatsion texnologiyalar asosidagi amaliy dars tarzida borishini ma’lum qiladi.	Tinglaydilar, yozib oladilar.
2-bosqich. Asosiy (60 daqiqa).	2.1. Talabalar bilimini suhbat shaklida faollashtiradi(1-ilova). Bilimlarni faollashtirish jarayonida o‘quv muammosini yechish bo‘yicha izlanuvchilik faoliyatida faol ishtirok etishlari uchun talabalarning egallagan bilimlari yetarliligini aniqlaydi. 2.2. Faollashtirilgan bilimlar asosida talabalarni mashg‘ulotda o‘rganiladigan mavzuga olib kiradi. 2.3. Talabalarni uch guruhga bo‘lib, ularni “Kitob”, “Ilm”, “Fan” deb nomlaydi, guruhlarda ish boshlanganligini ma’lum qiladi, bo‘lingan guruhlarning bittadan vakiliga “Shiroq” matnidani belgilangan qismini ifodali o‘qitadi(2-ilova). 2.4. O‘zbekcha tuzilgan lug‘at har bir guruhga teng taqsimlanib, so‘zlarning rus tilidagi muqobillari toptiriladi (3-ilova). 2.5. Matndan olingan so‘zlarning ma’nosini izohlash topshiriladi(4-ilova). 2.6. Matndan olingan so‘zlarning sinonimlarini aniqlash va izohlash topshiriladi(5-ilova). 2.7. Gaplarni rus tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilish topshiriladi (6-ilova).	Savollarga javob beradilar. Mavzu bo‘yicha o‘z fikrlarini bildiradilar. Talabalar matnni ifodali o‘qiydi, yangi so‘zlar lug‘atini tuzadi va ularning o‘quv tilidagi muqobilini topadi, berilgan so‘zlarning ma’nosini izohlaydi, so‘zlarning sinonimlarini aniqlab izohlaydi, she’rni o‘qib mazmunini aytib beradi.

3-bosqich. Yakuniy (10 daqiqa).	3.1. Mavzu bo'yicha yakun qiladi. Amalga oshirilgan ishlarning kelgusida talabalarning pedagogik faoliyatlarida ahamiyati katta ekanligiga e'tiborni qaratadi. 3.2. Mustaqil bajarib kelish uchun topshiriqlar beradi. 3.2.1. Keyingi darsda o'tiladigan "Samarqand – sharq gavhari" mavzusi bo'yicha materiallar to'plash; 3.2.2. Matbuot sahifalaridan yangilik namunalari tayyorlab kelish;	Tinglaydilar. Topshiriqlarni yozib oladilar.

SAMARQAND – SHARQ GAVHARI

Samarqand ham dunyoga mashhur Bobil, Afina, Rim shaharlari kabi boy tarixga ega. Uning yoshi 2700 yildan ortiq. Samarqand dastlab Siyob daryosi sohilida qad ko'targan. U o'n yarim kilometrli mudofaa devori bilan o'ralgan bo'lib, shaharga uchta darvoza orqali kirilgan. Samarqandni miloddan avval 329-yili Aleksandr Makedonskiy, VIII asrda Qutayba, XIII asrda Chingizxon qo'shinlari bosib olib, vayron qilishgan. Qadimgi Samarqand shahri xarobalari hozir Afrosiyob nomi bilan yuritiladi.

XV asrga kelib Samarqand Afrosiyob xarobalaridan janubroqda qayta tiklandi. Tez orada yana dunyoga dong'i ketgan go'zal shaharga aylandi. Ayniqsa, Sohibqiron Amir Temur saltanatining poytaxtiga aylantirilganidan so'ng shaharda ma'muriy binolar, masjidlar, madrasalar, hammomlar, savdo markazlari, karvonsaroylar ko'plab qurildi. Shahar atrofi olti darvozali mudofaa devori bilan o'rab olindi. Registon maydoni, Go'ri Amir maqbarasi, Shohizinda ansambllarining qurilishi shaharni yana-da go'zallashtiradi. Shahar atrofida Bog'ishamol, Bog'idilkusho, Bog'ibaland, Bog'imaydon, Bog'ibehisht, Bog'izag'on kabi 12 ta ko'rkam bog' barpo etildi.

Amir Temurdan so'ng Mirzo Ulug'bek hukmronligi davrida Samarqandni obodonlashtirish ishlari davom ettirildi. Ulug'bek rasadxonasi va Ulug'bek madrasasi, XVII asrga kelib Sherdor hamda Tillakori madrasalari qurildi. O'sha davrda qurilgan Ko'ksaroy va Bo'stonsaroyga davlat idoralari, qurol-yarog' ustaxonalari, xazina, zarbxona va qamoqxona joylashtirildi.

XVI asrda Buxoro xonligi tashkil topgandan so'ng poytaxt Buxoroga ko'chirildi. XVII-XVIII asrlarda Samarqand yana turli bosqinchilar tomonidan

talaniib, vayron etilgan. Shaharning mehnatkash aholisi uni yana va yana qayta tiklayvergan.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Samarqandda zamonaviy binolar qurila boshladi. 1924-1930-yillarda u O'zbekiston Respublikasining poytaxti bo'ldi. Hozirgi paytda Samarqand shahri aholi soni va sanoat korxonalari ko'pligi jihatidan respublikamizda ikkinchi o'rinda turadi. Samarqand kengayib, yana-da obodonlashib bormoqda. Turar joylar ko'paydi, yangi jamoat binolari, maishiy xizmat ko'rsatish, savdo-sotiq majmualari, keng va ko'rkam istirohat bog'lari, xiyobonlar, maydonlar, ko'chalar, ko'p qavatli uylar qurilgan mikrorayonlar barpo etildi. Tarixiy yodgorliklarni ta'mirlash, yangilarini qurishga e'tibor berilmoqda. Shaharda Amir Temur, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Abdurahmon Jomiy, Abulqosim Rudakiy, Islom Karimov kabi ulug' insonlarga mahobatli haykallar o'rnatilgan.

Samarqand rivojlangan sanoat shahridir. Bu yerda muzlatgichlar, liftsozlik, avtomobilsozlik, chinni buyumlar, kino asbob-uskunalar, burg'ulash asboblari, motor qismlari ishlab chiqaruvchi yirik zavodlar, poyabzal, shohi va baxmal to'qish, trikotaj, galanteriya fabrikalari va ko'plab milliy hunarmandchilik korxonalari mavjud.

Samarqand respublikamizning yirik ilm-fan markazlaridan biri. Universitet, qishloq xo'jalik, savdo va servis, tibbiyot, chet tillari, me'morchilik-qurilish institutlari, axborot texnologiyalari universitetining filiali, ko'plab maktab va litseylarda yoshlar fan sirlarini o'rganmoqdalar.

Samarqand shahri va viloyat hududida joylashgan Doniyol payg'ambar, Imom Ismoil Buxoriy, Maxdumi A'zam, Moturudiy, Xo'ja Ahrori Valiy, Qusam ibn Abbos, Amir Temur maqbaralarini ziyorat qilish uchun har yili millionlab sayyohlar kelishadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Matn bo'yicha tarixiy terminlar lug'atini tuzing.
2. Matnni tarjima qiling.
3. Matnda qo'llangan fe'llarni aniqlang va ularni morfologik tahlil qiling.
4. Matnning mazmunini so'zlab bering.
5. Matndan ijodiy foydalangan holda "Ona shahrim" mavzusida mustaqil matn tuzing.

Atamalar va ularning vujudga kelishi

Atama (ya'ni termin – lotincha "terminus" – chek, chegara, chegara belgisi) fan, texnika va boshqa sohalarga oid narsa haqidagi tushunchani aniq

ifodalaydigan, ishlatilish doirasi shu sohalar bilan chegaralangan soʻz yoki soʻz birikmasi. Atamalarni oʻrganuvchi soha esa atamashunoslik (terminologiya) deb ataladi.

Atamalni dastlab ikki katta guruhga boʻlish mumkin: Kasb-hunar atamallari va ilmiy atamalar.

Kasb-hunar atamallari uzoq davrlardan beri xalqimiz tomonidan kasb-hunar sifatida rivojlantirilib kelinayotgan chorvachilik, dehqonchilik, kulolchilik, temirchilik, duradgorlik, gilamchilik, kashtachilik, oshpazlik, qandolatpazlik, tabibchilik va boshqa shu kabi koʻplab kasblarga doir tushunchalarni ifodalash uchun xizmat qilib kelmoqda. Ilmiy atamalar ham koʻp asrlik tarixga ega. Chunki ular qomusiy bilimlar egasi boʻlgan M. Koshgʻariy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Az-Zamaxshariy, A.Navoiy, Bobur va boshqa bobokalonlarimizning turli fanlarga oid asarlarining yaratilishi bilan bogʻliq ravishda paydo boʻlgan.

Oʻquv mashgʻulotining taʼlim texnologiyasi modeli **MAVZU: BUXORO – QADIMIY SHAHAR (2 SOAT)**

Vaqt: 2 soat	Talabalar soni: 13 nafar
<i>Oʻquv mashgʻulotining shakli va turi:</i>	Amaliy mashgʻulot.
<i>Dars rejasi (oʻquv mashgʻulotining tuzilishi):</i>	1. Matbuot yangiliklari. 2. Uyga vazifalarni soʻrash, yozma bajarilganlarini tekshirish. 3. Talabalarni uchta kichik guruhga boʻlish. 4. Matnni guruh vakillariga ifodali oʻqitish. 5. Matn asosida lugʻat tuzdirish. 6. Erkin va turgʻun birikmalar
<i>Oʻquv mashgʻuloti maqsadi:</i>	Talabalarning oʻzbek tilidan egallagan bilim va koʻnikmalarini aniqlash, mustahkamlash, kengaytirish, ixtisoslik matni asosida oʻzbek tilini chuqur oʻzlashtirishlariga koʻmaklashish, talabalarning yozma va ogʻzaki nutqi ravonligiga erishish, ularni davlat tilida savodxonlik bilan ish yurita olishga oʻrgatish, ular nutqini kasbiy atamalar bilan boyitish, tarbiyalash.

Pedagogik vazifalar: - talabalarning oldingi mashg'ulotlarda o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash; - ularning lug'at boyligi va o'zbek tili qonun-qoidalari haqidagi tasavvurlarini yanda kengaytirish ; - matn asosida ularning o'zbek tilini chuqur o'zlashtirishlariga ko'maklashish; - talabalarning yozma va og'zaki nutqi rivojiga ko'maklashish.	O'quv faoliyati natijalari: - talabalar oldingi mashg'ulotlarda olgan bilim va ko'nikmalarini namoyon etadilar; - matn asosida o'zlarining lug'at boyligini orttiradilar, o'zbek tili qonun-qoidalari haqidagi tasavvurlarini kengaytiradilar. - matn asosida o'zbek tilidan o'rganganlarini chuqurlashtiradilar; - dars davomida o'zlarining yozma va og'zaki nutqlarini yanada ravonlashtiradilar.
Ta'lim usullari:	Savol-javob, hikoya qilish, suhbat-munozara, sharhlash, aqliy hujum.
Ta'lim shakli:	Frontal, jamoaviy, guruhlarda ishlash.
Ta'lim vositalari:	O'quv dasturi, amaliy mashg'ulotlar matni, darslik, o'quv qo'llanmalari, uslubiy qo'llanmalar, lug'atlar, doska, bo'r, tarqatma materiallar.
Ta'lim berish sharoiti:	Dekanat tomonidan dars jadvalida belgilangan, guruh bo'lib ishlashga mo'ljallangan stollar, stullar mavjud auditoriya.
Monitoring va baholash:	Og'zaki so'rov: tezkor so'rov. Yozma so'rov: savollarga yozma javob, yozma bajarilgan topshiriqlarini tekshirish.

Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi.
MAVZU: BUXORO – QADIMIY SHAHAR (2 SOAT)

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
1-bosqich. O'quv	1.1. Mavzuning nomi, maqsad va kutilayotgan natijalarni yetkazadi.	Tinglaydilar, yozib oladilar.

mashg'ulotiga kirish (10 daq.)	Mashg'ulot yangi innovatsion texnologiyalar asosidagi amaliy dars tarzida borishini ma'lum qiladi.	
2-bosqich. Asosiy (60 daqiqa).	2.1. Talabalar bilimini suhbat shaklida faollashtiradi(1-ilova). Bilimlarni faollashtirish jarayonida o'quv muammosini yechish bo'yicha izlanuvchilik faoliyatida faol ishtirok etishlari uchun talabalarning egallagan bilimlari yetarliligini aniqlaydi. 2.2. Faollashtirilgan bilimlar asosida talabalarni mashg'ulotda o'rganiladigan mavzuga olib kiradi. 2.3. Talabalarni uch guruhga bo'lib, ularni "Kitob", "Ilm", "Fan" deb nomlaydi, guruhlarda ish boshlanganligini ma'lum qiladi, bo'lingan guruhlarining bittadan vakiliga "Shiroq" matnidan belgilangan qismini ifodali o'qitadi(2-ilova). 2.4. O'zbekcha tuzilgan lug'at har bir guruhga teng taqsimlanib, so'zlarning rus tilidagi muqobillari toptiriladi (3-ilova). 2.5. Matndan olingan so'zlarning ma'nosini izohlash topshiriladi(4-ilova). 2.6. Matndan olingan so'zlarning sinonimlarini aniqlash va izohlash topshiriladi(5-ilova). 2.7. Gaplarni rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qilish topshiriladi (6-ilova).	Savollarga javob beradilar. Mavzu bo'yicha o'z fikrlarini bildiradilar. Talabalar matnni ifodali o'qiydi, yangi so'zlar lug'atini tuzadi va ularning o'quv tilidagi muqobilini topadi, berilgan so'zlarning ma'nosini izohlaydi, so'zlarning sinonimlarini aniqlab izohlaydi, she'ni o'qib mazmunini aytib beradi.
3-bosqich. Yakuniy (10 daqiqa).	3.1. Mavzu bo'yicha yakun qiladi. Amalga oshirilgan ishlarning kelgusida talabalarning pedagogik faoliyatlarida ahamiyati katta ekanligiga e'tiborni qaratadi. 3.2. Mustaqil bajarib kelish uchun topshiriqlar beradi. 3.2.1. Keyingi darsda o'tiladigan "Buxoro – qadimiy shahar" mavzusi bo'yicha materiallar to'plash; 3.2.2. Matbuot sahifalaridan yangilik namunalari tayyorlab kelish;	Tinglaydilar. Topshiriqlarni yozib oladilar.

BUXORO-QADIMIY SHAHAR

Buxoro - jahonning eng koʻhna shaharlaridan. Bu shahar bundan XXV asr muqaddam Zarafshon vodiysining quyi qismida qad koʻtargan. Dastavval u daryoning Zerirud nomli quyi tarmogʻining ikki sohilida bir-biriga qarama-qarshi joylashgan 3 ta qoʻrgʻon shaklida paydo boʻlgan. Qoʻrgʻonlarning biri Foxira, ikkinchisi Navmichkat, uchinchisi Farovis nomlari bilan yuritilgan. Qoʻrgʻonlar tevarak atrofi suvga toʻla koʻlmaklar va botqoqliklar hamda anvoyi chechaklar bilan qoplangan bepoyon dala-yu dashtdan iborat nihoyatda xushmanzara boʻlgan. Butun vodiylar boʻylab atrofni qoplab yotgan asriy qalin daraxtzor, chakalakzor va toʻqaylarda son-sanoqsiz turli-tuman, yovvoyi hayvonlar hamda ajoyib-gʻaroyib qushlar uya qurgan. Shuning uchun bu oʻlkani va unda qad koʻtargan dastlabki shaharni aholi qadimda “Bugʻ-oro”, yaʼni “Tangri bezagi”, “Tangri jilosi” yoki “Tangri jamoli” maʼnolarini anglatuvchi yagona nom bilan yuritgan.

Bu qadim uch qoʻrgʻonning atrofi oʻsha zamonlarida alohida-alohida mudofaa devorlari bilan oʻralgan edi. Devorlar baland va qalin boʻlgan. Ular paxsa va yirik xom gʻishtlar bilan oʻrab chiqilgan. Ularning u yer-bu yerida baland tayanch minoralar bino qilingan. Qamal vaqtlarida dushmanga oʻq uzish maqsadida devor va minoralar boʻylab bir necha qator nishon tuynuk-shinaklar ishlangan. Shaharning bir necha darvozasi boʻlib, har bir qismiga markaziy koʻcha orqali darvozalardan kirilgan. Darvozaxonalarda maxsus soqchilar-darvozaabonlar nazoratchilik qilib turgan. Kech tushishi bilan darvozalar berkitilib, erta saharda ochilgan. Qamal vaqtlarda ular kecha-yu kunduz tanbalanib turgan.

Shaharning maxsus devor bilan oʻralgan eng baland qismida bino qilingan istehkomli qoʻrgʻoni Ark deb ataladi. Unda podshoh va amirlar yashagan. Arkda podshohning Koʻshki va saroylaridan tashqari devonxona, xazina, chaqa tangalar chiqariladigan zarbxona, qamoqxona navkarlar uchun bostirmalar boʻlgan. Shaharning qolgan asosiy ikki qismida shahar aʼyonlari, hunarmandlar savdogarlar yashagan.

Qadimdan Buxoro Buyuk Ipak yoʻli ustida joylashgan boʻlib bu yoʻl orqali buxorolik savdogarlar Xitoy, Hindiston, Eron va Vizantiyaga tuyalar karvoni bilan turli xil savdo mollarini olib borganlar.

Aholi soni koʻpaygan sari shaharlar ham kengayib borgan. Shaharning kengaygan qismining xavfsizligini taʼminlash maqsadida IX asrda Buxoro qadimgi uchta qismni ham oʻz ichiga olgan yagona tashqi devor halqasi bilan oʻrab olingan. Asrlar oʻtishi bilan shahar maydoni yana-da kengaygan. Uning atrofida, shahar devori tashqarisida, yangi koʻchalar, guzarlar va mahallalar qad koʻtargan. XV-XVI asrlarda esa yangi joylarni oʻrab turgan navbatdagi tashqi devor halqalari bino

qilingan. Bu davrda shaharga 11 darvozadan kirilgan. Shaharda 12 mahalla, 200 dan ortiq guzar va masjidlar bo'lgan. Har bir mahallaning katxudosi, guzar oqsoqoli, imomi va poykori-ellikboshisi bo'lgan. Har bir mahallaning mozori bo'lgani kabi, har bir guzarining alohida masjidi bo'lgan. Shahar yuzdan ortiq hovuzlar orqali ichimlik suv bilan ta'minlangan.

Savol va topshiriqlar:

1. Matnni ifodali o'qib chiqing.
2. "Bug'-oro" so'zining ma'nosini izohlang.
3. Matn mazmuni bo'yicha qisqacha gapirib bering.
4. Buxorodagi ziyoratgohlar haqida gapirib bering.
5. "Buxoro sharqning mash'ali" mavzusida matn tayyorlang.

Sohaviy terminlar va ularning qo'llanilishi

Tilda shunday atamalar ham borki, ular ma'lum bir fan (masalan, tilshunoslikka oid *tovush, fon, fonema, ega, kesim, aniqllovchi, aniqlanmish, sifatlovhi, sifatlanmish, to'ldiruvchi, hol, gap, undalma* va h.), texnika (*kalit, ko'targich, qisqich, gayka, shayba, bolt* va h.), sport (*to'p, to'r, darvoza, himoya, hujum, kurash, yonbosh, chala, halol* va h.), madaniyat (*sahna, musiqa, qo'shiq, lapar, raqs, ijro, soz, nutq* va h.)ga oid tushunchalarni ifodalash uchun xizmat qiladi.

Ilmiy atamalar bugungi kunda tilshunoslik, adabiyotshunoslik, musiqa, tarix, pedagogika, psixologiya, biologiya, tibbiyot, geografiya, astronomiya, fizika, matematika, huquqshunoslik, kimyo, geologiya, minerologiya, falsafa, iqtisod kabi yuzlab zamonaviy fanlar sohasida keng qo'llanilmoqda.

"O'zbek tili" fanidan amaliy mashg'ulot.

San'at va madaniyat. (2 SOAT)

Reja:

1. Matbuot yangiliklari **San'at va madaniyat haqida mustaqil matni tuzish.**
2. **Og'zaki:** Mavzuga oid matnni o'qib tushunish. Matnga munosabat bildirib, so'zlash.
3. **Yozma:** San'at va uning turlari haqida matn tuzish. Matndagi termin va iboralarni ma'nosini izohlash. Matnga munosabat bildirib so'zlash. "San'at mening hayotimda" mavzusida esse yozish. O'zbek kinosining mavzulari va muammolari haqida matn tuzish.

Grammatika: Umumxalq leksikasiga kirgan san'atshunoslik terminlari.

Qo'llanadigan zamonaviy pedagogik texnologiyalarning "Klaster", "Bumerang", "Yelpig'ich" hamda "Muammoli ta'lim" texnologiyasining

"Munozarali dars" metodi, shuningdek, o'zbek xalqining tarixiy, madaniy – ma'rifiy qadriyatlariga doir slaydlardan foydalanish, savol-javob, test yechish, didaktik va rolli o'yin usullarini qo'llash nazarda tutiladi.

SAN'AT VA MADANIYAT

San'at – ijtimoiy ong va inson faoliyatining o'ziga xos shakli. San'at qadimiy tarixga ega bo'lib, u jamiyat taraqqiyotining ilk bosqichlarida mehnat jarayoni bilan, kishilar ijtimoiy faoliyatining rivojlanishi bilan bog'liq holda vujudga kela boshlagan. San'at odamlarning estetik talablarini qondirish bilan birga, o'z taraqqiyotining turli davrlarida jamiyat a'zolarini ma'lum ruhda tarbiyalash, ularni aqliy va hissiy jihatdan rivojlantirish vositasi sifatida xizmat qilib kelgan, ularning turli maqsad, his-yuyg'u, manfaat ideallarini ifoda etgan. San'at insonning moddiy va ma'naviy faoliyatidagi bilimi, tajribasi, mahorati va qobiliyatlarini namoyon etuvchi badiiy ijodiyot mahsulidir.

Madaniyat – jamiyat, inson ijodiy kuch va qobiliyatlari tarixiy taraqqiyotining muayyan darajasi. Kishilar hayoti va faoliyatining turli ko'rinishlarida, shuningdek, ular yaratadigan moddiy va ma'naviy boyliklarda ifodalanadi.

San'at turli ko'rinishlari bilan o'ziga xos badiiy-estetik qadriyatlarni to'plash, saqlash va boshqalarga uzatish xususiyatiga ega bo'lgan estetik tizimni tashkil etadi. San'at tasviriy san'at, me'morchilik, rassomlik, haykaltaroshlik, musiqa, teatr, kino, sirk, badiiy adabiyot, xoreografiya va boshqalarni o'z ichiga oladi. San'atning turlari o'z predmeti, tasvir vositalari va ifoda imkoniyatlari jihatidan bir-biridan farq qiladi. Masalan, adabiyotda asosiy ifoda vositasi bo'lib so'z xizmat qiladi; tasviriy san'atda bo'yoqlar orqali konkret-hissiy obraz gavdalandiriladi; teatrdan pyesa qahramonlarining siymosi aktyorlarda o'z aksini topadi. Ko'rinadiki, san'at va madaniyat bir-biri bilan bevosita bog'liq.

San'atshunoslik alohida fan sifatida XVI-XIX asrlar mobaynida shakllandi. San'atga doir ma'lumotlar dastlab Yunonistonda qadimdan o'rganila boshlangani ma'lum. Aristotel, Platon kabi o'sha davrning yirik faylasuflari Yunonistonda san'at tarixi bilan ham shug'ullanganligi to'g'risida ma'lumotlar saqlangan. Qadimgi Rimda yunon san'atiga katta e'tibor bilan qaralgan. Milodiy dastlabki asrlarda O'rta Osiyo mamlakatlarida me'morchilik va san'atga oid risolalar yaratilgan. Ular mazmuni jihatdan hammabop bo'lib, ham metodik qo'llanma, ham o'qish [kitobi sifatida xizmat qiladi](#), kitobxon e'tiboriga tarix, hikoyat, nasihat va mushohadalar havola qilinardi.

San'at turlarida qo'llaniladigan ijodiy uslub yoki san'at uslubi ham jiddiy ahamiyatga egadir. San'at mahorati faqat texnika bilan o'lchanmas ham, [uni](#)

egallamay turib, mohir utsa bo‘lib yetishish mumkin emas. Barcha san‘at turlari yuksak ifodalilik qonuniga bo‘ysunadilar.

San‘at turlarida badiiy tuzilma (kompozitsiya), vazn, tasviriy-ifodaviy va moddiy vositalar majmui san‘at shaklini tashkil etadi. Shakl hamma vaqt muayyan mazmunni ifodalaydi. San‘at asarlarida mavzu sujet yordamida oydinlashadi. Sujet asarda ko‘rsatilmoqchi bo‘lgan hodisa yoki hodisalar yig‘indisi bo‘lib, u o‘z navbatida asar personajlarini bir-biriga bog‘lab turadi. San‘at asarlarining mazmuni badiiy g‘oya, asar mavzusi, asar sujeti hamda san‘atkor tomonidan baholangan hayot hodisalarining yig‘indisidan iborat.

Savol va topshiriqlar:

1. Matnni o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.
2. Matndan san‘atshunoslikka oid terminlarni ajrating.
3. Matn bo‘yicha lug‘at tuzing va lug‘at daftaringizga yozing.
4. Qanday san‘at turlarini bilasiz? Klaster texnologiyasi yordamida yozing.
5. O‘zingiz qiziqqan san‘at turi bo‘yicha mikro matn tuzing.

Umumxalq leksikasiga kirgan san‘atshunoslik terminlari

San‘atshunoslik terminlari uning barcha sohalarida qo‘llanilishi mumkin. Masalan, tasviriy san‘at, haykaltaroshlik, estrada orkestri, qo‘shiqchilik, teatr san‘ati, so‘z san‘ati, badiiy adabiyot va boshqa shu kabilardir.

Tasviriy san‘atning eng ommaviy turlaridan biri grafikadir. «Grafika» so‘zi yunonchada «yozaman», «chizaman» degan ma‘noni anglatadi. Qalamda yoki tushda ishlangan rasmlar, kitob, gazeta va jurnallarga chizilgan illustratsiyalar, biror jismga o‘yilgan gravyuralar, plakat, stend, buyumlarning etiketkalari, yorliqlari, oziq-ovqatlar o‘raladigan yozuvli qog‘ozlar – bularning barchasi grafika namunalari hisoblanadi.

Rangtasvir. Rangtasvir tasviriy san‘atning eng jozibali va ta‘sirli turi. Unda musavvir bo‘yoqlar vositasida matoga, qog‘ozga yoki boshqa tekis yuzaga hayotiy hodisalarni badiiy tasvirlab beradi. Rangtasvir asarlari, asosan, akvarel, tempera va moyli bo‘yoqlar vositasida yaratiladi.

Tasviriy san‘at janrlari

Tasviriy san‘at asarlari mavzusi, mazmuni, ishlanish uslubiga ko‘ra turli janrlarga bo‘linadi. «Janr» so‘zi fransuzcha so‘z bo‘lib, «tur» yoki «ko‘rinish» ma‘nosini anglatadi. Tasviriy san‘at janrlari ularning turlariga ham bog‘liq. Rangtasvir va grafika asarlari quyidagi asosiy janrlarda yaratiladi: 1. Portret. 2.

Naturmort. 3. Manzara. 4. Maishiy. 5. Tarixiy. 6. Batal. 7. Animalistik. 8. Marinistik. Agar kartinada aniq bir insonning tashqi qiyofasi tasvirlangan bo'lsa, bunday asar portret janriga mansub bo'ladi. Italiyaning mashhur rassomi Leonardo da Vinchining «Mona Liza», Muhammad Nuriddinovning «Ona» asari portret janriga mansubdir.

Naturmort janridagi asarlarda jonsiz narsalar tasvirlanadi. Fransuzcha «nature morte» – «jonsiz tabiat» degan ma'noni bildiradi.

Tasviriy san'atning eng ommaviy janrlaridan biri manzara janridir. Unda rassom tabiat go'zalligini tasvirlash bilan birga inson va tabiat munosabatlarini aks ettiradi.

Maishiy hayot, turmushdagi voqea va hodisalarni tasvirlovchi tasviriy san'at asarlari maishiy janrga oid hisoblanadi.

Biror tarixiy voqea yoki tarixiy shaxslarning tasviriga oid tasviriy san'at asarlari tarixiy janrga, jang, harbiy yurishlar tasviriga oid ishlar batal janriga, hayvonlar tasviriga oid asarlar animalistik janrga, suvli manzara tasviriga oid ishlar marinistik janrga mansub bo'ladi.

“O‘zbek tili” fanidan amaliy mashg‘ulot. Bo‘lajak kasbim. (2 SOAT)

Reja:

Og‘zaki nutq: Mavzuga oid matnni o‘qib tushunish. Matndagi termin va iboralarni ma'nosini izohlash. Matnga munosabat bildirib so‘zlash.

Yozma nutq: Kasb tanlash haqida esse yozish. Kasb-hunarga oid maqollardan namunalar yozish. Mutaxassislikka oid terminlar lug‘ati tuzish.

Grammatika: Kasb-hunar so‘zlarining adabiy til me'yorlar.

Qo'llanadigan zamonaviy pedagogik texnologiyalarning "Klaster", "Bumerang", "Yelpig'ich" hamda "Muammoli ta'lim" texnologiyasining "Munozarali dars" metodi, shuningdek, o'zbek xalqining tarixiy, madaniy – ma'rifiy qadriyatlariga doir slaydlardan foydalanish, savol-javob, test yechish, didaktik va rolli o'yin usullarini qo'llash nazarda tutiladi.

BO‘LAJAK KASBIM

Buyuk yozuvchilardan biri shunday degan edi: “Hayotda Siz uchun eng sevimli bo‘lgan kasbni tanlab va Siz bir umr ishga bormaysiz”. Agar kishi o‘z sevgan kasbida ishlayotgan bo‘lsa u hech qachon har ertalab o‘zini ishga ketayapman, deb hisoblamaydi. O‘z sevgan kasbi bilan shug‘ullanish kishiga zavq, xursandchilik, shijoat, rag‘bat hamda ma'naviy ozuqa beradi. O‘zi yoqtirgan ishni

qilayotgan kishi vaqt qanchalar tez o'tib ketganligini sezmay qoladi, u hech qachon bajarayotgan ishidan charchamaydi.

Bugun dunyo bo'ylab qanchadan-qancha kishi zavod-fabrikalarda, idoralarda, avtomobillarda, ish maydonlarida ish vaqtining tezroq tugashini intizorlik bilan kutib, tushlik vaqtining tezroq kelishi ilinjida soatga ma'yus termulib o'tirishadi. Bu toifadagi kishilar, o'z xatti-harakatlaridan ma'lumki, o'zlari yoqtirgan mashg'ulotni o'z kasblari sifatida tanlashmagan. Ya'ni, ular o'zlariga yoqmaydigan kasb bilan shug'ullanuvchi kishilardir. Ba'zilar "Kishi bajarayotgan ishidan katta daromad olsa bo'ldi-da, kasb kishiga katta pul keltirsa bo'lgani, uning qilayotgan ishi o'ziga yoqishi ikkinchi darajali", deb hisoblashadi. Ammo hech bir kishi kasbidan zavqlana olmas ekan, o'z bajarayotgan faoliyati orqali katta daromadga erisha olmaydi. Balki biror kishi shug'ullanayotgan kasb katta foyda keltiradigan ishdir, balki kimlardir shu kasb ortidan katta daromadga erishayotgandir, ammo bu kasbning egasida o'z ishiga nisbatan qiziqish va zavqlanish bo'lmasa, u hech qachon o'z kasbidan barakat topa olmaydi. Shundan kelib chiqqan holda, bugun haqiqiy hayotda kasbidan zavqlana olganlarning muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotganini, o'z kasbini yomon ko'rganlarning esa kunni zerikarli bekorchilik bilan o'tkazishayotganligini ko'rishimiz mumkin. Bunday sharoitda o'z kasbini sevgan, qilayotgan ishidan zavqlana olgan oddiy poyafzal ta'mirlovchisi bugungi kunda milliardlab foyda ko'rish mumkin bo'lgan ilg'or tashkilotda yetuk mutaxassis sifatida ishlovchi, ammo o'z kasbini yomon ko'radigan, qilayotgan ishidan zavq topa olmaydigan kishidan ancha ko'proq foyda ko'rishi mumkin. Ishoning, kasb – bu faqat pul topish usuli emas, balki hayotingizning katta qismini mazmunli o'tkazish vositasi sifatida ham katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

Agar Siz hozirgi yoshingizda kelajakda shug'ullanishingiz uchun kasb tanlayotgan bo'lsangiz, faqatgina bu kasbdan Sizga keladigan moddiy daromadni emas, balki undan olishingiz kerak bo'lgan ma'naviy ozuqani ham hisobga oling. Bordi-yu Siz allaqachon biror kasbga ega bo'lsangiz, ammo bu kasb Sizning sevimli kasbingiz bo'lmasa, qilayotgan ishingizdan zavqlana olmasangiz, o'z bajarayotgan ishingizda xursandchilik, ma'no topishga intiling. Bajarayotgan ishingizdan zavqlanishni o'rganing. Agar buning iloji bo'lmasa, kasbingizni imkon qadar o'zingiz zavqlanib ishlaydigan faoliyat turiga o'zgartirishga harakat qiling.

Unutmang, Siz kasbingizda jon saqlashingiz emas, balki yashashingiz kerak. Shundagina qilayotgan ishingiz Sizning haqiqiy sevimli kasbingiz hisoblanadi!

Savol va topshiriqlar:

1. Matnni ifodali o'qing va mazmunini o'zbek tilida so'zlab bering.

2. Matn mazmunidan kelib chiqqan holda bo'lajak kasbingiz haqida mikro matn tuzing.
3. Matndagi u va o' tovushlari ishtirok etgan so'zlarni ikki ustunda yozing va imlosini tahlil qiling.
4. Matndan qator kelgan undoshlarni ajrating. Talaffuzi va imlosiga e'tibor bering.
5. Matn bo'yicha lug'at tuzing.

Kasb-hunar so'zlarining adabiy til me'yorlari

Kasb – hunar so'zlari yillar davomida shakllanib va, qolaversa, rivojlanib boraveradi. Tilimizda bunday so'zlarning o'rni ham salmoqli va ahamiyatlidir. Nutqda ishlatilish doirasi ma'lum kasb-hunarga ko'ra chegaralangan so'zlar kasb-hunarga oid so'zlar hisoblanadi. Bunday so'zlar qaysi hududda yashashidan qat'iy nazar, bir kasb egalariga tushunarli bo'ladi. Masalan, doska (kulollar ham idishlar ichini dasmollashda suv qo'yib ishlatiladigan sopol idish), jo'sha (tog'dan olinadigan qizil kesak) volash (loyni ochib yorib tozalash) kabi so'zlar kulollargagina tushunarlidir. Yoki gilam to'qish va gilamlarning turlari haqidagi quyidagi kasb-hunar so'zlarini ham misol tariqasida keltirish mumkin: *gilam* turlarini bildiradigan *julxirs, zulbaraq, arabi, olacha, palos, xoli / g'oli, sholcha, qoqma* yoki *bosma* (1. *chakmon*. 2. *ilma, chok turi*), *birishim, bo'zastar, gulburi, dorpech, dug / duk, duxoba, do'kon* (1. *dastgoh, stanok*. 2. *magazin*), *do'ppi, yondori, jo'ypush, zardevol / zardevor, zardo'zi, zehdo'zlik, yo'rma, yo'rmado'zlik, kallapo'sh, kalobtun, kashtado'z, kibaz, (paxta), momiq, palak, peshonaband / peshonabog', popop, popopchilik, resman, tubatoy, urchuq, choyshab, shamshirak, o'rmak, qatim, qo'chqorshoxi / qo'chqorak* va *chakmon* ma'nosidagi *bosma, dorpech, dug / duk, duxoba, do'kon, do'ppi, yondori, joypuli, zardevol / zardevor, zardo'zi, zehdo'zlik, yo'rma, yo'rmado'zlik, kallapo'sh, kalobtun, momiq, palak, popop, popopchilik, peshonaband / peshonabog', urchuq, choyshab, o'rmak, qatim, ilma, chok tun* ma'nosidagi *bosma* va *birishim* (*ipak*), *bo'zastar* (*mato*), *gulburi* (*gul kesish*) *resman* (*sariq va oq g'altak ip*) *tubatoy* (*gulsiz oddiy do'ppi*), *shamshirak* (*narvon pochasisiga o'xshash yog'och*) *qo'chqorshoxi / qo'chqorak* (*to'qimachilikda naqsh turi*) kabilarni misol qilish mumkin.

“O‘zbek tili” fanidan amaliy mashg‘ulot. Kitob mutolaasi. (2 SOAT)

Reja:

Og‘zaki nutq: Mavzuga oid matn ustida ishlash. Matnni ijodiy so‘zlash. Kitobni tavsiya qilish usullari haqida fikr bildirish.

Yozma nutq: O‘qilgan kitoblar to‘g‘risida dialog tuzish. O‘qilgan kitoblar ro‘yxatini tuzish va ularga qisqacha tavsif berish.

Grammatika: Ijtimoiy-siyosiy leksika.

Qo‘llanadigan zamonaviy pedagogik texnologiyalarning "Klaster", "Bumerang", "Yelpig‘ich" hamda "Muammoli ta‘lim" texnologiyasining "Munozarali dars" metodi, shuningdek, o‘zbek xalqining tarixiy, madaniy – ma‘rifiy qadriyatlariga doir slaydlardan foydalanish, savol-javob, test yechish, didaktik va rolli o‘yin usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Kitob ko‘zgudir

Kitob insoniyatning barcha bilim va tajribalarini o‘zida mujassamlashtiruvchi vositadir. U avlodlar o‘rtasidagi manaviy ko‘prikdir. U insoniyat xazinasidir.

Kitob kishilarning bilim olishi va dunyoqarashining kengayishi, kasb sirlarini egallash uchun xizmat qiladigan bebaho quroldir. Kitob hayotni go‘zallashtiradi, mehnatni yengillashtirish va madaniy dam olish manbai hamdir.

Xalqimiz azaldan kitobni qadrlab e‘zozlagan. Ajdodlarimiz "Kiyim uyingni bezaydi, kitob aqlingni", "Oltin yer tagidan kavlab olinadi, bilim esa kitobdan", "Kitobsiz uy, quyoshsiz kun" kabi maqollar yaratishgan. Kishilarimizning kitobga bo‘lgan ehtiyoji va yuksak hurmati natijasida kitob bayramlari vujudga kelgan.

"Kitob bayrami" insoniyat aqli va dahosi yaratgan manaviy boylik va bebaho bilimlarga nisbatan hurmatni izhor qilish tadbiridir.

Kitob – bilim manbai

Asalari bilan inson bolasi o‘rtasidagi farq haqida hech o‘ylab ko‘rganmisiz? Yigirma kunlik asalarini guldan gulga qo‘nib, asal yig‘ayotganini ko‘p ko‘rgandirsiz. Inson farzandi esa faqatgina ikki yoshdan oyoqqa turadi, gapirishni o‘rgana boshlaydi. 6-7 yoshida maktabga boradi. O‘qishni, yozishni o‘rganadi. Litsey, universitetni tugatguniga qadar ko‘p o‘qiydi, o‘rganadi, intiladi, izlanadi. Chunki yashash uchun hayotni, insonlarni o‘rganishga muhtojdir. Foyda, zararni bilishga majburdir. Biroq asalari bolasi-chi? U asal yig‘ishni o‘rganishi uchun na o‘qishga, na oliy o‘quv yurtini bitirishga ehtiyoji bor. U dunyo hayotiga mukammal holda yuborilgan. inidan chiqar chiqmas ishini boshlaydi. Biz esa yigirma kun yoki yigirma yil, umr bo‘yi o‘rganishga muhtojmiz. Shuning uchun beshikdan qabrgacha ilm olishga, o‘rganishga buyurilganmiz. Inson qobiliyatini bilim va tajriba bilangina oshiradi.

Bilim ozuqadir. Aql va qalb u bilan oziqlanadi.

Bilim muvaffaqiyat. Bilimsizlik esa mag'lubiyatdir.

Insonning qadri ilm bilan yuksaladi. Ilmli kishi hodisalarga xolis baho beradi, talabchanlik va uddaburonlikni o'rganadi. Bilmaslik ayb emas, o'rganishga intilmaslik aybdur.

Ilm o'rganish faqat maktabga xos emas. Maktab insonga kalit beradi. U kalit bilan ilm xazinalarini insonning o'zi ochadi. Nima qilsa o'zining g'ayrati bilan amalga oshiradi. Maktabni bitirar bitirmas kitob daftarni bir burchakka uloqtirish katta xatodir. Holbuki, ilm olishning na yoshi, na vaqti, na joyi bor. Har yoshda, har yerda, hamma vaqt o'rganiladi, ilm eng katta sarmoyadir, inson har yoshda, har yerda va har vaqt sarmoyasini ko'paytirishni istaydi. Ilm bilan o'zingizni tarbiyalang. Balki muammolarga duch kelarsiz. Ba'zi qiyinchiliklarni boshingizdan o'tkazasiz, ammo unutmang: Har qanday qiymatli narsa osonlik bilan qo'lga kiritilmaydi.

Kitobdan savol so'rash

Savol ilmning kalitidir. Aytadilarki: «Savol so'rash ilmi hayotimizda uchraydigan bir yo'ldir. Savol kitobni, mavzuni yoki darsni yaxshi anglab yetishni ta'minlaydi. Savol ilmimizni oshiradi. Chunki, so'rab javobini izlaymiz. Savol so'rash o'zimiz sezmaganda bizni bilim egasiga aylantiradi».

Abu Yusufdan: «Bu bilimni qayerdan qo'lga kiritding?», - deb so'rashganida, «Kichik-katta, deb ajratmasdan, bilmaganimni so'rash bilan», - deb javob bergan edilar.

Savol beraman, deb aqlga kelgan bo'lar-bo'lmas narsalar so'ralmasligini unutmaslik lozim. Savol insonning saviyasini ham ko'rsatadi. Mantiqli va qiziqarli savollar berish kerak.

Topshiriq.

1. Matnni ifodali o'qib chiqing .
2. Matndan qiyin sozlarni aniqlang.
3. “Yoshlarning kitobga bo'lgan qiziqishi” mavzuida do'stingiz bilan suhbat matni tayyorlang.

“O'zbek tili” fanidan amaliy mashg'ulot.

MAVZU: HAYOT MENING TASAVVURIMDA. (2 SOAT)

Reja:

1. Matbuot yangiliklari. **Hayot mening tasavvurimda.**
2. **Og'zaki:** Hayotga munosabat va qiziqishlar haqida gapirib berish. Inson barkamollika erishishi uchun nimalar qilishi kerakligi haqida fikr bildirish. Hayotdagi idealni tasvirlab berish. Mavzu bo'yicha bahs-munozarada ishtirok etish.
3. **Yozma:** Odob-axloq mavzusidagi kitobga annotatsiya yozish. “Mutaxassisning odobi va axloqi” mavzusida dialog tuzish.

Gramatika: O'zbek tilida so'z yasalishi va so'z tuzilishi..

Qo'llanadigan zamonaviy pedagogik texnologiyalarning "Klaster", "Bumerang", "Yelpig'ich" hamda "Muammoli ta'lim" texnologiyasining "Munozarali dars" metodi, shuningdek, o'zbek xalqining tarixiy, madaniy – ma'rifiy qadriyatlariga doir slaydlardan foydalanish, savol-javob, test yechish, didaktik va rolli o'yin usullarini qo'llash nazarda tutiladi

Hayot mening tasavvurimda

Insoniyat XXI asrga qadam qo'ydi. Yangi asr o'z navbatida jamiyatimiz oldida muhim masalalarni hal qilish vazifasini yuklamoqda.

Shu bois Respublikaning barcha sohalarini texnik gayta qurollantirish, zamonaviy texnika texnologiya bilan ta'minlash hamda xalqaro zamonaviy talablarga javob beruvchi telekommunikatsiyani va kompyuterli aloqa tizimini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri bo'lib qoldi.

1994-yilda O'zbekiston hamdo'stlik davlatlari o'rtasida birinchilardan bo'lib, axborotlashning yaxlitlangan siyosatini amalga oshirishga asos soldi.

1993-1995- yillarda davlat boshqaruvi va bank muassasalarining informatsion tizimlarini kompyuterlashga asosiy e'tibor berildi.

Soliq ko'mitasida ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilishning yagona tizimi, abiturientlarni testlar asosida qabul qilish uchun kompyuter tizimi yaratildi. Hisob va statistikaning xalqaro tizimiga mos tahlil qilish statistika davlat muassasalarida kompyuter tarmog'ining yangi texnikaviy darajalari tashkil etilmoqda. Vazirlar Mahkamasiga xizmat ko'rsatish tizimi avtomatlashtirilgan, xususiylashtirish va mablag' ajratish jarayonlarini ma'lumot bilan ta'mirlash va telekommunikatsiya fondli tizimlar yaratilgan. Banklarga Prezident farmoni asosida soliq imtiyozlari berilishi O'zbekiston banklar tizimini kompyuterlar bilan jihozlashga imkon berdi. Deyarli barcha tijorat banklari respublika miqyosidagi elektron tizimiga boglangan. Ishbilarmonlikning takomillashishiga kompyuter texnikasidan xom ashyo va tovar mahsulotlarini hisoblash sohasida foydalanishga sharoit yaratib berdi.

"O'zbekiston havo yo'llari" aviakompaniyasi, "O'zbekiston temir yo'llari" davlat temir yo'l aktsionerlik korxonasida chiptalarni sotishga va bronlashga avtomatlashgan tizim tadbiiq etilgan.

Ishlab chiqarish va texnologik jarayonlarni kompyuterlar yordamida boshqarish texnologiyalari joriy mablag'lar bilan ishga tushirilgan yetuk sanoat korxonalarida foydalanildi. Ayniqsa, "Zarafshon-Nyumont" birlashmasi, "SamKoch Avto" va "Uz Deeo" avtomobil zavodlari, "Uz Deeo elektron ks" zavodi, "Buxoro neftni qayta ishlash birlashmasi" dagi texnologik jarayonlarni zamonaviy kompyuterlar yordamida boshqarish uslublari yaratildi.

Toshkent shahri va ayrim viloyatlarda avtomatlashgan radiotelefon va peydjing aloqa tizimlari ishlatilmoqda.

O'zbekistonda kompyuterni jon boshiga hisoblash ko'rsatkichi Hindiston va Xitoydan yuqori bo'lib Rossiyaga yakinlashmoqda.

Topshiriq .

1. Yuqoridagi rejadan foydalanib matnni so'zlab bering
2. Matndan faol so'z va iboralarni aniqlang .
3. Matndan foydalanib test savollari tayyorlang.

O'zbek tilida so'z tuzilishi va yasalishi

So'zlar tuzilishiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi: sodda so'zlar, qo'shma so'zlar, juft so'zlar va takroriy so'zlar.

Faqat bir o'zakdan tashkil topgan so'zlar sodda so'zlar hisoblanadi. Masalan, keldi, yondirishdi, yigitlarga, g'allachilik, lalmikor, yettinchi, o'rikzor kabi.

Ikki va undan ortiq o'zaklardan tashkil topgan so'zlar qo'shma so'zlar sanaladi. Masalan, shirinzabon, muzqaymoq, ishlab chiqarish, kungaboqar kabi.

Ikki so'zni yonma-yon qo'shish yo'li bilan hosil qilingan so'zlar juft so'zlar sanaladi. Masalan, qishin-yozin, erta-kech, bugun-erta va boshqalar. Bunday so'zlar ko'pincha yangi ma'noga ega bo'ladi va sodda so'zlar bilan sinonimik munosabatda bo'ladi: qishin-yozin (doimo), erta-kech (hamisha), bugun-erta (yaqinda). Yoki umumlashtirish ma'nosini ifodalaydi: idish-tovoq (ro'zg'or buyumlari), qalam-daftar (o'quv quroli), ko'ylak-lozim (sarupo) kabi.

Non-pon, choy-poy, katta-katta, tez-tez, dam-badam, so'zma-so'z, uncha-muncha kabi so'zlar takror so'zlar sanaladi.

Tilda oldin mavjud bo'lgan so'zga ma'lum yasovchi vositalar qo'shish bilan yangi so'z hosil qilinishiga so'z yasalishi hodisasi, shunday hodisani o'rganadigan tilshunoslik bo'limiga esa so'z yasalishi deyiladi. Demak, so'z yasalishi atamasi ikki ma'noda: a) so'z yasalishi hodisasi ma'nosida va b) so'z yasalishi hodisasini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi ma'nosida qo'llaniladi.

So'z yasashga asos qismning qanday xususiyatga ega ekanligiga ko'ra so'z yasalishining bir necha usullari bor:

- 1) yasashga asos qismga qo'shimchalar qo'shish orqali (affiksatsiya);
- 2) so'zlarni qo'shish orqali (kompozitsiya). Masalan, ishla so'zi ish qismiga (yasashga asos) -la qo'shimchasini qo'shish yo'li bilan hosil bo'lgan. *Mehnatsevar, ishlab chiqarish* singari so'zlar esa ikki so'zni bir-biriga qo'shish asosida hosil qilingan.

Hozirgi o'zbek tilida so'z yasashning mahsuldor usuli qo'shimchalar qo'shish yo'li bilan so'z yasash - affiksatsiyadir. Bu usul tilda mavjud bo'lgan muayyan so'z yasash qoliplari asosida yuzaga chiqadi. Shuning uchun ham so'zlovchi xotirasida so'z yasashning qoliplari mavjud bo'ladi. Masalan, ot+chi "shaxs oti yasovchi" (ishchi, temirchi, suvchi); ot+li "belgining mavjudligi yoki ortiqqligi" (suvli, mevali) va boshqalar. Ana shu so'z yasash qoliplari asosida turli-tuman yasama so'zlar hosil qilinadi. Masalan:

traktorchi	yig‘la	binokor
kombaynchi	sizla	g‘allakor
suvchi	qo‘lla	paxtakor
ekskavatorchi	oqla	o‘ymakor
tikuvchi	ishla	sholikor

“O‘zbek tili” fanidan amaliy mashg‘ulot.
MAVZU: Zamonaviy dunyoda ta’lim tizimi (2 SOAT)

Reja:

Og‘zaki nutq: Mavzuga oid matnni o‘qib tushunish. Matndagi termin va iboralarni ma’nosini izohlash. Matnga munosabat bildirib so‘zlash.

Yozma nutq: Turli mamlakatlarning ta’lim tizimlari haqida ma’lumot tayyorlash. Chet ellik talabalar hayoti aks ettirilgan badiiy asar yoki film haqidagi taassurotlarni yozish.

Grammatika: Fe’l so‘z turkumi.

Qo‘llanadigan zamonaviy pedagogik texnologiyalarning "Klaster", "Bumerang", "Yelpig‘ich" hamda "Muammoli ta’lim" texnologiyasining "Munozarali dars" metodi, shuningdek, o‘zbek xalqining tarixiy, madaniy – ma’rifiy qadriyatlariga doir slaydlardan foydalanish, savol-javob, test yechish, didaktik va rolli o‘yin usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

ZAMONAVIY DUNYODA TA’LIM TIZIMI

Mutaxassislar fikriga ko‘ra, dunyoning eng yaxshi ta’lim tizimi Finlandiyada ekan. Finlandiya Yevropaning rivojlangan mamlakatlaridan biri hisoblanadi. Xo‘sh, dunyoda eng yaxshi hisoblanadigan Finlandiya ta’lim tizimi, boshqalardan nimasi bilan ajralib turadi?

- Finlandiyada nufuzli yoki oddiy maktab tushunchasi yo‘q. Hamma maktab davlatga tegishli bo‘lib, ular bir xil moliyalanadi va bir xil asbob-uskuna va imkoniyatlarga ega;
- Kichik sinflarda bolalarga uy vazifasi berilmaydi, imtihon topshirmaydi va ularga baho qo‘yilmaydi;
- Fin maktablarida bolalar juda ko‘p insho yozadi: mustaqil ishlash bolaga har bir masala haqida o‘z fikriga ega bo‘lishni va fikrini badiiy tilda izohlashni o‘rgatadi;
- Bir fanni boshqa fanlar o‘rnida chuqurroq o‘rganish ma’qullanmaydi. Masalan, finlar matematikani san’atdan ko‘ra chuqurroq o‘rganish kerak deb hisoblamaydi;

- Bir o‘quvchini boshqa o‘quvchi bilan qiyoslash ta’qiqlangan. Nogiron va qobiliyatli bolalar bir sinfda o‘qishadi;
- Fin maktablari shiori shunday: Biz bolani yo hayotga tayyorlaymiz, yo – imtihonga. Biz birinchisini tanladik”. Shuning uchun ham fin maktablarida faqat bir marta – o‘quvchi 16 yoshga to‘lganda imtihon topshiriladi;
- Fin maktablarida eng asosiysi — o‘quvchini mustaqil hayotga tayyorlashi, deb hisoblanadi. Shuning uchun ham ularga mustaqil bilim olishni o‘rgatishadi. Bolalar yodlab olingan formulalar o‘rniga, spravochnik, kalkulyator va internetdan foydalanishni o‘rganadi;
- O‘qituvchilar bir kunda sinf xonasida 4 soat dars beradi va haftaga 2 soat o‘qituvchi malaka oshirishiga sarflanadi;
- Finlandiyada “o‘qituvchi” kasbi – obro‘li kasb hisoblanadi. Oliy ta’lim maskanlarida o‘qituvchi bo‘lib ishlashga juda katta konkurs mavjud;
- Finlandiyada umumiy o‘rta ta’lim – bepul. Buning ichiga bepul tushlik, ekskursiya, maktab avtobuslari va kitoblar kiradi. Ota-onalardan pul yig‘ish ta’qiqlangan;

Savol va topshiriqlar:

1. Matnni ifodali o‘qing.
2. Matnning mazmunini o‘zbek tilida gapirib bering
3. Matndan harakat va holat bildiruvchi so‘zlarni toping va daftaringizga ko‘chiring.
4. Matndan o‘timli va o‘timsiz fe’llarni toping va izohlang.
5. Matndan ijodiy foydalangan holda tahsil olayotgan ta’lim muassasangiz haqida kichik matn tuzing.

Fe’l so’z turkumi

Fe’l nisbatlari	(Залоги глаголов)
Fe’l nisbati ish-harakat bajaruvchisi (sub'yekt) . va predmet (ob'yekt) o'rtasidagi munosabatni bildiradi. O'zbek tilida 5 ta fe'l nisbati bor: 1. Aniqlik nisbati. Bu nisbat hech qanday qo'shimchaga ega emas. 2. O'zlik nisbati. O'zlik nisbati ish-harakatning bajaruvchiga qaytishini bildiradi. <u>-L, -in;</u> Masalan: <u>kiyinmoq, taranmoq.</u> 3. Majhullik nisbati <u>-i, -in, -I, -il</u> qo'shimchalari bilan yasaladi. Masalan:	Залоги глаголов выражают различные отношения между производителем действия (субъектом) и предметом (объектом). В узбекском языке глагол имеет 5 залогов: 1. Действительный залог не имеет никаких аффиксов. 2. Возвратный залог обозначает действие, которое возвращается к самому субъекту. 3. Страдательный залог образуется аффиксами <u>-и, -ин, -л, -ил.</u>

<i>kitob o'qildi, uy qurildi.</i> 4. Birgalik nisbati ish harakat bir necha shaxs tomonidan bajarilishini bildiradi. <u>-sh, -ish</u> qo'shimchalari bilan yasaladi. 5. Orttirma nisbat <u>-t, -tir, -dir, -r, -ar. -giz. -g'iz. -qiz</u> qo'shimchalari bilan yasaladi.	4. Взаимно-совместный залог показывает, что действие совершается несколькими лицами. 5. Понудительный залог образуется аффиксами <u>-m, -mur, -dur, -p, -ap, -guz, -guz, -qiz</u>
---	---

Fe'l mayilari	(Наклонения глагола)
Fe'l mayii harakat yoki holatning borliqqa munosabatini bildiradi. 3 xil fe'l mayli bor: 1. Anlik mayli. Anqlik mayli fe'l zamonlaridan biriga (o'tgan. hozirgi. kelasi) munosabatni bildiradi. 2. Buyruq-istak mayli. Buyruq-istak mayli 2-shaxsga buyruq, 1-shaxsga xohish. 3-shaxsga nisbatan taklif ma'nolarini bildiradi. <i>Men bor+ay Biz bor+aylik</i> <i>Sen bor Siz bor+ing</i> <i>U bor+sin Ular bor+sinlar</i> 3. Shart mayli. Shart mayli ish harakatning bajarilishi uchun shart borligini bildiradi. <i>Men bor+sam Biz bor+sak</i> <i>Sen bor+sang Siz bor+sangiz</i> <i>U bor+sa Ular bor+salar</i>	Наклонение глагола выражает отношение действия или состояния к действительности. Есть три наклонения: 1. Изъявительное наклонение. Изъявительное наклонение указывает на отношение глагола к одному из глагольных времен (прошедшее, настоящее, будущее). 2. Повелительно-желательное наклонение выражает обращение с приказом ко II лицу, желание говорящего, обращение к 3-му лицу. 3. Условное наклонение указывает на зависимость совершения действия от определенных условий.

Topshiriq. Gaplarni ko`chiring. Fe'l mayllarini aniqlang.

Chap tomondan esa Oltinsoy qishlog'i ravshan ko'rinardi. Auditoriyada va auditoriyadan tashqarida tartib saqlansin! O'qituvchining tushuntirishlarini diqqat bilan tingla, uning topshiriqlarini sidqi dildan bajar, darsda o'zingni yaxshi tut. Bo'ron to'xtadi va shu zahotiyoq yomg'ir qo'yib berdi. Har birimiz ona-

Vatanga loyiq farzand bo'laylik. Yerni boqsang, yer elni boqadi. Qo'lingdan kelsa qilar ishingni bir nafas ham kechiktirma.

“O‘zbek tili” fanidan amaliy mashg‘ulot.
MAVZU: Salomatlik – tuman boylik. (2 SOAT)

Reja:

Og‘zaki nutq: Mavzuga oid matn ustida ishlash. Matnga munosabat bildirib so‘zlash. Mavzu bo‘yicha bahs-munozaradan ishtirok etish.

Yozma nutq: “Salomatligimiz o‘z qo‘limizda” mavzusida esse yozish. Jahon meditsinasi yutuqlari haqida taqdimot tayyorlash. Salomatlik haqidagi o‘zbek xalq maqollaridan namunalar yozish. Mehnat havfsizligi qoidalrini tuzish.

Grammatika: Fe’llarning o‘tgan zamonda tuslanishi.

Qo‘llanadigan zamonaviy pedagogik texnologiyalarning "Klaster", "Bumerang", "Yelpig‘ich" hamda "Muammoli ta’lim" texnologiyasining "Munozarali dars" metodi, shuningdek, o‘zbek xalqining tarixiy, madaniy – ma’rifiy qadriyatlariga doir slaydlardan foydalanish, savol-javob, test yechish, didaktik va rolly o‘yin usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Salomatlik - tuman boylik.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, eng birinchi navbatda boshlangan islohotlar qatoriga sog‘liqni saqlash sohasini tubdan yaxshilash tadbirlariga kirishildi.

Sog‘lom kishi deganda faqat jismoniy sog‘lomlikni emas, balki sharqona axloq-odob va umumbashariy g‘oyalar ruhida kamol topgan insonni tushunamiz.

Odamlarda bebaho boylik bo‘lgan o‘z sog‘ligini saqlashga to‘ri va mas’uliyatli munosabatda bo‘lishi, o‘z hayot faoliyatini oqilona tashkil qilish, salomatlik uchun zararli va xatarli odatlardan voz kechish, jismoniy va ruhiy jihatdan uyg‘un kamol topishga yo‘naltirishdir. Har bir sog‘lom inson giyohvandlikka, chekishga, yuqumli kasalliklar, jumlasidan sil kasalligi va SPID tarqalishiga qarshi kurashishi lozim.

Hammaga yaxshi ma'lumki, bemor odam na hayot lazzati, balki oddiy taom lazzatini ham tatib ko‘ra olmaydi. Bas, shunday ekan O‘zbekiston Xalqining va O‘zbekistonda istiqomat qiladigan har bir insonning sog‘ligini mustahkamlash, soglom hayot tarzini har tomonlama joriy etish, har bir fuqaroda sog‘lom turmush ko‘nikmalarini tarbiyalash va uni singdirish asosiy vazifalardandir.

Yurt boyligi hisoblangan inson salomatligi, avvalo, insonning o‘ziga bog‘liq bo‘lsa, ikkinchidan jamiyat va davlat muassasalarining qanday ishlayotganligiga bog‘liqdir.

Lug‘at

islohot	-	реформа
odob	-	воспитанность
zararli	-	вредный

xatarli	-	опасный
yuqumli	-	заразный,инфекционный
muassasa	-	учреждение

SOG'LOM BO'LAY DESANG

1. Unutmang: hatto retsepsiz sotiladigan dori-darmonlarni iste'mol qilishda ham shifokor maslahati zarur. Televizor yoki tanish-bilishlarning maslaqatlari bilan davolanmang.

2. Sizga terapevt bir dorini, okulist - ikkinchisini, stomatolog - uchinchisini, kardiolog esa yana boshqasini yozib bergan bo'lsa, qayta terapevt huzuriga boring. U dori-darmonlarni o'zaro taqlil qilib, qay biri-ni, qanday yo'sinda ichishni tavsiya etadi. Bu albatta, ko'pgina ko'ngilsizliklarning OLDINI oladi.

3. Iloji boricha bir turdagi dorini qabul qilishga harakat qiling.

4. Har doim o'zingizga yaxshi tanish bo'lgan, obdon sinalgan preparatlardan foydalaning. Katta shov-shuvga sabab bo'lgan, reklama orqali maqtovi oshirilayotgan dori-darmonlardan, ayniqsa, ehtiyot bo'ling. Mo'jizakor pereparatlar haqidagi afsonalarga ishonavermang. Odatda, ular qimmat bo'ladi va reklamada va'da qilingan xususiyatlarga ega bo'lmaydi.

5. Faqat o'z kasalingizga davo bo'luvchi, shifokor tavsiya qilgan dorilarnigina iste'mol qiling.

6. Dori idishdagi yozuvlarni diqqat bilan o'qib chiqing - ularning hech bo'lmaganda ruscha tarjimasi bo'lishi kerak. O'qishda, ayniqsa, tavsiya qilinmaydigan holatlar va teskari natijalar haqida ogohlantiruvchi bo'limga aloqida e'tiborni qarating. Dori qabul qilish me'yori va vaqti borasidagi ko'rsatmalarga qat'iy amal qiling. Dorini (agar bu hakda ko'rsatmada aytilgan bo'lmasa) albatta suyuqlik bilan iching.

7. O'zingizning tibbiyot borasidagi bilimlaringizni to'ldirib boring. Uyingizda albatta ommaviy tibbiyot ensiklopediyasi yoki axborotnomasi bo'lsin.

8. Agar sizda surunkali kasalliklar bo'lsa va ma'lum bir dorining sog'liqingizga ta'siridan xavotirlansangaz (masalan, ORVIn davolovchi preparatlardan), vrach bilan albatta maslaqatlashing: faqat vrachgina dorining siz uchun foyda-zararini aniq ko'rsatib beradi.

9. Dorilarning saqlash sharoitiga aloqida e'tibor bering - bu haqda dori qutisi ichidagi yozuvda aytiladi. Shunday preparatlar borki, ularga nur salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ba'zilarini esa sovuq joylarda saqlash kerak. Va albatta, barcha dori-darmonlarni yosh bolalar qo'li yetmaydigan joylarda saqlash zarur.

Hakimlar sultoni

Tibbiyot soqasidagi yuksak kashfiyotlari bilan dunyoga dong taratgan Yevropada Avitsenna nomi bilan mashhur bo'lgan buyuk bobokalonimiz Abu Ali ibn Sino o'zining 57- yillik umri mobaynida insoniyatga shunday ulug'vor xizmat qildiki, natijada jahon ilmu fani yuksalishlar davriga qadam qo'ydi.

Buyuk bobokalonimizning hozirgacha bizga ma'lum bo'lgan ilmiy risolalarining umumiy soni 276 tadan ortadi. Ushbu" risolalarda ko'rsatilgan ilmiy tavsiyalar ayni paytda ham tegishli mutaxassislar tomonidan qayta-qayta o'qib o'rganilayapti. "Ash shifo" kitobi 18 jild, "Donishnoma" asari 20, "Arab tili haqida qo'llanma" 12 jild, "Tib qonunlari" kitobi hozirgi zamon nashriga binoan 6 jildga keltirilgan Bularning barini umumiy holda hisoblanganda jami hajmi 5 ming varaqdan oshadi.

"Tib qonunlari" kitobi XII asrda arab tilidan lotin tiliga o'girilgandan so'ng butun dunyoga qanot yozib parvoz qildi. 1493 -yilda fransuz tiliga, 1593 -yilda ital'yan tiliga, XV asrda rus tiliga o'girildi. XII asrdan XVIII asrgacha u 40 marta qayta nashr etildi. Mazkur asar qayta nashr qilish soni bo'yicha Injildan keyingi o'rinda turadi. Abu Ali ibn Sinoning asarlarini o'qib, ularni bugungi dunyo fani bilan solishtirar ekanmiz, "birinchi" degan so'zni allomaga nisbatan juda ko'p marta ishlatishimiz mumkin.

Alloma 1200 ta har xil minerallardan, 1400 dan ortiq turli o'simliklardan tayyorlangan dorilarni ishlatishni juda yaxshi bilgan. Tibbiyotga birinchi bo'lib 16 xil dorini olib kirgan va u bilan juda og'ir ahvoldagi bemorlarni davolagan. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, uning tabiatida insonparvarlik va odamlarga yaxshilik qilish kabi olijanob fazilatlar yuksak darajada rivojlangan edi. U o'z bemorlariga shafqat va mehribonlik ko'zi bilan boqar, ularga diqqat-e'tibor bilan muolaja qilardi. Faqir va benavolarga esa xolis xizmat ko'rsatar edi. Jurjonda yashagan davrida muolaja xonasiga kiraverishdagi yo'lakchanning devoriga bir sandiqcha osib qo'yishni buyurgan ekan. Unga har bir bemor o'zining iqtisodiy aqvoli va himmatiga qarab xoxlagan miqdorda pul tashlab kirgan ekan. Shuning uchun ham "Shayx-ur-rais", "Hujjat ul-haq", "Sharq allomasi", "Ustozlar ustoz", "Hakimlar sultoni" kabi faxriy unvonlar Ibn Sinoga bejizga berilgan emas. Uni biror bir tibbiyot allomasi bilan tenglashtirib bo'lmaydi. U qoldirgan meros tilsimi ayni paytda ham shunchalik balanddagi, biz minnatdor avlodlar. unga va uning ruhiy olamiga hamisha talpinib yashaymiz.

Topshiriq.

1. Matnni ifodali o'qib chiqing va rejasini tuzing .
2. Qiyin so'zlarning ozbekcha -ruscha lug'atini tayyorlang.
3. Matndan faol so'z va iboralarni aniqlang
4. "Nozirgi zamon va tibbiyot" mavzuida matn tayyorlang

Fe'llarning o'tgan zamonda tuslanishi

Fe'ldan anglashilgan harakatning nutq momentiga nisbatan bajarilishi yoki bajarilmaslik paytini bildiradigan shakllarga zamon shakllari, ana shunday shakllar tizimiga zamon kategoriyasi deyiladi. Zamon turini belgilashda so'zlanayotgan nutq vaqti asosiy tayanch nuqta bo'lib hisoblanadi. Ana shunga ko'ra uch zamonga bo'linadi: 1) O'tgan zamon, 2) Hozirgi zamon, 3) Kelasi zamon.

Fe'ldan anglashilgan harakatning nutq soʻzlanayotgan vaqtdan oldin boʻlib oʻtganligini bildirgan shakllar oʻtgan zamon shakllari sanaladi. Oʻtgan zamon shakllariga quyidagi shakllar kiradi: -di, -gan, -ib, (-man, -san, -di) kabi. Masalan, keldi, kelgan, kelibman, kelibsan va boshqalar. Bu shakllar garchi «oʻtgan zamon» umumiy maʼnosi asosida birlashsa ham, lekin ularning har qaysisi bir-biri bilan maʼlum maʼnosiga koʻra farq qiladi:

-gan shakli -di ga nisbatan harakatning nutq soʻzlangan vaqtdan ancha oldin roʻy berganini bildiradi.

-ibdi -ibman, -ibsan shakllari esa soʻzlovchi nutq momentidan oldin roʻy bergan harakatni boshqa shaxsdan eshitganligini yoki oldindan kutilgan harakatning amalga oshganligini bildiradi. Masalan, Oʻgʻrini eshakka teskari mindiribdi. (Ertakdan)

-di shakli, umuman, harakatning nutq momentidan oldin bajarilganligini bildiradi.

Solishtiring:

Keldi

Kelgan

Kelgan edi

Kelibdi

“Oʻzbek tili” fanidan amaliy mashgʻulot.

MAVZU: Uyquning inson hayotidagi oʻrni. (2 SOAT)

Reja:

Ogʻzaki nutq: Mavzuga oid matn ustida ishlash. Matnga munosabat bildirib soʻzlash. Mavzu boʻyicha bahs-munozaradan ishtirok etish.

Yozma nutq: Uyqu bilan bogʻliq boʻlgan qiziqarli maʼlumotlar tayyorlash. “Osuda uyquga erishish” mavzusida polilog tuzing.

Grammatika: Feʼllarning hozirgi va kelasi zamonda tuslanishi.

Qoʻllanadigan zamonaviy pedagogik texnologiyalarning "Klaster", "Bumerang", "Yelpigʻich" hamda "Muammoli taʼlim" texnologiyasining "Munozarali dars" metodi, shuningdek, oʻzbek xalqining tarixiy, madaniy – maʼrifiy qadriyatlariga doir slaydlardan foydalanish, savol-javob, test yechish, didaktik va rolly oʻyin usullarini qoʻllash nazarda tutiladi.

UYQU

Dunyoda uxlashni yaxshi koʻrmaydigan odam boʻlmasa kerak. Lekin tush koʻrish ilm-fan paydo boʻlganidan boshlab olimlarni qiziqtirib kelgan soha boʻlishiga qaramay, uning sir-asrori hali ham oxirigacha oʻrganilmagan. Siz uyqu toʻgʻrisida nimalarni bilasiz? Odam umrining uchdan bir qismi, yaʼni 25 yilga

yaqini uyquda o'tadi. Ayollar erkaklarga qaraganda deyarli 2 marta ko'proq to'yib uxloymaslikdan aziyat chekadi.

Ota-onalar oilada yangi inson dunyoga kelganining dastlabki ikki yilida 6 oyga yaqin tungi to'liq uyqudan judo bo'ladi. Uyqusiz o'tkazilgan besh tundan keyin spirtli ichimliklarning organizmga ta'siri ikki baravar oshadi. Yurak xastaliklari, semirish, diabet uyqusizlik bilan bog'liq. Muntazam ravishda tungi soat 00:00 va 03:00 orasida uyg'onib ketuvchi odamlar tez vazn to'plashi haqida isbotlanmagan gipotezalar mavjud. Tushingiz notanish odamlar bilan to'la ekanligini sezgan bo'lsangiz kerak. Aslini olganda, tushingizda ko'rgan hamma odamlarni haqiqiy hayotda hech bo'lmasa bir marta ko'rgan bo'lasiz. Tadqiqotlarga ko'ra, rangli televideniye paydo bo'lganidan boshlab rangli tush ko'ruvchilar soni ancha oshgan. Surunkali uyquga to'ymaslikdan aziyat chekuvchi kishilar (bir sutkada 4 soatdan ko'p bo'lmagan) yoki haddan tashqari ko'p uxlaydiganlar (9 soatdan oshiq) kutilmaganda o'lishga moyil bo'ladi. Uzoq vaqt davomida chekkan va keyin bu zararli odatni tashlagan kishilarning ta'kidlashicha, ularning tushi ancha yorqinlashgan. Yo'l-transport nazorati organlarining statistik ma'lumotlariga qaraganda, charchash va uyquga to'ymaslik avtohalokatlarining eng keng tarqalgan sabablari hisoblanadi. Eng uzoq vaqt uyqusizlikning rekordi 18 kun, 21 soat va 40 daqiqa hisoblanadi. Rekord qo'yuvchi odam gallyutsinatsiya, paranoyya, ko'rishning yomonlashishi, gapirish muammolari, diqqatni to'play olmaslik va xotiraning pasayishi to'g'risida aytib bergan. Edison, Da Vinchi, Franklin, Tesla, Cherchill – ularning hammasi belgilangan me'yordan ancha kam uxlagan va o'zlarini mutlaqo sog'lom sezgan. Olimlarning fikricha, uyquning bunday buzilishi – katta talantning yoki iste'dodlilikning har doim ham yaxshilikka olib kelavermaydigan teskari tomonidir. Olimlar tomonidan o'tkazilgan tajribalar davomida aniqlanishicha, tushini ko'k yoki zangori tuslarda ko'ruvchi odamning hayotida hammasi yaxshi va o'z o'rnida bo'lar ekan. Agar tush qizil rangda bo'lsa – bu haroratning keskin oshishi yoki qandaydir kasallik belgisi bo'lishi mumkin ekan. Qora rang esa odamning yaqin vaqtlarda asabiylashganini bildirar ekan.

Fe'llarning hozirgi va kelasi zamonda tuslanishi

Fe'ldan anglashilgan harakat-holatning nutq so'zlanayotgan vaqtda ro'y berishi yoki bermasligini bildirgan shakllarga hozirgi zamon shakllari, shunday shakllar tizimiga esa hozirgi zamon kategoriyasi deyiladi. Hozirgi zamon ma'nosi - yapti, -yotir, -moqda singari qo'shimchalar qo'shish orqali ifodalanadi. Masalan, yozyapti, yozmoqda, yozayotir. Bulardan -yapti, -moqda, fe'l asoslariga, -yotir esa

fe'ning ravishdosh shakliga qo'shiladi. Hozirgi zamon shakllari ma'lum uslubga xoslangani bilan o'zaro farqlanadi, -yapti uslubiy betaraf (neytral) shakl bo'lsa, -moqda, -yotir yozma nutq uslubiga xosdir.

Fe'ldan anglashilgan harakat-holatning nutq so'zlanayotgan vaqtdan so'ng ro'y berishbermasligini bildirgan zamon shakllariga kelasi zamon shakllari, shunday shakllar tizimiga esa kelasi zamon kategoriyasi deyiladi. Kelasi zamon ma'nosi fe'ning -a ravishdosh shakliga -di, -jak; fe'l asoslariga -ar, -ur, -gusi qo'shimchalarini qo'shish orqali hosil bo'ladi. Masalan, keladi, kelajak, kelar (ur), kelgusi kabi.

Bulardan -adi, -ar uslubiy betaraf shakllar bo'lsa, -jak, -gay, -ur, -gusi shakllari badiiy va publitsistik uslubga xosdir. Uslubiy betaraflik belgisiga ko'ra -adi va -ar shakllari bir guruhni tashkil qilsa ham, ular ifodalanayotgan harakatga gumon-taxmin ma'nosini bildirish-bildirmasligiga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Birinchisi bunday ma'noga betaraf bo'lsa, ikkinchi shakl gumon-taxmin ma'nosiga ega. Solishtiring: keladi — kelar.

Ba'zan turli zamonga mansub bo'lgan shakllar o'zaro almashinishi mumkin. Masalan, Tanklar, zambaraklar ag'anab yotibdi. Bir jangchining peshonasi bog'langan, bir jangchining esa yelkasidan qon oqmoqda. (Shuhrat)

O'tgan zamonda bo'lib o'tgan voqealarga tinglovchini olib kirish, ularni uning ko'z oldiga olib kelish maqsadida hozirgi zamon shakli ishlatilgan.

Fe'ning shaxs-son bo'yicha zamonlarda tuslanishi

<i>1 – Tuslanish. Hozirgi zamon shakli</i>	
BIRLIK	KO'PLIK
1 – shaxs kelyapman	kelyapmiz
2 – shaxs kelyapsan	kelyapsiz
3 – shaxs kelyapti	kelyaptilar

<i>2 – Tuslanish. O'tgan zamon shakli</i>	
BIRLIK	KO'PLIK
1 – shaxs ko'rdim	ko'rdik
2 – shaxs ko'rding	ko'rdingiz
3 – shaxs ko'rdi	ko'rdilar

<i>3 – Tuslanish. Kelasi zamon shakli</i>	
BIRLIK	KO'PLIK
1 – shaxs boray	boraylik

2 – shaxs borigin	boring, boringlar
3 – shaxs borsin	borsinlar

“O‘zbek tili” fanidan amaliy mashg‘ulot.
MAVZU: Sport – sog‘lik garovi. (2 SOAT)

Reja:

Og‘zaki nutq: Mavzuga oid matnni o‘qib tushunish. Matndagi termin va iboralarni ma’nosini izohlash. Matnga munosabat bildirib so‘zlash.

Yozma nutq: Sport haqida esse yozish. O‘zbekiston sporti haqida ma’lumot berish. Sport terminlari lug‘atini tuzish.

Grammatika: Ot so‘z turkumi

Qo‘llanadigan zamonaviy pedagogik texnologiyalarning "Klaster", "Bumerang", "Yelpig‘ich" hamda "Muammoli ta’lim" texnologiyasining "Munozarali dars" metodi, shuningdek, o‘zbek xalqining tarixiy, madaniy – ma’rifiy qadriyatlariga doir slaydlardan foydalanish, savol-javob, test yechish, didaktik va rolli o‘yin usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

O‘zbekistonlik boks chempionlari

O‘zbek boks maktabi haqida fikr yuritganda, boks bo‘yicha birinchi jahon chempioni Rufat Risqiyev faoliyatini esga olish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Rufat Risqiyev 1949- yilning 2- oktabrida Toshkent shahrida dunyoga keldi. Boks bilan 14 yoshidan boshlab shug‘ullandi.

Boks muxlislari Rufat Risqiyevni ringda kuchli texnikaga asoslangan jang uslubini, har ikkala qo‘lida ham o‘ta kuchli zarba berishga qodir bokschi sifatida qadrlashadi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, muxlisu mutaxassislar Rufat Risqiyevni "Toshkent yo‘lbarsi", deb atashardi. Boks faoliyati davomida Rufat Risqiyev to‘rt marotaba - 1972, 1974, 1975 va 1976- yillarda sobiq ittifoq chempionatida oltin medallarni qo‘lga kiritdi. Yurtdoshimiz o‘z faoliyati davomida 189 ta jang o‘tkazib, shulardan 174 tasida q‘olib chiqqan.

2007- yil 14 -aprel sanasi o‘zbek sporti tarixiga zarhal qarflar bilan bitildi. Hamyurtimiz og‘ir vaznli bokschi Ruslan Chagayev professional boksning WVA yo‘nalishi bo‘yicha chempion hisoblangan Nikolay Valuyevni mag‘lub etib, o‘ta oqir vaznda jahon chempioni degan sharaflı nomni olish baxtiga erishdi. Germaniyaning Shtutgart shaqridagi sport majmuida chempionlik kamarini qo‘lga kiritgan vatandoshimiz Ruslan Chagayevning Yurtboshimizga yo‘llagan maktubida shunday iliq fikrlar bayon etilgan edi: "Men o‘z g‘alabamni O‘zbekiston mustaqilligiga bag‘ishlayman. qayerda bo‘lishim, qaysi mamlakatda jang o‘tkazishimdan qat‘i nazar, men uchun O‘zbekiston sporti sha‘nini himoya qilishdan ko‘ra muqaddasroq narsa yo‘q".

Ha, chindan ham, o‘zining kuch va irodasiga ishongan azmu shijoat sohibi Ruslan Chagayev erishgan betakror g‘alabasi bilan yurtimiz nomini ko‘klarga ko‘tardi, vatandoshlarimiz qalbida faxr uyg‘otdi. Ayniqsa, yoshlarning ko‘zlaridagi

quvonch ularning ongi shuurida jo'sh urayotgan g'oliblik tuyg'ularining ifodasi bo'ldi

Prezidentimizning 2007- yil 17- apreldagi farmoniga binoan professional boks bo'yicha o'ta oqir vazn toifasida jahon chempioni unvonini qo'lga kiritib, mardlik va jasorat namunasini namoyon etgan Ruslan Chagayev Vatanimizning yuksak mukofoti - "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlandi. Bu ham yoshlarimizning ko'nglida kechayotgan g'urur va iftixor tuyg'ulariga hamohang bo'ldi. Jahon chempioni Ruslan Chagayev qo'lga kiritgan g'alaba yoshlarimiz qalbi va ongida ona Vatanga muqabbat va sadoqat tuyg'ularining jo'sh urishiga, ularning gayotga teran nigoh bilan boqishiga xizmat qilishi shubhasiz.

Topshiriq

1. Matnni ifodali o'qib chiqing va rejasini tuzing .
2. Tuzgan rejangiz asosida qayta so'lab bering .
3. Qiyin so'zlarning o'zbekcha –ruscha lug'atini tuzing.
4. O'zbekiston bayrog'ini yuksakka ko'targan o'zbekistonlik chempionlar ro'yxatini tuzing.

Ot so'z turkumi

Shaxs, predmet, hodisa, joy nomini bildirib, kim?, nima?, qayer? So'roqlariga javob bo'luvchi so'z turkumi ot deyiladi. Masalan, *o'quvchi, kitob, shahar*. Otlar har xil ma'no anglatadi, shunga ko'ra ularning grammatik xususiyatlari ham turlicha bo'ladi. Jumladan, atoqli va turdosh otlar, aniq va mavhum otlar, yakka va jamlovchi otlar.

Ot predmetni bildirib, kim? nima? savoliga javob beradi. O'zbek tilida rus tilidan farqli holda kim? savoli faqat odamlarga beriladi. Otlar <u>atoqli</u> va <u>turdosh</u> bo'ladi. M: Gulrux –atoqli ot ; binafsha-turdosh ot.	Имя существительное обозначает предмет и отвечает на вопросы кто? что? В отличие от русского языка вопрос кто? (ким?) в узбекском языке относится только к людям. Имена существительные бывают <u>собственные</u> и <u> нарицательные</u>.
Otlarda ko'plik (Множественное число имён существительных)	
Otlarda ko'plik shaxsni yasash uchun <u>-lar</u> qo'shimchasi qo'shiladi. Masalan: <u>odam-odam+lar, kitob kitob+lar</u>; Narsalar sanash ohangida aytilsa, <u>-lar</u> qo'shimchasi oxirgi so'zga qo'shilishi mumkin. Masalan: <u>Stolda kitob, daftar va darsliklar bor</u>. Sondan keyin kelgan otlarga <u>-lar</u> qo'shimchasi qo'shilmaydi.	Для образования множественного числа к существительным присоединяется аффикс <u>-лар</u>. Например: При перечислении ряда предметов аффикс <u>-лар</u> можно прибавить к последнему слову. Например: На столе есть книга, тетрадь и учебники. Существительные, стоящие после числительного, употребляются без

Masalan: Bog'imizda o'n beshta daraxt bor.	аффикса -лар.
--	---------------

“O‘zbek tili” fanidan amaliy mashg‘ulot.
MAVZU: Hadisshunos vatandoshlarimiz. (2 SOAT)

Reja:

Og‘zaki nutq: Mavzuga oid matnni o‘qib tushunish. Matndagi termin va iboralarni ma’nosini izohlash. Matnga munosabat bildirib so‘zlash.

Yozma nutq: Hadis haqida ma’lumot berish. Hadis haqida polilog tuzish.

Grammatika: O‘zbek tilida so‘zlarning turlanishi.

Qo‘llanadigan zamonaviy pedagogik texnologiyalarning "Klaster", "Bumerang", "Yelpig‘ich" hamda "Muammoli ta’lim" texnologiyasining "Munozarali dars" metodi, shuningdek, o‘zbek xalqining tarixiy, madaniy – ma’rifiy qadriyatlariga doir slaydlardan foydalanish, savol-javob, test yechish, didaktik va rolli o‘yin usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Buyuk hadisshunos vatandoshlarimiz

Hadis ilmi bilan shug‘ullanuvchi olimlar muhaddislardir. Hadis ilmining rivojlanishiga, ayniqsa, bizning yurtimizdan yetishib chiqqan muhaddislar ulkan hissa qo‘shganlar. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy, Abu Muhammad Abdulloh ibn Abd ar-Rahmon ad-Dorimiy as-Samarqandiy o‘z umrlarini hadis to‘plash va ularni o‘rganishdek muqaddas ishga bag‘ishlaganlar. Mashhur muhaddislar orasida Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy eng oldingi o‘rinda turadi. Payg‘ambarimiz so‘zlari – hadislar roviylardan yig‘ilgan. “Roviy” ma’lumot beruvchi, aytuvchidir. Roviylar asosan ikki xil bo‘lgan: sahobalar va tobeinlar. Sahoba deb payg‘ambarimizni ko‘rgan va u kishi bilan suhbatda bo‘lgan kishilarga aytilgan. Tobeinlar esa, Payg‘ambarimizni emas, sahobalarni ko‘rib, ulardan eshitganlarini aytuvchilardir.

«Hadis ilmida amir al-mo‘miniyn» degan sharaflı nomga sazovor bo‘lgan Imom Ismoil al-Buxoriy tabiatan aql-idrokli, ziyrak, o‘tkir zehnlı bo‘lgan. O'n yoshidan arab tilini va hadislarini qunt bilan o'rgangan. Bilimga chanqoq, ilm-fanlarni o'rganishga havasi kuchli bo'lib, hadis ilmini alohida qunt bilan o'zlashtirgan. Manbalardan ma'lum bo'lishicha, u hadislarini hadis ilmi olimlari va rivoyatchilardan eshitgach, yodlab olavergan.

Imom al-Buxoriy o'n olti yoshida sayohatga chiqadi, Makka va Madinani ziyorat qiladi. O'z bilimini oshirish maqsadida Damashq, Qohira, Basra, Kufa, Bag'dod kabi ilm-fan markazlaridan hisoblangan yirik shaharlarda bo'ladi. Hadis ilmi bilan birga fiqh ilmidan saboq oladi, yirik olimlar davrasida bahslarda ishtirok etadi, toliblarga dars beradi. Bunday bahs-munozaralar Buxoriy bilan at-Termiziy

o'rtasida ham bo'lib, u ikki muhaddisning qizg'in ilmiy va ijodiy muloqotiga aylangan. Termiziy Buxoriy salohiyatini o'zidan yuqori qo'ygan.

TOPSHIRIQLAR

1. Matnni tarjima qiling.
2. Matndagi unlilarni talaffuzi va imlosiga ko'ra tahlil qiling.
3. Matn yuzasidan savollar tuzing.
4. Matn mazmunini o'zbek tilida va ona tilingizda gapirib bering.

O'zbek tilida so'zlarning turlanishi

Otlarning kelishik va egalik qo'shimchalarini olib o'zgarishi turlanish deyiladi.

Kelishiklar		(Падежи)	
Kelishiklar otlarning gapda boshqa so'zlarga munosabatini bildiruvchi grammatik shakllaridir. O'zbek tilida 6 ta kelishik bor.		Падежами называются грамматические формы, показывающие различные отношения существительных к другим словам в предложении.	
Название падежа	Падежные вопросы	Падежный аффикс	Соответствующая падежная форма в русском языке
Bosh kelishik	kim? (кто?), nima? (что)? Qayer? (что? Какое место?)		Именительный падеж
Qaratqich kelishigi	kimning? (чей? чья? чье?) qayerning? (чего? какого места?)	-ning	Родительный падеж без предлога
Tushum kelishigi	kimni? (кого?) nima (ni)? (что?), qaycni? (что? какое место?)	-ni	Винительный падеж без предлога
Jo'naltsh Kelishigi	kimga? (кому?) nimaga? (чему?) qayerga? (куда?)	-ga	Дательный падеж без предлога
O'rin-payt kelishigi	kimda? (у кого?), nimada? (на чем? за что?), qayerda (где?)	-Ka,-qa -da	Винительный падеж с предлогами в и на Родительный падеж с предлогом у Предложный падеж с предлогами в и на

Chiqish kelishigi	kimdan? (у кого, от кого?) qayerdan? (откуда?), nimadan? (из чего? с чего?)	-dan	Родительный падеж с предлогами у, от, из, с
----------------------	--	------	--

“O‘zbek tili” fanidan amaliy mashg‘ulot.
MAVZU: Navro‘z – qadimiy bayram. (2 SOAT)

Reja:

Og‘zaki nutq: Mavzuga oid matnni o‘qib tushunish. Matndagi tyermin va iboralarning ma’nosini izohlash. Matnga munosabat bildirib so‘zlash. Milliy urf-odatlarini ta’riflab berish.

Yozma nutq: Biror milliy taomlar ro‘yxatini tuzish, ulardan birining tayyorlanish jarayonini yozish.

Grammatika: Olmosh va uning uslubiy xususiyatlari.

Qo‘llanadigan zamonaviy pedagogik texnologiyalarning "Klaster", "Bumerang", "Yelpig‘ich" hamda "Muammoli ta’lim" texnologiyasining "Munozarali dars" metodi, shuningdek, o‘zbek xalqining tarixiy, madaniy – ma’rifiy qadriyatlariga doir slaydlardan foydalanish, savol-javob, test yechish, didaktik va rolli o‘yin usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

NAVRO‘Z – QADIMIY BAYRAM

Navro‘z bayrami turkiy xalqlarning qadimiy bayramlaridan biridir. Bu bayram 21-mart kuni nishonlanib, aynan kun va tun teng bo‘lgan paytga mos keladi. Tarixiy manbalarda keltirilishicha va olimlarimiz fikriga ko‘ra, Navro‘zning shakllanish davri – eng qadimgi zamonlardan “zardushtiylik”ning paydo bo‘lishigacha davom etgan asrlarni o‘z ichiga olgan ekan. Navro‘z so‘zi fors-tojik tilidan olingan bo‘lib “Yangi kun” degan ma’noni bildiradi. Qadim-qadimdan Navro‘z xolis niyatli kishilarning sevimli ayyomi bo‘lib kelgan. O‘sha kunlarda hatto urush-janjallar ham to‘xtatilgan, gina-kudratlar kechirib yuborilgan. Shohlar el ichidan eng munosib kishilarni taqdirlashgan, ayrim mahbuslarning gunohidan o‘tishgan. Bahor va yangi ayyom har bir yurakdan muhim joy olgan quvonchli damlarda ko‘pchilikning “Navro‘z qayerda va qachon paydo bo‘lgan ekan?” — degan savoliga “Saodat” jurnalida e’lon qilingan “Onaqutining saxovati” maqolasida bunga asosli javob berilgan. Unda jumladan: «Dunyoga ilk alifboni bergan buyuk allomalarning vatani bo‘lgan, dunyoviy fanlarga asos solgan Xorazm yurti qadimda, hatto eramizdan avvalgi minginchi yillarda Xvayrazam deb

atalgan. Qadimgi Parfiya davlati shaharlaridan biri sanalgan Niso shahridagi Burgut qal'a markazida moviy gumbazli maqbara bo'lgan. Maqbara mehrobida Onaqutining ko'tarilgan qo'lida Zumrad tosh bo'lgan. Bahorgi teng kunlikda-shamsiy hisob bilan hamal oyining birinchi kuni, hozirgi taqvimimiz bo'yicha 22-martda maqbara gumbazidagi tuynukdan quyosh nuri Onaquti qo'lidagi Zumrad toshiga tushib, sumalak pishirish uchun tayyor turgan qozonning o'txonasiga o't yoqqan», deyilgan. Firdavsiyning "Shohnoma"sida yangi yil bayrami shoh Jamshid nomi bilan bog'lanadi. Jumladan, Jamshid yurtga yaxshilik qilish maqsadida odamlarga kasb o'rgatadi, temir eritib qurol yasatadi, ip yigirtirib kiyim to'qitadi, imoratlar barpo qiladi, tabiblik sirlarini ochadi, kema yasaydi, bog' bunyod qiladi. Nihoyat, "ishlari gurkirab berganda meva" bir kuni taxt yasatib, unda osmonga ko'tariladi. Ushbu afsonaga ko'ra xuddi shu kuni Navro'z nishonlangan. Alisher Navoiy "Tarixi muluki ajam" ("Ajam shohlari tarixi") asarida Jamshidning buyuk kashfiyotlari so'ngida ulug' Navro'z ixtiro qilinganligini bayon qiladi. Navoiy yozishicha: "Jamshid "Chihil minor" nomli odamzod ko'rmagan va aql bovar qilmaydigan baland bino qurib... "bu imorat tugandi, olam salomin va ashrov va ahbarin yig'ib, anda azim jashn qildi. Ul vaqtkim, quyosh nuqta e'tiqodli rabiyg'a taqvil qilib erdi ul binoda taxt ustiga o'ltirib, adolat sayt va sadosin olamg'a muntashir qildi va ul kunining otin navro'z qo'ydi". Darhaqiqat, Navro'zning qachon va qanday vujudga kelganligini aniq ko'rsatish qiyin bo'lsa-da, shuni aytish mumkinki, bu bayram dono kishilar tomonidan kashf qilingan. Chunki Navro'zning dunyoga kelishi chuqur ilmiy asoslangan koinot va tabiat qonuniyatlari, ya'ni Quyoshning hamal burjiga kirishi, tun va kunning tenglashuvi, kunduzning uzaya boshlashi, tabiatda jonlanishning boshlanishi bilan bog'liq bo'lgan. Bu esa (har qanday jamiyatda) yil boshi qachon kelishidan qat'i nazar Navro'zni uyg'onish bayrami sifatida nishonlash uchun asos bo'lgan. Bundan tashqari, Navro'zning chuqur ildizlariga murojaat qilsak, u eng qadimiy davrlarda — ibtidoiy odamlarning dehqonchilikka o'tganidan so'ng dalalarda yangi ish mavsumi boshlanishidan oldin o'tkazilgan bahor bayramlariga borib taqaladi. Navro'z qadim zamonlardan bizgacha yetib kelgan muxtasham qadriyatlarimizdan biri, baynalminal bayramdir. Uning tarkibiga, qadimgi otabobolarimizning mifologik tasavvurlaridan tortib, bugungi zamondoshlarimizning qarashlarigacha bo'lgan ma'naviyat olami singib ketgan bo'lib, u insoniyat madaniy taraqqiyotining har bir yutug'idan doimo kuch va quvvat olib turadi. X asrda yashagan buxorolik tarixchi olim Abu Bakr Narshaxiy o'zining "Buxoro tarixi" asarida dehqonlarning Navro'zda aytiladigan Siyovush nomi bilan bog'liq qo'shiqlari haqida ma'lumot berib, "Bu gaplar bo'lib o'tganiga hozir uch ming yildan ko'proq vaqt o'tdi",- deb yozadi. Bahor va mehnat bayramining paydo

bo‘lishi haqidagi tarixiy ma’lumotlar davrlar o‘tishi bilan turli o‘zgarishlarga uchrab, shu kunlargacha yetib kelgan. Ana shunday afsonalarning aksariyati Navro‘zi olamning vujudga kelishini afsonaviy Jamshid bilan bog‘laydi. Navro‘z haqidagi qadimgi afsonalarda esa bu umumxalq bayramining paydo bo‘lishi ajdodlarimizning bahor fasli va ko‘klamgi dala ishlarining boshlanishiga aloqador udumlariga bog‘lanadi. Navro‘z 21-martdan 22-martga o‘tar kechasi “Qozon to‘la” udumi bilan boshlanadi. Shu oqshomda kechasi bilan ko‘pchilik bo‘lib sumalak va halim ham pishirilgan. Bu taomlar qozoni ertasiga ochilgan. Navro‘z “qozon to‘ladigan”, ya’ni qut-baraka tantana qiladigan xalq bayramidir. Navro‘zda qozon-qozon sumalaklar qaynashi — to‘kin-sochinlik, dalalar serhosilligi, mevaga to‘la bog‘lar sahovatidan dalolat beradi.

Savol va topshiriqlar:

1. Matnni ifodali o‘qing va mazmunini qisqacha gapirib bering.
2. Notanish so‘zlarni ajrating va o‘quv tilingizga tarjima qiling.
3. Navro‘z nima uchun aynan 21-mart sanasida nishonlanadi?
4. Navro‘zda pishiriladigan qanday milliy taomlarni bilasiz?
5. „Qozon to‘la“ udumining ma’nosi nima?
6. Matn tarkibidagi qo‘sh undosh va qator undoshli so‘zlarni ikki ustunga ajrating va imlosini eslab qoling.

Olmosh va uning uslubiy xususiyatlari

Olmosh	(Местоимение)
Ot, sifat, son o'rnida qo'llaniladigan so'zlar turkumiga <i>olmosh</i> deyiladi. Olmosh quyidagi turlarga bo'linadi: 1. Kishilik olmoshlari: <i>Men, sen, u; biz, siz, ular. Bular shaxs olmoshlari ham deyiladi; Eski tilimizda ham, hozir ham ba'zan juda ko'tarinki, tantanavor nutqda kamtarlik uchun, men kishilik olmoshi o'rnida kamina, ba'zan faqir, so'zlari qo'llanadi</i> 2. O'zlik olmoshi: <i>o'z. U shaxs ma'nosini ta'kidlaydi</i> 3. Ko'rsatish olmoshlari: <i>u, bu, shu, mana, anashu, ana u, mana shu; huv</i> 4. So'roq olmoshlari: <i>hamma so'roq so'zlar kiradi.</i> 5. Belgilash olmoshlari: <i>hamma, barcha, ba'zi, har, har bir, har kim, har</i>	Часть речи, которая употребляется вместо существительного, прилагательного и числительного, называется <i>местоимением</i>. Местоимения делятся на следующие разряды: 1. Личные местоимения: я, ты, он; мы, вы, они; 2. Возвратное местоимение: сам... 3. Указательные местоимения: тот... 4. Вопросительные местоимения: (все вопросительные слова) 5. Определительные местоимения. 6. Отрицательные местоимения образуются путём употребления слова <i>хеч</i> перед вопросительными местоимениями. 7. Неопределенные местоимения. Неопределенные местоимения обра-

<i>narsa, ba'zan.</i> 6. Bo'lishsizlik olmoshlari: So'roq olmoshlaridan oldin <i>hech</i> so'zini ishlatish bilan yasaladi. 7. Gumon olmoshlari. Gumon olmoshlari so'roq olmoshlaridan oldin <i>-alla</i> ulardan keyin <i>-dir</i> qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi: allakim, allanima, kimdir, nimadir;	зуются путём присоединения к вопросительным местоимениям: Приставки <i>-алла</i>; аффикса- <i>dur</i>.
--	---

“O‘zbek tili” fanidan amaliy mashg‘ulot.

MAVZU: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi. (2 SOAT)

Reja:

Og‘zaki nutq: Mavzuga oid matnni o‘qib tushunish. Matndagi termin va iboralarni ma’nosini izohlash. Matnga munosabat bildirib so‘zlash.

Yozma nutq: Universitet ARM haqida matn tuzish. Elektron kutubxona bilan ishlash bo‘yicha tavsiyalar yozish. Badiiy asarlarga bag‘ishlangan internet saytlarining ro‘yxatini tuzish.

Grammatika: Yordamchi so‘z turkumlari va ularning xususiyatlari.

Qo‘llanadigan zamonaviy pedagogik texnologiyalarning "Klaster", "Bumerang", "Yelpig‘ich" hamda "Muammoli ta‘lim" texnologiyasining "Munozarali dars" metodi, shuningdek, o‘zbek xalqining tarixiy, madaniy – ma’rifiy qadriyatlariga doir slaydlardan foydalanish, savol-javob, test yechish, didaktik va rolly o‘yin usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY KUTUBXONASI

1870-yilda asos solingan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 20-fevraldagi PF-3029-son “Ilmiy-tadqiqot faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoniga muvofiq Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Respublikasi Davlat kutubxonasi va Respublika ilmiy-texnika kutubxonasi negizida tashkil qilingan Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi uzoq tarixga ega. Turkiston general gubernatori K.P.Kaufman 1867-yil 16-avgustda Xalq maorifi vazirligi, Fanlar akademiyasi, Ommaviy kutubxonaga, Geografiya jamiyatiga, Rossiya Bosh shtabiga kutubxona tashkil etishga va kitob omborlaridan dublet nusxali nashrlarni berish bilan yangi kutubxona asosini yaratishga yordam berishni so‘rab murojaat qildi. Shu davr kutubxona tarixining boshlanish davri edi. 1870-yil mayida bo‘lajak Toshkent ommaviy

kutubxonasining yadrosini tashkil qilgan 2200 dan ko‘proq jild (200 nomdagi) nashr yig‘ilgan edi, bu ommaviy kutubxonani ochishga imkon berdi. O‘lkaning katta bilimdoni va kuchli bibliofil, kutubxonaning birinchi direktori N.V.Dmitrovskiy (1841– 1910) o‘zining serg‘ayrat faoliyati bilan Toshkent ommaviy kutubxonasi tarixida uning ravnaqi uchun muhim rol o‘ynadi.

Kutubxona faoliyat ko‘rsata boshlagan davrda kitobxonlarning asosiy qismini harbiylar tashkil etgan. Kutubxona Markaziy Osiyo mintaqasidagi yirik va qadimgi kitob saqlash maskanlaridan biri bo‘lib, 28 nomdagi turli noan‘anaviy xizmatlarni ko‘rsatadi. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi axborot va madaniy-ma‘rifiy muassasa bo‘lib, kutubxonachilik, bibliografik, ilmiy tadqiqot, ilmiy-metodik va axborot faoliyatini olib boradi. Kutubxona fondi mazmunan universal milliy va xorijiy matbuotning noyob to‘plamidir. Kutubxona faoliyatining bosh maqsadi, butun insoniyat bilimini aks ettirgan, avvalo, O‘zbekistonga va uning milliy manfaatlariga taalluqli hujjatlarning universal fondini yig‘ish, saqlash hamda jamiyat foydalanishi uchun taqdim etishdir.

Noyob va nodir nashrlar fondi kutubxona kitob kolleksiyasining faxridir, u 250 mingdan ortiq nashrdan iborat. Ularning 15 mingdan ortig‘i nodir kitoblar hamda qo‘lyozmalardir. Kutubxonaning o‘ta noyob to‘plamida O‘rta Osiyoning 1917-yilgacha bo‘lgan tarixi, etnografiyasi, madaniyati va geografiyasiga oid o‘ziga xos ensiklopediya bo‘lgan 594 tomlik noyob “Turkiston to‘plami” hamda A.P.Kun tuzgan 4 qismdan iborat 10 tomlik 1200 noyob fotosuratlarini o‘z ichiga olgan Turkiston o‘lkasi aholisining turmush tarzi, urf-odatlarini to‘g‘risidagi “Turkiston albomi” alohida o‘rin egallaydi.

Buyuk ajdodlarimiz Al-Buxoriy, At-Termiziy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Al-Xorazmiy, Al-Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Bobur asarlari kutubxona fondida ko‘z qorachig‘idek saqlanmoqda. Cho‘lpon, Fitrat, U.Nosir, Hamza, G‘.G‘ulom, A.Qahhor va boshqa ijodkorlarning hayotligida chop etilgan asarlarning ilk nashrlari, rus adiblari A.S.Pushkin, L.N.Tolstoy, A.P.Chexov, A.N.Tolstoylarning asarlari bebahodir.

Xorijiy tillardagi adabiyotlar fondi 75 dan ziyod tillardagi ijtimoiy-siyosiy, gumanitar, tabiiy-ilmiy va texnika masalalariga oid nashrlar bo‘lib, bugungi kunda 350 mingdan ortiq nusxani tashkil etadi.

Kutubxonaning San‘at bo‘limi o‘ziga xos notali-musiqaviy asarlar to‘plamini, o‘zbek klassik va jahon musiqasi gramplastinka yozuvlarini, 150 mingdan ortiq tasviriy va amaliy san‘at nashrlarini jamlagan.

Texnikaga doir adabiyotlar (2 mln.dan ortiq nusxada) ham mazmuniga ko‘ra o‘ziga xos bo‘lib, me‘moriy-texnik hujjatlar, sanoat kataloglari (qog‘ozda) to‘plami (33700 nusxadan ortiq)dir.

Avtomatlashtirish yangi axborot texnologiyalari bo'limi yagona avtomatlashgan kutubxona tizimini qo'llaydi va rivojlantiradi, elektron katalog hamda elektron ma'lumotlar bazasini yaratishda metodik yordam beradi.

Kutubxona o'z nashriyot va bosmaxonasiga ega bo'lib, noshirlik hamda matbaa faoliyati bilan shug'ullanadi. 1988-yildan kutubxonachilik jarayonini avtomatlashtirishga, 1999-yildan Rossiya Davlat Ilmiy texnika kutubxonasining IRBIS avtomatlashtirilgan axborot dasturidan foydalangan holda vatanimiz va chet el yangi nashrlarining elektron katalogini yaratishga kirishildi. Kutubxonaning elektron katalogi bugungi kunda 25 mingdan ortiq yangi adabiyotlarning bibliografik yozuvlari va davriy nashrlarning analitik yozuvlarini saqlaydi. Kutubxona o'z ma'lumotlar bazasini yaratmoqda va "Current Content", "MicroMedex", "Medline", EBSCO va ma'lumot bazalari bilan ishlash imkoniyatidan unumli foydalanmoqda.

Kutubxona 1923-yildan boshlab bosma asarlardan majburiy nusxa ola boshlagan. 1948-yilda kutubxonaga Alisher Navoiy nomi berilgan.

Kutubxona ko'plab xalqaro tashkilotlar va jamg'armalar bilan, shuningdek, O'zbekistonda akkreditatsiya qilingan chet mamlakatlarning elchixonalari bilan mustahkam ijodiy aloqalar o'rnatgan bo'lib, madaniyati, diniy qarashlari va tarixiy ildizlari turlicha bo'lgan xalqlarning yaqinlashishiga o'zining hissasini qo'shmoqda.

Hozirgi kunda kutubxona fondi jahonning 75 tillaridagi deyarli 10 million nusxaga yetgan. Kutubxona respublikamizdagi barcha kutubxonalarga kutubxonashunoslik, bibliografiyashunoslik va kitobshunoslik sohalari bo'yicha metodik rahbarlik qiladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Matnni ifodali o'qing.
2. Matndan atash ma'noga ega bo'lmagan so'zlarni toping.
3. Matnda qo'llanilgan bog'lovchilarni aniqlang va daftaringizga ko'chiring.
4. Matnda ishlatilgan ko'makchi va yuklamalarni toping va daftaringizga ko'chiring.
5. Matnning oxirgi xatboshisini o'quv tilingizga tarjima qiling.

1-kurs talabalari uchun "O'zbek tili" fanidan amaliy mashg'ulot. MAVZU:ADABIYOT – TARBIYA VOSITASI (2 SOAT)

Reja:

1. Matbuot yangiliklari. **Adabiyot – tarbiya vositasi.**

2. Og'zaki: Mavzuga oid matn ustida ishlash. Matndagi asosiy fikrni ajratib so'zlab berish.

3. Yozma: Badiiy asar qahramoni o'quvchini qanday tarbiyalashi haqida fikr bildirish va unga misollar keltirish. Mashhur adabiy qahramonlar haqida taqdimot tayyorlash. Adabiyot haqidagi hikmatli so'zlardan namunalar yozish.

Gramatika: Nutq uslublari. Badiiy uslub va uning xususiyatglari.

Qo'llanadigan zamonaviy pedagogik texnologiyalarning "Klaster", "Bumerang", "Yelpig'ich" hamda "Muammoli ta'lim" texnologiyasining "Munozarali dars" metodi, shuningdek, o'zbek xalqining tarixiy, madaniy – ma'rifiy qadriyatlariga doir slaydlardan foydalanish, savol-javob, test yechish, didaktik va rolli o'yin usullarini qo'llash nazarda tutiladi.

Adabiyot – tarbiya vositasi

Adabiyot (arab. — adab so'zining ko'pligi) — 1. Fan va amaliyotning biror sohasidagi yutuqlarni umumlashtiruvchi asarlar majmui (texnikaviy A., qishloq xo'jaligi A.i, siyosiy A. va boshqalar). 2. San'atning bir turi (badiiy A. deb ham ataladi); voqelikni so'z yordamida obrazlar orqali aks ettiradi. A. avval og'zaki bo'lgan, yozuv paydo bo'lgandan so'ng yozma shaklga o'tgan. A. so'z orqali insonning his-tuyg'ularini keng va chuqur aks ettirish imkoniyatiga ega, shuning uchun ham u san'atning eng ommaviy turi hisoblanadi.

Bu davr A.ida tasvirlanayotgan inson o'zining bashariyat, Vatan, el-yurt oldidagi mas'uliyatini chuqur his etgan holda namoyon bo'lmoqda. Istiqlol A.i mavzu nuqtai nazaridan ham, badiiy tasvir tamoyillari jihatidan ham ilgarigi qoliplarga sig'maydigan, tabiiy ravishda rivojlanayotgan yangi estetik hodisadir. U odamlarga yo'l ko'rsatishni zimmasiga olmaydi, o'quvchiga aql o'rgatmaydi, hayotiy muallimlikni da'vo qilmaydi, balki tasvirning nozikligi, ifodalarning favquloddaligi, obrazlarning kutilmaganligi bilan o'quvchida munosabat uyg'otadi. Bu A.ning jozibasi zohirda emas, botinda — matn zamiriga joylangan. Istiqlol davri o'zbek A.i chinakamiga rang-barang A.dir. Uning bag'rida turli-tuman ijodiy tajribalar kechadi, ijodiy yo'nalish va oqimlar kesishadi va shu orqali cheksiz olam bag'rida kechayotgan insonning murakkab "men"i kashf etiladi.

TOPSHIRIQLAR

1. Matnni tarjima qiling.
2. Matndagi unlilarni talaffuzi va imlosiga ko'ra tahlil qiling.
3. Matn yuzasidan savollar tuzing.
4. Matn mazmunini o'zbek tilida va ona tilingizda gapirib bering.

BADIIY USLUB

Badiiy asarlarni ko'p o'qigansiz. Har bir tilning butun imkoniyatlari, bor boyligi, jozibasi badiiy asarlar orqali namoyon bo'ladi. Badiiy asarlarning bayon qilish uslubi badiiy uslub hisoblanadi. Badiiy uslubning o'ziga xos xususiyati shundaki, unda adabiy tilning barcha imkoniyatlarini o'z ichiga olish bilan birga, o'zbek shevalariga, kasb-hunarga doir leksik birliklar, bugungi

kundalik iste'moldan chiqib ketgan tarixiy so'zlar ham personajlar nutqi orqali ishlatila beradi. Badiiy uslub o'quvchida estetik zavq uyg'otadi. Demak, badiiy uslub orqali ro'yobga chiqqan nutq ma'lum voqea-hodisa haqida axborot berish (kommunikativ vazifani bajarish)dan tashqari, o'quvchiga ta'sir qilish (ekspressiv) vazifasini ham bajaradi. Badiiy uslub uchun obrazlilik, tasviriy ifoda vositalariga boylik xosdir.

Badiiy uslubdan boshqa barcha uslublar ijtimoiy hayotning ma'lum sohasi doirasida chegaralangandir. Badiiy uslub, ulardan farqli ravishda, inson amaliy hayotining barcha tomonlarini qamrab oladi. Shuning uchun unda ilmiy uslubning ham, publitsistik uslubning ham, so'zlashuv uslubining ham, rasmiy uslubning ham elementlari namoyon bo'laveradi.

Savol va topshiriqlar

1. Badiiy uslub deganda qanday uslubni tushunasiz?
2. Badiiy uslubning o'ziga xos jihatlari bayon qiling.

“O‘zbek tili” fanidan amaliy mashg‘ulot.
MAVZU: Men sevgan asar. (2 SOAT)

Reja:

Og‘zaki nutq: Sevimli asari haqida so‘zlab berish. Zamonaviy o‘zbek adabiyoti haqidagi ma’lumotlarni gapirib berish. Mashhur o‘zbek shoirlari ijodidan namunalar yod olish.

Yozma nutq: “Adabiyotning kishi ruhiy dunyosiga ta’siri” mavzusida esse yozish.

Grammatika: Badiiy tasviriy vositalar.

Qo‘llanadigan zamonaviy pedagogik texnologiyalarning "Klaster", "Bumerang", "Yelpig‘ich" hamda "Muammoli ta’lim" texnologiyasining "Munozarali dars" metodi, shuningdek, o‘zbek xalqining tarixiy, madaniy – ma’rifiy qadriyatlariga doir slaydlardan foydalanish, savol-javob, test yechish, didaktik va rolli o‘yin usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Badiiy tasviriy vositalar

Har bir ijodkor qalam tebratar ekan badiiy ifodani mazmunan quyuqlashtirish, uni his-hayajonlar bilan boyitish uchun so‘z salohiyatiga tayanadi. Har bir so‘z shakl-shamoyili, rang-bo‘yog‘i, o‘z salmog‘i va ohangiga ega. Har bir ijodkor oddiy so‘zlovchidan so‘z sohibiga, undan esa so‘z san’atkoriga ko‘tarilishi uchun “so‘z sezgisi”, “so‘z jozibasi”, “so‘z sehri” kabi bosqichlarni egallashi lozim. Shoir qalam tebratar ekan uning ixtiyorida bir necha vositalar mavjud. Bu vositalarning eng muhimlari badiiy tasvir vositalari, she’riy san’atlardir.

She'riy san'atlar yillar mobaynida adabiyotshunosligimizda shakllanib, "ilmi bade'" nomini olgan badiiylik ilmining asoslaridir. Ular asar jozibasini ko'rsatish va shoir mahorat qirralarini ochishga xizmat qiladi. Yozuvchilar tasviriy vositalar yordamida o'zlari tasvirlayotgan narsa hodisalarning ba'zi bir tomonlarini, yoki belgisini aniq va qisqa xarakterlab berishga erishadilar. Yozuvchi har bir hodisani aks ettirganda, uning muayyan sharoitda muhim hisoblangan sifatini ajratib ko'rsatadi. Badiiy tasviriy vositalarning tazod, tashbeh, tashxis, talmeh, tajnis, irsoli masal, ishtiyoq, mubolag'a, sifatlash, anafora, litota va boshqa shu kabi turlari mavjud.

Tazod arabcha so'z bo'lib, qarshilantirish usulining klassik adabiyotda qo'llangan bir ko'rinishi. Tazodda qarama-qarshi qo'yilgan ikki tomon ayni zamonda uzviy ravishda bir-biriga bog'lanib keladi. Qarshilantirilayotgan narsa, belgi-xususiyat va holatni yorqin va ta'sirchan ifodalashga xizmat qiladi:

Sendek menga bir yori *jafokor* topilmas,
Mendek senga bir zori *vafodor* topilmas. (Bobur)

Badiiy adabiyotda keng qo'llaniladigan tasviriy-ifodaviy vositalardan biri o'xshatishdir. Yozuvchilar muayyan narsa-hodisa yoki uning asosiy belgilari haqida kitobxon ongida aniq tasavvur hosil qilish maqsadida uni qandaydir boshqa, tanishroq narsa-hodisaga yohud uning belgilariga o'xshatadilar. Mumtoz adabiyotda o'xshatish *tashbih* deb ham yuritilgan. O'xshatish tasvirlanayotgan narsa-hodisa yoki uning asosiy belgilarini yorqinroq, aniqroq qilib ko'rsatishga xizmat qiladi. O'quvchilarga Hamid Olimjonning "Zaynab va Omon" asarini o'tish jarayonida unda yozuvchi bir necha tasviriy vositalar, jumladan, o'xshatishlardan o'rinli fodalanganligini aytish lozim. Masalan:

Qushday yengil uchar edilar,
Oq bulutday ko'char edilar.

O'xshatishlardan ketma-ket foydalanilsa, *tashbihi musalsal* deb ataladi. "Zaynab va Omon"da tashbihi musalsal bir necha o'rinlarda uchraydi:

Daryo tinmay solardi shovqin,
Qiz ko'ziday qora edi tun.
Qiz qalbiday pok edi havo,
Qiz qalbiday sevgidan davo.

“O‘zbek tili” fanidan amaliy mashg‘ulot.
MAVZU: Ommaviy axborot vositalari. (2 SOAT)

Reja:

Og‘zaki nutq: Mavzuga oid matnni o‘qib tushunish. Matndagi termin va iboralarni ma’nosini izohlash. Matnga munosabat bildirib so‘zlash.

Yozma nutq: Ommaviy axborot vositalarining faoliyati haqida fikr bildirish. “XXI asrda axborotning o‘rni” mavzusida esse yozish.

Grammatika: Publitsistik uslub va uning xususiyatlari.

Qo‘llanadigan zamonaviy pedagogik texnologiyalarning "Klaster", "Bumerang", "Yelpig‘ich" hamda "Muammoli ta’lim" texnologiyasining "Munozarali dars" metodi, shuningdek, o‘zbek xalqining tarixiy, madaniy – ma’rifiy qadriyatlariga doir slaydlardan foydalanish, savol-javob, test yechish, didaktik va rolli o‘yin usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI

Ommaviy axborot vositalari jamiyat ko‘zgusi, millatning yuzi. Matbuotga qarab jamiyatning buguni va ertasi haqida tasavvur hosil qilish, ma’lum xulosalarga kelish mumkin. Jamiyatda oila institutini yana-da mustahkamlash, xonadonlarda tinchlik-xotirjamlik, ahillik va o‘zaro hurmat muhitini yaratish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirish, ularni davlat va jamiyat boshqaruvidagi o‘rnini kuchaytirish, ayollarning ijodiy va intellektual huquqlarini ro‘yobga chiqarishda matbuot nashrlari o‘ziga xos minbardir.

2017-yil 1-sentabr holatiga ko‘ra respublikada 1564 ta ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatiga olingan bo‘lib, ularning 694 tasini gazetalar, 329 tasini jurnallar, 14 tasini axborotnoma-byulletenlar, 68 tasini televidenielar, 37 tasini radiolar, 4 tasini axborot agentliklari, 418 tasini ommaviy axborot vositasi sifatida davlat ro‘yxatiga olingan veb-saytlar tashkil etadi. Respublika bosma OAVlarining bir martalik adadi 3-5 mln. nusxani, telekanallarning bir sutkalik efir hajmi 911 soatni, radiokanallarning bir sutkalik efir hajmi 616 soatni (1 iyul holatiga) tashkil qilmoqda.

Axborot vositalari nafaqat soni, ixtisoslashuvi, hajmi, matbaa sifati jihatidan ham rivojlanib bormoqda. Davriy nashrlarning 50 dan ortig‘i xotin-qizlar huquqlarini ta’minlashga ixtisoslashgan. Yurtimizda nashr etilayotgan adabiyotlarning har uchtdan bittasi bevosita jamiyatda ayollarning o‘rni, salomatligi, ona va bolaga bag‘ishlangan nashrlardir. Shuningdek, matbuot, televidenie va radiokanallarning global internet tarmog‘iga kirishiga keng yo‘l ochib berilishi bir tomondan mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar

jarayonini yoritishda muhim omil bo'layotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan aholining turli manbalardan xolis axborot olish imkoniyatini kengaytirmoqda.

Hozirgi globallashuv asrida turli ijtimoiy tarmoqlar orqali axborot almashinuvi jadal kechayotgani jamiyatning faol qatlami bo'lgan xotin-qizlarning ong-u shuurida kuchli aks-sado bermoqda. Bu borada xotin-qizlarga mo'ljallangan ommaviy axborot vositalari faoliyatini yana-da takomillashtirish, qizlarimizni vatanparvarlik, milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash bilan bir qatorda turli ma'naviy tahdidlar, axborot xurujlarining salbiy ta'siridan himoyalashga qaratilgan chora-tadbirlarni hayotga izchil tatbiq etishni taqozo etmoqda.

Ommaviy axborot vositalari faoliyatini tartibga soluvchi quyidagi qonunlar qabul qilindi:

- "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi Qonun (2007-yil 15-yanvar);
- "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida"gi Qonun (1997-yil 24-aprel);
- "Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida"gi Qonun (1997-yil 24-aprel);
- "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi Qonun (2002-yil 12-dekabr);
- "Noshirlik faoliyati to'g'risida"gi Qonun (1996-yil 30-avgust);
- "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonun (2006-yil 20-iyul);
- "Reklama to'g'risida"gi Qonun (1998-yil 25-dekabr);
- "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonun (1993-yil 7-may);
- "Telekommunikatsiyalar to'g'risida"gi Qonun (1999-yil 20-avgust).

O'zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalari huquqiy asosining yaratilishida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asosiy manba sifatida tayanildi. Konstitutsiyamizning 67-moddasida "Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to'g'riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar. Senzuraga yo'l qo'yilmaydi" deb belgilab qo'yilgani ommaviy axborot vositalarining mutlaq qonuniy erkinligining kafolati hisoblanadi. Ushbu qoidaga muvofiq O'zbekiston Respublikasi "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi Qonunining 7-moddasida "O'zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalarini senzura qilishga yo'l qo'yilmaydi. E'lon qilinayotgan xabar va materiallar oldindan kelishib olinishini, shuningdek, ularning matni o'zgartirilishini yoki butunlay nashrdan olib qolinishini (efirga berilmasligini) talab qilishga hech kimning haqqi yo'q" deb belgilab qo'yilgan.

Savol va topshiriqlar:

1. Matnni ifodali o‘qing.
2. Matndan atoqli otlarni toping va daftaringizga ko‘chiring.
3. Matnda qo‘llanilgan yuklamalarni aniqlang.
4. Matnda ishlatilgan olmoshlarni toping va daftaringizga ko‘chiring.
5. Matn bo‘yicha lug‘at tuzing.

“O‘zbek tili” fanidan amaliy mashg‘ulot. MAVZU: Internet hayotimizda. (2 SOAT)

Reja:

Og‘zaki nutq: Mavzuga oid matnni o‘qish, matndagi termin va iboralarning ma’nosini izohlash.

Yozma nutq: Internet madaniyati haqida matn tuzish. Ta’lim jarayonida eng ko‘p foydalaniladigan internet saytlari ro‘yxatini tuzish va tavsiya qilish.

Grammatika: Og‘zaki-yozma uslub va uning xususiyatlari.
Qo‘llanadigan zamonaviy pedagogik texnologiyalarning "Klaster", "Bumerang", "Yelpig‘ich" hamda "Muammoli ta’lim" texnologiyasining "Munozarali dars" metodi, shuningdek, o‘zbek xalqining tarixiy, madaniy-ma’rifiy qadriyatlariga doir slaydlardan foydalanish, savol-javob, test yechish, didaktik va rolli o‘yin usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Og‘zaki-yozma uslub va uning xususiyatlari

Kundalik hayotda uyda, ko‘cha-ko‘yda, ish joylarida va boshqa joylarda kishilarning bir-biri bilan erkin muloqotga kirishuvi so‘zlashuv uslubi orqali yuzaga chiqadi. Oddiy so‘zlashuv uslubida so‘zlovchi nutq vaziyatidan kelib chiqib, axborot uchun eng kerakli so‘zlarnigina ishlatadi. Qolganlari nutqiy vaziyatdan bilinib turadi yoki imo-ishora va mimikalar bilan to‘ldiriladi. Masalan, kinoteatr chiptaxonasidan chipta olish uchun so‘raysiz:

- Beshinchidan ikkita (Menga beshinchi qatordan ikkita chipta bering deb o‘tirmaysiz).

So‘zlashuv uslubining o‘zi ikki turga bo‘linadi:

- 1) adabiy so‘zlashuv uslubi; 2) oddiy so‘zlashuv uslubi.

Ma’lum adabiy til me’yorlariga bo‘ysungan, tartibga solingan so‘zlashuv uslubiga adabiy so‘zlashuv uslubi deyiladi. Adabiy tilning og‘zaki shakli adabiy so‘zlashuv uslubi orqali amal qiladi. Radioeshittirishlari, televideniye ko‘rsatuvlari shunday uslubda olib boriladi. Adabiy til me’yorlariga doimo amal qilavermaydigan erkin muloqot shakli oddiy so‘zlashuv uslubi sanaladi.

Oddiy soʻzlashuv uslubida nutqiy vositalarni tejashga intilish bilan birga, bunga teskari boʻlgan nutqiy ortiqchalikka ham yoʻl qoʻyiladi. Oddiy soʻzlashuv uslubida gap boʻlaklarining tartibi ham ancha erkin boʻladi. Baʼzan shevaga xos soʻzlar, qoʻpol, dagʻal soʻzlar ham kuzatiladi, lekin bularni qoʻllash soʻzlovchining madaniy nutq sohibi emasligini koʻrsatadi. Shuning uchun siz oddiy soʻzlashuv nutqingizda ham oʻzingizning yuksak madaniyatingizni namoyish eting.

“Oʻzbek tili” fanidan amaliy mashgʻulot.
MAVZU: Nutq odobi. (2 SOAT)

Reja:

Ogʻzaki nutq: Mavzuga oid matnni oʻqib tushunish. Matndagi termin va iboralarning maʼnosini izohlash. Matnga munosabat bildirib soʻzlash. Kasbiy faoliyatda nutq madaniyatining ahamiyati haqida gapirib berish.

Yozma nutq: “Mutaxassislik nutq madaniyati” mavzusida matn tuzish. Ish jarayonidagi muomala madaniyati haqidaq ssenari tuzish va uni insseniroyka qilish.

Grammatika: Meʼyor tushunchasi. Nutq meʼyori.

Qoʻllanadigan zamonaviy pedagogik texnologiyalarning "Klaster", "Bumerang", "Yelpigʻich" hamda "Muammoli taʼlim" texnologiyasining "Munozarali dars" metodi, shuningdek, oʻzbek xalqining tarixiy, madaniy – maʼrifiy qadriyatlariga doir slaydlardan foydalanish, savol-javob, test yechish, didaktik va rolli oʻyin usullarini qoʻllash nazarda tutiladi.

Nutq odobi

Nutq odobi — 1) ogʻzaki va yozma adabiy til meʼyorlari (talaffuz, urgʻu, soʻz qoʻllash, grammatika, uslubshunoslik qoidalari)ni egallash, shuningdek, turli aloqa-aralashuv sharoitlarida tilning tasviriy vositalaridan nutqning maqsad va mazmuniga mos ravishda foydalanish mahorati; 2) tilshunoslikning tilni madaniyat quroli sifatida mukammallashtirish maqsadida meʼyorlashtirish (tartibga solish) muammolarini oʻrganuvchi boʻlimi. Gʻarb tilshunosligida umumiy maʼnoda "til madaniyati" termini ham qoʻllanadi. 1-maʼnodagi "Nutq madaniyati" tushunchasi adabiy tilni oʻzlashtirishdagi ikki bosqichni qamrab oladi: a) nutqning toʻgʻriligi va boshqa nutqiy mahorat. Nutqning toʻgʻriligi muayyan tilda soʻzlovchilar va yozuvchilar tomonidan "ideal" yoki umum tomonidan qabul qilingan va anʼanaviy saqlanib kelayotgan odatlar, ibrat va namunalar tarzida idrok etiladigan adabiy meʼyorlarga amal qilishdir. Nutqiy mahorat esa nafaqat adabiy meʼyorlarga amal qilish, balki oʻzaro mavjud boʻlgan variantlardan mazmunan eng toʻgʻri, eng aniq, uslub va vaziyat nuqtai nazaridan eng maqbuli va ifodalisini tanlab olish mahoratidir (Mas, aka — oka — ako; kelyapti — kevotti — kelopti variantlaridan

birining adabiy me'yor sifatida tanlanishi). Yuksak Nutq madaniyatli kishining umumiy yuksak madaniyatini, fikrlash madaniyatini, tilga nisbatan ongli mehr-muhabbatini namoyon qiladi. Bu esa notiqlik san'ati bilan bog'liq.

O'rta Osiyoda hozirgi O'zbekiston hududida notiqlik, ya'ni voizlikning vujudga kelishi va rivojlanishining tarixiy ildizlari juda qadimiydir. Ma'lumki, qadimiy Sharqda, taxminan IX asrgacha voizlik vazifasini shoh, xalifa, sulton, qirol va harbiy sarkardalar bajarganlar. Ular asosan, juma kunlari, hayit, navro'z va boshqa bayram marosimlarida jamoani to'plab, davlat siyosati, tuzumi, fuqarolarning majburiyat va burchlari, jumladan, bahodirlik, itoatkorlik, qonunlarga rioya qilish, boshqa qo'shni mamlakatlardagi vaziyat, dushmanlarning kirdikorlari, mudofaa, o'z ichki, tashqi siyosatlari va boshqalar haqida va'z aytganlar.

TOPSHIRIQLAR

1. Matnni tarjima qiling.
2. Matndagi unlilarni talaffuzi va imlosiga ko'ra tahlil qiling.
3. Matn yuzasidan savollar tuzing.
4. Matn mazmunini o'zbek tilida va ona tilingizda gapirib bering.
5. Matn oxirida keltirilgan she'rni ifodali o'qing, mazmunini hikoya qiling.

Me'yor tushunchasi. Nutq me'yori

Me'yor - jamiyat a'zolari tomonidan qabul qilingan, ma'qullangan va ularga tushunarli bo'lgan til birliklarining nutq jarayonida qo'llanish holati va imkoniyatidir. Me'yor - tilning yashash shaklidir. Til va nutq tizimida me'yor o'ziga xos o'rniga ega. Til material sifatida nutq jarayonida xizmat qila boshlagan lahzalardanoq uni me'yorlashtirish jamiyat ehtiyojiga aylangan va me'yoriy muammolar kun tartibiga qo'yilgan.

Nutq madaniyati to'g'risida gap borar ekan, tabiiyki, nutqda so'zlarning o'rinli va o'rinsiz ishlatilishi to'g'risida ham bahs boradi. Qo'llangan til birligini to'g'ri yoki noto'g'ri deyilganda, albatta, ma'lum bir o'lchovga asoslanamiz. Mana shu o'lchov tilshunoslikda adabiy til me'yori deb yuritiladi.

“O'zbek tili” fanidan amaliy mashg'ulot. MAVZU: Huquqiy madaniyat. (2 SOAT)

Reja:

Og'zaki nutq: Mavzuga oid matnni o'qib tushunish. Matndagi termin va iboralarning ma'nosini izohlash. Matnga munosabat bildirib so'zlash.

Yozma nutq: “Qonunlarni o'rganish va ularga rioya qilish” mavzusida matn tuzish. Umumxalq leksikasiga kirgan huquqiy terminlar lug'atini tuzish.

Grammatika: Rasmiy uslub va uning xususiyatlari

Qo‘llanadigan zamonaviy pedagogik texnologiyalarning "Klaster", "Bumerang", "Yelpig‘ich" hamda "Muammoli ta‘lim" texnologiyasining "Munozarali dars" metodi, shuningdek, o‘zbek xalqining tarixiy, madaniy – ma‘rifiy qadriyatlariga doir slaydlardan foydalanish, savol-javob, test yechish, didaktik va rolli o‘yin usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

HUQUQIY MADANIYAT

Huquqiy demokratiyaga asoslangan fuqarolik jamiyatini barpo etish yo‘lidan bormoqdamiz. Bu esa demokratiyaning qoidalari, prinsiplariga tayanish bilan bir qatorda xalqimizning o‘ziga xos milliy, ma‘naviy xususiyatlarini inobatga olishni taqozo etadi. Kuchli fuqarolik jamiyatiga erishish uchun fuqarolar o‘z huquq va erkinliklarini yaxshi bilishlari zarur. Zero, inson huquqi va asosiy erkinliklari xalqaro huquqning yetakchi tamoyillari sirasiga kiradi. Shu sababli bugungi rivojlangan dunyoda har bir davlat inson huquq va erkinliklarini, xavfsizligini, yashash sharoitini ta‘minlash borasidagi xalqaro miqyosda qabul qilingan hujjatlarni ratifikatsiya qilgan. Bu hujjatlarga og‘ishmay amal qilish esa fuqarolarning huquqiy madaniyati qay darajada shakllanganiga bog‘liq.

Dunyo hamjamiyatida ijtimoiy munosabatlarning jadal rivoji, inson huquqlariga qay darajada amal qilinayotgani mamlakatimiz milliy qonunlariga uyg‘unlashtirib borilyapti. Bu esa o‘z-o‘zidan “inson huquqi madaniyati” tushunchasini shakllantirmoqda. Mazkur tushuncha o‘z ichiga nafaqat inson huquqlarini belgilashni, balki ularni individual va hech qanday ta‘sir choralarisiz amalga oshirishni qamrab oladi. Ya‘ni, inson huquqlariga rioya etilishini davlat yoki nodavlat organlari nazoratisiz, shaxs o‘z xohish-irodasi bilan amalga oshiradi.

“Huquqiy madaniyat deganda “jamiyatning qonunchilik darajasi, mavjud qonunlardan aholining xabardorlik darajasi, xalqning huquq-normalariga rioya qilishi va ularni bajarmagan shaxslarga nisbatan muvofiqlik bo‘lishi tushuniladi”. Demak, “huquqiy madaniyat” va “huquqiy ong” o‘zaro yaqin tushunchalar bo‘lib, shaxsning huquq-normalariga amal qilishi va ularni qo‘llay olishi hamda huquqbuzarlikdan o‘zini tiyib turishi bilan belgilanadi. Shuningdek, huquq normalarini bajarmagan shaxslarga nisbatan qarshi tura olish ham huquqiy madaniyatning belgisi hisoblanadi. Xullas, huquqiy ong huquqiy bilimlarga ega bo‘lishni anglatrsa, huquqiy madaniyat unga rioya etish va uni ta‘minlashga xizmat qilishdir.

“Inson huquqi madaniyati” tushunchasini to‘la tushunish uchun uning bir necha muhim belgilarini bilish lozim. Bular orasida inson huquqi madaniyatining tarkibiy elementlari – “bilish” va “qadriyat” o‘ziga xos xususiyatga ega. Bilish insonning huquq va majburiyatlarini yaxshi anglashini, huquqiy madaniyatga ega

bo'lishini ifodalaydi. Butun borliqni anglash inson ongida voqelikni to'g'ri tushunish orqali yuz beradigan jarayondir. Bilish kerakli axborotlarni taqqoslash orqali amalga oshadi. Demokratik qadriyat hisoblangan inson huquqi madaniyati esa obyektiv va subyektiv, mutlaq va nisbiy, aniq tarixiy va umuminsoniy murakkab dialektik munosabatdagi vositalar sifatida namoyon bo'ladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Matnni ifodali o'qing.
2. Matndan rasmiy uslubga xos bo'lgan so'zlarni toping.
3. Matnda qo'llanilgan hozirgi zamon fe'llarini toping va daftaringizga yozing.
4. Matnda qo'llanilgan belgi bildiruvchi so'zlarni aniqlang va daftaringizga ko'chiring.
5. Matn mazmunini so'zlab bering.

Rasmiy uslub va uning xususiyatlari

Huquqiy qonunchilik va ish yuritish munosabatlari doirasida qo'llaniluvchi nutq uslubi rasmiy uslub hisoblanadi. Rasmiy uslub quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Sof qonunchilik uslubi (qonun, farmon, fuqarolik va jinoiy aktlar, nizomlar uslubi).
2. Idoraviy-devonxona uslubi (buyruq, ariza, talabnoma, bildirgi, tavsifnoma, tarjimai hol, ishonchnoma, dalolatnoma); diplomatik uslub (nota, bayonotnoma, bitim, konvensiya va boshqalar).

Rasmiy uslub deyarli yozma shaklda ro'yobga chiqadi. U har qanday tasviriy vositalardan, obrazlilikdan xoli bo'ladi. Bunday uslubda tilning ikki vazifasi — axborot uzatish va da'vat etish, buyurish vazifasi amalga oshadi. Masalan, ma'lumotnomada axborot berilsa, buyruqda da'vat etish, axborot o'z aksini topgan bo'ladi. Rasmiy uslubga mansub har qaysi turning o'ziga xos leksik, grammatik xususiyatlari mavjud. Masalan, qaror, farmonlarning o'ziga xos tomoni shundaki, bunday matnlardagi gaplarning kesimi III shaxs majhul nisbatidagi fe'llar orqali ifodalanadi (ogohlantirilsin, topshirilsin kabi).

Rasmiy ish qog'ozlarining sintaktik tuzilishi qat'iy qoliplarga bo'ysunadi. Masalan, "Ushbu ma'lumotnomani ko'rsatuvchi G'.Mo'minov haqiqatan ham O'zbekiston Milliy universitetining matematika fakultetida dekan o'rinbosari lavozimida ishlaydi..."

“O‘zbek tili” fanidan amaliy mashg‘ulot.
MAVZU: XXI asrda innovatsiyalar. (2 SOAT)

Reja:

Og‘zaki nutq: Mavzuga oid matnni o‘qish, matndagi termin va iboralarning ma’nosini izohlash.

Yozma nutq: “Zamondoshlarimizning kashfiyotlari” mavzusida taqdimot tayyorlash.

Grammatika: Ilmiy uslub va uning xususiyatlari.

Qo‘llanadigan zamonaviy pedagogik texnologiyalarning "Klaster", "Bumerang", "Yelpig‘ich" hamda "Muammoli ta’lim" texnologiyasining "Munozarali dars" metodi, shuningdek, o‘zbek xalqining tarixiy, madaniy – ma’rifiy qadriyatlariga doir slaydlardan foydalanish, savol-javob, test yechish, didaktik va rolli o‘yin usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

XXI ASRDA INNOVATSIYALAR

Bugungi kunda har qanday davlatning barqaror taraqqiyoti asosini innovatsion faoliyat tashkil etadi. Tarix shundan dalolat beradiki, inson o‘zining aql-zakovati bilan dastlabki mehnat qurollarini o‘ylab topishdan, algoritm va nanozarralar, zamonaviy innovatsion kompyuter, quyosh va boshqa yuqori texnologiyalarni kashf etishgacha bo‘lgan murakkab yo‘lni bosib o‘tdi.

Ilg‘or xorijiy tajriba, jahon fanining zamonaviy yutuqlari, innovatsion g‘oyalar, ishlanmalar va texnologiyalar asosida iqtisodiyotning barcha tarmoqlari va ijtimoiy sohani jadal innovatsion rivojlantirishni ta’minlash maqsadida, shuningdek, 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi №PF-5264-son “O‘zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni hamda 2017-yil 30-noyabrdagi №PQ-3416-son O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi tashkil etildi. (Ma’lumot O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligining rasmiy - <http://mininnovation.uz/oz/menu/o-ministerstve> saytidan olindi). 2018-yil yurtimizda “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili” deb e’lon qilindi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda, “bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tmoqdamiz. Bu bejis emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda

kim yutadi? Yangi fikr, yangi g'oyaga innovatsiyaga tayangan davlat yutadi. Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak”.

XXI asr - texnika va texnologiya asri. Bu nom bejizga berilmadi. Atrof-muhitda sodir bo'ladigan hodisalar uni o'rganishga bo'lgan qiziqishni yana-da orttirdi. Bu qiziqish ortidan ilm-fan sohasida misli ko'rilmagan kashfiyotlar paydo bo'ldi va paydo bo'lmoqda. Kundan kunga kishini hayratga soladigan yangiliklar yaratilmoqda. Innovatsion texnologiyalar asosida mantiqiy fikrlash uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirishning eng muhim omillaridan hisoblanadi. Ular ta'lim jarayonida ma'lum o'zgarishlarga, ta'lim mazmuni, sifati boyishiga va samarali tashkil etilishiga sabab bo'ladigan turli tashabbus va yangiliklarning yaxlit tizimida namoyon bo'ladi. Ilm, fan va texnikaning jadal rivojlanishi, yangi texnika va texnologiyalarning jamiyatning barcha qatlamlariga kirib borishi, axborot texnologiyasi vositalarining barcha davlat va nodavlat muassasalarida qo'llanilishi o'qituvchilardan uzluksiz bilim olishni talab qilmoqda. O'qituvchilarning faoliyati ko'p qirrali bo'lib, ular boshqaruvchi, muloqot qiluvchi, yo'naltiruvchi, tashkil etuvchi va baholovchi rollarini amalga oshirishlari kerak bo'ladi. Bugungi kunda maktab va oliy ta'lim tizimidagi an'anaviy va ommaviy ko'rinishdagi ta'lim va tarbiya jarayonlari o'rniga ta'lim muassasalari rivojlanishida o'ziga xos yangilik bo'lib innovatsion jarayonlar kirib kelmoqda.

Innovatsiya (in-“lik”, novus-“yangi”) yangilik kiritish, yangilik degan ma'noni anglatadi. Ta'lim sohasi – mamlakatimizda birinchilardan bo'lib faol innovatsion harakatni boshladi. Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar o'quvchilar egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. O'qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. “Eshitganimni yoddan chiqaraman, ko'rganimni eslab qolaman, mustaqil bajarsam tushunib yetaman”,- buyuk faylasuf Konfutsiyga tegishli bu hikmatli so'z yuqoridagi fikrlarimizga dalildir.

Savol va topshiriqlar:

1. Matnni o'qing va og'zaki so'zlab bering.
2. Matndan ilmiy uslubga xos bo'lgan atamalarni toping.
3. Matndan ijodiy foydalangan holda turli sohalarga oid innovatsiyalar haqida gapirib bering.

4. Matnda qo‘llanilgan ilmiy uslubga xos bo‘lgan gaplarni ajrating.
5. Matn bo‘yicha lug‘at tuzing.

Ilmiy uslub va uning xususiyatlari

Ilm-fan sohasida qo‘llaniluvchi nutq uslubi ilmiy uslub hisoblanadi. Ilmiy uslub daliliy ma’lumotlar asosida chiqarilgan ilmiy xulosalarga (ta’rif-qoidalarga) ega bo‘lish, atamalarning keng qo‘llanilishi bilan boshqa uslublardan farq qiladi. Ilmiy uslub ham o‘z ichida ikki guruhga bo‘linadi:

- 1) sof ilmiy uslub; 2) ilmiy-ommabop uslub.

Sof ilmiy uslub muayyan fan sohasidagi uslubda fanning ma’lum sohasiga doir atamalar keng qo‘llaniladi.

Ilmiy-ommabop uslubda esa fan yutuqlarini keng ommaga yetkazish maqsad qilinadi. Shuning uchun bunday uslub publitsistik uslubga yaqinroq bo‘ladi. Ma’lum fan sohasiga doir atamalar qo‘llanilsa ham, lekin bu atamalar xalqqa tushunarli bo‘lishi uchun izohlanadi. Sof ilmiy uslubning o‘zi ham fan tarmoqlari bo‘yicha bir-biridan farqlanadi. Masalan, matematika uslubi bilan tarix yoki adabiyotshunoslik uslubi bir xil emas. Tarix va adabiyotshunoslik uslubi publitsistik uslubga yaqinroq tursa, matematika fanining bayon qilish uslubida eng yuqori darajadagi mavhumlashtirish, turli xil formulalar, shakliy ifodalar orqali ilmiy xulosalarni bayon qilish kuchli bo‘ladi.

MUSTAQIL O'RGANISH UCHUN MATNLAR

T O ' M A R I S

Eng qadimgi zamonlarda Araks (Amudaryo) yoqalarida boshqa qabilalar qatori massagetlar ham yashar edi. Ularga marhum podshoning bevasi - malika To'maris boshchilik qilar edi. Tabiati go'zal bu yurtga va uning xalqiga egalik qilmoqchi bo'lgan Eron shohi Kir malika To'marisga uylanmoqchi bo'ladi. To'maris uning asl maqsadini fahmlab, taklifni rad etadi. Kir esa massagetlar yurtiga qo'shin tortib keladi. Malika To'maris uni mudhish niyatidan qaytarishga urinadi. Kirning o'z fikridan qaytmasligini bilgan To'maris uning o'z qo'shinlari bilan daryodan massagetlar yurtiga o'tishiga imkon beradi. To'maris o'z yurtdoshlari bilan daryodan uch kunlik yo'lga borib turadi. Kirning qo'shini massagetlar yurtiga o'tib olgach, urush tadbirlarini ko'radi. Kir hiyla ishlatib, To'marisning o'g'li Sparganisni yigitlari bilan asir qilib oladi. Hiyla bilan asir tushganligini fahmlagan Sparganis uyatdan o'limni afzal ko'rib, o'zini o'ldiradi. Bu voqeadan xabar topgan To'maris Kirning qo'shini bilan urushga chiqadi.

Malika To'maris bosqinchi Kirga qarshi jangga borar ekan: "sening qonga tashnaligingni qondiraman", deb ont ichadi.

Malika To'maris qo'shini bilan Kir jangchilari o'rtasida dahshatli to'qnashuv bo'ladi. Jangda o'z yurti, o'z ozodligi uchun o'limdan ham qaytmaydigan massagetlar g'olib chiqadi. Eron shohi Kir o'ldiriladi. Uning jangchilari qurol-aslahalarini tashlab qochadilar. O'z qasamiga sodiq malika To'maris esa ayovsiz jangda o'ldirilgan bosqinchi Kirning boshini kestirib, qon bilan to'ldirilgan meshga soldiradi.

O'z yurtini, xalqini sevgan, uning ozodligi uchun erkaklar kabi janglarda qatnashgan malika To'marisdek mard xotin-qizlar bu yurtda ko'plab o'tishgan. Shuning uchun ham xalq ularning qahramonliklari haqida qo'shiqlar, dostonlar, rivoyatlar to'qigan.

TOPSHIRIQLAR

1. Matnni tarjima qiling.
2. Matndan talaffuzi qiyin so'zlarni aniqlang.
3. Matnda qo'llangan so'zlarning ma'no urg'usini aniqlang.
4. Matdan ko'p bo'g'inli so'zlarni bo'g'inlarga ajratib ko'ring.
5. Matn mazmunini o'zbek tilida so'zlab bering.

S P I T A M E N

Spitamen O'rta Osiyo xalqlari tarixida Aleksandr Makedonskiyga qarshi ko'tarilgan xalq qo'zg'oloni rahbari sifatida nom qoldirgan. Qo'rqmas xalq qasoskori boshchiligidagi qo'zg'olonchilar makedoniyaliklarni ko'plab marta janglarda mag'lub etganlar.

Grek va Rim tarixchilari asarlarida Spitamenning qaysi shahar yoki qisloqdan ekanligi aniq yozilmagan. Ammo u asosan Politamet (Zarafshon) daryosi bo'ylarida, Maroqand (Samarqand) shahri atroflarida kechgan voqealar tasvirida ko'plab tilga olinadi.

Aleksandr qo'shinlari qancha-qancha shaharlarni, yurtlarni osongina bosib

olgan, ammo Sug‘diyonani egallash ularga oson bo‘lmaydi. Ular bu yerda xalqning qattiq qarshiligiga uchrab, ko‘pdan-ko‘p talofat ko‘radilar. Spitamen boshchiligidagi jangchilar hech kutilmagan paytda va joylarda paydo bo‘lishar, dushmanga qaqshatqich zarba berishar va yana tutqich bermay, qutulib ketishar edi. Spitamen jasur, farosatli, tadbirkor, ayni choqda juda hushyor va ziyrak edi. Uning qo‘shinida O‘rta Osiyoning mahalliy aholisi bo‘lgan massagetlar, skiflar, daklar, saklar, sug‘dlar o‘zaro birikib harakat qilar edilar. Ular Spitamenni o‘zlarining haqiqiy xaloskori deb bilardilar.

Spitamen boylikka qiziqmas, qo‘lga tushgan o‘ljalarni jangchilarga bo‘lib berar edi. U nafaqat dushmanlarni, balki sotqinlik qilgan yurtdoshlarini ham ayamas edi. Spitamen Aleksandrga O‘rta Osiyo qabilalarining nimalarga qodirligini amalda ko‘rsatdi. Vatanini, xalqini sevishni, o‘z qishlog‘ini, shahrini, yurtini ardoqlashni o‘rta osiyoliklardan o‘rganish kerakligini isbotladi.

Spitamening o‘limi haqida ham turli xil rivoyatlar mavjud. Ba‘zi rivoyatlarda u o‘z xotini tomonidan o‘ldirilgan deyilsa, ayrimlarida sotqin qabiladoshlari tomonidan vahshiylarcha qatl etilgan deyiladi. Sharqning jasur, yengilmas, vatanparvar, mard o‘g‘loni Spitamenning nomi, uning dushmanga qarshi ko‘rsatgan qahramonliklari necha asrlardan beri tildan-tilga, avloddan-avlodga o‘tib kelmoqda. U haqida, uning qahramonliklari haqida shoir va yozuvchilarimiz tomonidan ko‘plab badiiy asarlar yaratilgan. Shaharlarimizdagi go‘zal xiyobonlar, ko‘rkam ko‘chalar uning muborak nomi bilan ataladi.

TOPSHIRIQLAR

1. Matnni tarjima qiling.
2. Spitamenning fazilatlarini aytib bering.
3. Matndagi undoshlarni talaffuzi va imlosiga ko‘ra tahlil qiling.
4. Matn mazmunini o‘zbek tilida va o‘quv tilingizda hikoya qiling.
5. O‘zbek tilining o‘ziga xos undoshlari qatnashgan so‘zlarni aniqlab, ularga munosabat bildiring.
6. Bugungi davrda haqiqiy vatanparvar inson qanday qahramonlik ko‘rsatishi mumkin?

SHIROQ

O‘rta Osiyo xalqlari qadim-qadim zamonlardan o‘zlari tug‘ilib o‘sgan yurttni tashqi dushmanlardan mardonavor himoya qilganlar. Bu janglarda qo‘shni qabilalar - skiflar, massagetlar, sug‘dlar, saklarning qo‘rquv nima bilmas yigitlari beqiyos mardlik va jasorat ko‘rsatganlar. Tarixda ba‘zan bir kishining butun bir qo‘shinga bas kelgan hollari ham bo‘lgan. Bunga oddiy cho‘pon yigit Shiroqning ko‘rsatgan qahramonligi misoldir.

Doro qo‘shini bilan saklar o‘rtasida qaqshatqich urush borar edi. Sak podachilaridan Shiroq o‘z podsholari Sakesfor Omarg va To‘marislar huzuriga kelib, Eron qo‘shinini bir o‘zi hiyla bilan halok etajagini aytadi. Buning evaziga podsholardan o‘zining oilasi, bolalari, avlodiga g‘amxo‘rlik qilish to‘g‘risidagi va’dalarini oladi. Shundan so‘ng Shiroq ular oldida o‘zining quloq, burunlarini

kesib, butun a'zoyi badaniga ozor yetkazadi. O'zini rosa qiynab, azoblangan holatga keltirgach, Eron qo'shinlari joylashgan tomonga ketadi.

Hamma yog'i qonga belangan Shiroq Eron shohi Doroga arz qilib, uni qabiladoshlari shunday ahvolga solganliklarini aytadi. U saklardan o'ch olish maqsadida Doro qo'shinini saklar yashiringan joyga boshlab borishga ahd qilganligini ma'lum qiladi. Unga ishongan Doro qo'shini bir haftalik oziq-ovqat, suv olib yo'lga tushadi. Uzoq yo'l yurgach Doro qo'shinining oziq-ovqatlari, suv va otlarga beradigan yemishlari tugaydi. Atrof esa suvsiz quruq qum va hech narsa o'smagan sahro edi. Shunda Doro jangchilari jasur cho'pon yigit Shiroqning hiylasidan voqif bo'ladilar. G'azablangan dushman jangchilari uni qatl etadi.

Shunday qilib, cho'pon Shiroqning bir o'zi vatandoshlarini saqlab qoladi va bosqinchi Eron qo'shinining ochlik, suvsizlikdan qirilib ketishiga sabab bo'ladi.

TOPSHIRIQLAR

1. Matnni tarjima qiling.
2. Matndagi so'zlarni bo'g'inlarga bo'ling, satrdan-satrga ko'chirilmaydigan bo'g'inlarni aniqlang.
3. Tarixdan yoki badiiy asarlardan qahramon cho'pon Shiroq haqida o'qiganlaringizni matn bilan qiyoslang.
4. Matn mazmunini og'zaki hikoya qiling.
5. Cho'pon Shiroq ko'rsatgan qahramonlikka o'z munosabatingizni bildiring.

URXUN-ENASOY BITIKLARI

O'zbeklar ham mansub bo'lgan turkiy xalqlarning tarixi juda qadimiydir. Turkiy xalqlar eng qadimgi davrlarda Markaziy Osiyodan Sharqiy Yevropagacha, Xitoydan Sibirgacha bo'lgan katta hududda yashaganlar. Buni hozirgi davrda turklar, o'zbeklar, qozoqlar, turkmanlar, qirg'izlar, qrim tatarlari, qozon tatarlari, boshqird tatarlari, cho'lim tatarlari, chuvashlar, ozarbayjonlar, gagauzlar, yoqutlar, uyg'urlar, qoraqalpoqlar kabi o'nlab millatlar yashayotgan uzoq-yaqin hududlar ham tasdiqlaydi.

Turkiy xalrlarning qadimgi adabiy tili to'g'risida ma'lumotlar beruvchi ko'pgina nodir odibalar bizgacha yetib kelgan. Bu obidalar turli davrlarda hamda turli xil yozuvlarda bitilgan. Shunday obidalarning eng qadimiylari sirasiga qadimgi turk-run bitikalari kiradi. Ular asosan Urxun (Mo'g'iliston) va Enasoy (Rossiya) daryolari bo'ylaridan topilganligi uchun Urxun-Enasoy bitiklari deb yuritiladi. Ular – turk hukmdorlari, sarkardalari, shahzodalari, ularning qarindoshlari qabrlariga qo'yilgan yodgorlik toshlar, shuningdek, yog'och, spool, buyumlar va qoyalarga yozib qoldirilgan xatlardan iborat. Bunday yodgorliklar boshqa joylardan ham topilgan.

Turk hoqonligi tarixi haqida, turkiy adabiy til to'g'risida tarixiy ma'lumotlar beruvchi To'nyuquq, Bilga hoqon, Kultigin, Ungin, Kuli chur, Moyin chur bitiktoshlarining ahamiyati juda katta. Ularda qahramonlik, vatanparvarlik, turkiylarning dushman qabilalar bilan kurashi, turk hoqonlarining o'z xalqi

oldidagi xizmatlari, ularning donoligi, tadbirkorligi, jasurligi, harbiy yurishlari, muvaffaqiyat va magʻlubiyatlari, hokimiyatni mustahkamlash, qabila va urugʻlarni birlashtirish, oʻzaro urushlarni tugatish uchun qilgan ishlari, ittifoq boʻlib yashash toʻgʻrisidagi orzu va intilishlari gʻoyat taʼsirli hikoya qilingan. Shu bilan bir qatorda, bu bitiklar oʻsha davr turkiy tili, yozuvi, madaniy hayoti, urf-odatlarini oʻrganish uchun ham muhim manba vazifasini oʻtaydi. Turkiy xalqlarning mazkur qadimiy yozuvi VIII asrgacha amalda qoʻllangan. Tarixiy manbalarda bu yozuv “Dulbarjin” yozuvi nomi bilan ham qayd etilgan. Bu yozuvda 41 ta harf boʻlib, 5 tasi unli, qolgan 36 tasi undosh harflardir. U yuqoridan pastga yoki oʻngdan chapga qarab yozilgan hamda oʻqilgan.

TOPSHIRIQLAR

1. Matnni tarjima qiling.
2. Matndagi gaplarni soʻz tarkibi boʻyicha tahlil qiling.
3. Matn mazmunini oʻzbek va rus tillarida gapirib bering.
4. Turkiy xalqlar tarixi haqida bilganlaringizni oʻrtoqlaringizga aytib bering.

HADISCHI VATANDOSHLARIMIZ

Hadis – islom dini taʼlimoti boʻyicha Qurʼondan keyin turadigan ikkinchi muqaddas manba hisoblanadi. Unda Muhammad paygʻambarning hayoti va faoliyati, shuningdek, uning diniy va axloqiy koʻrsatmalari bayon etiladi. Mana shunday koʻrsatmalar toʻgʻrisidagi rivoyatlarga hadis deyiladi.

Hadis ilmining olti yirik targʻibotchilaridan uchta eng mashhuri vatanimizdan yetishib chiqqan olimlardir. Bular - Dorimiy as-Samarqandiy (797-868), Ismoil al-Buxoriy (810-870), Imom at-Termiziy (824-892).

Muhammad paygʻambarning hayoti, faoliyati, uning diniy va axloqiy qarashlari bayon etilgan hadislarini ogʻzaki anʼanalardan kitob holiga keltirish VIII asrdan keng avj oladi. Bu davrga kelib islom olamining turli joylaridan hadis ilmining yirik targʻibotchilari va mualliflari yetishib chiqadi. Ana shunday mashhur hadischilar ichida vatandoshimiz, favqulodda noyob isteʼdod egasi Imom Buxoriy eng oldingi oʻrinda turadilar.

Imom Ismoil al-Buxoriy 810-yil 20-iyulda Buxoro shahrida tavallud topgan. U 10 yoshidan hadis ilmiga ishtiyoq sezib, eshitgan har bir hadisni yodlab borgan. 16 yoshga yetganida oʻsha davrning eng mashhur hadischi olimlarining hadis toʻplamlarini yod olgan. Imom Buxoriy 18 yoshida “Qazoyi as-sahobat vat-tobiʼin” (“Sahobatlar va tobiʼin masalalari”) va “Tarixi kabir” (“Katta tarix”) kitoblarini Madinada - Muhammad paygʻambarning maqbarasi yonida yashab turib yozgan. Makka, Madina shaharlaridan tashqari, Shom, Qohira, Basra, Kufa, Bagʻdod kabi rivojlangan madaniyat markazlariga boradi, olimlardan taʼlim oladi, toliblarga dars beradi.

Imom Buxoriy bir eshitgan darsini bir umr xotirasiga muhrlab olish qobiliyatiga ega edi. U chet el safarlaridan qaytgach, Buxoro ulamolari undan tahsil ola boshlaydilar. Ammo Buxoro amiri Xolid ibn Ahmad az-Zuhayl bilan orasi buzilib, Samarqandning Xartang qishlogʻidagi qarindoshlarinikiga koʻchib

keladi. Ulugʻ hadischi olim Imom Ismoil al-Buxoriy 870-yil 10-sentabrda 62 yoshda vafot etadi. Uning yashab vafot etgan joyi - Samarqand viloyati Chelak tumanida Xoʻja Ismoil nomi bilan mashhur ziyoratgoh bor. Uni ziyorat etish uchun dunyoning barcha musulmon mamlakatlaridan har yili minglab ziyoratchilar kelib turishadi. Imom Buxoriydan axloq-odob, din va madaniyatga oid oʻnlab qimmatli asarlar meros qoldi. Uning “Al-Jomi’ as-sahih” (“Ishonarli toʻplam”) nomli 4 jildidan iborat hadislar toʻplami islom olamidagi boshqa mualliflar tuzgan hadis toʻplamlari orasida eng ishonarli va eng mukammalidir. Unga mavjud 600 ming hadisdan 7275 ta eng ishonarli hadislar kiritilgan.

Imom at-Termiziy 824-yili Termiz shahrida tugʻilgan. Yoshlik chogʻlaridan ilmga katta qiziqish va ishtiyoq bilan qaraydi. Samarqand, Buxoro, Marv, Termiz va Movarounnahrning boshqa shaharlaridagi mashhur ulamo va hadischi olimlarining asarlarini qunt bilan oʻrganadi. U hadis oʻrganish maqsadida islom dunyosining turli shahar va mamlakatlariga safar qiladi. Hijoz, Iroq, Xuroson va boshqa joylarda mashhur hadischi, ulamolar bilan muloqotda boʻladi, ulardan taʼlim oladi. Imom Termiziy ham umri davomida koʻplab asarlar yozib, islom dini haqida, paygʻambar Muhammad alayhissalom toʻgʻrisida ulkan ilmiy meros qoldirdi. Uning asarlari ham Muhammad alayhissalom toʻgʻrisida mukammal maʼlumot beruvchi eng muhim qoʻllanmalardandir.

Hadislar faqat diniy xarakterga ega boʻlib qolmasdan, ularda tarbiya, axloq, odob, oʻzaro doʻstona munosabatlar, qarindoshlar, ota-ona va farzandlarning haq-huquqlari, mehr-oqibatlari, halollik, poklik, adolat, insof-diyonatni targʻib qilish, razolat, kibr-havo, adovat, hasad, xiyonat, yolgʻonchilik, fitna-fasod, zulm kabi illatlarga nafrat tuygʻulari oʻz ifodasini topgan. Hadischi vatandoshlarimizning amalga oshirgan ishlari musulmon olami uchun ulkan ahamiyatga ega.

Hadislardan namunalar

Chaqirilgan joygagina boring.

Aroqdan saqlaningslar, chunki u barcha yomonlik-larning kalitidir.

Dunyodan oʻtib ketganlarning faqat yaxshi sifatlarini yod etinglar. Yomon sifatlaridan tilingizni tiyinglar.

Oʻlim kelmasidan burun tayyorgarligingizni koʻrib qoʻying.

Nonni eʼzozlanglar.

Garchi Xitoyda boʻlsa ham ilmga intilinglar, chunki ilm olishga harakat qilish har bir moʻminga farzdir.

Beshta narsadan oldin beshta narsani gʻanimat biling: oʻlimdan oldin tiriklikni, betoblikdan oldin salomatlikni, bandlikdan oldin boʻsh vaqtni, keksalikdan oldin yoshlikni, faqirlikdan oldin boylikni gʻanimat biling.

Avvalo onangga, yana onangga, va yana onangga, soʻng otangga yaxshilik qil.

Ayollarga erkaklar oʻz tugʻishgan opa-singillari kabi munosabatda boʻlishlari kerak.

Taomning barakasi - undan oldin va keyin qoʻl yuvishdir.

Barcha balo tildandir.

Moʻminlarning bir-birlarida oltita haqlari bor: salom berish, chaqirsa borish,

maslahat so‘rasa berish, aksa ursa javob aytish, kasal bo‘lsa borib ko‘rish, o‘lsa borib dafinida qatnashish.

Pora beruvchi ham, uni oluvchi ham do‘zaxga mahkumdir.

Qabristonni ziyorat qilib turinglar, zero, u sizlarga oxiratni eslatadi.

O‘lib ketganlarni haqorat qiluvchi odamlar o‘zi halokatga yaqindir.

So‘zda sehr bor, she‘rda hikmat bor.

O‘lim dahshatli hodisadir. Qachonki tobutni ko‘rsalaringiz darhol (hurmat yuzasidan) o‘rinlaringizdan turing.

Bir-birlaringiz bilan salomlashib yuringlar. Shunda o‘rtalaringda mehr-u muhabbat uyg‘onur.

Qur‘onni o‘qib unga amal qilinglar. Undan uzoqlashib ham ketmanglar, uning ma‘nosiga chuqur ma‘no berarman deb xato va mubolag‘aga berilib ham ketmanglar. Uni tirikchilik vositasi qilib olib, mol-u dunyo orttirishga ham o‘tmanglar.

Iloji boricha odamlarni oliy jazoga tortmaslikka harakat qilinglar. Lekin oliy jazolar ham butunlay bekor qolmasin.

Kimki hayotda tejamkor bo‘lsa, zinhor qashshoqlikka tushmaydi.

Ilmni o‘rganib, so‘ng uni boshqalarga o‘rgatmaslik go‘yoki mol-u dunyoni yig‘ib, uni sarf qilmay, ko‘mib qo‘yish bilan barobardir.

Kimki otasining vafotidan keyin ham unga yaxshilik qilishni istasa, uning yor-u birodarlari bilan aloqani uzmasin.

Ko‘rgan-bilgani haqida guvohlik berishdan bosh tortgan odam yolg‘on guvohlik bergan bilan barobardir.

TOPSHIRIQLAR:

1. Matnni hamda Muhammad payg‘ambarning o‘gitlarini tarjima qiling.
2. Matnda qo‘llangan so‘z o‘zgartuvchi qo‘shimchalarni aniqlang.
3. Matn mazmunini hamda berilgan hadislarini o‘zbek va rus tillarida gapirib bering.

URXUN-ENASOY BITIKLARI

O‘zbeklar ham mansub bo‘lgan turkiy xalqlarning tarixi juda qadimiydir. Turkiy xalqlar eng qadimgi davrlarda Markaziy Osiyodan Sharqiy Yevropagacha, Xitoydan Sibirgacha bo‘lgan katta hududda yashaganlar. Buni hozirgi davrda turklar, o‘zbeklar, qozoqlar, turkmanlar, qirg‘izlar, qrim tatarlari, qozon tatarlari, boshqird tatarlari, cho‘lim tatarlari, chuvashlar, ozarbayjonlar, gagauzlar, yoqutlar, uyg‘urlar, qoraqalpoqlar kabi o‘nlab millatlar yashayotgan uzoq-yaqin hududlar ham tasdiqlaydi. Turkiya, Ozarbayjon, O‘zbekiston, Qozog‘iston, Turkmaniston, Qirg‘iziston mustaqil davlatlar hisoblanadi. Qoraqalpog‘iston, Tatariston, Boshqirdiston, Yoqutiya, Uyg‘uriston kabi o‘lkalar ham dunyo xaritasida o‘z o‘rniga ega. Turkiy xalqlar qadimdan o‘z davlati, tili va yozuviga ega bo‘lgan xalqlardan hisoblanadi.

Turkiy xalrlarning qadimgi adabiy tili to‘g‘risida ma‘lumotlar beruvchi ko‘pgina nodir odibalar bizgacha yetib kelgan. Bu obidalar turli davrlarda hamda turli xil yozuvlarda bitilgan. Shunday obidalarning eng qadimiylari sirasiga

qadimgi turk-run bitikalari kiradi. Bunday manbalar asosan Mo'g'ilistonning Urxun va Rossiyaning Enasoy daryolari bo'ylaridan topilganligi uchun ular Urxun-Enasoy bitiklari deb yuritiladi. Ular – turk hukmdorlari, sarkardalari, shahzodalari, ularning qarindoshlari qabrlariga qo'yilgan yodgorlik toshlar, shuningdek, yog'och, sopol buyumlar va yuksak tog'larning qoyalarga yozib qoldirilgan xatlardan iborat. Bunday yodgorliklar boshqa joylardan ham topilgan. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, bu yozuv turkiy xalqlar orasida “dulbarjin” deb ham yuritilgan. Bu yozuvda 41 ta harf bo'lib, ularning beshtasi unli, qolganlari undosh tovushlarni ifodalagan. U yuqoridan pastga yoki o'ngdan chapga qarab yozilgan hamda o'qilgan.

Turk hoqonligi tarixi haqida, turkiy adabiy til to'g'risida tarixiy ma'lumotlar beruvchi To'nyuquq, Bilga hoqon, Kultigin, Ungin, Kuli chur, Moyin chur bitiktoshlarining ahamiyati juda katta. Ularda qahramonlik, vatanparvarlik, turkiy qabilalarning dushmanlar bilan olib borgan kurashi, turk hoqonlarining o'z xalqi oldidagi xizmatlari, ularning donoligi, tadbirkorligi, jasurligi, harbiy yurishlari, erishgan muvaffaqiyatlari va boshidan kechirgan mag'lubiyatlari, hokimiyatni mustahkamlash, qabila va urug'larni birlashtirish, o'zaro urushlarni tugatish uchun qilgan ishlari, ittifoq bo'lib yashash to'g'risidagi orzu va intilishlari g'oyat ta'sirli hikoya qilingan. Shu bilan bir qatorda, bu bitiklar o'sha davr turkiy tili, yozuvi, madaniy hayoti, urf-odatlarini o'rganish uchun jida muhim manba vazifasini o'taydi. Turkiy xalqlarning mazkur qadimiy yozuvi VIII asrgacha amalda qo'llangan.

YUSUF XOS HOJIB

Yusuf Xos Hojib XI asrning 20-yillarida Balasog'unda (Qirg'izistonning hozirgi To'qmoq shahri yaqinida) tug'ilgan. U yoshligidan boshlab fors-tojik, arab tillarini, badiiy adabiyotlarni, astronomiya, geometriya, matematika, tabiiyot, geografiya kabi fanlarni qunt bilan o'rgandi. Yusuf Xos Hojib turkiy qabila va xalqlarning tilini chuqur o'rgandi. U adabiy til uchun, turkiy tilning madaniy hayotda yanada kengroq o'rin olishi ichun kurashdi. Xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyotning tajriba hamda an'alaridan ilhomlanib, mashhur “Qutadg'u bilig” (“Saodatga yo'llovchi bilim”) dostonini yaratdi.

Yusuf Xos Hojibning hayoti va ijodiy faoliyati to'g'risida hozirgacha “Qutadg'u bilig”dan boshqa biror tarixiy manbada ma'lumot yo'q. “Qutadg'u bilig” turkiy tilda yaratilgan qadimiy katta hajmli badiiy asardir. Doston o'z davrida keng shuhrat qozongan, turkiy tildagi eng yaxshi asar deb baholangan va turkiy “Shohnoma” deb yuritilgan. Doston 6500 bayt - 13000 misradan iborat bo'lib, 73 bobga bo'lingan. Uning mavzulari rang-barang. Asarda oddiy xalq, mehnatkash insonlar, dehqonlar, chorvadorlar, hunarmandlar katta hurmat bilan tasvirlangan.

“Qutadg'u bilig” jahonning ko'plab xalqlari tillariga tarjima qilingan. Asar O'zbekistonda 1971-yilda to'liq holda nashr etilgan. Bu asar XI asrda O'rta Osiyo va Sharqiy Turkistonda yashagan turkiy xalqlar hamda qabilalar tilining muhim yodgorligi sifatida katta ahamiyatga egadir.

YUSUF XOS HOJIB O'GITLARI

Odamni til ulug'laydi, uni baxtiyor qiladi, shuningdek, til odamni beqadr ham qiladi, uning boshiga balolar keltiradi. Til qafasda yotuvchi arslon kabidir, qafasdagi g'addor vahshiy boshingga yetishi hech gap emas.

So'zlaringga ehtiyot bo'l, boshing ketmasin, tilingni tiyib tut, u tufayli tishing sinmasin.

Odam tug'iladi va o'ladi, uning so'zi qoladi, inson o'ladi, uning nomi mangu qoladi, buni unutm.

Unga tabiat aql va ong ato qildi, so'zlash qobiliyatini berdi, uni andisha, xushxulq va go'zal fe'l bilan ta'minladi.

Unga bilim hadya qildi, shu tufayli inson ulug'likka erishdi, zakovatlar ato qildi, shu tufayli inson chigal jumboqlarni hal qildi.

Tabiat kimga zakovat, aql-idrok, bilim bersa, u ezgu ishlar qilishga qo'l uradi.

Bilimning buyukligini va zakovatning ulug'ligini anglagin, bu ikkalasiga ega bo'lgan sara kishilar ulug'likka erishadilar.

Buning dalili uchun mana shunday ibratli so'z bordir, sen uni eshitgin va bu borada so'zni cho'zmagin.

Zakovat har yerda ham ulug'likka eltadi, kimda bilim bo'lsa, u ulug'likka erishadi.

Zakovatlilar uqadilar va bilimlilar biladilar, bilimli va zakovatlilar tilaklariga yetadilar.

Bilim haqida nimalar deyilgan, bu so'zning ma'nosini chaq, bilimli kishilardan balo-ofatlar yiroqlashadi.

Bilimsiz kishilar misoli dardmand bo'ladilar, dardni davolamagan kishi esa bevaqt o'ladi.

Kel, ey bilimsiz johil, dardingga davo qilgin, bilimsiz bo'lsang xor-u zorsan, bilimlilar esa baxtiyordirlar.

Bilim misoli boshbog' kabidir, unga ega bo'lgan kishini u tilaklari sari eltadi, orzulari tomon boshlaydi.

Odamda zakovat bo'lsa nafi kattadir, bilim o'rgangan kishlar aziz va qadrli bo'ladilar.

Barcha ish-yumushlar zakovat tufayli bitadi, beklar ham davr-u davlatga bilim orqasidan erishadilar.

TILNING FAZILATLARI, FOYDA VA ZARARLARI HAQIDA

Zakovat va bilimning ochqichi tildir, odamni yorug'likka boshlovchi til – ravon tilni o'rgangin.

Odamni til ulug'laydi, uni baxtiyor qiladi, shuningdek til odamni beqadr ham qiladi, uning boshiga balolar keltiradi.

Til qafasda yotuvchi arslon kabidir, qafasdagi g'addor vahshiy boshingga yetishi hech gap emas.

Til tufayli ozor chekkan odam nima deydi, eshit, bu so'zga amal qilib o'zingga manfaat ol:

Tilim meni juda ko'p kulfatlarga soladi, tilim mening boshimni kesmasidan burunroq men tilimni kesayin.

So'zlaringga ehtiyot bo'l, boshing ketmasin, tilingni tiyib tut, u tufayli tishing sinmasin.

Odamning tili yomon, u doim sen haqingda so'zlaydi, kishilarning fe'li hasadli, ular seni g'ajishga ham tayyor turadi.

Bilimlilar til haqida puxta ta'lim bergandirlar: ey til sohibi, boshingni asragin, deganlar.

Sen o'zingning eson-omonligingni istasang, tilingdan zinhor yaramas so'zlarni chiqarmagin.

Bilib-tushunib so'zlangan so'z donolikdan dalolatdir, nodon-johilning so'zi o'z boshini yeydi.

Ko'p so'zlashdan ortiqcha naf ko'rmaganman, so'zning ko'pidan foyda ham topmaganman.

So'zni ko'p so'zlamasdan biroz oz so'zlagin, ming so'zli chigalni bir so'z bilan yechgin.

Odam so'z tufayli ulug'likka erishadi, podsho bo'ladi, ko'p va ortiqcha so'z esa yuzni yerga qaratadi.

Haddidan ortiq so'zlaganlarni ezma deyishadi, shuningdek hech so'zlamaganlarni gung deb atashadi.

Modomiki shunday ekan, o'rtacha yo'riqqa amal qil, o'rtacha yo'riqqa amal qilgan odam yuksaklikka erishadi.

Tilingga juda ehtiyot bo'lgin, boshing omon saqlanadi, so'zingni qisqa qilsang, yoshing uzayadi.

Tilning foydasi juda ko'pdir, sen o'zingni bosib ol, til goho maqtaladi, goho tahqirlanadi.

Modomiki shunday ekan, so'zni bilib so'zla, so'zing ko'rmas ko'rlar uchun ko'rar ko'z bo'lsin.

Bilimsiz kishi shubhasiz ko'rdir, kel ey bilimsiz nodon, bilimdan o'zingga ulush olgin.

Tug'ilganlar o'ladi, nom-nishonsiz va izsiz bo'lib ketadi, so'zingni ezgu so'zlasang, o'lsang ham so'zing bilan mangu qolasan.

Odam ikki narsa tufayli qarimaydi: biri–yaxshi fe'li, ikkinchisi esa ezgu so'zi.

Odam tug‘iladi va o‘ladi, uning so‘zi qoladi, inson o‘ladi, uning nomi mangu qoladi, buni unitma.

O‘zing o‘lmas mangu nom istasang, fe‘lingni va so‘zingni ezgu tutgin, ey dono.

Tilning foydasi va zararlari haqida anchagina gapirdim, bundan maqsadim senga ushbu so‘zlarni aytish edi.

Har qanday so‘zni so‘zlayverilsa, aqldan bo‘lmaydi, odam kerakli so‘znigina so‘zlaydi, uni yashirmaydi.

So‘zlarimni senga so‘zladim, ey o‘g‘lim, bu pand-nasihatlarini senga qildim, ey jigarbandim.

Mendan senga kumush va oltinlar qolsa, sen ularni bu so‘zlarga teng tutib almashmagin.

Oltin-kumushni ishga solsang tugaydi, olqinadi, so‘zlarimni ishga solib amal qilsang oltin-qumush keltiradi.

Odamdan odamga meros bo‘lib so‘z qoladi, bu meros qolgan pand-nasihatlarga amal qilinsa nafi behisob bo‘ladi.

Ahmad Yugnakiy

Turkiy tilda yaratilgan qadimiy yirik didaktik asar “Hibatul - haqoyiq” (“Haqiqatlar armug‘oni”)ning muallifi Ahmad Yugnakiyning hayoti va faoliyati haqida oz ma’lumotlar saqlanib qolgan. Ahmad Yugnakiy iste’dodli shoir va donishmand murabbiy bo‘lgan. U o‘z dostonida ilm-fanni yoqlaydi, olimlar va fozillarni ulug‘laydi, ma’rifatparvarlikni targ‘ib qiladi, kishilarni ilimli, ma’rifatli bo‘lishga chaqiradi, johillikka qarshi kurashadi. “Hibatul - haqoyiq” dostoni 235 baytdan iborat bo‘lib, 11 bobni tashkil etadi. Asarning badiiy tilini “Qutadg‘u bilig” bilan qiyoslab o‘rganish orqali uni XII asrda yaratilgan deb taxmin qilish mumkin. “Hibatul - haqoyiq” dostoni ham qadimgi turkiy adabiy tilning qimmatli va nodir yodgorliklaridan hisoblanadi.

Ahmad Yugnakiy hikmatlari

Bilimli kishi o‘lsa ham, uning nomi o‘chmaydi, ilmsiz kishining o‘zi hayot bo‘lsa ham, oti o‘likdir.

Kishi boshiga tushgan har qanday ish uning tili tufayli sodir bo‘ladi, bu til sababli ayrimlar yaxshilik, ba’zilar hurmat ko‘radi.

To‘g‘rib o‘l, to‘g‘ri ish qil, to‘g‘ri deb nom chiqar, xaloyiq seni to‘g‘ri deb bilsin.

Siringni mahkam tut, kishi bilmasin, so‘zingdan o‘zingga o‘kinch kelmasin.

Buncha ham molga ko‘ngil qo‘ymoq ne karak, bu boylik kelsa, ko‘payadi, ozayadi va yo‘q bo‘ladi.

Ey do‘st, bilimli kishi izidan bor, agar so‘zlasang, o‘ylab, bilib so‘zlagin.

So‘ngakda ilik bo‘lishi lozimligi kabi er kishiga ham bilim kerakdir, er kishining ko‘rki aqlidir, so‘ngakning ko‘rki esa ilikdir.

Bilimlining biri bilimsizning mingiga teng, ilimli kishilar ilm-ma’rifatning qadriga yetadi.

AHMAD YASSAVIY

Turkiy tasavvuf she'riyatining atoqli vakili Ahmad Yassaviy Turkistonning Sayram qishlog'ida, taxminan 1103-yilda tug'ilgan. 7 yoshida otasi Shayx Ibrohim vafot etadi. U ilk tahsilni Yassida turk mashoyixi Arslonbobdan oladi. Arslonbob vafot etgach, tahsilni Buxoroda Yusuf Hamadoniy qo'lida davom ettiradi. 1140-yil Yusuf Hamadoniy vafot etgandan so'ng Ahmad Yassaviy o'z yurtiga qaytib keladi. U qolgan umrini Yassida ijod va toat-ibodat bilan o'tkazadi.

Ahmad Yassaviy to'rt yarim mingga yaqin hikmatlar yozib qoldirgan. Uning she'riy hikmatlari "Devoni hikmat" nomli kitob holida bizgacha yetib kelgan. Ahmad Yassaviy butun umrini, ijodini dunyoning o'tkinchiligini, bu dunyo haqiqiy dunyoga borish oldidan sinov ekanligini, inson abadiy umrga erishishi oldidan gunoh qilmasligi lozimligini, barcha taqdirlash va jazolashlar oxiratda bo'lishini barchaga yetkazishga bag'ishlaydi. Uning bunday g'oyalari singdirilgan hikmatlari butun musulmon olamida beqiyos shuhrat qozondi. Shuning uchun ham "Madinada - Muhammad, Turkistonda - Xo'ja Ahmad" degan ibora xalq orasida keng tarqalganligi bejiz emas.

Ahmad Yassaviyning hikmatlari xalq tilida, sodda, ixcham, tushunarli va ta'sirchan yozilgan. Bu hikmatlar o'zbek tili tarixida qadimgi yozma obidalarining yuksak namunasi sifatida katta ahamiyat kasb etadi. Yaqin vaqtlargacha Ahmad Yassaviy hikmatlari reaksion ruhda yozilgan deb nohaq baholanib, ilmiy va amaliy jihatdan yetarli o'rganilmadi. Vaholanki, Ahmad Yassaviy o'z hikmatlarida kishilarni imonli, vijdonli, hayoli, iboli, mehnatkash bo'lishga chaqiradi, zolimlikni, haromxo'rlikni, ig'vogarlikni, manmanlikni, tekinxo'rlikni va boshqa illatlarni qoralaydi.

Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Ahmad Yassaviy 1166-1167-yillar atrofida vafot etgan.

Buyuk sohibqiron Amir Temur hazrat Ahmad Yassaviy qabri ustida maqbara qurdirgan. Bu maqbara Amir Temur qurdirgan binolar ichida betakror va g'oyat go'zalligi bilan mashhurdir. Unda 35 xona bo'lib, ularning har biri o'ziga xos bezatilgan. Doshqozonxona va machit devorlari oltin suvi bilan bezatilgan, yonuvchi toshchalar bilan naqshlangan. Devorlarning tashqi tomonlariga ham go'zal va sirli bezaklar chizilgan. Bezaklar orasiga "Qur'on" oyatlari naqsh etilgan. Xonalarga ulkan quyma shamdonlar o'rnatilgan. Eshiklar fil suyaklari va boshqa qimmatbaho bezaklar bilan jilolangan. Qozog'iston hududida bo'lgan bu maqbara hozir ham musulmon olamining diqqat - e'tiboridadir. Har yili Ahmad Yassaviy qabrini minglab - millionlab kishilar ziyorat qilishadi.

AHMAD YASSAVIY HIKMATLARI

Beshak biling, bu dunyo barcha eldin o'taro,
Inonmag'il molingga, bir kun qo'ldan ketaro.
Ota-ona, qarindosh, qayon ketdi, fikr qil,
To'rt ayog'lig' cho'bin ot bir kun senga yetaro.

Dunyo uchun g'am yema, Haqdin o'zgani dema,
Kishi molini yema, sirot uzra tutaro.
Ahli ayol, qarindosh, hech kim bo'lmaydur yo'ldosh,
Mardona bo'l g'arib bosh, umring yeldek o'taro.
Qul Xoja Ahmad toat qil, umring bilmam necha yil,
Asling bilsang, ob-u gil, yana gilga ketaro.

Nafs yo'liga kirgan kishi rasvo bo'lur,
Yo'ldin ozib, toyib gumroh bo'lur,
Yotsa, tursa shayton bila hamroh bo'lur,
Nafsni tebgil, nafsni tebgil, ey badkirdod.

Nafsing seni oxir damda gado qilg'ay,
Din uyini g'orat qilib ado qilg'ay,
O'lar vaqtda imoningdan judo qilg'ay,
Oqil ersang nafsni baddin bo'lg'in bezor.

TOPSHIRIQLAR:

1. Matnni tarjima qiling.
2. Matnda hamda Ahmad Yassaviy hikmatlarida qo'llangan fe'llarni morfologik tahlil qiling.
3. Matnning mazmunini og'zaki hikoya qiling.
4. Ahmad Yassaviy hikmatlari mazmunini o'quv tilingizda hikoya qiling.

MAHMUD KOSHG'ARIY

Turkiy tillarni o'rganishga asos solgan mashhur olim Mahmud ibn Muhammad Koshg'ariy XI asr boshlarida Balasog'unda dunyoga keldi. Uning bobosi asli qoshg'arlik bo'lib, Balasog'unga ko'chib kelgan edi. Mahmud Koshg'ariy yoshligidanoq ilmga qiziqdi. U til va adabiyot ilmiga alohida muhabbat bilan qarardi. Dastlab Qoshg'ar, keyin Samarqand, Buxoro, Nishopur, Marv va Bag'dodda tahsil oladi. U turli ilmlar bilan shug'ullanadi. Mahmud Koshg'ariy fan olamiga tilshunos olim sifatida kirib keldi. Davrining eng iste'dodli olimlaridan hisoblangan Mahmud Koshg'ariy turkiy tillarga bag'ishlab ikki nodir asar yozib qoldirgan. Uning "Turkiy tillarning sintaksis durdonalari, qoidalari" nomli asari hozirgacha topilgani yo'q. Uning nomini olamga tanitgan "Devonu lug'otit turk" nomli ikkinchi asari 1914-yili Turkiyaning Diyorbakir shahrida topilgan.

"Devonu lug'otit turk" asari 1076-77-yillarda yozib tugallangan. Olim yashagan davrda ilmiy asarlarni arab tilida yozish an'anaga aylangan edi. Shunga ko'ra bu asar turkiy tillar haqida bo'lishiga qaramay, arab tilida yozilgandir. Asar muqaddima va lug'at qismlaridan iborat. Muqaddimada asarning yaratilish sabablari, ish usuli, lug'atning tuzilishi, turkiy qabilalar haqida qimmatli fikrlar bayon etilgan. Lug'at qismida esa olti mingdan ziyod turkiy so'zlarning lug'avii

ma'nolari arab tilida izohlangan. Undagi so'zlar va grammatik xususiyatlar boshqa turkiy tillar qatori o'zbek tiliga ham aloqadordir. Bu asar faqat tilshunoslar uchun muhim manba bo'lib qolmasdan, turkiy tillar tarixi, ularning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, urf-odati, geografiyasi, tabiiy sharoiti, etnografiyasi, og'zaki ijodi to'g'risida qimmatli ma'lumotlar beradi.

Mahmud Koshg'ariyning hayoti va ilmiy merosi haqida juda kam ma'lumotlar yetib kelgan. Uning "Devonu lug'otit turk" asari nemis, turk va o'zbek tillarida uch tomlik kitob holida nashr etilgan. Respublikamizda katta tilshunoslik instituti, korxonalar, maktablar va bir qancha ko'chalar buyuk tilshunos olim Mahmud Koshg'ariy nomi bilan ataladi.

"DEVONU LUG'OTIT TURK"DAN NAMUNALAR

Bordi qadim donolar,
Tog'day yuksak bilimda.
Eslab o'gitlarini
Quvonch ortar dilimda.
Buzildi bu zamonlar,
Avj oldi ko'p yomonlar.
Kamayib bilimdonlar,
Ilm-u hikmat yo'qoldi.
Kelsa birov yo'qlashib,
Bergil yaxshi ozuq, non.
Qarg'ab ketar mehmonlar,
Kutar bo'lsang gar yomon.
Boqmas jahon sovuq so'z,
Shilqim, yuzsiz baxilga.
Yoqimli bo'l, xushxulq bo'l,
Qolsin noming ko'p yilga.

MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIY

Abul Qosim Mahmud ibn Umar az-Zamaxshariy 1075-yil 19-martda Xorazm viloyatining Zamaxshar qishlog'ida dunyoga keldi. Otasi savodli taqvodor, diyonatli kishi bo'lib, qishlog'idagi masjidda imomlik qilgan. Mahmud dastlabki bilimni otasidan oladi. U og'ir illat tufayli yoshligidanoq bir oyoq bo'lib qolaqi va yog'ochdan yasalgan oyoq bilan yuradi. O'g'lidagi ilmga bo'lgan zo'r ishtiyoq va havasni sezgan otasi uni madrasaga beradi. Madrasani tugatib, bilimni yanada boyitish uchun Buxoroda o'qishni davom ettiradi.

Az-Zamaxshariy ilm-fanning turli sohalari bilan qiziqib, tolibi ilmlar orasida zo'r iste'dodini namoyon qila boshlaydi. U madrasada o'qitiladigan ilmlarni, ayniqsa, arab tili va adabiyoti, diniy ilmlarni puxta egallaydi. Xattotlik san'atini mukammal o'rganadi.

Mahmud Zamaxshariy 1118-yili og'ir dardga chalinadi. Bu kasallikdan tuzalgach, hukmdorlar xizmati-yu mansab va mol-dunyo tamasidan mutlaqo voz kechadi, qolgan umrini faqat ilm-fanga bag'ishlaydi.

Az-Zamaxshariy hayoti davomida Marv, Nishopur, Shom, Bag‘dod, Hijoz va ikki marta Makkada bo‘ladi. Bu yerlarda dunyo ilmining ulug‘ bilimdonlaridan turli fan sirlarini o‘rganadi, ilmiy ishlarini davom ettiradi, arab tili grammatikasi, lug‘ati, mahalliy qabilalarning lahjalari, maqollari, urf-odatlarini chuqur o‘rganadi, geografiyaga doir ma‘limotlarni to‘plash bilan shug‘ullanadi. Olim ko‘p asarlarini Makkadaligida yaratgan. Shu bois u Jorulloh (“Ollohning qo‘shnisi”) degan sharaflı nomga muyassar bo‘ladi. U uylanmagan. Ilmiy asarlar yaratish va munosib shogirdlar tayyorlashni farzand o‘stirishdan a‘lo deb hisoblagan. Az-Zamaxshariy oxirgi marta Makkadan qaytib, Xorazmda bir necha yil yashaydi va 1144-yil 14-aprelda vafot etadi.

Buyuk mutafakkir az-Zamaxshariy arab grammatikasi, lug‘atshunosligi, aruz ilmi, geografiya, tafsir, hadis va fiqhga oid ellikdan ortiq ilmiy asarlar yaratgan. Bu asarlarning aksariyati bizgacha yetib kelgan.

Arab tilshunosligi va grammatikasining turli tomonlariga oid asarlar az-Zamaxshariy ijodida salmoqli o‘rin egallaydi. Uning “Al-Mufasssal” asari arab tili morfologiyasi va sintaksisini o‘rganishda yirik qo‘llanma sifatida azaldan Sharqda ham, G‘arbda ham katta shuhrat topgan asarlaridan hisoblanadi. O‘sha davrning o‘zidayoq arablar orasida ham bu asar katta e‘tibor qozondi va arab tilini o‘rganishda asosiy qo‘llanmalardan biri sifatida keng tarqaldi.

Az-Zamaxshariy o‘zining “Muqaddimat ul-adab” asarida ham o‘sha davr arab tilining iste’molda bo‘lgan barcha so‘zlari, iboralarini qamrashga intilgan, ularning etimologiyasiga katta e‘tibor qilgan. Bu asar fors, o‘zbek, mo‘g‘il, turk, fransuz, nemis tillariga tarjima etilgan. S. Ayniy 1921-yili “Mehnatkashlar tovushi” gazetasiga yozgan maqolasida “Az-Zamaxshariyning “Muqaddimat ul-adab” asari o‘zbek tili uchun butun dunyoning xazinasi bilan barobardir”, deb yozgan edi.

Az-Zamaxshariy “Tog‘lar, joylar va suvlar haqida kitob” asarida geografik joylar, tog‘lar, dengizlar haqida ma‘lumot beradi, “Notiqlik asoslari”da lug‘atshunoslik, arab tilining fasohati, mukammalligi haqida, so‘z va frazeologik birikmalari haqida, “Ezgular bahori va yaxshilar bayoni”da adabiyot, tarix va boshqa fanlarga doir hikoyalar, latifalar, suhbatlarni keltiradi, “Aruzda o‘lchov”, “Nihoyasiga yetgan masalalar”, “Maqomlar”, “Nozik iboralar” asarlarida adabiyotshunoslik, lug‘atshunoslikka oid muammolar haqida fikr yuritadi. “Qur’on haqiqatlari va uni sharhlash orqali so‘zlar ko‘zlarini ochish” asari Qur’on tafsiriga bag‘ishlangan. Qohiradagi butun dunyoga mashhur Al-Azhar diniy universitetining talabalari hozir ham az-Zamaxshariyning mana shu asari asosida Qur’onni o‘rganadilar.

Az-Zamaxshariyning chuqur bilimi, dahosi va ilm-fanning turli sohalariga oid o‘lmas asarlari hali u hayot paytidayoq butun musulmon Sharqida unga katta shuhrat keltirgan. Allomani chuqur hurmat va mehr bilan “Ustoz ul-arab va-l-ajam” (“Arablar va g‘ayri arablar ustozı”) “Faxru Xvarazm” (“Xorazm faxrı”) kabi sharaflı nomlar bilan ataganlar. Mashhur olimlar, shoirlar, adiblar munozaralarida uning fikri inobatga olingan.

TOPSHIRIQLAR:

1. Matnni tarjima qiling.

2. Matnda qo‘llangan turdosh otlarni aniqlang va ularning lug‘atini tuzing.
3. Matnning mazmunini og‘zaki hikoya qiling.

SOHIBQIRON AMIR TEMUR

Sohibqiron (baxtli bo‘lib tug‘ilgan, yulduzi charaqlagan) Amir Temur ibn Tarag‘ay Muhammad Bahodir 1336-yil 9-aprelda Kesh (hozirgi Shahrisabz) shahrida barlos urug‘ining nufuzli begi oilasida tug‘ilgan. U amaldor oilasida tug‘ilganligi tufayli dastlab maktabda, so‘ng madrasada o‘qib, o‘z davrining barcha ilmlaridan bahramand bo‘lgan. Ayniqsa, Qur‘on-u hadislarni, fiqh, falakiyot, handasa, riyoziyot, tarix va jug‘rofiya ilmlaridan chuqur xabardor bo‘lgan. She‘riyat va shatranjni sevgan. Amir Temurni harbiy ta‘lim ko‘proq qiziqtirgan. O‘rta Osiyoda mo‘g‘illar zulmiga barham bergan Amir Temur 1370-yili Movarounnahr amiri deb e‘lon qilinadi va Samarqand shahri u tuzgan yangi davlatning poytaxti bo‘lib qoladi.

Amir Temur feodal tarqoqlikka barham berib, o‘rta asrlarning eng yirik davlatini barpo etdi. Uning ulkan davlati sarhadiga Turon, Eron, Rum(Onado‘li), Mag‘rib, Suriya, Misr, Iroqi Arab, Iroqi Ajam, Mozandaron, Qeylon, Shirvon, Ozarbayjon, Fors, Xuroson, Jidda, Buyuk Tatariston, Xorazm, Xo‘tan, Qobuliston, Boxtar, Zomin, Hindiston, Dashti Qipchoq, Oq O‘rda, Gurjiston, Armaniston, Oltin O‘rda - jami 27 mamlakat kirar edi.

Amir Temur o‘z davlatini adolat bilan boshqardi. U saltanat ishlarini olib borishda 5 asosiy manbaga tayanadi: mashvarat, shariat, to‘ra-tuzuk, diplomatiya va qattiqqo‘llik. Mojar olimi Herman Vamberi o‘zining “Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi” kitobida “...Temurni Chingiz ila bir safga qo‘yib, uni vahshiy, zolim, qaroqchi deb atagan kishilarning fikrlari ikki marotaba xatodir”, - deb haqiqatni yozgan edi. Amir Temur davrida mamlakat iqtisodiy jihatdan kuchaydi, fan va madaniyat rivojlandi. Xalq hayoti uchun zarur qurilishlar, madrasa ta‘limi uning e‘tiborida bo‘ldi. U o‘zi zabt etgan mamlakatlarning podsholarini yana taxtga o‘tqazgan yoki zurriyotidan podsho tayinlagan. Saltanatning tashqi va ichki siyosatida noiblar, beklar, umuman amaldorlar ustidan qat‘iy nazorat o‘rnatgan.

Sohibqiron Amir Temurning davlat va qo‘shinni boshqarishga bag‘ishlangan “Temur tuzuklari” nomli kitobi dunyoga mashhur. Tuzuklar Amir Temurning o‘z davri uchun davlat Konstitutsiyasi edi. Bu asar ko‘pgina sarkarda va davlat arboblari uchun muhim qo‘llanma vazifasini o‘tab kelgan.

Amir Temurning 4 o‘g‘li va 2 qizi bo‘lgan: G‘iyosiddin Jahongir, Umarshayx, Jaloliddin Mironshoh, Shohruh, Og‘a begim, Sulton Baxt begim. Amir Temur avlodlaridan ulug‘ davlat arboblari, mashhur olimlar, iste‘dodli shoirlar yetishib chiqqan.

Sohibqiron Amir Temur hayotining so‘nggi kunlari qabuliga shahzodalar, amur-u ulamolarni chaqirib shunday vasiyat qiladi: “O‘g‘illarim, millatning ulug‘ martabasini, saodatini saqlamoq uchun sizlarga qoldirayotgan vasiyat va tuzuklarni yaxshi o‘qing, aslo unutmang va tadbiiq eting. Millatning dardiga darmon bo‘lmoq vazifangizdir. Zaiflarni qo‘ring, yo‘qsillarni boylar zulmiga tashlamang. “Adolat

va Ozodlik” dasturingiz, rahbaringiz bo‘lsin ...”

Amir Temur 1405-yil 18-fevral kuni O‘tror shahrida shamollashdan vafot etadi. Buyuk sarkarda va davlat arbobi sohibqiron Amir Temur o‘z poytaxti Samarqand shahrida qurilgan Go‘ri Amir maqbarasiga, ustozi Mir Sayid Barakaning oyoq uchiga dafn etilgan.

Sohibqiron Amir Temur haqida chet ellarda ham, mamlakatimizda ham yuzlab badiiy va ilmiy asarlar, filmlar yaratilgan, haykallar o‘rnatilib, muzeylar tashkil etilgan. Uning tug‘ilganligiga 660 yil to‘lishi munosabati bilan 1996-yil O‘zbekistonda “Amir Temur yili” deb e‘lon qilindi. Toshkent va Samarqandda, tug‘ilgan yurti-Sahrisabzda unga mahobatli haykallar o‘rnatilib, muborak qadamjolari, maqbara va machitlari ta‘mirlandi, ziyoratgoh joylari ko‘paytirildi.

“TEMUR TUZUKLARI”DAN

“Ochiq yuzlilik, rahm-shafqat bilan xalqni o‘zimga rom qildim. Adolat bilan ish yuritib, jabr-zulmdan uzoqroqda bo‘lishga intildim”.

“Hech kimdan o‘ch olish maqomida bo‘lmadim. Tuzimni totib menga yomonlik qilganlarni parvardigori olamga topshirdim. Ish ko‘rgan, shijoatli er-yigitlarni qoshimda tutdim. Soddil kishilar, sayyidlar, olimlar va fozillarga dargohim doim ochiq edi. Nafsi yomon himmatsizlarni, ko‘ngli buzuv qo‘rqoqlarni majlisimdan quvib yubordim”.

“Kimniki huzurimga kiritgan bo‘lsalar va ko‘zim unga tushgan bo‘lsa, holiga yarasha hurmatlab, sovg‘a-in‘omlar bilan kuzatsinlar. Har qanday odam mening adolat devonimda panoh topgan ekan, gunohi bo‘lsa ham kechirsinlar. Ikkinchi, uchinchi yana gunoh qilgudek bo‘lsa, u chog‘da gunohiga yarasha jazolasinlar”.

“Qaysi bir sipohiy tuz haqqi va vafodorlikni unutib, xizmat vaqtida o‘z sohibidan yuz o‘girib, mening oldimga kelgan bo‘lsa, unday odamlarni o‘zimga eng yomon dushman deb bildim”.

“Biron mamlakatda jabr-zulm va firq-fasod kuchayib ketarkan, asl podshohlar adolat o‘rnatib, firq-fasodni, zulmni yo‘qotish niyatida ana shunday mamlakatga hujum boshlashi lozim. Tangri taolo shu niyatining sharofati bilan mamlakatni zolimning qo‘lidan tortib olib, odil podshoga topshiradi”.

“Yana amr qildimki, g‘anim tomondan bizning qo‘limizga har qanday sipohiy asir bo‘lib tushsa, uni o‘ldirmasinlar, unga ixtiyor bersinlar. Agar navkarlikni qabul qilsa, navkar qilsinlar, yo‘qsa uni ozod etsinlar. Bunga misol men (Qaysar bilan urushda) to‘rt ming rumlik askarni ozod qildim”.

MIRZO ULUG‘BEK

Sohibqiron Amir Temurning to‘rtinchi o‘g‘li Shohruh mirzoning to‘ng‘ich farzandi Muhammad Tarag‘ay 1394-yil 22-mart kuni Sultoniya shahrida dunyoga keladi. Amir Temur nevarasi Muhammad Tarag‘ayni g‘oyat ziyrak, zeharli bo‘lganligi hamda unga otasining ismi qo‘yilganligi uchun uni Ulug‘bek, ya‘ni beklarning ulug‘i, kattasi deb ataydi.

Ulug‘bek 1411-yil oktabrda Movarounnahr va Turkiston sultoni bo‘lib, o‘ttiz

to'qqiz yil hukmronlik qildi. Otasi vafotidan so'ng temuriylar sulolasining boshlig'i bo'lib qoldi.

Ulug'bek yoshligidan ilmga qiziqadi, ko'p vaqtini saroy kutubxonasida o'tkazadi, tarix va she'riyat bilan shug'ullanadi. Astronomiya uning eng yaxshi ko'rgan fani edi.

Ulug'bek harbiy yurishlarni unchalik yoqtirmaydi. Uning harbiy yurishlari yaqinlashib kelayotgan xavf-xatarni bartaraf etishga qaratilgan edi. U ko'p vaqt ilm-fan bilan shug'ullangan, shahar va qishloqlarni obodonlashtirish, machit-u madrasalar qurish bilan band bo'lgan. O'z hukmronlik yillarida zamonasining ko'pgina mashhur olimlari, shoirlarini Samarqandga to'playdi. Samarqand, Buxoro va G'ijduvonda o'sha davrning oliy o'quv yurtlari - madrasalar qurdirdi. "Bibixonim" masjidi, "Go'ri Amir" maqbarasi, "Shohizinda" ansambllari ham Ulug'bek zamonasida nihoyasiga yetdi. 1420-1429- yillari butun dunyoga mashhur rasadxona qurdirdi. O'sha davrda va hatto undan keyin ham Ulug'bek qurdirgan rasadxonadek ilm maskani dunyoda bo'lmagan. Ulug'bek bu yerda birinchi o'zbek akademiyasini tashkil etib, uning nomini butun dunyoga mashhur qilgan "Ziji Ulug'bek" ("Ulug'bek jadvali")ni yaratdi. Ulug'bek bir guruh olimlar bilan birgalikda o'zidan avvalgi astronomlarning ishlarini qayta tekshirib, ularga katta aniqliklar kiritdi. Ulug'bek "Ziji"ning astronomiya tarixi uchun ahamiyati beqiyos va bebahodir. Sayyoralar, Quyosh, Oy harakatlari to'g'risidagi yulduzlar jadvali va qo'llanilgan matematik usullarga ko'ra bu kitob o'rta asrlarda yozilgan astronomik asarlarning eng mukammalidir. Ulug'bek jadvali g'oyat aniqligi bilan boshqa asarlardan ajralib turadi. Unda astronomiyaning nazariy asoslari bilan bir qatorda, 1019 yulduzning holati ham ifodalangan.

Ulug'bekning bu asari eng avvalo musulmon mamlakatlarida astronomiyaning rivojlanishiga ulkan ta'sir ko'rsatdi. XVII asrdan boshlab Yevropa olimlari o'z tadqiqotlari darajasi aniqligini unga solishtirib bilganlar. Bu asar o'rta asrlar astronomiyasininggina emas, balki matematikasining ham yuqori cho'qqisi edi.

Ulug'bek "Zij"dan tashqari "Bir darajaning sinusini aniqlash haqida risola", "Risolai Ulug'bek", "To'rt ulus tarixi" kabi nodir ilmiy asarlar ham yozib qoldirgan. Ular ham hozirgi zamon fanlari uchun katta ahamiyatga egadir.

Buyuk olim, davlat arbobi Mirzo Ulug'bek 1449-yil 25-oktabr kuni 56 yoshda Samarqand yaqinidagi kichik bir qishloqda vahshiylarcha qatl etiladi. Mirzo Ulug'bek ham Samarqanddagi Go'ri Amir maqbarasiga dafn etilgan.

Muhammad Tarag'ay-Mirzo Ulug'bek insoniyat tarixida ulug' sulton sifatida o'chmas iz qoldirmagan bo'lsada, tengsiz astronom va matematik olim sifatida jahoniy shuhrat topdi. Shuning uchun tavalludiga 600 yil to'lishi munosabati bilan 1994-yil O'zbekistonda Ulug'bek yili deb e'lon qilindi.

Ulug' mutafakkir shoir Alisher Navoiy Mirzo Ulug'bekni quyidagicha madh etgan:

Temurxon naslidin sulton Ulug'bek,
Ki olam ko'rmadi sulton aningdek.

Oning abnoyi jinsi bo'ldi barbod,

Ki davr ahli biridan aylamas yod.

Valek ul ilm sori topdi chun dast,
Ko'zi olinda bo'ldi osmon past.

Rasadkin bog'lamish zebi jahondir,
Jahon ichra yana bir osmondir.

Bilib bu nav ilmi osmoniy,
Ki ondin yozdi "Ziji Ko'ragoniy".

Qiyomatga deguncha ahli ayyom,
Yozarlar oning ahkomidin ahkom.

MAVLONO LUTFIY

Alisher Navoiy ta'biri bilan aytganda "Malik ul-kalom" - "So'z podshosi" hisoblangan Lutfulloh Lutfiy 1366-yilda tug'ilgan. Manbalarda uning 99 yil umr ko'rganligi qayd etilgan.

Mavlono Lutfiy XIV-XV asrlardagi o'zbek mumtoz adabiyotining atoqli namoyandasi bo'lib, o'zining o'zbek va fors-tojik tillaridagi asarlari bilan Sharqda katta shuhrat qozongan so'z san'atkoridir.

Lutfiy boshlang'ich tahsildan keyin madrasalarda o'z davrining dunyoviy bilimlarini chuqur egallaydi. Shihobiddin Xiyoboniydan tasavvuf tariqatlarini ham o'zlashtirdi. Lutfiy yoshligidan adabiyotga qiziqqan. U turkiy tildagi asarlar bilan bir qatorda, fors va arab tillaridagi adabiyotlarni ham qunt bilan o'rganadi. O'zi ham she'rlar bita boshlaydi. Uning she'rlari sodda so'zlar yordamida yuqori badiiy bo'yoqlarda jaranglashi bilan ajralib turadi.

Lutfiyning ona tilidagi lirik asarlardan iborat devoni o'z davridayoq Xuroson va Movarounnahrda tashqarida yashovchi turkiy tilda so'zlashadigan ko'pgina o'lkalarga ham tarqalgan. Uning devoni Sharq she'riyatining yetakchi janrlaridan bo'lgan g'azal, ruboiy, tuyuq, qit'a va fardlarni o'z ichiga oladi.

Lutfiy devonidan o'rin olgan lirik asarlarning yetakchi mavzusi - ishqdir. Shu ishq insonning zohiriy va botiniy olamini oyna bo'lib aks ettiradi. Bu asarlarda ishqning dunyoviy talqinlari yuksak mahorat bilan tasvirlab berilgan. Shoir lirikasida ancha keng o'rin tutgan dunyoviy mavzular diniy-tasavvufiy mavzular bilan uyg'unlashib, bir-birini to'ldirib keladi. Shu tarzda ular majoz va haqiqat birligini tashkil etadi.

Hassos shoir lirikasida hayot zavqlari, tabiat go'zalliklaridan bahramand bo'lish, shodlik va tarona ohanglari bilan bir qatorda inson qadriyati va uning orzu umidlarini oyoq osti qiluvchi kuchlardan ozurdahollik kayfiyatlari ham seziladi. Lutfiy g'azallari aruzning rang-barang bahrlarida yozilgan bo'lib, hajm jihatidan juda ixchamdir. Shoir g'azallarida aruzning xalq qo'shiqlariga yaqin turgan ohangdor, o'ynoqi o'lchovlarini tanlaydi. Xalqning jonli so'zlashuv tilidagi

erkalash, yupatish, qarg'ish, istehzo, qochiriq iboralaridan mahorat bilan foydalanadi.

Lutfiyning ruboiy, qit'a, tuyuq va fardlarida kishi ruhiy olamining rang-barang lahzalari, axloq-odob mavzularining talqinlari asosiy o'rin tutadi. Lutfiy ijodi faqat o'zbek adabiyotining keyingi rivojiga katta ta'sir etib qolmasdan, qo'shni mamlakatlarning ham adabiyoti rivojida alohida o'rin tutgan.

Lutfiy 1465-yilda Hirot yaqinidagi Dehikanor qishlog'ida vafot etgan.

KAMOLIDDIN BEHZOD

Ulug' rassom Kamoliddin Behzod 1455-yilda Hirotida hunarmand oilasida dunyoga kelgan. Ota-onadan yosh yetim qolgan Kamoliddinni Hirotning mashhur musavviri Amir Ruhillo (Mirak Naqqosh) o'z tarbiyasiga oladi. Mirak Naqqosh oilasida har tomonlama ilmi, odobli bo'lib tarbiyalangan Kamoliddin naqqoshlik va miniatyurasozlik san'atini ham egallaydi.

Behzodning buyuk musavvir, naqqosh va miniatyurasoz bo'lib yetishishida muhim omillaridan biri -mutafakkir shoir Alisher Navoiyning nazariga tushib, uning homiyligidan bahramand bo'lganligidir. San'at va nafosatga ishtiyoqi nihoyatda kuchli bo'lgan Behzod g'oyatda mehnatsevarligi, zahmatkashligi, o'tkir aql-u zakozati tufayli iste'dodi kundan-kunga ortib boradi va tez orada Hirotida mashhur musavvir bo'lib taniladi. Husayn Boyqaro Behzodni o'z saroyiga jalb qiladi, unga saroydan maxsus joy ajratib, ijodiy ishlar bilan shug'ullanishi uchun barcha sharoitlarni yaratib beradi. 1483-yildan Behzod Sulton Husayn Boyqaroning farmoni bilan saltanat kutubxonasiga boshliq qilib tayinlanadi.

1507-yilda Shayboniyxon Hirot taxtini egallaydi. Kamoliddin Behzod uch yilcha Hirotida Shayboniyxon saltanatiga qarashli saroyda ijodiy ish bilan shug'ullanadi. Shayboniyxon ham uning uchun qulay sharoit yaratadi. 1512-yilga kelib Hirotni eroniyalar – Shoh Ismoil Safaviy o'z tasarrufiga oladi. U Hirotidagi iste'dodli san'atkorlarni Tabrizga olib ketadi. Ular orasida Kamoliddin Behzod ham bor edi. Bu vaqtga kelib Behzod va uning Hirotidagi musavvirlik maktabining dovrug'i butun Sharqqa tarqalgan edi. Behzodning san'atini yuksak qadrlagan Shoh Ismoil Safaviy ham unga zarur sharoitlarni yaratib beradi. Behzod Tabrizda Hirotidan keyingi nafis tasviriy san'atning yana bir ulkan maktabini yaratdi.

1512-1522-yillar Behzod hayotida og'ir va musibatli yillar bo'ldi. Bu yillar orasida u ahyon-ahyonda ona yurti Hirotga borib-kelib turgan. 1522-yilda Shoh Ismoil Safaviy maxsus farmon chiqarib, Behzodni Tabrizdagi saltanat kutubxonasiga boshliq etib tayinlaydi.

Kamoliddin Behzod 1537-yili Hirotida vafot etadi. Hirotliklar uni chuqur izzat va motam bilan Kuhi Muxtor tog'i yonbag'riga dafn etadilar.

Kamoliddin Behzod Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Abdurahmon Jomiyning "Salomon va Absol", Amir Xusrav Dehlaviyning "Xamsa", Sa'diyning "Bo'ston" va "Guliston", Nizomiy Ganjaviyning "Xamsa", Abdulloh Xotifiyning "Temurnoma" siga yuzlab miniatyuralar, Sulton Husayn Boyqaroning 40 dan ortiq majlislari tasviri, Abdurahmon Jomiy, Husayn Boyqaro, Shayboniyxon, Shoh

Taxmasp, Shoir Abdulloh Xotifiylarning suratlari, “Tuyalar jangi”, “Darvishlar raqsi”, “Samarqandda madrasa qurilishi” kabi noyob suratlarni chizib qoldirgan.

Behzod o‘ta saxiy va mehribon ustoz sifatida juda ko‘plab atoqli miniatyurasoz, musavvir va naqqoshlarni tarbiyalab voyaga ytkazdi.

Kamoliddin Behzod nafaqat Sharq xalqlari musavvirchiligi tarixida, balki jahon rasm san’ati tarixida o‘chmas iz qoldirgan, o‘zining ajoyib va qimmatbaho miniatyura durdonalari bilan butun dunyo madaniyati tarixida salmoqli o‘rin olgan buyuk va zabardast san’atkordir.

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Samarqand shahri Osiyoning eng qadimgi ilm-fan o‘choqlaridan biri hisoblanadi. Sohibqiron Amir Temur saltanatining poytaxti bo‘lgan Samarqand shahri o‘rta asrlarda yuksak taraqqiy etgan madaniy markaz darajasiga ko‘tarildi. Bu qadimiy shahardan yetishib chiqqan o‘nlab olimlar dunyo ilm-faniga o‘zlarining munosib ulushlarini qo‘shishgan.

Har yili minglab mutxassislar yetishtirayotgan Samarqand davlat universiteti 1927-yil 22-yanvarda tashkil etilgan. Dastlab bu yerda ijtimoiy-siyosiy, fizika, texnika, tabiatshunoslik, tilshunoslik, bo‘limlari ochilib, atigi o‘ntagina professor-o‘qituvchi 65 talabaga dars o‘tish bilan ish boshlagan. Yildan-yilga fakultetlar, mutaxassisliklar ko‘payib bordi. Xuddi shuningdek, ta’lim beruvchi professor-o‘qituvchilar, tahsil oluvchi talabalar soni ham ortib bordi. Bugungi kunga kelib Samarqand davlat universitetining to‘qqiz fakultetida mexanika- matematika, o‘zbek filologiyasi, tarix, iqtisodiyot, informatika, rus filologiyasi, geografiya, biologiya, musiqa, fizika, kimyo, ijtimoiy fanlar, huquqshunoslik, jismoniy madaniyat, tojik filologiyasi, boshlang‘ich ta’lim, psixologiya, defektologiya, kasbiy ta’lim kabi yo‘nalishlarda 35 mutaxassislik bo‘yicha ilmiy hamda pedagogik kadrlar tayyorlanmoqda. Mustaqillik davriga kelib “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” talablaridan kelib chiqib har tomonlama yetuk mutaxassislar tayyorlashga e’tibor kuchaytirilmoqda. Yangicha dastur asosida bakalavr va Samarqand shahridagi eng katta kutubxonalardan hisoblanadi. Hozir universitet kutubxonasida dunyoning ellikdan ortiq tillaridagi uch millionga yaqin qimmatbaho kitoblar, darslik va qo‘llanmalar jamlangan. Ayniqsa, kutubxonaning sharq qo‘lyozmalari bo‘limida dunyo ahamiyatiga molik asarlar saqlanadi. Talabalarga kutubxonaning ikkita filliali va yigirmaga yaqin qiroatxonalari beminnat xizmat qilmoqda.

Universitet talabalari uchun bir nechta yotoqxonalar qurildi. Fakultetlar va yotoqxonalar atrofida o‘ndan ortiq oshxona, tamaddixona, choyxonalar professor-o‘qituvchilar hamda talabalarga xizmat qiladi.

Samarqand davlat universitetini bitirganlar orasida o‘nlab akademiklar, fan arboblari, davlat arboblari yetishib chiqqan. Bu yerda Hamid Olimjon, Oydin, Mirtemir, Amir Umariy, Usmon Nosir, O‘tkir Rashidov, Sharof Rashidov, Adham Hamdam, Asqad Muxtor, Shukur Sa’dulla, Dushan Fayziy, Omon Matchon, Normurod Narzullayev, Barot Boyqobilov kabi mashhur shoir va yozuvchilar ta’lim olishgan.

Bugungi kunda turli yo‘nalishlar bo‘yicha ta’lim olayotgan talabalar mustaqil O‘zbekiston ilm-fani, madaniyati, shon-u shuhratini dunyoga tanitish maqsadida tinmay izlanmoqdalar, ijod qilmoqdalar, bobokalonlari ilmiy merosini chuqur o‘zlashtirmoqdalar.

TOPSHIRIQLAR:

1. Matn bo‘yicha lug‘at tuzing.
2. Matnni tarjima qiling va mazmunini o‘zbek tilida so‘zlab bering.
3. Matndagi unli tovushlar va ularning imlosini tahlil qiling.
4. Matndan ijodiy foydalangan holda o‘zingiz o‘qiyotgan fakultetingiz haqida gapirib bering.

Matnlar ustida ishlash bo‘yicha talabalarga tavsiya etiladigan referat mavzulari:

1. “O‘zbekiston Respublikasi davlat ramzlari”(madhiya,bayroq,gerb) matni tarjimasi va unda qo‘llangan so‘zlarning morfologik tahlili.
2. “Alp Er Tunga”matni tarjimasi va unda qo‘llangan soz`larning turkumlar bo‘yicha tahlili.
3. “To‘maris” matni tarjimasi va unda qo‘llangan soz`larning kelishiklar bo‘yicha tahlili.
4. “O‘zbekiston” matni tarjimasi va unda qo‘llangan ot turkumiga oid so‘zlar tahlili.
5. “Shiroq” matni tarjimasi va unda qo‘llangan fe’l turkumiga oid so‘zlar tahlili.
6. “Toshkent” matni tarjimasi va unda qo‘llangan sifat, olmosh turkumiga oid so‘zlar tahlili.
7. “Muso al-Xorazmiy” matni tarjimasi va unda qo‘llangan sifat, ravish turkumiga oid so‘zlar tahlili.
8. “Ahmad Farg‘oniy” matni tarjimasi va unda qo‘llangan olmosh, ravish turkumiga oid so‘zlar tahlili.
9. “Mahmud Koshg‘ariy” matni tarjimasi va unda qo‘llangan ot turkumiga oid so‘zlar tahlili.
10. “Ibn Sino” matni tarjimasi va unda qo‘llangan egalik hamda kelishik qo‘shimchalari tahlili.
11. “Beruniy” matni tarjimasi, unda qo‘llangan so‘z yasovchi va so‘z o‘zgartuvchi qo‘shimchalar tahlili.
12. “Forobiy” matni tarjimasi va unda qo‘llangan shakl yasovchi qo‘shimchalar tahlili.
13. “Hadisshunos vatandoshlarimiz” matni tarjimasi va unda qo‘llangan kelishiklar tahlili.
14. “Spitamen” matni tarjimasi, unda qo‘llangan ot va olmosh turkumiga oid so‘zlar tahlili.
15. “Samarqand” matni tarjimasi va unda qo‘llangan turdosh otlar tahlili.

16. “Kamoliddin Behzod” matni tarjimasi, unda qo‘llangan atoqli otlar va ravish turkumiga oid so‘zlar tahlili.
17. “O‘zbekistonning hayvonot olami” matni tarjimasi va unda qo‘llangan so‘zlarning morfologik tahlili.
18. “O‘zbekistonning o‘simliklar dunyosi” matni tarjimasi va unda qo‘llangan kelishiklar tahlili.
19. “Sharafli kasb” matni tarjimasi va unda qo‘llangan qo‘shimchalar tahlili.
20. “O‘zbekiston kinosi” matni tarjimasi va unda qo‘llangan ravish, olmosh turkumiga oid so‘zlar tahlili.
21. “Salomatlik – tuman boylik” matni tarjimasi va unda qo‘llangan sifat, ravish, olmosh turkumiga oid so‘zlar tahlili.
22. “Yil fasllari” matni tarjimasi, unda qo‘llangan sodda va qo‘shma so‘zlar tahlili.
23. “O‘zbek kurashi” matni tarjimasi va unda qo‘llangan turdosh otlar tahlili.
24. “O‘zbek tili – davlat tili” matni tarjimasi va unda qo‘llangan so‘zlarning morfologik tahlili.
25. “Samarqand davlat universiteti” matni tarjimasi va unda qo‘llangan ot, sifat turkumiga oid so‘zlar tahlili.
26. “Dam olish kuni” matni tarjimasi va unda qo‘llangan fe‘l turkumiga oid so‘zlar tahlili.
27. “Mening ish kunim” matni tarjimasi, unda qo‘llangan so‘z o‘zgartuvchi va shakl yasovchi qo‘shimchalar tahlili.
28. “Milliy va zamonaviy bayramlar” matni tarjimasi va unda qo‘llangan so‘zlarning tuzilishiga ko‘ra tahlili.
29. “XXI asr innovatsion texnologiyalar asri” matni tarjimasi va unda qo‘llangan so‘zlarning tarkibiga ko‘ra tahlili.

O‘ZBEKCHA-RUSCHA LINGVISTIK ATAMALAR LUG‘ATI

adabiy talaffuz me’yorlari – нормы литературного произношения
adabiy til me’yorlari - нормы литературного языка
adabiy til - литературный язык
ayirish belgisi – твердый знак
ayiruv bog‘lovchilari – разделительные союзы
alifbo - алфавит
aniqlanmish - определяемый
aniq nisbat – действительный залог
aniqlik mayli – изъявительное наклонение
aniqlovchi - определение
aniq otlar – конкретные существительны
aniq o‘tgan zamon shakli – очевидное прош. времени
arab yozuvi – арабская графика
atama – термин
atoqli ot – имя собственное
badiiy uslub - литературный стиль
baynalmilal so‘z – интернациональное слово
belgi - знак
belgilash olmoshlari – определительные местоимения
belgili qo‘llanish - маркированное употребление
belgisiz qo‘llanish - немаркированное употребление
betaraf ma’noli so‘z – нейтральное слово
birgalik nisbat – взаимно-совместный залог
birikma - сочетание
birikuv - сочетаемость
biriktiruv bog‘lovchilari – соединительные союзы
birlik son – единственное число
birinchi shaxs – первое лицо
bir ma’noli so‘z – однозначное слово
bitishuv - примыкание
bosma shakl – печатная форма
bosh bo‘laklar – главные члены предложения
bosh kelishik – именительный падеж
boshlang‘ich shakl – исходная форма
boshqaruv - управление
bog‘lovchi - союз
buyruq gap – повелительное предложение
buyruq-istak mayli – повелительно-желательное наклонение
buyruq shakli – повелительная форма
burun undoshi – носовой согласный
bo‘laklar tartibi – порядок членов предложения
bo‘lishli fe’l – утвердительный глагол

bo‘lishsiz fe’l – отрицательный глагол
 bo‘lishsizlik olmoshlari - отрицательные местоимения
 bo‘g‘iz undoshi – гортанный согласный звук
 bo‘g‘in - слог
 vergul - запятая
 vositali to‘ldiruvchi – прямое дополнение
 vositasiz to‘ldiruvchi – косвенное дополнение
 gap - предложение
 gap bo‘lagi – член предложения
 gap boshida – в начале предложения
 gap oxirida – в конце предложения
 gap tarkibi – состав предложения
 grammatik vosita – грамматическое средство
 grammatik ma’no – грамматическое значение
 grammatik xususiyat – грамматическая особенность
 gumon olmoshlari – неопределенные местоимения
 davlat tili – государственный язык
 daraja-miqdor ravishlari – наречия меры и степени
 daraja-miqdor holi – обстоятельство меры и степени
 darak gap – повествовательное предложение
 dialogik nutq – диалогическая речь
 dona son – штучные числительные
 yetakchi fe’l – ведущий глагол
 yozma nutq – письменная речь
 yozma shakl – письменная форма
 yozuv - письмо
 yopiq bo‘g‘in – закрытый слог
 yordamchi so‘zlar – вспомогательные слова
 jamlovchi - собирательный, -ая, -ое
 jarangli undosh – звонкий согласный
 jarangsizlanish - оглушение
 jarangsiz undosh – глухой согласный
 jins kategoriyasi – категория рода
 jo‘nalish kelishigi – дательный падеж
 juft so‘zlar – парные слова
 zamon - здесь: временная форма глагола
 zamon qo‘shimchalari – окончания временной формы
 zid ma’noli so‘z - антоним
 zidlov bog‘lovchilari – противительные союзы
 «y»lashgan tovushlar – ётированные звуки
 ibora - выражение, фразеологизм
 ijobiy ma’no – положительное значение
 izohlovchi – приложение
 izohli lugat – толковый словарь

ikkinchi darajali boʻlaklar – второстепенные члены предложения
 ikkinchi shaxs – второе лицо
 ilmiy atama – научный термин
 ilmiy uslub – научный стиль
 imlo - орфография
 imlo lugʻati – орфографический словарь
 imlo qoidalari – орфографические правила
 inkor shakl – отрицательная форма
 ish-harakat bajariluvchisi – объект
 ish-harakat bajaruvchisi – субъект
 kasb-hunar atamaları – профессиональные термины
 kasr sonlar – дробные числительные
 kelasi zamon gumon shakli – неопредел. формы будущ. времени
 kelasi zamon maqsad shakli – форма намерения будущ. времени
 kelasi zamon – будущее время
 kelishik kategoriyasi – категория падежа
 keng unli – широкий гласны
 kesim - сказуемое
 kirill yozuvi - кириллица
 kirish boʻlak – вводный член предложения
 kishilik olmoshlari – личные местоимения
 kuchaytirma sifatlar – усилительные прилагательные
 kuchaytiruv yuklamasi – усилительная частица
 koʻmakchi - послелог
 koʻmakchi feʼl – вспомогательный глагол
 koʻp boʻgʻinli soʻz – многосложное слово
 koʻp maʼnoli soʻz – многозначное слово
 koʻplik kategoriyasi – категория множественности
 koʻplik son – множественное число
 koʻplik shakli – форма множественного числа
 koʻplik qoʻshimchasi – окончание множественного числа
 koʻrsatish olmoshlari – указательные местоимение
 koʻchma maʼno – переносное значение
 lab-lab undoshlari – губно-губные согласные
 lablashmagan – нелабиализованный
 lab-tish – губно-зубной, -ая, -ое
 lotin yozuvi – латинская графика
 leksik birlik – лексическая единица
 leksik qatlam – лексический слой
 lugʻaviy maʼno – лексическое значение
 lugʻat - словарь
 lugʻat boyligi – лексическое богатство
 lugʻat tarkibi – словарный состав
 lugʻatshunoslik - лексикография

mavhum ot – абстрактное существительное
 majhul nisbat – страдательный залог
 mayl – наклонение
 mantiqiy butunlik – логическая целостность
 mantiq urg‘usi – логическое ударение
 matn - текст
 ma’no - значение
 ma’nodosh so‘z - синоним
 ma’no qirralari – оттенки значения
 maqsad ravishlari – наречия цели
 maqsad holi – обстоятельство цели
 me’yor – норма
 milliy til – национальный язык
 miqdor sonlar – количественные числительные
 modal so‘z – модальное слово
 morfologik usul – морфологический способ
 morfologik ko‘rsatgich – морфологический показатель
 moslashuv - согласование
 murakkab olmoshlar – сложные местоимения
 murakkab sonlar – сложные числительные
 mustaqil so‘zlar – знаменательные части речи
 muqobil so‘zlar – эквивалентное слово
 negiz - основа
 nisbat – залог
 nutq a’zolari – органы речи
 nutq birligi – единица речи
 nutq tovushlari – звуки речи
 nuqta - точка
 oddiy daraja – положительная стипень
 ozaytirma sifatlar – уменьшительные прилагательные
 old qo‘shimcha - префикс
 olmosh - местоимение
 ona tili – родной язык
 orttirma daraja – превосходная степень
 orttirma nisbat – понудительный залог
 ot - здесь: имя существительное
 otlashish – субстантивация
 ochiq bo‘g‘in – открытый слог
 og‘zaki nutq – устная речь
 ohang - интонация
 payt ravishlari – наречия времени
 payt holi – обстоятельство времени
 portlovchi undosh – взрывной согласный
 ravish - наречие

ravishdosh - деепричастие
 ravish holi – обстоятельство образа действия
 rasmiy uslub – официально-деловой стиль
 sabab ravishlari – наречия причины
 sabab holi – обстоятельство причины
 salbiy ma'no – отрицательное значение
 sanoq sonlar – количественные числительные
 satr - строка
 sinonim qator – синонимический ряд
 sintaktik aloqa – синтаксическая связь
 sintaktik birlik – синтаксическая единица
 sintaktik vazifa – синтаксическая функция
 sintaktik usul – синтаксический способ
 sirg'aluvchi undosh – щипящий согласный
 sifat – имя прилагательное
 sifatdosh - причастие
 sodda - простой, -ая, -ое
 son – имя числительное
 suhbat - диалог
 so'z - слово
 so'z birikmasi - словосочетание
 so'z tartibi – порядок слов
 so'z turkumlari – части речи
 so'z urg'usi – словесное ударение
 so'z yasalishi - словообразование
 so'z-yuklama – слово-частица
 so'zlashuv - разговор
 so'zlashuv uslubi – разговорный стиль
 so'zning morfologik tuzilishi – морфологическое строение слова
 so'zning fonetik tuzilishi – фонетическое строение слова
 so'roq - вопросительный, -ая, -ое
 so'roq gaplar – вопросительные предложения
 so'roq yuklamalari – вопросительные частицы
 so'roq olmoshlari – вопросительные местоимения
 talaffuz - произношение
 talaffuz me'yorlari – нормы произношения
 tarjima - перевод
 tarz holi – обстоятельство образа действия
 tartib sonlar – порядковые числительные
 tasdiq shakli – утвердительная форма
 taqlid so'zlar – подражательное слово
 taqsim sonlar – разделительные числительные
 tahlil – разбор, анализ
 teng aloqa – сочинительная связь

teng bog'lovchilar – сочинительные союзы
 tizim - система
 til – язык
 til birliklari – языковые единицы
 til oldi undoshi – переднеязычный согласный
 til oldi unlisi – переднеязычный гласный
 til orqa undoshi – заднеязычный согласный
 til orqa unlisi – заднеязычный гласный
 til o'rta undoshi - среднеязычный согласный
 tilshunoslik – языкознание, лингвистика
 til belgilari – знаки языка
 titroq undosh – дрожащий согласный
 tinish belgilari – знаки препинания
 tobe so'z – подчиненное слово
 tovush - звук
 tovush birikma – звуковое сочетание
 tovush tushishi – опущение звука
 tovush o'zgarishi – изменение звука
 tovushga taqlid so'zlar – звукоподражательные слова
 tor unli tovush – узкий согласный
 tub - составной, -ая, -ое
 tub so'z – непроизводное слово
 turdosh ot – имя нарицательное
 turk-run yozuvi – тюркско-руническая графика
 turlanish – склонение
 tuslanish – спряжение
 tuslovchi qo'shimchalar – окончания спряжения
 tutuq belgisi – опостроф
 tushum kelishigi – винительный падеж
 tushuncha – понятие
 to'ldiruvchi – дополнение
 to'liqsiz fe'l – недостаточный глагол
 uzoq o'tgan zamon – давнопрошедшее время
 uyg'ur yozuvi – уйгурская графика
 umumturkiy so'zlar – общетюркские слова
 undalma – обращение
 undov belgisi – восклицательный знак
 undov gap – восклицательное предложение
 undosh tovush – согласный звук
 unli tovush – гласный звук
 unli harf – гласная буква
 undosh harf – согласная буква
 urg'u – ударение
 urg'uli bo'lak – ударный член предложения

usul – способ
 uchinchi shaxs – третье лицо
 uyushiq bo‘laklar – обособленные члены предложения
 fe‘l – глагол
 fe‘l ko‘makchilar – отглагольные послелог
 fe‘l yasalishi – образования глагола
 fonetik o‘zgarish – фонетическое изменение
 chama sonlar – приблизительные числительное
 chegaralov yuklamasi – ограничительная частица
 chet – иностранный, -ая, -ое
 chiqish kelishigi – исходный падеж
 cho‘ziq – длинный, -ая, -ое
 shakldosh so‘z – омоним
 shart mayli – условное наклонение
 shaxs – лицо
 shovqinli undoshlar – шумные согласные
 ega – подлежащее
 egalik kategoriyasi – категория принадлежности
 egalik olmoshi – притяжательное местоимение
 egalik qo‘shimchalari – окончания принадлежности
 ergash bog‘lanish – подчинительная связь
 ergashtiruvchi bog‘lovchi – подчинительный союз
 yuklama – частица
 yumshatish belgisi – мягкий знак
 yuqori ton – сильный тон
 yasama – производный, -ая, -ое
 yasovchi qo‘shimcha – словообразовательное окончание
 o‘zak – корень
 o‘zakdosh so‘zlar – однокоренные слова
 o‘zlashgan – заимствованный, -ая, -ое
 o‘zlik nisbat – возвратный залог
 o‘zlik olmoshi – возвратное местоимение
 o‘rin-payt kelishigi – местный падеж
 o‘rin ravishlari – наречия места
 o‘rin holi – обстоятельство места
 o‘tgan zamon davom shakli – многократно-длит.форма прощ.времени o‘tgan
 zamon maqsad shakli – форма намерения прощ.времени
 o‘tgan zamon – прошедшее время
 o‘timli fe‘l – переходный глагол
 o‘timsiz fe‘l – непереходный глагол
 qavs – скобки
 qaratqich kelishigi – родительный падеж
 qaratqichli aniqllovchi – притяжательное определение
 qatlam – слой

qoida – правила
qomusiy lug‘at – энциклопедический словарь
qonuniyat – закономерность
qiyosiy daraja – сравнительная степень
qisqa – короткий, -ая, -ое
qo‘shimcha – окончание, суффикс
qo‘shma gap – сложное предложение
qo‘shma so‘zlar – сложные слова
qo‘shma – сложный, -ая, -ое
qo‘shimcha ma’no – дополнительное значение
qo‘shirnoq – кавычки
harakat nomi – имя действия
harf – буква
hisob so‘zlar – нумеративы
his-hayajon gap – восклицательное предложение
hozirgi adabiy til – современный литературный язык
hozirgi zamon davom shakli – настоящее вр.данного момента
hozirgi zamon – настоящее время
hozirgi-kelasi zamon – настоящее-будущее время
hokim so‘z – главное слово
hol – обстоятельство
holat ravishlari – наречия образа действия